RESPUBLIKADA YETISHTIRILGAN KARTOSHKKA



Kartoshka yetishtirishning eng katta hajmi 2 104,1 ming t. yoki umumiy yetishtirish hajmidan 79,4 % i dehqon (shaxsiy yordamchi) xo'jaliklarida qayd etildi.

2021- yilning mos davriga nisbatan, fermer xo'jaliklarida 31,4 %, dehqon (shaxsiy yordamchi) xo'jaliklarida 0,6 % va qishloq xo'jaligi faoliyatini amalga oshiruvchi tashkilotlarda 202,6 % o'sish kuzatildi.

HUDUDLAR BO'YICHA KARTOSHKKA YETISHTIRISH



Kartoshka yetishtirish umumiy hajmining eng yuqori ulushi Samarqand viloyati (20,6 %) hissasiga to'g'ri keldi, Bundan tashqari, Toshkent (11,4 %), Surxondaryo (11,3 %), Namangan (9,7 %) va Farg'ona (9,6 %) viloyatlarida ham kartoshka yetishtirishning yuqori ko'rsatkichlari qayd etildi.

Kartoshka yetishtirishning umumiy hajmidagi ulushining eng past ko'rsatkichlari Sirdaryo (2,0 %) Jizzax (2,1 %) viloyatlari va Qoraqalpog'iston Respublikasi (2,1 %)ga to'g'ri keldi.

Joriy davrda yuqori o'sish sur'atlari Jizzax (121,6 %), Xorazm (120,2 %), Buxoro (110,1 %), Toshkent (108,5 %) va Navoiy (107,5 %) viloyatlarida qayd etildi.


RESPUBLIKADA YETISHTIRILGAN POLIZ EKINLARI



Poliz mahsulotlari yetishtirishning eng katta hajmi 885,4 ming t. yoki umumiy yetishtirish hajmidan 57,0 % i dehqon (shaxsiy yordamchi) xo'jaliklarida qayd etildi.

2021- yilning mos davriga nisbatan fermer xo'jaliklarida 10,7 %, dehqon (shaxsiy yordamchi) xo'jaliklarida 1,5 % va qishloq xo'jaligi faoliyatini amalga oshiruvchi tashkilotlarda 250,8 % o'sish kuzatildi.

HUDUDLAR BO'YICHA POLIZ MAHSULOTLARI YETISHTIRISH



Poliz mahsulotlari yetishtirish umumiy hajmining eng katta ulushi Surxondaryo viloyati (13,9 %) hissasiga to'g'ri keldi, Shu bilan bir qatorda, Jizzax (12,6 %), Sirdaryo (12,3 %), Qashqadaryo (10,2 %) viloyatlari va Qoraqalpog'iston Respublikasida (8,1 %) yuqori ko'rsatkichlar qayd etildi.

Shuningdek, poliz mahsulotlari umumiy hajmida eng kam ulush, Toshkent (2,9 %), Navoiy (3,9 %) va Farg'ona (3,9 %) viloyatlari hissasiga to'g'ri keldi.

Joriy davrda yuqori o'sish sur'atlari Toshkent (141,0 %), Andijon (129,1 %), Farg'ona (116,7 %), Namangan (114,1 %), Jizzax (114,0 %) va Surxondaryo (109,4 %) viloyatlarida qayd etildi.

RESPUBLIKADA YETISHTIRILGAN MEVA VA REZAVORLAR



Xo'jalik toifalari orasida meva va rezavorlar yetishtirishning eng katta hajmi 1 288,6 ming t. yoki umumiy yetishtirish hajmidan 58,3 % i dehqon (shaxsiy yordamchi) xo'jaliklarida qayd etildi.

2021- yilning mos davriga nisbatan fermer xo'jaliklarida 15,8 %, dehqon (shaxsiy yordamchi) xo'jaliklarida 0,9 % va qishloq xo'jaligi faoliyatini amalga oshiruvchi tashkilotlarda 25,2 % o'sish kuzatildi.

HUDUDLAR BO'YICHA MEVA VA REZAVORLAR YETISHTIRISH



Yetishtirilgan meva va rezavorlar umumiy hajmida hududlar bo'yicha eng katta ulush Andijon (20,2 %), Farg'ona (13,9 %), Samarqand (13,1 %), Buxoro (10,2 %) va Namangan (9,9 %) viloyatlari hissasiga to'g'ri keldi.

Shu bilan birga, meva va rezavorlar umumiy hajmida eng kam ulush, Sirdaryo viloyati (1,5 %) va Qoraqalpog'iston Respublikasida (1,7 %) kuzatildi.

Ko'rsatib o'tilgan davrlarda yuqori o'sish sur'atlari Sirdaryo (122,0 %), Buxoro (118,5 %), Surxondaryo (114,9 %), Namangan (111,5 %), Toshkent (108,0 %) va Jizzax (107,6 %) viloyatlarida qayd etildi.


RESPUBLIKADA YETISHTIRILGAN UZUM



Uzum yetishtirishning eng katta hajmi 739,1 ming t. yoki umumiy yetishtirish hajmidan 54,2 % i dehqon (shaxsiy yordamchi) xo'jaliklarida qayd etildi.

2021- yilning mos davriga nisbatan fermer xo'jaliklarida 4,5 %, dehqon (shaxsiy yordamchi) xo'jaliklarida 2,7 % va qishloq xo'jaligi faoliyatini amalga oshiruvchi tashkilotlarda 18,8 % o'sish kuzatildi.

HUDUDLAR BO'YICHA UZUM YETISHTIRISH




Yetishtirilgan uzum umumiy hajmining qariyb uchdan bir qismi Samarqand viloyati (37,2 %) hissasiga to'g'ri keldi, Shuningdek, yuqori ulush Buxoro (13,7 %), Farg'ona (9,0 %), Namangan (7,0 %) va Surxandaryo (6,5 %) viloyatlarida qayd etildi.

Shu bilan birga, uzum yetishtirish umumiy hajmidagi eng kam ulush Qoraqalpog'iston Respublikasida (0,4 %), Sirdaryo viloyatida (0,9 %) kuzatildi.

2021- yilga nisbatan yuqori o'sish sur'atlari Navoiy (112,7 %), Namangan (109,5 %), Sirdaryo (107,9 %) viloyatlari Qoraqalpog'iston Respublikasi (107,6 %), Farg'ona (106,0 %) va Jizzax (104,7 %) viloyatlarida qayd etildi.

3- BO'LIM. CHORVACHILIK MAHSULOTLARI

Hududlar kesimida chorvachilik mahsulotlarining eng yuqori hajmi Samarqand (13 711,0 mlrd. so'm), Qashqadaryo (13 347,9 mlrd. so'm) va Toshkent (12 535,8 mlrd. so'm) viloyatlarida qayd etildi. Aksincha kam hajmga ega hududlarga Sirdaryo viloyati (3 370,2 mlrd.so'm), Qoraqalpog'iston Respublikasi (4 199,4 mlrd. so'm) va Navoiy viloyatini (7 129,6 mlrd.so'm) keltirib o'tish mumkin. Yuqori o'sish sur'atlari Toshkent (106,5 %), Surxondaryo (105,3 %), Jizzax (104,7 %) va Samarqand (104,4 %) viloyatlarida qayd etildi.



Qishloq xo'jaligi mahsulotlarining umumiy hajmdagi ulushi, % da

2022- yil yanvar-sentabr



49,3

Yetishtirilgan qishloq xo'jaligi mahsulotlarining umumiy hajmida chorvachilik mahsulotlarining ulushi 49,3 % ni tashkil etdi.

Respublika chorvachilik mahsulotlari tarkibida hududlarning eng katta ulushi Samarqand (11,6 %), Qashqadaryo (11,3 %), Toshkent (10,6 %) va Buxoro (9,3 %) viloyatlariga to'g'ri keldi.



CHORVACHILIK MAHSULOTLARI YETISHTIRISH

2022- yil yanvar-sentabr oylarida yetishtirilgan asosiy
turdagi chorvachilik mahsulotlari


	Barcha toifadagi xo'jaliklar		shu jumladan:					
			fermer xo'jaliklari		dehqon (shaxsiy yordamchi) xo'jaliklari		qishloq xo'jaligi faoliyatini amalga oshiruvchi tashkilotlar	
	ming tonna	o'sish sur'ati % da	ming tonna	o'sish sur'ati % da	ming tonna	o'sish sur'ati % da	ming tonna	o'sish sur'ati % da
Go'sht (tirik vaznda)	1 974,8	104,6	112,8	139,8	1 758,6	100,9	103,4	157,9
Sut	8 293,1	102,0	466,7	115,7	7 736,7	100,8	89,7	180,8
Tuxum, mln. dona	5 937,6	107,8	914,4	113,3	3 524,2	101,6	1 499,0	121,8
Baliq	83,3	119,3	37,4	137,0	5,0	104,0	40,9	108,4

2022- yil yanvar-sentabr oylarida yetishtirilgan go'sht to'g'risidagi ma'lumotlarni xo'jalik toifalari bo'yicha tahlil qilar ekanmiz, go'sht yetishtirishning 5,7 % i fermer xo'jaliklari hissasiga, 89,1 % i dehqon (shaxsiy yordamchi) xo'jaliklariga, 5,2 % i qishloq xo'jaligi faoliyatini amalga oshiruvchi tashkilotlarga to'g'ri kelishini qayd etib o'tish lozim, shunga mos ravishda sut yetishtirishning 5,6 % i fermer xo'jaliklariga, 93,3 % i dehqon (shaxsiy yordamchi) xo'jaliklariga, 1,1 % i qishloq xo'jaligi faoliyatini amalga oshiruvchi tashkilotlarga to'g'ri keladi, shuningdek, olingan tuxumning 15,4 % i fermer xo'jaliklariga, 59,4 % i dehqon (shaxsiy yordamchi) xo'jaliklariga, 25,2 % i qishloq xo'jaligi faoliyatini amalga oshiruvchi tashkilotlarga to'g'ri keldi, ovlangan baliqlarning 44,8 % i fermer xo'jaliklariga, 6,1 % i dehqon (shaxsiy yordamchi) xo'jaliklariga, 49,1 % i qishloq xo'jaligi faoliyatini amalga oshiruvchi tashkilotlarga to'g'ri keldi.

RESPUBLIKADA YETISHTIRILGAN GO‘SHT (TIRIK VAZND)

2022- yilning yanvar-sentabr oylarida Respublikada 1 974,8 ming tonna go‘sh t yetishtirilgan bo‘lib, ushbu ko‘rsatkich 2021- yilning mos davriga nisbatan 104,6 % ni tashkil qildi.

Xo‘jalik toifalari bo‘yicha tahlil qilar ekanmiz go‘sh t yetishtirish umumiy hajmining 5,7 % i – fermer xo‘jaliklariga, 89,1 % i – dehqon (shaxsiy yordamchi) xo‘jaliklariga, 5,2 % i – qishloq xo‘jaligi faoliyatini amalga oshiruvchi tashkilotlarga to‘g‘ri kelganligini ko‘rsatmoqda.




HUDUDLAR BO‘YICHA GO‘SHT (TIRIK VAZND) YETISHTIRISH

	Hajmi, ming t.	O‘shish sur‘ati, % da	Hududlarning ulushi, % da
O‘zbekiston Respublikasi	1 974,8	104,6	100,0
Qoraqalpog‘iston Respublikasi	80,0	102,7	4,1
Andijon viloyati	126,2	102,4	6,4
Buxoro viloyati	200,0	103,8	10,1
Jizzax viloyati	160,3	102,8	8,1
Qashqadaryo viloyati	228,9	102,4	11,6
Navoiy viloyati	134,7	103,6	6,8
Namangan viloyati	132,2	107,2	6,7
Samarqand viloyati	228,8	109,4	11,6
Surxondaryo viloyati	146,3	104,5	7,4
Sirdaryo viloyati	54,2	103,9	2,7
Toshkent viloyati	219,4	107,6	11,1
Farg‘ona viloyati	130,6	101,7	6,6
Xorazm viloyati	133,2	104,1	6,8

RESPUBLIKADA YETISHTIRILGAN SUT

2022- yilning yanvar-sentabr oylarida Respublikada 8 293,1 ming tonna sut yetishtirilgan bo'lib, ushbu ko'rsatkich 2021- yilning mos davriga nisbatan 102,0 % ni tashkil qildi.

Xo'jalik toifalari bo'yicha tahlil qilar ekanmiz sut yetishtirish umumiy hajmining 5,6 % i – fermer xo'jaliklariga, 93,3 % i – dehqon (shaxsiy yordamchi) xo'jaliklariga, 1,1 % i – qishloq xo'jaligi faoliyatini amalga oshiruvchi tashkilotlarga to'g'ri kelganligini ko'rsatmoqda.



HUDUDLAR BO'YICHA SUT YETISHTIRISH

	Hajmi, ming t.	O'sish sur'ati, % da	Hududlarning ulushi, % da
O'zbekiston Respublikasi	8 293,1	102,0	100,0
Qoraqalpog'iston Respublikasi	246,3	102,1	3,0
Andijon viloyati	663,8	103,3	8,0
Buxoro viloyati	742,1	103,6	8,9
Jizzax viloyati	468,6	101,2	5,7
Qashqadaryo viloyati	897,5	101,6	10,8
Navoiy viloyati	368,7	102,1	4,4
Namangan viloyati	577,9	101,7	7,0
Samarqand viloyati	1 013,2	100,4	12,2
Surxondaryo viloyati	598,6	102,7	7,2
Sirdaryo viloyati	273,3	105,0	3,3
Toshkent viloyati	768,7	101,9	9,3
Farg'ona viloyati	774,6	102,4	9,3
Xorazm viloyati	899,8	101,0	10,9

RESPUBLIKADA YETISHTIRILGAN TUXUM

2022- yilning yanvar-sentabr oylarida Respublikada 5 937,6 mln. dona tuxum yetishtirilgan bo‘lib, ushbu ko‘rsatkich 2021- yilning mos davriga nisbatan 107,8 % ni tashkil qildi.

Xo‘jalik toifalari bo‘yicha tahlil qilar ekanmiz tuxum yetishtirish umumiy hajmining 15,4 % i – fermer xo‘jaliklariga, 59,4 % i – dehqon (shaxsiy yordamchi) xo‘jaliklariga, 25,2 % i – qishloq xo‘jaligi faoliyatini amalga oshiruvchi tashkilotlarga to‘g‘ri kelganligini ko‘rsatmoqda.




HUDUDLAR BO‘YICHA TUXUM YETISHTIRISH

	<i>Hajmi, mln. dona</i>	<i>O‘shish sur‘ati, % da</i>	<i>Hududlarning ulushi, % da</i>
O‘zbekiston Respublikasi	5 937,6	107,8	100,0
Qoraqalpog‘iston Respublikasi	254,3	102,4	4,3
Andijon viloyati	436,7	100,7	7,4
Buxoro viloyati	391,8	119,6	6,6
Jizzax viloyati	278,5	116,8	4,7
Qashqadaryo viloyati	405,8	116,8	6,8
Navoiy viloyati	309,1	108,4	5,2
Namangan viloyati	489,3	102,5	8,2
Samarqand viloyati	1 062,2	109,5	17,9
Surxondaryo viloyati	391,1	121,5	6,6
Sirdaryo viloyati	135,5	110,5	2,3
Toshkent viloyati	927,8	102,4	15,6
Farg‘ona viloyati	457,6	105,4	7,7
Xorazm viloyati	397,9	101,3	6,7

RESPUBLIKADA OVLANGAN BALIQLAR

2022- yilning yanvar-sentabr oylarida Respublikada 83 292 tonna baliq ovlangan bo'lib, ushbu ko'rsatkich 2021- yilning mos davriga nisbatan 119,3 % ni tashkil qildi.

Xo'jalik toifalari bo'yicha tahlil qilar ekanmiz ovlangan baliqlar umumiy hajmining 44,8 % i – fermer xo'jaliklariga, 6,1 % i – dehqon (shaxsiy yordamchi) xo'jaliklariga, 49,1 % i – qishloq xo'jaligi faoliyatini amalga oshiruvchi tashkilotlarga to'g'ri kelganligini ko'rsatmoqda.



HUDUDLAR BO'YICHA OVLANGAN BALIQLAR

	Hajmi, t.	O'sish sur'ati, % da	Hududlarning ulushi, % da
O'zbekiston Respublikasi	83 292	119,3	100,0
Qoraqalpog'iston Respublikasi	5 705	78,2	6,9
Andijon viloyati	7 813	112,6	9,4
Buxoro viloyati	5 593	91,4	6,7
Jizzax viloyati	7 708	151,1	9,3
Qashqadaryo viloyati	4 526	103,6	5,4
Navoiy viloyati	8 335	112,3	10,0
Namangan viloyati	3 356	157,9	4,0
Samarqand viloyati	5 565	92,4	6,7
Surxondaryo viloyati	2 950	117,7	3,5
Sirdaryo viloyati	4 025	138,2	4,8
Toshkent viloyati	7 735	143,1	9,3
Farg'ona viloyati	6 074	116,8	7,3
Xorazm viloyati	13 907	165,6	16,7

4- BO'LIM. CHORVA MOLLARI VA PARRANDALAR BOSH SONI

2022- yilning 1- oktabr holatiga xo'jaliklar toifalari bo'yicha
chorva mollari va parrandalar bosh soni

	Barcha toifadagi xo'jaliklar		shu jumladan:					
			fermer xo'jaliklari		dehqon (shaxsiy yordamchi) xo'jaliklari		qishloq xo'jaligi faoliyatini amalga oshiruvchi tashkilotlar	
	ming bosh	o'sish sur'ati % da	ming bosh	o'sish sur'ati % da	ming bosh	o'sish sur'ati % da	ming bosh	o'sish sur'ati % da
Yirik shoxli qoramollar	13 582,5	102,5	868,9	115,0	12 497,8	101,5	215,8	119,9
shundan, sigirlar	4 862,8	102,4	322,0	121,4	4 470,5	100,9	70,3	134,9
Qo'y va echkilar	23 308,8	102,9	3 288,0	112,4	18 591,8	100,4	1 429,0	119,0
Otlar	264,0	103,6	56,2	116,3	193,9	99,6	13,9	116,7
Parrandalar	91 209,9	105,8	13 539,0	122,3	50 439,2	99,8	27 231,7	110,7


2022- yilning 1- oktabr holatiga ko'ra, yirik shoxli qoramollar bosh soni to'g'risidagi ma'lumotlarni xo'jalik toifalari bo'yicha tahlil qilar ekanmiz, yirik shoxli qoramollarning 6,4 % i fermer xo'jaliklari hissasiga, 92,0 % i dehqon (shaxsiy yordamchi) xo'jaliklariga, 1,6 % i qishloq xo'jaligi faoliyatini amalga oshiruvchi tashkilotlarga to'g'ri kelishini qayd etib o'tish lozim, shunga mos ravishda qo'y va echkilarning umumiy sonidan 14,1 % i fermer xo'jaliklariga, 79,8 % i dehqon (shaxsiy yordamchi) xo'jaliklariga, 6,1 % i qishloq xo'jaligi faoliyatini amalga oshiruvchi tashkilotlarga to'g'ri keldi, shuningdek, otlarning umumiy sonidan 21,3 % i fermer xo'jaliklariga, 73,4 % i dehqon (shaxsiy yordamchi) xo'jaliklariga, 5,3 % i qishloq xo'jaligi faoliyatini amalga oshiruvchi tashkilotlarga to'g'ri keldi, parrandalar umumiy sonidan 14,8 % i fermer xo'jaliklariga, 55,3 % i dehqon (shaxsiy yordamchi) xo'jaliklariga, 29,9 % i qishloq xo'jaligi faoliyatini amalga oshiruvchi tashkilotlarga to'g'ri keldi.

RESPUBLIKADA MAVJUD YIRIK SHOXLI QORAMOLLAR BOSH SONI

2022- yilning 1- oktabr holatiga ko'ra, Respublikada yirik shoxli qoramollarning umumiy bosh soni 13 582,5 ming boshga yetdi.

2021- yilning mos davri bilan solishtirilganda barcha toifadagi xo'jaliklarda yirik shoxli qoramollar umumiy bosh soni – 328,1 ming boshga (2,5 %) ko'paydi.

Xo'jalik toifalari bo'yicha tahlil qilar ekanmiz yirik shoxli qoramollar umumiy bosh sonining 6,4 % i – fermer xo'jaliklariga, 92,0 % i – dehqon (shaxsiy yordamchi) xo'jaliklariga, 1,6 % i – qishloq xo'jaligi faoliyatini amalga oshiruvchi tashkilotlarga to'g'ri kelganligini ko'rsatmoqda.



HUDUDLAR BO'YICHA YIRIK SHOXLI QORAMOLLAR BOSH SONI


	Soni, ming bosh	O'sish sur'ati, % da	Hududlarning ulushi, % da
O'zbekiston Respublikasi	13 582,5	102,5	100,0
Qoraqalpog'iston Respublikasi	1 198,5	103,0	8,8
Andijon viloyati	1 119,7	102,9	8,2
Buxoro viloyati	1 303,4	102,8	9,6
Jizzax viloyati	943,5	102,5	7,0
Qashqadaryo viloyati	1 687,7	102,8	12,4
Navoiy viloyati	508,3	102,4	3,7
Namangan viloyati	756,8	102,6	5,6
Samarqand viloyati	1 687,2	102,1	12,4
Surxondaryo viloyati	973,4	102,0	7,2
Sirdaryo viloyati	471,4	103,4	3,5
Toshkent viloyati	925,6	102,4	6,8
Farg'ona viloyati	1 061,8	101,8	7,8
Xorazm viloyati	945,2	101,7	7,0

RESPUBLIKADA MAVJUD SIGIRLAR BOSH SONI

2022-yilning 1- oktabr holatiga ko‘ra, Respublikada sigirlarning umumiy bosh soni 4 862,8 ming boshga yetdi.

2021- yilning mos davri bilan solishtirilganda barcha toifadagi xo‘jaliklarda sigirlar umumiy bosh soni – 114,1 ming boshga (2,4 %) ko‘paydi.

Xo‘jalik toifalari bo‘yicha tahlil qilar ekanmiz sigirlar umumiy bosh sonining 6,6 % i – fermer xo‘jaliklariga, 91,9 % i – dehqon (shaxsiy yordamchi) xo‘jaliklariga, 1,5 % i – qishloq xo‘jaligi faoliyatini amalga oshiruvchi tashkilotlarga to‘g‘ri kelganligini ko‘rsatmoqda.



HUDUDLAR BO‘YICHA SIGIRLAR BOSH SONI

	Soni, ming bosh	O‘shish sur‘ati, % da	Hududlarning ulushi, % da
O‘zbekiston Respublikasi	4 862,8	102,4	100,0
Qoraqalpog‘iston Respublikasi	350,7	103,0	7,2
Andijon viloyati	386,0	103,4	7,9
Buxoro viloyati	429,4	102,8	8,8
Jizzax viloyati	273,1	102,6	5,6
Qashqadaryo viloyati	554,5	102,8	11,4
Navoiy viloyati	207,0	98,7	4,3
Namangan viloyati	245,7	102,9	5,1
Samarqand viloyati	722,8	102,0	14,9
Surxondaryo viloyati	356,1	102,2	7,3
Sirdaryo viloyati	168,9	103,7	3,5
Toshkent viloyati	420,1	102,1	8,6
Farg‘ona viloyati	387,8	102,5	8,0
Xorazm viloyati	360,7	102,1	7,4

RESPUBLIKADA MAVJUD QO'Y VA ECHKILAR BOSH SONI

2022- yilning 1- oktabr holatiga ko'ra, Respublikada qo'y va echkilarning umumiy bosh soni 23 308,8 ming boshga yetdi.

2021- yilning mos davri bilan solishtirilganda barcha toifadagi xo'jaliklarda qo'y va echkilar umumiy bosh soni – 666,4 ming boshga (2,9 %) ko'paydi.

Xo'jalik toifalari bo'yicha tahlil qilar ekanmiz qo'y va echkilar umumiy bosh sonining 14,1 % i – fermer xo'jaliklariga, 79,8 % i – dehqon (shaxsiy yordamchi) xo'jaliklariga, 6,1 % i – qishloq xo'jaligi faoliyatini amalga oshiruvchi tashkilotlarga to'g'ri kelganligini ko'rsatmoqda.



HUDUDLAR BO'YICHA QO'Y VA ECHKILAR BOSH SONI


	Soni, ming bosh	O'sish sur'ati, % da	Hududlarning ulushi, % da
O'zbekiston Respublikasi	23 308,8	102,9	100,0
Qoraqalpog'iston Respublikasi	1 206,6	103,3	5,2
Andijon viloyati	1 506,6	102,0	6,5
Buxoro viloyati	2 316,1	103,5	9,9
Jizzax viloyati	2 311,8	103,5	9,9
Qashqadaryo viloyati	4 850,5	102,0	20,8
Navoiy viloyati	2 416,9	103,8	10,4
Namangan viloyati	807,4	102,3	3,5
Samarqand viloyati	2 581,7	102,3	11,1
Surxondaryo viloyati	2 493,2	102,4	10,7
Sirdaryo viloyati	352,1	106,2	1,5
Toshkent viloyati	1 085,7	105,9	4,6
Farg'ona viloyati	903,8	101,8	3,9
Xorazm viloyati	476,4	105,1	2,0

RESPUBLIKADA MAVJUD OTLAR BOSH SONI

2022- yilning 1- oktabr holatiga ko‘ra, Respublikada otlarning umumiy bosh soni 264,0 ming boshga yetdi.

2021- yilning mos davri bilan solishtirilganda barcha toifadagi xo‘jaliklarda otlar umumiy bosh soni – 9,1 ming boshga (3,6 %) ko‘paydi.

Xo‘jalik toifalari bo‘yicha tahlil qilar ekanmiz otlar umumiy bosh sonining 21,3 % i – fermer xo‘jaliklariga, 73,4 % i – dehqon (shaxsiy yordamchi) xo‘jaliklariga, 5,3 % i – qishloq xo‘jaligi faoliyatini amalga oshiruvchi tashkilotlarga to‘g‘ri kelganligini ko‘rsatmoqda.



HUDUDLAR BO‘YICHA OTLAR BOSH SONI


	Soni, ming bosh	O‘shish sur‘ati, % da	Hududlarning ulushi, % da
O‘zbekiston Respublikasi	264,0	103,6	100,0
Qoraqalpog‘iston Respublikasi	27,6	103,2	10,4
Andijon viloyati	7,0	103,9	2,7
Buxoro viloyati	7,2	108,3	2,7
Jizzax viloyati	29,3	103,7	11,1
Qashqadaryo viloyati	34,9	103,1	13,2
Navoiy viloyati	22,0	103,7	8,3
Namangan viloyati	6,8	102,7	2,6
Samarqand viloyati	28,1	103,6	10,6
Surxondaryo viloyati	15,1	103,7	5,7
Sirdaryo viloyati	15,8	108,5	6,0
Toshkent viloyati	54,8	101,7	20,8
Farg‘ona viloyati	10,0	106,1	3,8
Xorazm viloyati	5,4	101,3	2,1

RESPUBLIKADA MAVJUD PARRANDALAR BOSH SONI

2022- yilning 1- oktabr holatiga ko'ra, Respublikada parrandalarning umumiy bosh soni 91 209,9 ming boshga yetdi.

2021- yilning mos davri bilan solishtirilganda barcha toifadagi xo'jaliklarda parrandalar umumiy bosh soni – 4 982,4 ming boshga (5,8 %) ko'paydi.

Xo'jalik toifalari bo'yicha tahlil qilar ekanmiz parrandalar umumiy bosh sonining 14,8 % i – fermer xo'jaliklariga, 55,3 % i – dehqon (shaxsiy yordamchi) xo'jaliklariga, 29,9 % i – qishloq xo'jaligi faoliyatini amalga oshiruvchi tashkilotlarga to'g'ri kelganligini ko'rsatmoqda.



HUUDLAR BO'YICHA PARRANDALAR BOSH SONI

	Soni, ming bosh	O'sish sur'ati, % da	Hududlarning ulushi, % da
O'zbekiston Respublikasi	91 209,9	105,8	100,0
Qoraqalpog'iston Respublikasi	4 978,1	104,7	5,5
Andijon viloyati	9 168,4	113,0	10,1
Buxoro viloyati	6 129,1	116,1	6,7
Jizzax viloyati	4 058,7	113,6	4,4
Qashqadaryo viloyati	6 498,4	100,7	7,1
Navoiy viloyati	3 387,0	107,1	3,7
Namangan viloyati	5 778,3	101,7	6,3
Samarqand viloyati	12 216,6	102,6	13,4
Surxondaryo viloyati	4 991,8	105,5	5,5
Sirdaryo viloyati	3 903,7	181,8	4,3
Toshkent viloyati	15 592,2	100,4	17,1
Farg'ona viloyati	8 236,1	92,6	9,0
Xorazm viloyati	6 271,5	104,6	6,9

Statistik ko‘rsatkichlarga izohlar

Qishloq xo‘jaligi mahsulotlari – hisobot davrida fermer xo‘jaliklarida, dehqon (shaxsiy yordamchi) xo‘jaliklarida va qishloq xo‘jaligi faoliyatini amalga oshiruvchi tashkilotlarda yetishtirilgan dehqonchilik va chorvachilik mahsulotlarining jami qiymatini belgilab, qishloq xo‘jaligida yetishtirishning umumiy hajmini ifodalaydi.

Dehqonchilik mahsuloti – hisobot davrida yetishtirilgan qishloq xo‘jaligi ekinlarining yalpi hosili va boshqa dehqonchilik mahsulotlarining qiymatini hamda ko‘p yillik yosh ko‘chatlarni o‘stirish qiymati va yil boshidan yil oxirigacha tugallanmagan yetishtirish qiymatlarining o‘zgarishi yig‘indisidir.

Chorvachilik mahsuloti – mollar, parrandalar va boshqa chorva mollarini o‘stirish, sut, tuxum, jun, asal va boshqa chorvachilik mahsulotlari yetishtirish qiymatlarini o‘z ichiga oladi.

Qishloq xo‘jaligi mahsulotlari hajmi indekslarini hisoblashda ularning solishtirma narxlardagi qiymatidan foydalaniladi.

Ovchilik – ovchilik va yovvoyi hayvonlarni tutish, bu sohalarda xizmat ko‘rsatish shuningdek, parvarishxona va fermalarda hayvonlarni saqlash, ko‘paytirish va davolash xarajatlari hisobga olinadi.

O‘rmon xo‘jaligi – o‘rmon va o‘rmon resurslaridan foydalanish kabi faoliyat turlarini o‘z ichiga oladi. O‘rmon xo‘jaliklari tomonidan olib borilayotgan ishlar o‘rmonlarning holatini yaxshilash, ularni uzluksiz yangilash, zararkunandalar, kasalliklar va noqonuniy kesishdan himoya qilish, sanitariya va yong‘inga qarshi dasturlarni ishlab chiqarish kiradi. O‘rmon xo‘jaligi mahsulotlariga terak, eman, qayin, sosna, qoraqarag‘ay va boshqa shu kabi daraxtlar ko‘chatlarini olish va yetishtirish ham hisobga olinadi. Shuningdek, yovvoyi holda o‘suvchi qo‘ziqorin va tryufellar, rezavor mevalar, yong‘oqlar va boshqalarni terib olingani ushbu tarmoqda hisobga olinadi.

Baliqchilik xo‘jaligi – ovlangan baliq, suv bioresurslari va akvakultura sohalarining mahsuloti va ko‘rsatilgan xizmatlar hajmini shuningdek, ushbu sohani rivojlantirish, zaxiralarni ko‘paytirish va yaxshilashni o‘z ichiga oladi.

Qishloq xo‘jaligi ekinlarining yig‘ilgan yalpi hosili qishloq xo‘jaligi faoliyatini amalga oshiruvchi tashkilotlar, fermer va dehqon (shaxsiy yordamchi) xo‘jaliklarida asosiy va takroriy, bog‘larning qator oralaridagi qishloq xo‘jaligi ekinlaridan yig‘ib olingan mahsulotlar hajmini o‘z ichiga oladi.

Fermer xo‘jaliklari – ijaraga berilgan yer uchastkalaridan foydalangan holda qishloq xo‘jaligi mahsulotini yetishtirish hamda qonun hujjatlarida ta‘qiqlanmagan boshqa faoliyat turlari bilan shug‘ullanuvchi tadbirkorlik subyektidir.

Dehqon (shaxsiy yordamchi) xo‘jaliklari – oilaviy mayda tovar xo‘jaligi bo‘lib, oila a‘zolarining shaxsiy mehnati asosida, meros qilib qoldiriladigan umrbod egalik qilish uchun oila boshlig‘iga berilgan yer uchastkasida qishloq xo‘jaligi mahsuloti yetishtiradi va realizatsiya qiladi.

Dehqon xo‘jaligidagi faoliyat tadbirkorlik faoliyati jumlasiga kiradi hamda dehqon xo‘jaligi a‘zolarining istagiga ko‘ra yuridik shaxs tashkil etgan holda va yuridik shaxs tashkil etmasdan amalga oshirilishi mumkin.

Qishloq xo‘jaligi faoliyatini amalga oshiruvchi tashkilotlar – qishloq xo‘jaligi mahsulotlari yetishtiruvchi, qishloq xo‘jaligi ishlab chiqarishiga xizmat qiluvchi, xo‘jalik yuritish jarayonida yerga hamda boshqa ishlab chiqarish mulklariga egalik qiluvchi yuridik shaxs huquqiga ega xo‘jalik yurituvchi subyekt hisoblanadi.

Mollar bosh soni – xo‘jalik toifalari bo‘yicha barcha yosh guruhlaridagi asosiy turdagi chorva mollarini o‘z ichiga oladi (yirik shoxli qoramollar, shu jumladan sigirlar, qo‘y va echkilar, cho‘chqalar va h.k.)

Go‘sh yetishtirish – so‘yish uchun sotilgan hamda o‘z xo‘jaligida so‘yilgan barcha turdagi qishloq xo‘jaligi hayvonlari va parrandalarning tirik vaznini o‘z ichiga oladi.

Sut yetishtirish – yosh mollarga ichirish uchun sog‘ib olingan sut va og‘iz sutini qo‘shgan holda, haqiqatda sog‘ib olingan sigir, echki, qo‘y, biya va tuya sultari bilan aniqlanadi. Buzoqlar emgan sut yalpi yetishtirishga kiritilmaydi.

Tuxum yetishtirish – barcha turdagi parrandalardan olingan hamda kurk tovuqlar bilan va inkubatorlarda jo‘ja ochish uchun sarflangan tuxumlar miqdorini o‘z ichiga oladi.

Jun yetishtirish – xo‘jalikning ichki ehtiyojlariga sarflangani hamda junni saqlash va tashish jarayonida yo‘qotilganini qo‘shgan holda, qo‘y, echki, tuyalardan haqiqatda qirqib olingan natura vazndagi (qirqib olingandan keyingi vaznda) barcha junlarni o‘z ichiga oladi, bunga tullash juni, echki tiviti hamda takroriy qirqib olingan junlar ham qo‘shiladi.

IV. INVESTITSIYA VA QURILISH ISHLARI


1- BO'LIM. ASOSIY KAPITALGA O'ZLASHTIRILGAN INVESTITSIYALAR

2022- yilning yanvar-sentabr oylarida O'zbekiston Respublikasida iqtisodiy va ijtimoiy sohalarni rivojlantirish uchun jami moliyalashtirish manbalari hisobidan 190,0 trln. so'm o'zlashtirilgan bo'lib, 2021- yilning mos davriga nisbatan 105,0 % ni tashkil etdi.


Moliyalashtirish manbalari bo'yicha asosiy kapitalga o'zlashtirilgan investitsiyalar tarkibi, mlrd so'm

	Mlrd. so'm	o'sish sur'ati, % da	umumiy hajmga nisbatan, % da	
			2021- y.	2022- y.
Jami	189 999,8	105,0	100,0	100,0
markazlashgan investitsiyalar:	26 068,7	71,9	20,0	13,7
respublika budjeti	14 936,8	95,7	8,6	7,8
Moliya vazirligi huzuridagi suv bilan ta'minlash va kanalizatsiya tizimlarini rivojlantirish jamg'armasi	1 871,4	110,7	0,9	1,0
tiklanish va taraqqiyot jamg'armasi mablag'lari	941,1	44,5	1,2	0,5
O'zbekiston Respublikasi kafolati ostidagi xorijiy kreditlar	8 319,4	49,4	9,3	4,4
markazlashmagan investitsiyalar:	163 931,1	113,2	80,0	86,3
korxonalar mablag'lari	62 575,2	131,4	26,2	32,9
aholi mablag'lari	19 141,3	112,6	9,6	10,1
to'g'ridan-to'g'ri, boshqa va kafolatlanmagan xorijiy kreditlar	63 649,4	96,6	36,3	33,5
<i>ulardan:</i>				
<i>to'g'ridan-to'g'ri xorijiy investitsiyalar</i>	23 674,9	98,2	13,3	12,5
tijorat banklari kreditlari va boshqa qarz mablag'lari	18 565,2	130,2	7,9	9,8


Jami investitsiyalar hajmida, markazlashgan moliyalashtirish manbalari hisobidan moliyalashtirilgan asosiy kapitalga investitsiyalarning ulushi, 2021- yilning mos davridagi ulushiga nisbatan 6,3 % punktga kamayib, 13,7 % ni yoki 26,1 trln. so'mni tashkil etdi. Mos ravishda, markazlashmagan moliyalashtirish manbalari hisobidan 163,9 trln. so'm yoki jami investitsiyalarning 86,3 % investitsiyalari o'zlashtirilib, 2021- yilning mos davridagi ko'rsatkichga nisbatan 6,3 % punktga ko'paydi.




2022- yilning yanvar-sentabr oylarida asosiy kapitalga investitsiyalarning 57,0 % i yoki 108,3 trln. so'mi jalb etilgan mablag'lar hisobidan moliyalashtirilgan bo'lsa, korxonalar, tashkilot va aholining o'z mablag'lari hisobidan 43,0 % yoki 81,7 trln. so'm moliyalashtirildi.




**Asosiy kapitalga investitsiyalar hajmi va o'sish sur'ati
(yanvar-sentabr)**




Markazlashgan moliyalashtirish manbalari hisobidan asosiy kapitalga investitsiyalar



2021- yil yanvar-sentabriga nisbatan % da



Jami markazlashgan investitsiyalardagi ulushi, % da




2022- yil yanvar-sentabr oylarida O'zbekiston Respublikasi kafolati ostidagi xorijiy kreditlar hisobidan 8,3 trln. so'm investitsiyalar o'zlashtirilib, 2021- yilning mos davriga nisbatan 49,4 % ni tshkil etdi. Ularning jami hajmidagi ulushi 2021- yilning mos davriga nisbatan 4,9 % punktga kamayib, 4,4 % darajasida qayd etildi.

Tiklanish va taraqqiyot jamg'armasi hisobidan o'zlashtirilgan investitsiyalar hajmi 1,0 trln. so'mni (dollar ekvivalentida 85,5 mln. AQSH dollari) va jami investitsiyalardagi ulushi 2021- yilning mos davridagi ko'rsatkichga nisbatan 0,7 % punktga kamayib, 0,5 % ni tashkil etdi. Shuningdek, mazkur jamg'arma hisobidan moliyalashtirilgan investitsiyalar hajmi 2021- yilning mos davriga nisbatan 44,5 % ni tashkil etdi.

Respublika budjetidan moliyalashtiriladigan infrastruktura, iqtisodiy va ijtimoiy sohani rivojlantirishga yo'naltirilgan investitsiyalar hajmi 2021- yilning mos davriga nisbatan 95,7 % ni yoki 14,9 trln. so'mni tashkil etdi. Shuningdek, suv ta'minoti va kanalizatsiya tizimini rivojlantirish jamg'arlari hisobidan investitsiyalar

2021- yilning mos davriga nisbatan 10,7 % ga ko'payib, 1,9 trln. so'mni tashkil etdi. Ularning jami investitsiyalardagi ulushi, mos ravishda 0,1 % punktga ko'payib, 1,0 % ni tashkil etdi.


2022- yilning yanvar-sentabr oylarida Tiklanish va taraqqiyot jamg'armasi mablag'lari hisobidan amalga oshirilgan yirik investitsiya loyihalari:



O'zbekiston Respublikasi davlat kafolati ostidagi xorijiy kreditlar hisobidan amalga oshirilgan investitsiya loyihalari quyidagilar:



Markazlashgan moliyalashtirish manbalari hisobidan asosiy kapitalga investitsiyalar



2022- yilning yanvar-sentabr oylarida korxonalar va tashkilotlarning o'z mablag'lari hisobidan moliyalashtirilgan asosiy kapitalga investitsiyalar – 62,6 trln. so'm yoki jami asosiy kapitalga investitsiyalarning 32,9 % ini tashkil etdi.

Bevosita to'g'ridan-to'g'ri xorijiy investitsiyalar hisobidan moliyalashtirilgan investitsiyalardan O'zbekiston Respublikasi bo'yicha 23,7 trln. so'm, yoki 2021-yilning mos davridagi ko'rsatkichga nisbatan 0,8 % punktga kamaygan holda jami investitsiyalardagi ulushi 12,5 % ga teng investitsiyalar o'zlashtirildi.

Asosiy kapitalga investitsiyalarning moliyalashtirish manbalari bo'yicha tarkibida eng yuqori o'sish sur'ati korxonalar va tashkilotlarning o'z mablag'lari hisobidan moliyalashtirilgan investitsiyalarda kuzatilib, 2021- yilning mos davriga nisbatan 131,4 % ni tashkil etganligi qayd etildi.

Kafolatlanmagan va boshqa xorijiy investitsiya va kreditlar hisobidan 40,0 trln. so'm investitsiyalar o'zlashtirilib, jami asosiy kapitalga investitsiyalar hajmidagi

ulushi 2021- yilning mos davridagi ko'rsatkichga nisbatan 2,0 % punktga kamayib, 21,0 % ni tashkil etdi.

To'g'ridan-to'g'ri va kafolatlanmagan xorijiy kreditlar hisobidan quyidagi yirik investitsiya loyihalari amalga oshirildi:


- 1 Sirdaryo viloyatida quvvati 1500 MVt bo'lgan yangi elektr stansiyasini qurish;
- 2 Sirdaryo viloyatida quvvati 220 MVt bo'lgan gaz-porshenli elektr stansiyasini qurish;
- 3 2017-2021- yillarda uglevdorod xomashyosi qazib chiqarish hajmlarini ko'paytirish bo'yicha Dastur;
- 4 2021-2022- yillarda respublika magistral gaz uzatish tizimini modernizatsiya qilish va samaradorligini oshirish dasturi;
- 5 Samarqand viloyatining Nurobod tumanida quvvati 100 MVt bo'lgan quyosh fotoelektr stansiyasini qurish;
- 6 Buxoro viloyatida quvvati 270 MVt bo'lgan gaz-porshenli elektr stansiyasini qurish;
- 7 "Mustaqillikning 25 yilligi" konida geologiya-qidiruv ishlarini amalga oshirish va konni o'zlashtirish, gaz-kimyo kompleksini barpo etish;
- 8 Mineral o'g'itlar ishlab chiqarish kompleksini tashkil etish;
- 9 Quruq sianid tuzlari ishlab chiqarishni tashkil etish.

Shuningdek, tijorat banklari kreditlari va boshqa qarz mablag'lari hisobidan moliyalashtirilgan 18,5 trln. so'm (jami asosiy kapitalga investitsiyalarning 9,8 % ini tashkil etib, 2021- yilning mos davriga nisbatan 1,9 % punktga ko'payish) asosiy kapitalga investitsiyalar o'zlashtirildi.

Aholi mablag'lari hisobidan jami asosiy kapitalga investitsiyalarning 10,1 % i yoki 19,1 trln. so'm o'zlashtirildi. Aholi mablag'lari hisobidan asosan uy-joylar qurish sohasida investitsiya faoliyati amalga oshirilgan.

Asosiy kapitalga investitsiyalarning iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha tarkibida qayta ishlash sanoati yetakchilik qilmoqda. Yangi avtomobil modellarini ishlab chiqarishni tashkil etish (Oniks, Treker), sement ishlab chiqarishni kengaytirish (3-bosqich), texnik gaz ishlab chiqarishni tashkil etish, mineral o'g'itlar ishlab chiqarish kompleksini tashkil etish, paxta-to'qimachilik va agroklaster tashkil etish kabi yirik investitsiya loyihalari natijasida ushbu iqtisodiy faoliyat turida jami moliyalashtirish manbalari hisobidan 57,3 trln. so'm yoki jami asosiy kapitalga kiritilgan investitsiyalarning 30,1 % i o'zlashtirildi.

**O'zbekiston Respublikasida iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha asosiy kapitalga
Investitsiyalar (jamiga nisbatan, % da)**



Ijtimoiy sohadagi eng muhim faoliyatlardan biri bu turar-joy qurilishi hisoblanadi. Ushbu faoliyat turi bo'yicha barcha moliyalashtirish manbalari hisobidan 17,1 trln. so'm asosiy kapitalga investitsiyalar o'zlashtirilib, jami investitsiyalar hajmidagi ulushi 9,0 % ni tashkil etdi.

Qishloq xo'jaligini rivojlantirishga yo'naltirilgan investitsiyalar 15,5 trln.so'm yoki o'zlashtirilgan investitsiyalarning umumiy hajmining 8,2% ini tashkil etdi.

Elektr - gaz ta'minoti faoliyati turi bo'yicha barcha moliyalashtirish manbalari hisobidan 12,6 trln.so'm investitsiyalar o'zlashtirilib, ular umumiy hajmning 6,6 % ini tashkil etdi.

Tog'-kon sanoatida jami 12,4 trln.so'm yoki respublika bo'yicha jami investitsiyalar hajmining 6,5 % i o'zlashtirilgan bo'lib, uning tarkibidan 3,8 % i yoki 7,2 trln. so'mi xom neft va tabiiy gaz qazib chiqarish sohasiga tegishlidir.

**Moliyalashtirish manbalari bo'yicha hududlar kesimida
asosiy kapitalga investitsiyalar**

	Jami investitsiyalar, mlrd. so'm	shu jumladan, moliyalashtirish manbalari bo'yicha: (jamiga nisbatan, % da)						
		Respublika budjeti	korxonalar va aholi mablag'i	aholi	xorijiy investitsiya va kreditlar	Suv ta'minoti va kanalizatsiya tizimlarini rivojlantirish jamg'armasi	Tiklanish va taraqqiyot jamg'armasi	tijorat banki kreditlari va boshqa qarz mablag'lari
O'zbekiston Respublikasi¹⁾	189 999,8	7,8	32,9	10,1	37,9	1,0	0,5	9,8
Qoraqalpog'iston Respublikasi	7 059,0	13,3	28,9	13,1	35,3	1,4	1,5	6,5
<i>viloyatlar:</i>								
Andijon	9 737,6	7,8	24,0	13,0	44,3	2,6	-	8,3
Buxoro	15 782,1	4,1	22,2	11,3	55,2	0,5	-	6,7
Jizzax	7 478,7	11,4	24,2	6,8	44,4	1,6	-	11,6
Qashqadaryo	11 668,6	9,0	24,1	14,8	45,1	2,0	-	5,0
Navoiy	13 004,4	4,1	38,3	9,1	47,6	0,2	-	0,7
Namangan	10 264,5	7,3	17,9	15,4	38,0	1,3	-	20,1
Samarqand	15 591,7	9,0	27,1	7,5	29,5	0,6	-	26,3
Surxondaryo	8 505,6	13,3	17,0	15,3	39,5	4,6	-	10,3
Sirdaryo	8 515,9	6,3	9,4	1,8	78,8	0,5	-	3,2
Toshkent	22 999,0	6,4	43,3	8,5	27,5	0,5	2,7	11,1
Farg'ona	10 715,8	7,1	18,7	17,2	50,0	1,8	-	5,2
Xorazm	6 780,8	8,1	28,6	22,5	29,1	1,0	1,1	9,6
Toshkent sh.	41 061,9	7,6	54,8	5,5	23,0	-	0,3	8,8


¹⁾ Hududlar bo'yicha taqsimlanmaydigan hajmni qo'shgan holda

Davlat budjeti mablag‘lari hisobidan asosiy kapitalga yo‘naltirilgan investitsiyalar hududiy tarkibida eng yuqori ko‘rsatkichlar Qoraqalpog‘iston Respublikasida – hududdagi jami investitsiyalarning 13,3 % ini, Surxondaryo viloyatida – 13,3 % va Jizzax viloyatida – 11,4 % kuzatildi.

Korxonalar va tashkilotlarning o‘z mablag‘lari hisobidan investitsiyalar bo‘yicha eng yuqori ulush Toshkent shahrida kuzatilib, bu hududda o‘zlashtirilgan investitsiyalarning 54,8 % ini tashkil etdi. Shuningdek, Toshkent viloyatida 43,3 % va Navoiy viloyatida 38,3 % ni tashkil etdi.

Jalb qilingan moliyalashtirish manbalari tarkibida xorijiy investitsiya va kreditlar alohida o‘ringa ega. Xorijiy investitsiya va kreditlarning jami investitsiyalardagi ulushi bo‘yicha eng yuqori ko‘rsatkichlar Sirdaryo va Buxoro viloyatlarida kuzatilib, mos ravishda 78,8 va 55,2 % ni tashkil etdi.

**Asosiy kapitalga o‘zlashtirilgan
investitsiyalarning o‘shish sur‘atlari (% da)**



Hududlar kesimida asosiy kapitalga investitsiyalar o‘zlashtirilishi bo‘yicha 2021- yilning mos davriga nisbatan eng yuqori o‘shish sur‘ati 127,6 % ga o‘shib, Sirdaryo viloyatida kuzatildi. Ushbu natijani 1500 MVt quvvatga ega yangi elektr stantsiyasi va 220 MVt quvvatga ega gaz pistonli elektr stantsiyasini qurish kabi yirik loyihalarga investitsiyalarni o‘zlashtirish bilan izohlash mumkin.

Shuningdek, Samarqand viloyatida ham yuqori o‘shish sur‘ati kuzatilib, 2021- yilning mos davriga nisbatan 122,5 % ni tashkil qildi. Bu hududda turistik markaz qurilishi, quvvati 100 MVt bo‘lgan quyosh fotoelektr stantsiyasi qurilishi, Samarqand kimyo majmuasi qurilishi kabi yirik investitsiya loyihalari amalga oshirilmoqda.

Qoraqalpog‘iston Respublikasida asosiy kapitalga investitsiyalar hajmining 2021- yilning mos davriga nisbatan 118,9 % ni tashkil etishi, avvalambor 2017-2021 yillarda uglevodorod ishlab chiqarishni ko‘paytirish dasturi doirasida investitsiyalarning o‘zlashtirilishi bilan bog‘liq.


Investitsion faollikning eng past o‘shish sur‘atlari Toshkent shahrida – 97,6 % (investitsiya hajmi 41061,9 mlrd. so‘m) va Qashqadaryo viloyatida – 96,0 % (11668,6 mlrd. so‘m) qayd etildi.

2022- yilning yanvar-sentabr oylarida jami asosiy kapitalga o‘zlashtirilgan investitsiyalarning asosiy qismi, ya‘ni 50,2 % i respublikaning to‘rt hududida, jumladan,

Toshkent shahrida – 21,6 %, Toshkent viloyati – 12,1 %, Buxoro viloyatida – 8,3 % va Samarqand viloyatida – 8,2 % investitsiyalar o'zlashtirildi.


2022- yilning yanvar-sentabr oylarida aholi jon boshiga hisoblangan asosiy kapitalga o'zlashtirilgan investitsiyalar hajmi bo'yicha yuqori ko'rsatkichlar Toshkent shahrida – 14167,6 ming so'm (yoki 2021- yilning mos davriga nisbatan taqqoslaganda – 94,6 %), Navoiy viloyatida – 12480,2 ming so'm (yoki 103,8 %), va Buxoro viloyatida – 7936,7 ming so'm (yoki 96,9 %) qayd etildi.

Aholi jon boshiga to'g'ri keladigan asosiy kapitalga investitsiyalar



O'zbekiston Respublikasi bo'yicha asosiy kapitalga investitsiyalarning texnologik tarkibida mashina, uskuna va inventarlarga 86143,1 mlrd. so'm investitsiyalar o'zlashtirilgan bo'lib, jami investitsiyalarning 45,3 % ini tashkil etdi, qurilish-montaj ishlari bo'yicha 89041,1 mlrd. so'm (jami investitsiyalardagi ulushi 46,9 %) va boshqa xarajatlarga 14815,6 mlrd. so'm (7,8 %) o'zlashtirildi.

Asosiy kapitalga investitsiyalarning texnologik tarkibi




Asosiy kapitalga investitsiyalarning texnologik tarkibi dinamikasi
(jamiga nisbatan % da)



A - mashina, uskuna, inventar B - qurilish-montaj ishlari D - boshqa xarajatlar

A	43,8 %	52,1 %	49,5 %	47,5 %	45,3 %
B	44,6 %	40,2 %	43,4 %	44,5 %	46,9 %
D	11,6 %	7,7 %	7,1 %	8,0 %	7,8 %


Asosiy kapitalga investitsiyalarning takror ishlab chiqarish tarkibi
(jamiga nisbatan % da)



Joriy hisobot davrida yangi qurilishga yo'naltirilgan asosiy kapitalga investitsiyalar 102253,9 mlrd. so'mga yetdi hamda jami asosiy kapitalga investitsiyalarning 53,8 % ini tashkil etdi.

Iqtisodiyotda mavjud obyektlarni kengaytirish, rekonstruksiya qilish, modernizatsiyalash va texnik qayta qurollantirishga yo'naltirilgan investitsiyalar 54277,7 mlrd. so'mni tashkil etdi va respublikadagi jami o'zlashtirilgan investitsiyalarning 28,6 % ini tashkil etdi. Qolgan 17,6 %, ya'ni 33468,2 mlrd. so'm boshqa xarajatlarga yo'naltirildi.

Asosiy kapitalga investitsiyalarning takror ishlab chiqarish tarkibi dinamikasi
(jamiga nisbatan % da)



Hududlar kesimida jami asosiy kapitalga investitsiyalar hajmida qurilish-montaj ishlarining ulushi bo'yicha eng yuqori ko'rsatkich Surxondaryo viloyatida kuzatildi – 61,8 % yoki 5259,6 trln. so'm.

Qurilish-montaj ishlarining ulushi bo'yicha eng quyi daraja Sirdaryo viloyatida kuzatilib, 26,1 % ni yoki 2219,7 trln. so'mni tashkil etdi. Shuningdek, Sirdaryo viloyatida mashina, uskunalar va inventarlarga xarajatlar bo'yicha eng yuqori ko'rsatkich – 66,1 % yoki 5632,3 trln. so'mni tashkil etdi.

Yangi qurilishga yo'naltirilgan investitsiyalarning ulushi bo'yicha eng yuqori ko'rsatkich, quvvati 1 500 MVt bo'lgan yangi elektr stansiyasi hamda quvvati 220 MVt bo'lgan gaz-porshenli elektr stansiyasini qurish loyihalari bo'yicha o'zlashtirilgan investitsiyalar natijasida Sirdaryo viloyatida kuzatilib, u 76,4 % ni tashkil etdi.

2022- yil yanvar-sentabr oylarida korxonalar va tashkilotlarning kengaytirish, rekonstruksiya va modernizatsiyaga investitsiyalar ulushi bo'yicha yuqori natijalar Andijon viloyatida – 49,2 % (4786,8 mlrd. so'm), Qoraqalpog'iston Respublikasida – 44,0 % (3108,3 mlrd. so'm), Samarqand viloyati – 37,2 % (5805,8 mlrd. so'm), Namangan viloyati – 36,6 % (3760,9 mlrd. so'm) va Qashqadaryo viloyatida – 35,1 % ga tengligi (4097,5 mlrd. so'm) kuzatildi.

Asosiy kapitalga investitsiyalarning takror ishlab chiqarish tarkibi

(2022- yil yanvar-sentabr)

	<i>Jami asosiy kapitalga investitsiyalar, mlrd.so 'm</i>	<i>Jamiga nisbatan % da:</i>		
		<i>yangi qurilish</i>	<i>kengaytirish, rekonstruksiya, modernizatsiya</i>	<i>boshqa yo'nalishlar</i>
O'zbekiston Respublikasi ¹⁾	189 999,8	53,8	28,6	17,6
Qoraqalpog'iston Respublikasi	7 059,0	34,6	44,0	21,4
<i>viloyatlar:</i>				
Andijon	9 737,6	36,7	49,2	14,1
Buxoro	15 782,1	57,4	24,6	18,0
Jizzax	7 478,7	49,1	27,4	23,5
Qashqadaryo	11 668,6	36,3	35,1	28,6
Navoiy	13 004,4	70,1	21,4	8,5
Namangan	10 264,5	48,9	36,6	14,5
Samarqand	15 591,7	54,6	37,2	8,2
Surxondaryo	8 505,6	59,9	28,7	11,4
Sirdaryo	8 515,9	76,4	14,8	8,8
Toshkent	22 999,0	57,9	23,2	18,9
Farg'ona	10 715,8	62,1	23,7	14,2
Xorazm	6 780,8	63,0	19,1	17,9
Toshkent sh.	41 061,9	49,0	26,6	24,4

¹⁾ Hududlar bo'yicha taqsimlanmaydigan hajmni qo'shgan holda

2- BO‘LIM. ASOSIY KAPITALGA O‘ZLASHTIRILGAN XORIJIY INVESTITSIYA VA KREDITLAR

2022- yilning yanvar-sentabrida 72,0 trlm.so‘m (dollar ekvivalentida 6,5 mlrd. AQSH doll.) yoki 2021- yilning mos davriga nisbatan 87,0 % asosiy kapitalga xorijiy investitsiya va kreditlar o‘zlashtirildi.

Xorijiy investitsiya va kreditlarning jami asosiy kapitalga o‘zlashtirilgan investitsiyalardagi ulushi 37,9 % ni tashkil etdi.

**Xorijiy investitsiya va kreditlar,
trln.so‘m**



- Boshqa xorijiy investitsiya va kreditlar
- To‘g‘ridan-to‘g‘ri xorijiy investitsiya
- O‘zbekiston Respublikasi kafolati ostida xorijiy kreditlar

Xorijiy investitsiya va kreditlar tarkibida xorijiy investitsiyalar 28,6 trln. so‘mni yoki jamiga nisbatan 39,8 % ni va mos ravishda xorijiy kreditlar 43,4 trln. so‘mni yoki 60,2 % ni tashkil qildi.

To‘g‘ridan-to‘g‘ri xorijiy investitsiya va kreditlar hisobidan joriy davrda 63,6 trln. so‘m o‘zlashtirilgan bo‘lsa, O‘zbekiston Respublikasi kafolati ostida 8,3 trln. so‘m xorijiy kreditlar o‘zlashtirildi.

To‘g‘ridan-to‘g‘ri xorijiy investitsiya va kreditlar hamda O‘zbekiston Respublikasi kafolati ostidagi xorijiy kreditlarning jami xorijiy investitsiya va kreditlar hajmidagi ulushi mos ravishda 88,4 % va 11,6 % ni tashkil etdi.

To‘g‘ridan-to‘g‘ri xorijiy investitsiya va kreditlar tarkibida to‘g‘ridan-to‘g‘ri xorijiy investitsiyalar 23,7 trln. so‘m yoki jamiga nisbatan 37,2% ni, boshqa investitsiya va kafolatlanmagan xorijiy kreditlar 40,0 trln.so‘mni yoki jamiga nisbatan 62,8 % ni tashkil etdi.


**Asosiy kapitalga o'zlashtirilgan xorijiy investitsiya va kreditlar,
mlrd so'm**

	<i>Jami</i>	<i>Shu jumladan:</i>		
		<i>to'g'ridan- to'g'ri xorijiy investitsiyalar</i>	<i>O'zR kafolati ostida xorijiy kreditlar</i>	<i>boshqa xorijiy investitsiya va kreditlar</i>
O'zbekiston Respublikasi	71 968,8	23 674,9	8 319,4	39 974,5
Qoraqalpog'iston Respublikasi	2 490,8	171,1	795,1	1 524,6
<i>viloyatlar:</i>				
Andijon	4 314,9	958,8	328,9	3 027,2
Buxoro	8 706,8	970,0	1 138,5	6 598,3
Jizzax	3 326,2	1 020,2	322,6	1 983,4
Qashqadaryo	5 264,2	1 061,8	361,6	3 840,8
Navoiy	6 186,9	1 432,4	289,6	4 464,9
Namangan	3 903,8	655,7	364,8	2 883,3
Samarqand	4 598,4	2 523,0	829,4	1 246,0
Surxondaryo	3 359,0	1 448,6	453,8	1 456,6
Sirdaryo	6 713,0	4 931,7	358,6	1 422,7
Toshkent	6 311,0	2 686,2	1 011,5	2 613,3
Farg'ona	5 358,3	1 912,8	450,6	2 994,9
Xorazm	1 975,2	289,9	311,1	1 373,2
Toshkent sh.	9 460,3	3 612,7	1 303,3	4 544,3

2022- yil yanvar-sentabr oylarida O'zbekiston Respublikasida qayta ishlash sanoatida xorijiy investitsiya va kreditlar salmoqli o'zlashtirilib, 33,7 trln. so'mni yoki jami asosiy kapitalga o'zlashtirilgan investitsiyalarning 46,8 % ini tashkil etdi.

Elektr va gaz bilan ta'minlash faoliyat turida bu ko'rsatkich 9,3 trln. so'mni yoki jami xorijiy investitsiya va kreditlarning 12,9 % ini qayd etdi.

**Iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha xorijiy investitsiyalar va kreditlar tarkibi,
% da**




**3- BO'LIM. IJTIMOIIY SOHA OBYEKTLARINING QURILISHI
2022- yil yanvar-sentabr**

2022- yilning yanvar-sentabr oylarida umumiy maydoni 10 655,6 ming kv.m turar joy ishga tushirilib, 2021- yilning mos davriga nisbatan 109,4 % ni tashkil etdi, ulardan 96,5 % i yoki 10 278,9 ming kv.m turar joylar yakka tartibda qurilgan bo'lib, 217,3 ming kv.m yoki 2,0 % i namunaviy loyihalar asosida qurilgan turar joylar, 159,4 ming kv.m yoki 1,5 % boshqa xo'jalik yurituvchi subyektlar tomonidan ishga tushirilgan turar joylarni tashkil etdi.

2022- yil yanvar-sentabr oylarida turar joy qurilishida jami 15340,0 mlrd. so'm investitsiyalar o'zlashtirilib, respublika budjeti mablag'lari hisobidan 104,7 mlrd. so'm, korxonalar va tashkilotning o'z mablag'lari hisobidan 37,1 mlrd. so'm, aholi mablag'lari hisobidan 13 412,3 mlrd. so'm va boshqa moliyalashtirish manbalari hisobidan 1785,9 mlrd. so'mni tashkil etdi.

O'zbekiston Respublikasi bo'yicha ijtimoiy soha obyektlarini ishga tushirilishi



2022- yilning yanvar-sentabr oylarida O'zbekiston Respublikasi bo'yicha jami 1 756,7 km suv tarmog'i ishga tushirilib, 2021- yilning mos davriga nisbatan 164,8 % ni tashkil etdi. Ta'kidlash joizki, ishga tushirilgan suv tarmoqlarining 83,2 % i yoki 1 460,8 kmi qishloq joylarda joylashgan.

Gaz tarmog'i bo'yicha joriy davrda 33,4 km uzunlikdagi tarmoq ishga tushirilgan bo'lib, o'tgan yilning mos davriga nisbatan 90,3 % ni tashkil etdi. Ishga tushirilgan gaz tarmoqlarining qishloq joylardagi ulushi 57,2 % yoki 19,1 kmni tashkil etdi.

Shuningdek, joriy davrda quyida keltirilgan ijtimoiy soha obyektlari ishga tushirildi:

- 1 629 o'ringa mo'ljallangan kasalxona;
- 3 425 qatnovga mo'ljallangan poliklinikalar, ulardan 725 qatnovga mo'ljallangan qismi qishloq vrachlik punktlarini tashkil etdi;
- 123 587 o'quvchi o'rinli umumta'lim va ixtisoslashtirilgan maktablar yangi qurilish va rekonstruksiya hisobidan ishga tushirilgan bo'lsa, 124 maktab kapital ta'mirlandi;
- 23 181 o'ringa mo'ljallangan maktabgacha ta'lim muassasalari.

Suv tarmog'i qurilishida jami 1 675,8 mlrd. so'm, gaz tarmoqlari qurilishida 1,8 mlrd. so'm, umumta'lim va ixtisoslashtirilgan maktablar qurilishida 2 204,3 mlrd. so'm, maktabgacha ta'lim muassasalari qurilishida 1 279,7 mlrd. so'm investitsiyalar o'zlashtirildi.

Turar-joylarni ishga tushirish

	<i>Xonadonlar soni, birlik</i>	<i>Maydoni, ming kv.m</i>
O‘zbekiston Respublikasi	56 928	10 655,6
Qoraqalpog‘iston Respublikasi	4 538	717,3
viloyatlar:		
Andijon	3 870	826,8
Buxoro	5 321	1 169,8
Jizzax	2 329	437,4
Qashqadaryo	5 024	774,9
Navoiy	1 876	554,3
Namangan	7 577	1 018,5
Samarqand	3 193	336,0
Surxondaryo	5 629	964,8
Sirdaryo	407	70,9
Toshkent	5 585	1 186,0
Farg‘ona	4 755	947,5
Xorazm	3 246	830,6
Toshkent sh.	3 466	778,9

4- BO‘LIM. QURILISH ISHLARI

2022- yil yanvar-sentabr


2022- yilning yanvar-sentabr oylarida O‘zbekiston Respublikasida jami 94117,9 mlrd. so‘m qurilish ishlari bajarilib, o‘sish sur‘ati 2021- yilning mos davriga nisbatan 106,3 % ni tashkil etdi.

Qurilish ishlari hajmi dinaikasi (yanvar-sentabr



Qurilish ishlarining iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha ko'rsatkichlar shuni ko'rsatdiki, bino va inshootlar qurilishi 68,0 % ulushni (o'sish sur'ati 2021- yilning mos davriga nisbatan 103,9 %), fuqarolik obyektlari qurilishi - 21,6 % (106,1 %) va ixtisoslashtirilgan qurilish ishlari - 10,4 % (126,0 %)ni tashkil etdi.


**Iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha qurilish ishlari,
jamiga nisbatan % da**



2022- yil yanvar-sentabr oylarida bajarilgan qurilish ishlarining katta qismi yangi bino va inshootlarni qurishga tegishli. Jami qurilish ishlarining 68,7 % i yoki 64 700,3 mlrd. so'm qurilish ishlari aynan iqtisodiyotda yangi ishlab chiqarish quvvatlari, turar-joy va boshqa ijtimoiy obyektlarni yaratishga qaratilgan.

**2022- yil yanvar-sentabr oylarida umumiy hajmdan yangi qurilish, rekonstruksiya,
kengaytirish, texnik qayta qurollantirish ishlari ulushi**

Yirik qurilish tashkilotlari -19 974,1 mlrd. so'm,
yoki jami hajmdagi ulushi 30,9 % .



2022- yil yanvar-sentabr oylarida hududlar kesimida yangi qurilish ishlari

	<i>Yangi qurilish, rekonstruksiya, kengaytirish, texnik qayta qurollantirish</i>	<i>O‘shish sur‘ati, % da</i>
O‘zbekiston Respublikasi¹⁾	64 700,3	100,0
Qoraqalpog‘iston Respublikasi	2 462,1	3,8
<i>viloyatlar:</i>		
Andijon	3 534,6	5,5
Buxoro	3 954,1	6,1
Jizzax	2 107,5	3,3
Qashqadaryo	3 368,9	5,2
Navoiy	3 240,2	5,0
Namangan	3 627,8	5,6
Samarqand	4 497,2	7,0
Surxondaryo	3 613,0	5,6
Sirdaryo	1 364,7	2,1
Toshkent	4 015,5	6,2
Farg‘ona	4 544,7	7,0
Xorazm	2 843,9	4,4
Toshkent sh.	14 093,9	21,8

2022- yil yanvar-sentabr oylarida hududlar kesimida yangi qurilish ishlari bo‘yicha yuqori hajm, Toshkent shahri (14 093,9 mlrd.so‘m), Farg‘ona viloyati (4 544,7 mlrd. so‘m), Samarqand viloyati (4 497,2 mlrd. so‘m) va Toshkent viloyatida (4 015,5 mlrd. so‘m) qayd etildi.



¹⁾ Hududlar bo‘yicha taqsimlanmagan hajmni qo‘shgan holda.

Hududlar kesimida bino va inshootlar qurilishi hajmi va o'sish sur'ati

	<i>Bino va inshootlar qurilishi</i>	<i>O'sish sur'ati, % da</i>
O'zbekiston Respublikasi¹⁾	64029,7	103,9
Qoraqalpog'iston Respublikasi	2130,5	98,3
<i>viloyatlar:</i>		
Andijon	3825,9	108,0
Buxoro	3942,8	100,2
Jizzax	2054,1	131,0
Qashqadaryo	3883,9	100,3
Navoiy	3334,0	120,7
Namangan	3439,7	112,4
Samarqand	1818,4	45,1
Surxondaryo	3495,7	116,0
Sirdaryo	1449,9	93,2
Toshkent	5000,0	87,0
Farg'ona	4678,1	116,2
Xorazm	2608,2	102,6
Toshkent sh.	14936,4	110,6

Bino va inshootlarni qurish faoliyat turi bo'yicha bajarilgan qurilish ishlarining eng yuqori o'sish sur'ati Jizzax viloyati (2021- yilning mos davriga nisbatan 131,0 %), Navoiy viloyati (2021- yilning mos davriga nisbatan 120,7 %), Farg'ona (2021- yilning mos davriga nisbatan 116,2 %) va Surxondaryo viloyati (2021- yilning mos davriga nisbatan 116,0 %)ga to'g'ri keldi.

Fuqarolik obyektlarini qurish bo'yicha yirik qurilish tashkilotlari tomonidan bajarilgan qurilish ishlari hajmining ulushi 28,2 % ni tashkil etdi va 2021- yilning yanvar-sentabr oylariga nisbatan 2,8 % punktga kamaydi.

Shuningdek, kichik korxonalar va mikrofirmalar ulushi mos ravishda 71,6 % (2,7 % punktga ko'payish) hamda norasmiy sektorning ulushi 0,2 % ni tashkil etib, (ko'paydi 0,1 %).

¹⁾ Hududlar bo'yicha taqsimlanmagan hajmni qo'shgan holda.

Hududlar kesimida fuqarolik obyektlari qurilishi hajmi va o‘shish sur‘ati

	<i>Fuqarolik obyektlari qurilishi</i>	<i>O‘shish sur‘ati, % da</i>
O‘zbekiston Respublikasi¹⁾	20 278,1	106,1
Qoraqalpog‘iston Respublikasi	1 243,5	113,8
<i>viloyatlar:</i>		
Andijon	821,5	102,7
Buxoro	1 446,0	106,6
Jizzax	307,4	44,0
Qashqadaryo	1 046,1	99,0
Navoiy	824,4	92,1
Namangan	312,7	36,4
Samarqand	4 330,1	316,9
Surxondaryo	1 020,4	73,8
Sirdaryo	509,0	68,3
Toshkent	1 913,2	146,5
Farg‘ona	1 189,8	98,5
Xorazm	835,7	110,4
Toshkent sh.	4 478,3	84,1

Fuqarolik obyektlarini qurish faoliyat turi bo‘yicha bajarilgan qurilish ishlarining eng yuqori o‘shish sur‘ati Samarqand viloyati (2021- yilning yanvar-sentabr oylariga nisbatan 316,9 %), mos ravishda Toshkent viloyati (146,5 %), Qoraqalpog‘iston Respublikasi (113,8 %) va Xorazm viloyati (110,4 %) ga to‘g‘ri keldi.

Ixtisoslashtirilgan qurilish ishlari tarkibida yirik qurilish tashkilotlari tomonidan bajarilgan qurilish ishlari hajmining ulushi 24,0 % ni tashkil etib 2021- yilning yanvar-sentabr oylariga nisbatan 3,3 % ga kamaydi.


Qolgan 76,0 % i kichik korxonalar va mikrofirmalar hissasiga to‘g‘ri kelib, 2021- yilning yanvar-sentabr oylariga nisbatan 3,3 % punktga ko‘paydi.

¹⁾ Hududlar bo‘yicha taqsimlanmagan hajmni qo‘shgan holda.

Hududlar kesimida ixtisoslashtirilgan qurilish ishlari hajmi va o'sish sur'ati

	<i>Ixtisoslashtirilgan qurilish ishlari</i>	<i>O'sish sur'ati, % da</i>
O'zbekiston Respublikasi¹⁾	9 810,1	126,0
Qoraqalpog'iston Respublikasi	492,4	162,1
<i>viloyatlar:</i>		
Andijon	251,7	101,7
Buxoro	698,9	96,3
Jizzax	173,1	147,8
Qashqadaryo	568,1	121,6
Navoiy	203,9	57,2
Namangan	975,8	254,4
Samarqand	182,4	73,8
Surxondaryo	290,0	168,7
Sirdaryo	107,7	108,4
Toshkent	1 534,5	210,7
Farg'ona	336,6	91,4
Xorazm	158,4	65,0
Toshkent sh.	3 836,6	114,8

Ixtisoslashtirilgan qurilish ishlari faoliyat turi bo'yicha bajarilgan qurilish ishlarining eng yuqori o'sish sur'ati Namangan viloyati (2021- yilning yanvar-sentabr oylariga nisbatan 254,4 %), mos ravishda Toshkent viloyati (210,7 %), Surxondaryo viloyati (168,7 %) va Qoraqalpog'iston Respublikasi (162,1 %)ga to'g'ri keldi.



¹⁾ Hududlar bo'yicha taqsimlanmagan hajmni qo'shgan holda.

Yirik qurilish tashkilotlari tomonidan 2022- yilning yanvar-sentabr oylarida bajarilgan qurilish ishlari hajmi 24657,6 milliard so'mni tashkil etdi. 2021- yilga nisbatan ko'rib chiqilayotgan davrda qurilish ishlarining o'sish sur'ati 106,7 foizga yetdi va ularning umumiy hajmdagi ulushi 0,1 foizga oshib, 26,2 foizni tashkil etdi.


Yirik qurilish tashkilotlari tomonidan bajarilgan qurilish ishlarining jami qurilish ishlari hajmidagi eng ko'p ulushi Toshkent shahri (hududdagi jami qurilish ishlari hajmining 34,2 % i), Sirdaryo viloyati (hududdagi jami qurilish ishlari hajmining 24,6 % i) va Navoiy viloyati (hududdagi jami qurilish ishlari hajmining 21,4 % i)ga to'g'ri keldi.

2022- yilning yanvar-sentabr oylarida kichik korxonalar va mikrofirmalar tomonidan bajarilgan qurilish ishlari hissasiga jami qurilish ishlari hajmining 54,6 % i to'g'ri kelib, 2021- yilning mos davriga nisbatan 0,2 % punktga kamaydi. Shuningdek, ular hissasiga to'g'ri kelgan qurilish ishlari hajmi 2021- yilning yanvar-sentabr oylariga nisbatan 104,5 % ni tashkil etgan holda 51 362,2 mlrd. so'm miqdorida qayd etildi.

Ko'rib chiqilayotgan davrda kichik korxonalar va mikrofirmalar tomonidan bajarilgan qurilish ishlarining eng katta hajmi Toshkent shahrida (12431,6 mlrd. so'm yoki umumiy ko'rsatkichning 53,4 % i), Toshkent viloyatida (4832,0 mlrd. so'm yoki 57,2 % i), Samarqand viloyatida (4199,4 mlrd. so'm yoki 66,3 % i) qayd etildi.

Norasmiy sektorda qurilish ishlarining ulushi 19,2 foizni yoki 18097,2 mlrd. so'mni tashkil etib, 2021- yilning yanvar-sentabriga nisbatan o'sish sur'ati 111,0 foizga yetdi. Shundan 13355,6 mlrd. so'mi yakka tartibdagi uy-joy qurilishiga to'g'ri kelib, 2021- yilning mos davriga nisbatan 115,8 foizni, jismoniy shaxslar tomonidan noturar-joylar qurilishi 2575,6 mlrd. so'mni va o'sish sur'ati 97,1 foizni, 2166,0 mlrd. so'mlik yakka tartibda turar-joylarni ta'mirlash ishlari bajarilib, o'sish sur'ati 101,8 foizni tashkil etdi.

Joriy davrda norasmiy sektor tomonidan bajarilgan qurilish ishlarining eng katta hajmi Toshkent shahrida (2870,6 mlrd. so'm yoki 2021- yilning yanvar-sentabriga nisbatan o'sish sur'ati 135,1 % ni tashkil etdi), Qoraqalpoqiston Respublikasida (800,0 mlrd. so'm yoki 125,3 %) Farg'ona viloyati (1419,1 mlrd. so'm yoki 118,2 %) va Qashqadaryo viloyatida (1328,0 mlrd. so'm yoki 117,6 %) qayd etildi.



Davlat mulkchiligidagi tashkilotlar tomonidan jami 2937,7 mlrd. so‘m qurilish ishlari bajarildi. Nodavlat mulkchilikdagi tashkilotlar tomonidan esa 91180,2 mlrd. so‘m qurilish ishlari bajarildi. Ularning respublikadagi ulushi mos ravishda 3,1 % va 96,9 % ni tashkil etdi.

Nodavlat mulk obyektlari tomonidan bajarilgan qurilish ishlari hajmida eng yuqori ulush Surxondaryo viloyatida (ushbu viloyatdagi qurilish ishlari umumiy hajmining 99,6 foizi), Jizzax viloyatida (qurilish ishlar umumiy hajmining 99,0 foizi) va Samarqand viloyatida (ushbu viloyatdagi umumiy qurilish ishlarining 98,1 foizi) qayd etildi.

Hududlar kesimida aholi jon boshiga qurilish ishlari

	<i>Aholi jon boshiga qurilish ishlari, ming so‘m</i>	<i>O‘shish sur‘ati, % da</i>
O‘zbekiston Respublikasi	2 647,8	104,2
Qoraqalpog‘iston Respublikasi	1 973,1	106,9
<i>viloyatlar:</i>		
Andijon	1 494,1	104,6
Buxoro	3 061,5	99,6
Jizzax	1 742,0	103,6
Qashqadaryo	1 600,6	99,6
Navoiy	4 186,4	106,4
Namangan	1 600,0	107,6
Samarqand	1 558,2	109,5
Surxondaryo	1 737,4	103,0
Sirdaryo	2 334,0	84,4
Toshkent	2 855,5	106,3
Fargo‘na	1 580,6	108,6
Xorazm	1 861,1	100,0
Toshkent sh.	8 022,4	101,7

Hududlar kesimida 2022- yil yanvar-sentabr oylarida aholi jon boshiga qurilish ishlari hajmi bo‘yicha birinchi o‘rinni Toshkent shahri 8 022,4 ming so‘m (yoki, 2021- yilning mos davriga nisbatan 101,7 %) ko‘rsatkich bilan egalladi, undan keying o‘rinlarni mos ravishda Navoiy viloyati – 4 186,4 ming so‘m (106,4 %), Buxoro viloyati – 3 061,5 ming so‘m (99,6 %), Toshkent viloyati – 2 855,5 ming so‘m (106,3 %), Sirdaryo viloyati – 2 334,0 ming so‘m (84,4 %) egalladi.

Statistik ko‘rsatkichlarga izohlar

Nomoliyaviy aktivlarga kiritilgan investitsiyalar bu – real mablag‘larni yaratishga yo‘naltirilgan investitsiyalar bo‘lib, quyidagilarni o‘z ichiga oladi: asosiy kapitalga o‘zlashtirilgan investitsiyalar, kapital ta‘mirlashga xarajatlar, nomoddiy aktivlarga kiritilgan investitsiyalar (patentlar, litsenziyalar, dasturiy mahsulotlar, yer maydonlaridan va tabiiy resurslardan foydalanish huquqlari va boshqalar).

Asosiy kapitalga o‘zlashtirilgan investitsiyalarga barcha turdagi qurilish ishlariga qilingan xarajatlar; asbob-uskunalarni montaj qilish bo‘yicha xarajatlar; mashina, asbob-uskunalar (montaj talab etiladigan va talab etilmaydigan), transport vositalari, jihoz va xo‘jalik inventarini sotib olish; boshqa kapital ishlar va xarajatlar kiradi. Asosiy kapitalga o‘zlashtirilgan investitsiyalar hajmlari to‘g‘risidagi ma‘lumotlar, ilgari boshqa tashkilotlarning asosiy fondlarida hisobga olingan asbob-uskunalar, binolar va inshootlar (yoki ularning ehtiyot qismlari)ni sotib olishga qilingan xarajatlarsiz keltirilgan.

Chet el investitsiyalari – asosan kelgusida foyda olish maqsadida, O‘zbekiston Respublikasi hududidagi korxonalar va tashkilotlarga kiritilgan chet el kapitali.

Investorlar – yuridik va jismoniy shaxslar bo‘lib, qarorlarni qabul qiluvchi va o‘z mablag‘lari, qarz mablag‘lari yoki jalb qilingan mablag‘larni investitsiya ko‘rinishida investitsion loyihalarga kiritishni amalga oshiruvchi hamda ulardan maqsadli foydalanilishini ta‘minlab beruvchi investitsion faoliyat subyektlari hisoblanadi.

To‘g‘ridan-to‘g‘ri xorijiy investitsiyalar bu – korxonaga to‘liq egalik qiluvchi yoki korxonalar aksionerlik kapitalining 10 foizidan kam bo‘lmagan qismini nazorat qiluvchi, ya‘ni korxonani boshqarishda ishtirok etish huquqiga ega bo‘lgan, to‘g‘ridan-to‘g‘ri xorijiy investor yuridik yoki jismoniy shaxs tomonidan kiritilgan investitsiyalar.

Buyurtmachilar – investitsion jarayonning qatnashchilari. Buyurtmachi sifatida investorning o‘zi, shuningdek, investor tomonidan amaldagi korxonalarni, binolarni, inshootlarni yangi qurilishi, qayta ta‘mirlash, kengaytirish va texnik qayta qurollantirishni amalga oshirishlari uchun vakil etib tayinlangan jismoniy va yuridik shaxslar faoliyat ko‘rsatishlari mumkin. Shu bilan birga buyurtmachi investitsion jarayon qatnashchilarining tadbirkorlik va boshqa faoliyatiga, agarda ular orasidagi shartnomada nazarda tutilmagan bo‘lsa, aralashmasliklari lozim.


Pudratchi – kapital qurilish uchun pudrat shartnomasi asosida bino va inshootlarni qurish bo‘yicha qurilish-montaj, qayta ta‘mirlash, kapital ta‘mirlash hamda texnologik va boshqa uskunalarni montaj qilish, sozlash va boshqa pudrat ishlarini bajarish bilan shug‘ullanadi.

V. XIZMATLAR

1- BO'LIM. XIZMATLAR SOHASI RIVOJLANISHINING ASOSIY KO'RSATKICHLARI

Xizmatlar sohasini har tomonlama rivojlantirish iqtisodiyotning barqaror rivojlanishini ta'minlash, samarali bandlik va aholi turmush darajasini oshirishning dolzarb masalasidir.

Yanvar-sentabr oylarida xizmatlar sohasining asosiy ko'rsatkichlari



Dastlabki ma'lumotlarga ko'ra, 2021- yilning yanvar-sentabr oylariga nisbatan 2022- yil yanvar-sentabr oylarida ko'rsatilgan bozor xizmatlari hajmi 49 111,0 mlrd. so'mga oshib, 253 840,0 mlrd. so'mga yetdi.

Taqqoslama ekvivalentda 2021- yilning yanvar-sentabr oylariga nisbatan (119,5 %) o'sish sur'ati 115,4 % ni tashkil etdi.

Taqqoslash uchun:

2021- yil yanvar-sentabr oylarida xizmatlar hajmi 204 729,0 mlrd. so'mni tashkil etdi.


Taqqoslash uchun:

2021- yil sentabr (diskret oy) uchun xizmatlar hajmi 2020- yil sentabriga nisbatan 5,3 trln. so'mga oshdi.

2021- yil sentabr oyiga nisbatan (25,7 trln. so'm), 2022- yil sentabr (diskret oy) uchun taqdim etilgan bozor xizmatlari hajmi (32,2 trln. so'm) 6,5 trln. so'mga oshdi.


¹⁾ Ko'rsatkichlar har bir keyingi yilning metodologiyasiga muvofiq, qayta ko'rib chiqiladi

Ko'rsatilgan bozor xizmatlarining hajmi, trln. so'm



2022- yil yanvar oyiga nisbatan joriy yilning sentabr (diskret oyi) uchun bozor xizmatlari hajmi 7,9 trln. so'mga oshdi va 32,2 trln. so'mga yetdi. 2022- yilning oldingi (avgust) oyiga nisbatan 1,3 trln. so'mlik o'sish qayd etildi.

Taqqoslash uchun: 2021- yil yanvariga nisbatan 2021- yil sentabrda xizmatlar hajmi 6,0 trln. so'mga, 2021- yil avgustiga nisbatan esa 1,5 trln. so'mga oshgan.



2022- yilning III diskret choragi yakunlariga ko'ra, ko'rsatilgan xizmatlar hajmi 93,3 trln. so'mni tashkil etib, 2021- yilning III diskret choragiga nisbatan (74,0 trln. so'm) hajmi 19,3 trln. so'mga oshdi.

Taqqoslash uchun: 2021- yil III diskret choragining hajmi, 2020- yilning shu davriga nisbatan 17,7 trln. so'mga yuqori bo'lgan.

2- BO'LIM. IQTISODIY FAOLIYAT TURLARI BO'YICHA ISHLAB CHIQRILGAN XIZMATLAR

Iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha bozor xizmatlarini ishlab chiqarish

Xizmat turlarining nomi	2021- y. yanvar-sentabr		2022- y. yanvar-sentabr	
	Xizmatlar hajmi, mlrd. so'm	O'sish sur'ati, % da	Xizmatlar hajmi, mlrd. so'm	O'sish sur'ati, % da
Xizmatlar – jami	204 729,0	119,5	253 840,0	115,4
<i>shu jumladan asosiy turlari bo'yicha:</i>				
aloqa va axborotlashtirish xizmatlari	12 814,0	121,0	16 351,4	124,1
moliyaviy xizmatlar	43 996,6	128,8	58 599,1	129,6
transport xizmatlari	47 490,4	116,5	55 557,4	111,9
<i>shu jumladan: avtotransport xizmatlari</i>	26 116,7	113,4	29 781,2	107,2
yashash va ovqatlanish xizmatlari	6 041,9	116,0	8 088,7	115,3
savdo xizmatlari	52 510,7	111,0	63 761,0	108,2
ko'chmas mulk bilan bog'liq xizmatlar	5 840,9	124,4	6 939,0	110,7
ta'lim sohasidagi xizmatlar	8 192,2	145,8	10 302,8	112,1
sog'liqni saqlash sohasidagi xizmatlar	3 830,4	128,7	4 646,5	109,9
ijara xizmatlari	3 889,7	126,6	4 588,3	110,2
kompyuterlar va maishiy tovarlarni ta'mirlash bo'yicha xizmatlar	3 393,3	125,0	4 205,5	108,4
shaxsiy xizmatlar	4 901,4	118,2	6 269,3	107,1
me'morchilik, muhandislik izlanishlari, texnik sinovlar va tahlil sohasidagi xizmatlar	4 356,5	118,7	5 245,9	108,8
boshqa xizmatlar	7 471,0	110,9	9 285,1	113,7


Ko'rsatilgan bozor xizmatlari umumiy hajmini o'sishining asosiy omili moliyaviy xizmatlarning 29,6 % ga o'sishi (ko'rsatilgan xizmatlar umumiy hajmining o'sishiga

qo'shgan hissasi 6,4 punkt), transport xizmatlari – 11,9 % ga (o'sishga qo'shgan hissasi 2,8 punkt), savdo xizmatlari – 8,2 % ga (o'sishga qo'shgan hissasi 2,1 punkt), aloqa va axborotlashtirish xizmatlari – 24,1 % (oshirishga qo'shgan hissasi 1,5 punkt), boshqa xizmatlar – 13,7 % (oshirishga qo'shgan hissasi 0,5 punkt), ta'lim xizmatlari – 12,1 % (oshirishga qo'shgan hissasi 0,5 punkt), shuningdek, yashash va ovqatlanish xizmatlari – 15,3 % ga, ko'rsatilgan xizmatlarning umumiy hajmining o'sishiga qo'shgan hissasi 0,4 punktni tashkil etdi.

Ko'rsatilgan bozor xizmatlari umumiy hajmining o'sishiga, xizmat turlari bo'yicha mutlaq o'sish ta'siri, % da
(2022- yil yanvar-sentabr oylarida)



Iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha xizmatlar tarkibi, % da
(2022- yil yanvar-sentabr oylarida)




Iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha ko'rsatilgan bozor xizmatlari tarkibida eng katta ulushni savdo xizmatlari egallaydi. 2022- yil yanvar-sentabr oylarida bu xizmatlarning ulushi 25,1 % ni tashkil etdi. Shuningdek, moliyaviy (23,1 %) va transport (21,9 %) xizmatlari katta ulushga ega.


Taqqoslash uchun:
2021- yilning yanvar-sentabr oylarida savdo xizmatlari umumiy hajmning 25,6 % ini tashkil etgan. Kompyuterlarni ta'mirlash bo'yicha xizmatlarning ulushi – 1,7 %.

Savdo xizmatlari
(yanvar-sentabr oylarida)

Xizmatlar hajmi, trln. so'm¹⁾



O'sish sur'ati, % da



Savdo xizmatlarining tarkibi, % da
(2022-yil yanvar-sentabr oylarida)



1. Avtomobillar va mototsikllar savdosidan tashqari chakana savdo bo'yicha xizmatlar
2. Ulgurji savdo xizmatlari (avtomobillar va mototsikllar savdosidan tashqari)
3. Avtomobillar va mototsikllar ulgurji va chakana savdosi, jumladan, ularni ta'mirlash xizmatlarini qo'shgan holda

2022-yil yanvar-sentabr oylarida savdo xizmatlarining tarkibida avtomobillar va mototsikllar savdosidan tashqari chakana savdo bo'yicha xizmatlarining ulushi eng katta – 65,2 %.

Ko'rib chiqilayotgan davrda ulgurji savdo xizmatlari (avtomobillar va mototsikllar savdosidan tashqari) ulushi 27,3 % ga yetdi.


Savdo xizmatlarining umumiy hajmida avtomobillar va mototsikllar ulgurji va chakana savdosi, jumladan, ularni ta'mirlash xizmatlarini qo'shgan holda 7,5 % ni tashkil etdi.

Hududlar kesimida xizmatlar hajmi
mlrd. so'm
(2022-yil yanvar-sentabr oylarida)




¹⁾ Ko'rsatkichlar har bir keyingi yilning metodologiyasiga muvofiq, qayta ko'rib chiqiladi

Transport xizmatlari
(yanvar-sentabr oylarida)



Turlari bo'yicha transport xizmatlarining tarkibi, % da
(2022- yil yanvar-sentabr oylarida)



Hududlar kesimida xizmatlar hajmi va o'sish sur'ati
(2022- yil yanvar-sentabr oylarida)


Hududlar	Xizmatlar hajmi, mlrd. so'm	O'sish sur'ati, % da
Qoraqalpog'iston Resp.	1 956,5	127,2
Andijon	2 502,5	108,9
Buxoro	2 366,1	106,3
Jizzax	844,9	105,0
Qashqadaryo	2 453,1	110,1
Navoiy	1 097,1	108,8
Namangan	1 796,8	108,8
Samarqand	3 868,0	108,5
Surxondaryo	1 367,3	111,0
Sirdaryo	480,7	106,1
Toshkent	4 307,1	108,2
Farg'ona	2 867,4	104,4
Xorazm	1 672,0	110,3
Toshkent shahri	8 763,2	118,8

Transport xizmatlarining eng katta hajmi Toshkent shahrida qayd etildi. 2021- yilning yanvar-sentabr (7 048,7 mlrd. so'm), oylariga nisbatan mazkur hududda ushbu turdagi xizmatlar hajmi 1 714,5 mlrd. so'mga o'sgan.


Yuqori o'sish sur'atlari Qoraqalpog'iston Respublikasida – 127,2 % va Toshkent shahrida – 118,8 % qayd etildi.

¹⁾ Ko'rsatkichlar har bir keyingi yilning metodologiyasiga muvofiq, qayta ko'rib chiqiladi

Avtomobil transporti xizmatlari
(yanvar-sentabr oylarida)



Avtomobil transporti xizmatlarining tarkibi, % da



■ Yo'lovchi tashish

■ Yuk tashish

Hududlar orasida xizmatlar hajmi bo'yicha Toshkent shahri yetakchilik qiladi. Bu yerda 2022- yil yanvar-sentabr oylarida avtotransport xizmatlari hajmi 4 976,9 mlrd. so'm miqdorida qayd etildi. Eng past ko'rsatkich Sirdaryo viloyatida qayd etildi – 450,8 mlrd. so'm.

2021- yil yanvar-sentabr oylariga nisbatan Qashqadaryo 109,8 %, Samarqand 109,3 % va Surxondaryo 109,1 % viloyatlarida yuqori o'sish kuzatildi. Nisbatan past o'sish Qoraqalpog'iston Respublikasida qayd etildi – 104,0 %.

2022- yilning yanvar-sentabr oylarida avtomobil transportida ko'rsatilgan bozor xizmatlari hajmi 29 781,2 mlrd. so'mni tashkil etdi.

2021- yilning yanvar-sentabr oylariga nisbatan ushbu xizmatlarning o'sishi 7,2 % ga oshdi. Ko'rsatilgan bozor xizmatlarining umumiy hajmida ulushi 11,7 % ni tashkil etdi.


Hududlar kesimida xizmatlar hajmi va o'sish sur'ati
(2022- yil yanvar-sentabr oylarida)

Hududlar	Xizmatlar hajmi, mlrd.so'm	O'sish sur'ati, % da
Qoraqalpog'iston Resp.	926,6	104,0
Andijon	2 433,5	108,4
Buxoro	2 108,2	104,9
Jizzax	824,7	104,6
Qashqadaryo	2 353,7	109,8
Navoiy	925,9	108,7
Namangan	1 662,3	108,4
Samarqand	3 651,0	109,3
Surxondaryo	1 269,2	109,1
Sirdaryo	450,8	105,6
Toshkent	3 977,2	105,8
Farg'ona	2 654,8	103,2
Xorazm	1 565,3	107,0
Toshkent shahri	4 976,9	108,5


¹⁾ Ko'rsatkichlar har bir keyingi yilning metodologiyasiga muvofiq, qayta ko'rib chiqiladi

Moliyaviy xizmatlar
(yanvar-sentabr oylarida)

Xizmatlar hajmi, trln. so'm¹⁾




O'sish sur'ati, % da



Moliyaviy xizmatlarning tarkibi, % da
(2022-yil yanvar-sentabr oylarida)

Sug'urta va nafaqa ta'minoti bo'yicha xizmatlardan tashqari moliyaviy xizmatlar
Sug'urta bo'yicha xizmatlar
Yordamchi moliyaviy faoliyat



Hududlar kesimida xizmatlar hajmi, mlrd. so'm
(2022-yil yanvar-sentabr oylarida)




Moliyaviy xizmatlar tarkibida sug'urta va nafaqa ta'minoti bo'yicha xizmatlardan tashqari (pul mablag'larini olish va qayta taqsimlash bo'yicha xizmatlar) pul-kredit sohasida vositachilik xizmatlari ustunlik qiladi. 2022-yil yanvar-sentabr oylarida ushbu xizmatlarning ulushi 96,2 % ni tashkil etdi.


Sug'urta xizmatlari tarkibida eng katta ulush sug'urta xizmatlariga to'g'ri keladi, hayotni sug'urta qilish xizmatlari bundan mustasno (baxtsiz hodisa va yong'indan sug'urta qilish, sog'liqni sug'urta qilish, turistik sug'urta qilish, mol-mulkni sug'urta qilish, transport sug'urta qilish, pul yo'qotishlaridan va majburiyatlardan sug'urta qilish) - 58,9 %. Hayotni sug'urta qilish xizmatlari umumiy sug'urta xizmatlari hajmining 30 % ini tashkil etdi.

¹⁾ Ko'rsatkichlar har bir keyingi yilning metodologiyasiga muvofiq, qayta ko'rib chiqiladi

Aloqa va axborotlashtirish xizmatlari
(yanvar-sentabr oylarida)



Aloqa va axborotlashtirish xizmatlarining tarkibi, % da
(2022- yil yanvar-sentabr oylarida)



2022- yilning yanvar-sentabr oylarida aloqa va axborotlashtirish xizmatlari hajmi 16 351,4 mlrd. so'mni tashkil etib, 2021- yilning yanvar-sentabriga nisbatan o'sish sur'ati 124,1 % ni tashkil etdi.

Aloqa va axborotlashtirish xizmatlari hajmida eng katta ulush telekommunikatsiya xizmatlariga to'g'ri keldi— 65,0 %.

Aloqa va axborotlashtirish xizmatlarining eng katta hajmi Toshkent shahrida qayd etildi. 2021- yilning yanvar-sentabr oylariga nisbatan mazkur hududda ushbu turdagi xizmatlar hajmi 2 284,5 mlrd. so'mga oshib, 10 018,3 mlrd. so'mni tashkil etdi.


Hududlar kesimida xizmatlar hajmi va o'sish sur'ati
(2022- yil yanvar-sentabr oylarida)

Hududlar	Xizmatlar hajmi, mlrd.so'm	O'sish sur'ati, % da
Qoraqalpog'iston Resp.	394,5	117,6
Andijon	604,2	126,0
Buxoro	450,4	119,9
Jizzax	291,8	122,1
Qashqadaryo	555,2	123,5
Navoiy	254,8	119,8
Namangan	534,0	123,8
Samarqand	765,7	123,3
Surxondaryo	442,8	126,2
Sirdaryo	204,4	120,4
Toshkent	610,2	127,6
Farg'ona	837,7	123,7
Xorazm	377,4	122,0
Toshkent shahri	10 018,3	124,6


¹⁾ Ko'rsatkichlar har bir keyingi yilning metodologiyasiga muvofiq, qayta ko'rib chiqiladi

Telekommunikatsiya xizmatlari
(yanvar-sentabr oylarida)

Xizmatlar hajmi, trln. so'm¹⁾



O'sish sur'ati, % da



Hududlar kesimida xizmatlar hajmi va o'sish sur'ati
(2022- yil yanvar-sentabr oylarida)

Hududlar kesimida xizmatlar hajmi va o'sish sur'ati (2022- yil yanvar-sentabr oylarida)	Hajm, mlrd. so'm	O'sish sur'ati, % da
Qoraqalpog'iston Resp.	369,2	118,6
Andijon	582,1	126,5
Buxoro	411,9	121,1
Jizzax	247,2	125,1
Qashqadaryo	531,2	123,7
Navoiy	244,9	119,8
Namangan	493,9	124,7
Samarqand	713,0	123,2
Surxondaryo	421,3	126,8
Sirdaryo	195,9	123,2
Toshkent	522,5	127,1
Farg'ona	781,3	124,5
Xorazm	359,5	122,4
Toshkent sh.	4 741,8	115,9

2022- yilning yanvar-sentabr oylarida telekommunikatsiya xizmatlarining yuqori o'sishi Toshkent (27,1 %), Surxondaryo (26,8 %) va Andijon (26,5 %), Jizzax (25,1 %), Namangan (24,7 %) va Farg'ona (24,5 %) viloyatlarida qayd etildi.

Ushbu xizmatlar hajmining Qoraqalpog'iston Respublikasida – 18,6 % ga va Toshkent shahrida – 15,9 % ga nisbatan biroz o'sishi kuzatildi.

¹⁾ Ko'rsatkichlar har bir keyingi yilning metodologiyasiga muvofiq, qayta ko'rib chiqiladi

2022- yilning yanvar-iyun oylariga nisbatan (9 782,0 mlrd.so‘m) AKT xizmatlari sektori hajmi 2022- yil yanvar-sentabrda 5 989,6 mlrd.so‘mga oshib, 15 771,6 mlrd. so‘mni tashkil etdi. Kontent va ommaviy axborot vositalari sektori hajmi 524,5 mlrd. so‘mga oshib, 1 467,4 mlrd. so‘mga yetdi.


OAV, kontent va AKT xizmatlari sektorlarining muqobil to‘plami
(2022- yil yanvar-sentabr oylarida)

<i>Xizmat turlarining nomi</i>	<i>Hajm, mlrd.so‘m</i>	<i>Umumiy hajmdagi ulushi, % da</i>
Jami	17 239,0	100,0
<i>shu jumladan:</i>		
AKT xizmatlari sektori	15 771,6	91,5
<i>shu jumladan:</i>		
Dasturiy ta‘minotni nashr qilish bo‘yicha xizmatlar	407,9	2,5
Telekommunikatsiya xizmatlari	10 623,9	67,4
Kompyuter dasturlashtirish, maslahat berish xizmatlari va boshqa yordamchi xizmatlar	2 941,2	18,7
Ma‘lumotlarga ishlov berish, joylashtirish bo‘yicha xizmatlar va o‘zaro bog‘liq xizmatlar; veb-portallar	911,0	5,8
Kompyuterlar va aloqa usukunalarini ta‘mirlash bo‘yicha xizmatlar	1 467,4	8,5
<i>shu jumladan:</i>		
Kitoblar, davriy nashrlar nashr qilish bo‘yicha xizmatlar va boshqa noshirlik xizmatlari	328,1	22,3
Kino – videofilmlar va televideniye dasturlari ishlab chiqarish bo‘yicha xizmatlar	143,2	9,8
Dasturlar tuzish va teleradioeshittirishlar bo‘yicha xizmatlar	588,3	40,1
Boshqa axborot xizmatlari	407,8	27,8


2022- yil yanvar-sentabr oylarida AKT xizmatlari sektorlari muqobil to‘planning umumiy tarkibida 91,5 % ni tashkil etdi. AKT sohasida telekommunikatsiya xizmatlari ustunlik qildi – 67,4 %.

Kontent sektori va ommaviy axborot vositalari muqobil to‘plaming umumiy hajmdagi ulushi 8,5% ni tashkil etdi. Uning tarkibida dasturlar tuzish va teleradioeshittirishlar bo‘yicha xizmatlarda eng katta hajm qayd etilgan – 40,1 %.

Ta'lim sohasidagi xizmatlar
(yanvar-sentabr oylarida)




Hududlar kesimida ta'lim xizmatlari o'sish sur'ati
(2022- yil yanvar-sentabr oylarida)



2022- yil yanvar-sentabr oylarida ta'lim sohasidagi xizmatlar hajmi 10 302,8 mlrd. so'mga yetdi. 2021- yil yanvar-sentabr oylariga nisbatan o'sish sur'ati 112,1 % ni tashkil etdi.

¹⁾ Ko'rsatkichlar har bir keyingi yilning metodologiyasiga muvofiq, qayta ko'rib chiqiladi

Sog'liqni saqlash sohasidagi xizmatlar
(yanvar-sentabr oylarida)



Hududlar kesimida xizmatlar hajmi va o'sish sur'ati
(2022- yil yanvar-sentabr oylarida)

Hududlar	Xizmatlar hajmi, mlrd.so'm	O'sish sur'ati, % da
Qoraqalpog'iston Respublikasi	97,1	110,2
viloyatlar:	208,5	104,6
Andijon	198,8	116,4
Buxoro	114,3	99,5
Jizzax	142,0	103,0
Qashqadaryo	96,1	120,3
Navoiy	237,7	114,2
Namangan	344,2	119,3
Samarqand	142,6	93,6
Surxondaryo	78,5	111,4
Sirdaryo	480,8	126,4
Toshkent	348,7	109,9
Farg'ona	153,4	113,5
Xorazm	2 003,8	106,3

2022- yil yanvar-sentabr oylarida sog'liqni saqlash sohasidagi xizmatlar hajmi 4 646,5 mlrd. so'm hisobida qayd etildi. Xizmatlarning umumiy hajmida ularning ulushi 1,8 % ni tashkil etdi. 2021- yil yanvar-sentabr oylariga nisbatan o'sish sur'ati 109,9 % ni tashkil etdi.

Taqqoslash uchun:

2021- yil yanvar-sentabr oylarida ushbu xizmatlar hajmi 3 830,4 mlrd. so'mni yoki ularning umumiy hajmining 1,9 % ini tashkil etdi.


Sog'liqni saqlash sohasidagi xizmatlar, bozor xizmatlarining umumiy hajmida Toshkent shahri katta qismini egallaydi– 43,1 %.

2022- yil yanvar-sentabr oylarida Toshkent (26,4 %), Navoiy (20,3 %), Samarqand (19,3 %) va Buxoro (16,4 %) viloyatlarida sog'liqni saqlash xizmatlari bo'yicha yuqori o'sish kuzatildi.

Ushbu xizmatlarning o'sish sur'atlarining pasayishi Surxondaryo – 6,4 % va Jizzax – 0,5 % viloyatlarida qayd etildi.

¹⁾ Ko'rsatkichlar har bir keyingi yilning metodologiyasiga muvofiq, qayta ko'rib chiqiladi

Yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlar
(yanvar-sentabr oylarida)



2021- yil yanvar-sentabr oylari bilan taqqoslaganda, 2022- yil yanvar-sentabr oylarida yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlar hajmi 2 046,8 mlrd. so'mga oshdi va 8 088,7 mlrd. so'mga yetdi, o'sish sur'ati esa 115,3 % ni tashkil etdi.

Yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlarning tarkibi, % da



Ushbu xizmatlarning umumiy hajmida oziq-ovqat va ichimliklar bilan ta'minlash xizmatlarining ulushi ustunlik qildi – 84,5 %. Yashash bo'yicha xizmatlarning ulushi 15,5 % ni tashkil qildi.

Yuqori o'sish sur'atlari Navoiy – 166,9 %, Namangan – 120,9 % viloyatlarida va Toshkent shahrida – 118,0 % ni tashkil etdi. Qoraqalpog'iston Respublikasida nisbatan past o'sish kuzatildi – 3,0 %.

Hududlar kesimida xizmatlar hajmi va o'sish sur'ati
(2022- yil yanvar-sentabr oylarida)

Hududlar	Xizmatlar hajmi, mlrd. so'm	O'sish sur'ati, % da
Qoraqalpog'iston Resp.	166,3	103,0
Andijon	231,0	113,1
Buxoro	432,2	107,4
Jizzax	175,9	110,0
Qashqadaryo	335,6	104,9
Navoiy	417,0	166,9
Namangan	267,8	120,9
Samarqand	594,2	113,2
Surxondaryo	295,9	105,8
Sirdaryo	87,1	103,9
Toshkent	747,8	110,0
Farg'ona	389,7	103,6
Xorazm	179,2	114,6
Toshkent sh.	3 768,8	118,0

Hududlar ichida yashash va ovqatlanish sohasidagi xizmatlar bo'yicha eng yuqori ko'rsatkich Toshkent shahrida – 3 768,8 mlrd. so'm yoki yashash va ovqatlanish xizmatlari umumiy hajmining 46,6 % i qayd etildi. Eng past ko'rsatkich Sirdaryo viloyatida qayd etilgan – 87,1 mlrd. so'm.

¹⁾ Ko'rsatkichlar har bir keyingi yilning metodologiyasiga muvofiq, qayta ko'rib chiqiladi

3- BO‘LIM. HUDUDLAR KESIMIDA XIZMATLAR SOHASINING RIVOJLANISHI

Hududlar kesimida ishlab chiqarilgan

<i>Hududlar nomi</i>	<i>Hajm, mlrd. so‘m</i>	<i>umumiy hajmga nisbatan ulushi, %</i>	<i>O‘sish sur‘ati, % da</i>	
			<i>2021- y.</i>	<i>2020- y.</i>
O‘zbekiston Respublikasi¹⁾	253 840,0	100,0	115,4	119,5
Qoraqalpog‘iston Respublikasi	7 439,2	2,9	116,4	121,1
<i>viloyatlar:</i>				
Andijon	12 640,5	5,0	111,5	122,9
Buxoro	11 400,4	4,5	117,0	120,5
Jizzax	5 844,3	2,3	114,7	120,3
Qashqadaryo	11 466,9	4,5	114,0	118,5
Navoiy	6 677,7	2,6	114,7	116,2
Namangan	10 707,6	4,2	116,0	119,8
Samarqand	16 396,2	6,5	115,1	120,3
Surxondaryo	9 298,1	3,7	114,3	118,7
Sirdaryo	3 690,1	1,5	114,4	122,3
Toshkent	18 519,5	7,3	112,4	117,6
Farg‘ona	15 878,8	6,2	114,5	119,6
Xorazm	7 379,2	2,9	113,5	120,7
Toshkent shahri	97 252,9	38,3	117,4	120,0


2022- yil yanvar-sentabr oylarida bozor xizmatlarining umumiy hajmida Toshkent shahrining ulushi eng katta – 38,3 % ni tashkil etdi. Shuningdek, eng katta ulush Toshkent (7,3 %), Samarqand (6,5 %), Farg‘ona (6,2 %) va Andijon (5,0 %) viloyatlariga to‘g‘ri keldi.

Xizmatlar sohasining eng past ko‘rsatkichlari Sirdaryo (1,5 %), Jizzax (2,3 %), Navoiy (2,6 %), Xorazm (2,9 %) viloyatlari va Qoraqalpog‘iston Respublikasida (2,9 %) qayd etildi.

2022- yilning yanvar-sentabr oylarida aholi jon boshiga ko‘rsatilgan bozor xizmatlari hajmi 7 141,1 ming so‘m hisobida qayd etildi. 2021- yilning yanvar-sentabr oylariga nisbatan o‘sish sur‘ati 113,0 % ni tashkil etdi.

¹⁾ *Hududlar bo‘yicha taqsimlanmagan hajmlarni inobatga olgan holda*

Aholi jon boshiga ko'rsatilgan xizmatlarining asosiy ko'rsatkichlari
(yanvar-sentabr oylarida)




Hududlar kesimida xizmatlar hajmi va o'sish sur'ati
(2022- yil yanvar-sentabr oylarida)

Hududlar	Hajm, ming so'm	O'sish sur'ati, % da
Qoraqalpog'iston Respublikasi	3 796,4	114,7
Andijon	3 855,1	109,3
Buxoro	5 733,1	115,2
Jizzax	4 016,6	112,2
Qashqadaryo	3 338,4	111,6
Navoiy	6 408,6	112,4
Namangan	3 623,4	113,5
Samarqand	4 035,5	112,7
Surxondaryo	3 361,3	111,7
Sirdaryo	4 167,8	112,1
Toshkent	6 260,0	110,5
Farg'ona	4 045,2	112,3
Xorazm	3 812,3	111,6
Toshkent sh.	33 555,4	113,8

Aholi jon boshiga ko'rsatilgan xizmatlarni rivojlantirish o'rtacha aholi jon boshini rivojlanish ko'rsatkichiga muhim ta'sir ko'rsatmoqda. Masalan, aholi soni nisbatan kam bo'lgan Navoiy va Buxoro viloyatlarida aholi jon boshiga ko'rsatkichlar aholi zich joylashgan viloyatlar: Qashqadaryo, Namangan va Andijon viloyatlariga qaraganda yaxshiroq ko'rinadi.

¹⁾ Ko'rsatkichlar har bir keyingi yilning metodologiyasiga muvofiq, qayta ko'rib chiqiladi


Xizmatlar sohasida kichik biznes
(yanvar-sentabr oylarida)



O'tgan yilning shu davriga nisbatan 2022- yilning yanvar-sentabr oylarida kichik biznes subyektlari tomonidan ko'rsatiladigan xizmatlar hajmi 18 219,2 mlrd. so'mga oshdi va 124 598,8 mlrd. so'mga teng bo'ldi. Ishlab chiqarilgan bozor xizmatlarining umumiy hajmida ularning ulushi 49,1 % ni, shu jumladan 19,6 % ini kichik korxonalar va mikrofirmalar tashkil etdi.

Xizmatlar sohasida kichik biznesning eng katta hajmi Toshkent shahrida qayd etilgan – 36 640,8 mlrd. so'm. Eng past ko'rsatkich Sirdaryo viloyatida qayd etilgan – 1 886,0 mlrd.so'm.

Hududlar bo'yicha xizmatlar sohasida kichik biznesning o'sish sur'atlari
(yanvar-sentabr oylarida)



¹⁾ Ko'rsatkichlar har bir keyingi yilning metodologiyasiga muvofiq, qayta ko'rib chiqiladi

4- BO'LIM. XIZMATLAR SOHASIDA FAOLIYAT KO'RSATAYOTGAN KORXONA VA TASHKILOTLAR TO'G'RISIDA MA'LUMOT

2022- yil 1-oktabr holatiga ko'ra respublikada xizmatlar sohasida faoliyat ko'rsatayotgan korxonalar va tashkilotlar soni 382,8 mingtaga yetdi. 2021- yilning shu davriga nisbatan ularning o'sishi 8,8 % ga o'sgan.

2022- yilning 1- oktabr holatiga ko'ra, xizmatlar sohasida faoliyat ko'rsatayotgan korxonalar va tashkilotlarning iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha tarkibi
(fermer va dehqon xo'jaliklaridan tashqari)

Xizmatlar sohasida faoliyat ko'rsatayotgan korxonalar va tashkilotlar soni

382 767

30 992


2021- yilning mos davriga nisbatan ular sonining o'sishi

2021- yilning mos davriga nisbatan o'sish sur'ati

108,8

2022- yil 1- oktabr holatiga ko'ra xizmatlar sohasida faoliyat ko'rsatayotgan korxonalar va tashkilotlarning ulushi 66,2 %, sanoat 16,7 %, qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligi 9,1 % ga yetdi. Korxonalar va tashkilotlarning 8,0 % i qurilishda faoliyat yuritadi.

2022- yilning 1- oktabr holatiga ko'ra, faoliyat ko'rsatayotgan korxonalar va tashkilotlarning tarkibi
(fermer va dehqon xo'jaliklaridan tashqari)



Taqqoslash uchun: 2021- yil 1- oktabr holatiga ko'ra xizmatlar sohasida faoliyat ko'rsatayotgan korxonalar va tashkilotlarning ulushi 65,3 %, sanoat 17,4 %, qishloq xo'jaligi, o'rmon va baliqchilik xo'jaligi 8,9 %, qurilishda esa 8,4 % ni tashkil etgan.

Xizmatlar sohasida faoliyat ko'rsatayotgan korxonalar va tashkilotlar tarkibida, savdo faoliyati bilan shug'ullanuvchi subyektlar yuqori ulushni egallaydi (46,4 %).

Yashash va ovqatlanish bo‘yicha xizmat ko‘rsatuvchi korxonalar va tashkilotlarning ulushi xizmat ko‘rsatish sohasiga oid faoliyat yuritayotgan sub’ektlar umumiy sonining 9,3 foizini tashkil etadi.

Xizmatlar sohasida faoliyat ko‘rsatayotgan korxonalar va tashkilotlar tarkibida tashish va saqlash faoliyati bilan shug‘ullanuvchi korxonalar va tashkilotlarning ulushi 5,2 % ga yetdi.

Axborot va aloqa faoliyati bilan shug‘ullanuvchi korxonalar va tashkilotlarning jami xizmatlar sohasida faoliyat ko‘rsatayotgan korxonalar va tashkilotlar tarkibidagi ulushi 3,0 % ga teng bo‘ldi.


Sog‘liqni saqlash va ijtimoiy ta‘minot sohasida xizmat ko‘rsatayotgan korxonalar va tashkilotlarning ulushi 3,0 % ni tashkil qildi.

2022- yil 1- oktabr holatiga ko‘ra, o‘tgan yilning shu davriga nisbatan xizmatlar sohasida faoliyat ko‘rsatayotgan kichik tadbirkorlik subyektlari soni 29 058 taga ko‘paydi, buning natijasida ularning soni 316 338 taga, o‘rish sur‘ati esa 10,1 % ga oshdi.

2022- yilning 1- oktabr holatiga ko‘ra, xizmatlar sohasida faoliyat ko‘rsatayotgan korxonalar va tashkilotlar to‘g‘risida ma‘lumot
(fermer va dehqon xo‘jaliklaridan tashqari)



2022- yil 1- oktabr holatiga ko‘ra faoliyat ko‘rsatayotgan korxonalar va tashkilotlarning umumiy hajmidagi kichik tadbirkorlik subyektlarining ulushi
(fermer va dehqon xo‘jaliklaridan tashqari)



2021- yilning 1- oktabr holatiga ko‘ra, xizmatlar sohasida faoliyat ko‘rsatayotgan korxonalar va tashkilotlar umumiy sonida kichik tadbirkorlik subyektlarining hissi 82,6 % ga to‘g‘ri keldi.

Ma‘lumot uchun:
2021- yil 1-oktabr holatiga ularning ulushi 81,7 % ni tashkil etdi.

Statistik ko‘rsatkichlarga izohlar

Xizmat sohasi bu – korxonalar, tashkilotlar va shuningdek, jismoniy shaxslar tomonidan ko‘rsatiladigan har xil turdagi xizmatlarning takror ishlab chiqarilishini o‘z ichiga olgan umumlashtirilgan toifadir. Boshqacha qilib aytganda, bu savdo, kasbiy va maishiy xizmatlarni ko‘rsatishga ixtisoslashgan mamlakat iqtisodiyotining tarmog‘idir.

Xizmatlar iste‘molchilar (yuridik va jismoniy shaxslar) holatini o‘zgartiruvchi yoki tovarlar, xizmatlar yoki moliyaviy aktivlar bilan ayirboshlashiga ko‘maklashadigan ishlab chiqarish faoliyatining natijasi hisoblanadi.

Xizmatning o‘ziga xos xususiyati, xizmatni bajarish va uni iste‘mol qilish davrining bir xil vaqtga to‘g‘ri kelishi hisoblanadi.

Iqtisodiy faoliyat turlari bo‘yicha xizmatlar hajmida ko‘rsatilgan xizmatlar uchun amaldagi bozor narxlarini bo‘yicha qo‘shilgan qiymat solig‘i va aksizsiz hisoblangan to‘lovlar hisobga olinadi.

Xizmatlar oldi-sotdi obyektida chiqqanda va iqtisodiy ahamiyatga ega bo‘lgan (xizmatlarni ishlab chiqaruvchining sarf-xarajatlarini to‘laligicha yoki sezilarli darajada qoplaydigan) narxlarda sotilganda, **bozor uchun ishlab chiqarilgan xizmatlar** hisoblanadi.

“Ishlab chiqarilgan (ko‘rsatilgan) xizmatlar hajmi” statistik ko‘rsatkichi – ma‘lum bir vaqt davomida ko‘rsatilgan xizmatlar qiymatini o‘lchovchi, iste‘molchilarga (yuridik va jismoniy shaxslar, norezidentlarni qo‘shgan holda) ko‘rsatilgan xizmatlar qiymatini aks ettiradi.

Ishlab chiqarilgan (ko‘rsatilgan) xizmatlar hajmi bu – xizmatlar ishlab chiqarishga ixtisoslashgan va xizmat ko‘rsatish asosiy faoliyat turi hisoblanadigan barcha xizmatlar ishlab chiqaruvchilari (yuridik va jismoniy shaxslar) tomonidan ko‘rsatilgan bozor xizmatlari qiymatidir.

Iste‘molchilar tomonidan xizmatlar uchun to‘lovlar naqd pul, shu jumladan, plastik kartochkalar va pul o‘tkazish, elektron to‘lovlar va elektron pullar orqali amalga oshirilishi mumkin.

Norezidentlarga ko‘rsatilgan xizmatlar (agar to‘lov so‘mda amalga oshirilmagan bo‘lsa), xizmatlarga to‘lovlarni amalga oshirish sanasida O‘zbekiston Respublikasi Markaziy banki tomonidan so‘mning belgilangan kursi bo‘yicha qayta hisoblangan shartnoma narxlarini bo‘yicha aniqlanadi.

Elektron to‘lovlar – texnik vositalar, axborot texnologiyalari va axborot tizimlari xizmatlaridan foydalangan holda elektron to‘lov hujjatlari orqali naqd pulsiz to‘lovlarni amalga oshirish.

Elektron pullar – O'zbekiston Respublikasi hududida elektron pullar emitentlari tomonidan chiqariladigan pullar bo'lib, faqat O'zbekiston Respublikasi milliy valyutasida nomlanishi lozim.

Faoliyat turlari bo'yicha xizmatlarni tasniflash, O'zbekiston Respublikasi Iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha mahsulotlarning (tovarlar, ishlar, xizmatlarning) statistik tasniflagichiga (keyingi o'rinlarda MST deb ataladi) muvofiq amalga oshiriladi.

Aloqa va axborotlashtirish xizmatlari aloqa sohasidagi xizmatlarni, shu jumladan telefon, teleks, telegraf, radioeshittirish, elektron pochta, suniy yo'ldosh, faksimile va boshqalarni ishlatib ovozli ma'lumot, tasvir va boshqa axborot oqimlarini uzatish xizmatlarini qamrab oladi.

Bozor xizmatlari hajmi MST bo'yicha tasniflangan barcha iqtisodiy faoliyat turlarining xizmatlarga tegishli qismi (G-S seksiyalar) bo'yicha shakllantiriladi.

Moliyaviy xizmatlar Markaziy bank, tijorat banklari va boshqa moliya-kredit tashkilotlari tomonidan ko'rsatiladi. Bu guruh xizmatlarga banklarning moliyaviy vositachiligi xizmatlari (moliyaviy lizing, kredit berish), shu jumladan, masofaviy bank xizmatlari (internet-banking, mobil-banking), investitsiya fondlari va boshqa moliyaviy tashkilotlarning moliyaviy vositachiligi, moliya bozorlari (fond va valyuta birjalari) faoliyatining yordamchi moliyaviy vositachilik va boshqa moliyaviy xizmatlar kiradi.

Moliyaviy xizmatlar hajmi moliyaviy vositachilik yo'li bilan olingan foizlar daromadi (ular uchun to'lov miqdorida), shuningdek, moliya muassasasining kredit berish yoki depozitni saqlash bo'yicha xizmatlari uchun yig'im bilan hisobga olinadi.

Transport xizmatlari transportning barcha turlarida yuklarni va yo'lovchilarni tashish faoliyati, shuningdek, transportirovka qilishda yordamchi xizmat turlari, jumladan, logistik xizmatlarni o'z ichiga oladi.

Yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlar mehmonxonalar, otellar, motellar va boshqa yashash uchun joylar kabi qisqa muddatli turar joy bilan ta'minlash va oziq-ovqat mahsulotlari va ichimliklar yetkazib berish bo'yicha ko'rsatilgan xizmatlarni o'z ichiga oladi.

Savdo xizmatlari ulgurji va chakana xizmatlarni birlashtirib, shuningdek, boshqa shaxs manfaatlari uchun tovarlarni oldi-sotdi shartnomalari, komissiyalari yoki agentlik shartnomalari asosida sotilgan vositachilik xizmatlari hamda avtomobil va motosikllarni ta'mirlash xizmatlarini o'z ichiga oladi.

Ko'chmas mulk bilan bog'liq xizmatlarni ko'rsatishda ko'chmas mulk bilan bog'liq operatsiyalar bo'yicha xizmatlar qiymati, korxonaning shaxsiy, xo'jalik yuritish yoki tezkor boshqaruvidagi, shuningdek, ijaraga olingan ko'chmas mulkni ijaraga berishdan olingan daromadlari, ushbu faoliyat tashkilotning asosiy faoliyati yoki yo'qligidan qat'iy nazar aks ettiriladi.

Ta'lim sohasidagi xizmatlar oliy, o'rta maxsus, kasb-hunar, umumta'lim, maktabgacha ta'lim davlat muassasalarida tijorat asosida ta'lim olishni, shuningdek, radio va televideniye, Internet-kanallar va pochta aloqalarini qo'shgan holda har qanday darajadagi xususiy ta'lim olish va xohlagan kasbga o'qishni qamrab oladi.

Sog'liqni saqlash sohasidagi xizmatlar statsionar shifoxona muassasalari, poliklinikalar, stomatologiya muassasalari va tibbiy laboratoriyalar tomonidan pul asosida ko'rsatilgan kompleks xizmatlarni qamrab oladi.


Ijara xizmatlari bo'yicha ishlab chiqarish hajmi mashinalar va asbob-uskunalarini operatorlarsiz ijaraga berish, maishiy jihozlar va shaxsiy ehtiyoj buyumlarini ijaraga berishdan olingan daromad miqdori sifatida aniqlanadi.

Me'morchilik, muhandislik izlanishlari, texnik sinovlar va tahlil sohasidagi xizmatlar hajmi shartnomada nazarda tutilgan talablarga muvofiq loyihalar, izlanishlar, konstruktorlik va texnologik ishlar hamda ko'rsatilgan xizmatlar, shuningdek, qurilish ishlari ustidan nazorat va boshqa injenerlik xizmatlarining qiymatini o'z ichiga oladi.

VI. TRANSPORT VA ALOQA


1-BO'LIM. O'ZBEKISTON RESPUBLIKASIDA TRANSPORT VA ALOQA FAOLIYATINING ASOSIY KO'RSATKICHLARI

2018-2022- yillarning yanvar-sentabr oylarida barcha transport turlarida
yuk tashish (mln. tonna)



2022- yilning yanvar-sentabr oylarida barcha transport turlarida yuk tashish hajmi 1007,7 mln. tonnani tashkil etib, bu esa o'tgan yilning yanvar-sentabr oylariga nisbatan 2,8 % ga ko'pdir. 2018- yilning yanvar-sentabr oylariga nisbatan yuk tashish hajmi 93,7 mln. tonnaga oshdi.


2022- yilning yanvar-sentabr oylarida alohida transport
turlarida yuk tashish (mln. tonna)




2021- yilning yanvar-sentabr oylariga nisbatan 2022- yilning yanvar-sentabr oylari davomida temir yo'l, havo va avtomobil transportida yuk tashish hajmining o'sishi, quvur yo'li transportida esa hajmining biroz pasayishi qayd etildi.

¹⁾ Shu va bundan keyingi ko'rsatkichlar metodologiyaga muvofiq, avvalgi yil ma'lumotlari qayta ko'rib chiqilgan.


**Yanvar-sentabr oylarida alohida transport turlari
bo'yicha yuk tashish (mln. tonna)**



2022- yilning yanvar-sentabr oylarida avtomobil transportida yuk tashish hajmi 906,1 mln. tonnani tashkil etib, o'tgan yilning shu davriga nisbatan o'sish sur'ati 103,1 % ni tashkil etdi. Yuk tashishning umumiy hajmida avtomobil transportining ulushi 89,9 % ni tashkil etdi.




Ushbu davrda temir yo'l transportida yuk tashish hajmi o'tgan yilning mos davriga nisbatan 2,7 % ga oshib, 54,8 mln. tonnani tashkil etdi. Yuk tashishning umumiy hajmida temir yo'l transportining ulushi 5,4 % ni tashkil etdi.



2022- yilning yanvar-sentabr oylarida quvur transporti orqali tashilgan gaz va neft yuklarining umumiy hajmi 46,7 mln. tonnani tashkil etdi va o'tgan yilning mos davriga nisbatan o'sish sur'ati 98,2 % dan iborat bo'ldi. Hisobot davrida quvur transportining ulushi yuk tashishning umumiy hajmida 4,6% ni tashkil etdi.


Havo, ming. tonna



2022- yil boshidan to sentabr oyiga qadar "Uzbekiston havo yo'llari" aviakompaniyasi tomonidan 6,4 ming tonna yuk tashilib, o'tgan yilning mos davriga nisbatan o'sish sur'ati 124,9 % ni tashkil etdi. Yuk tashishning umumiy hajmida havo transportining ulushi 0,01 %ni tashkil etdi.


 O'sish sur'ati, % da

**Yanvar-sentabr oylarida barcha
transport turlari bo'yicha yuk aylanmasi (mln. t -km)**




2022- yilning yanvar-sentabr oylarida barcha transport turlari bo'yicha yuk aylanmasi 55 943,2 mln. t-km.ni tashkil etgan bo'lsa, 2021- yilning mos davrida ushbu ko'rsatkich 54 783,2 mln. t-km, 2020- yilning yanvar-sentabr oylarida esa bu ko'rsatkich 48 344,8 mln. t-km.dan iborat bo'lgan.


shu jumladan turlari bo'yicha:




2022- yilning yanvar-sentabr oylarida avtomobil transportida yuk aylanmasi 15 180,3 mln. t-km.ni tashkil etib, bu 2021- yilning yanvar-sentabriga nisbatan 1 053,5 mln. t-km., 2020- yilning mos davriga nisbatan esa 2 371,9 mln. t-km.ga ko'p demakdir.



Temir yo'l transporti bo'yicha joriy yilning yanvar-sentabr oylarida ushbu ko'rsatkich 18 859,8 mln. t-km.ni tashkil etib, 2021-yilning yanvar-sentabriga nisbatan mos ravishda 1,9 % ga yuqori bo'lgan.




2018- yil yanvar-sentyabr oylariga nisbatan joriy davrda quvur transporti aylanmasi 3193,1 mln t-km.ga pasaydi. Joriy yilning yanvar-sentyabr oylarida quvur transportida yuk aylanmasining o'sish sur'ati 98,7 % ni, 2021- yilda – 117,3 % ni, 2020- yilda – 77,3 % ni tashkil etdi.




Shu yilning yanvar-sentabr oylarida havo transporti yuk aylanmasining o'sish sur'ati 121,7 % ni, 2021- yilning mos davrida ushbu ko'rsatkich 135,5 % ni, 2020- yilda esa 206,1 % ni tashkil etgan.

Yanvar-sentabr oylarida barcha transport turlarida yo'lovchi tashish
(mln. yo'lovchi)




2022- yilning yanvar-sentabr oylarida barcha transport turlarida yo'lovchi tashish 4509,8 mln. yo'lovchini tashkil etib, bu o'tgan yilning yanvar-sentabriga nisbatan 3,7 % ga ko'pdir. Yo'lovchi tashish hajmining qisqarishi va ayrim hollarda butunlay to'xtatilishiga 2020- yilda koronavirus pandemiyasi bilan bog'liq cheklavlarning ta'siri ko'rsatdi. Natijada, bu shu yilda barcha transport turlari bo'yicha o'sish sur'atlarining sekinlashuvida namoyon bo'ldi.

2022- yilning yanvar-sentabr oylarida barcha transport turlarida yo'lovchi tashish (mln. yo'lovchi)



2021- yilning yanvar-sentabr oylariga nisbatan 2022- yilning shu davrida barcha transport turlari bo'yicha yo'lovchi tashish hajmi oshgan. 2021- yilda pandemiya bilan bog'liq cheklavlarning olib tashlanishi yo'lovchi tashish hajmining keskin o'sishiga olib kelib, bu asosan havo (+43,5 %) va elektr (+36,8 %) transporti ko'rsatkichlarida yaqqol namoyon bo'ldi.


**Yanvar-sentabr oylari uchun barcha transport turlarida
yo'lovchi tashish (mln. yo'lovchi)**




2022- yilning tahlil qilingan davrida avtomobil transportida jami 4 403,1 mln. yo'lovchi tashilib, 2021- yilning mos davriga nisbatan o'sish sur'ati 103,1 % ni tashkil etdi. Yo'lovchi tashishning umumiy hajmida avtomobil transportining ulushi 97,6 % ni tashkil etdi.



2022- yilning yanvar-sentabr oylarida "O'zbekiston temir yo'llari" AJ tomonidan 6,8 mln. yo'lovchi tashildi. 2021- yilning yanvar-sentabr oylariga nisbatan yo'lovchi tashish hajmining o'sish sur'ati 115,7 % ni tashkil etdi. Yo'lovchi tashishning umumiy hajmida temir yo'l transportining ulushi 0,1 %ni tashkil etdi.



"O'zbekiston havo yo'llari" 2022- yilning yanvar-sentabr oylarida 3,0 mln. yo'lovchi tashilib, yo'lovchi tashish hajmining o'sish sur'ati 2021- yilning shu davriga nisbatan 143,5 % ni tashkil etdi. Yo'lovchi tashishning umumiy hajmida havo transportining ulushi 0,1 %ni tashkil etdi.




2022- yilning uch choragida shahar elektr transportida 96,9 mln. yo'lovchi tashildi. Bu o'tgan yilning yanvar-sentabr oylariga nisbatan 36,8 % ga ko'pdir. Yo'lovchi tashishning umumiy hajmida elektr transportining ulushi 2,2 % ni tashkil etdi.

 O'sish sur'ati, % da

**Yanvar-sentabr oylarida barcha
transport turlari bo'yicha yo'lovchi aylanmasi (mln. yo'lovchi-km)**


JAMI



2022- yilning yanvar-sentabr oylarida barcha transport turlari bo'yicha yo'lovchi aylanmasi 105 434,7 mln. yo'lovchi-km.ni tashkil etgan bo'lsa, 2021- yilning mos davrida ushbu ko'rsatkich 98 346,4 mln. yo'lovchi-km, 2020- yil yanvar-sentabrda esa 87 937,2 mln. yo'lovchi-km.ni tashkil etdi.


shu jumladan turlari bo'yicha:

Avtomobil




2022- yilning yanvar-sentyabr oylarida avtomobil transportida yo'lovchi aylanmasi 94 220,6 mln. yo'lovchi-km.ni, bu esa 2021- yilning yanvar-sentabr oylariga nisbatan 2,6 % ga ko'pdir. 2020- yilning mos davrida ushbu ko'rsatkich 84 247,7 mln. yo'lovchi-km.ni tashkil etgan.

Temir yo'l




Temir yo'l transporti bo'yicha joriy yilning yanvar-sentabr oylarida ushbu ko'rsatkich 2 608,3 mln. yo'lovchi-km.ni tashkil etib, 2021- yilning yanvar-sentabriga nisbatan 363,1 mln. yo'lovchi-km.ga ko'pdir.

Havo




Joriy yilning yanvar-sentyabr oylarida havo transportida yo'lovchi tashish hajmi 7 901,7 mln. yo'lovchi-km.ni tashkil etdi va 2021- yilning yanvar-sentabriga nisbatan 4 201,5 mln. yo'lovchi-km ga oshdi.

Elektr



Joriy yilning yanvar-sentabr oylarida elektr transporti yo'lovchi aylanmasining o'sish sur'ati 136,8 % ni, 2021- yilning mos davrida bu ko'rsatkich 284,4 % ni, 2020- yilda 41,3 % ni tashkil etgan.

**Yanvar-sentabr oylarida bir yo'lovchini
o'rtacha tashish masofasi, km**




2022- yilning yanvar-sentabr oylarida barcha transport turlarida bitta yo'lovchi tashishning o'rtacha masofasi 23,4 km.ni tashkil etgan bo'lsa, 2021- yilning mos davrida bu ko'rsatkich 22,6 km, 2020- yilning yanvar-sentabr oylarida 22,4 km.ni tashkil etgan.

2022- yil 1- oktabr holatiga ko'ra, transport sohasida 20 010 ta korxon va tashkilot faoliyat yuritmoqda. 2021- yilning mos davriga nisbatan ularning soni 1 287 taga oshgan va o'sish 6,9 % ni tashkil etgan.

**1- oktabr holatiga ko'ra faoliyat yuritayotgan korxon va tashkilotlarning
taqqoslanishi, birlikda**


(fermer va dehqon xo'jaliklaridan tashqari)



2022- yilning yanvar-sentabr oylarida transport sohasida yangi tashkil etilgan korxon va tashkilotlar soni 2 435 tani tashkil etdi. 2021- yilning yanvar-sentabr oylariga nisbatan bu ko'rsatkich 467 taga ko'payib, darajasi 23,7 % ga oshdi.

**Yanvar-sentabr oylarida yangi tashkil etilgan korxon va tashkilotlarning
taqqoslanishi, birlikda**

(dehqon va fermer ho'jaliklaridan tashqari)



Ro'yxatga olingan korxonalar va tashkilotlar soni aloqa sohasini hisobga olmaganda, avvalgi yillarga nisbatan sezilarli darajada ko'p.

2022- yilning yanvar-sentabr oylarida barcha transport turlarida 1 007,7 mln. tonna yuk tashilib, o'tgan yilning yanvar-sentabr oylariga nisbatan oshish sur'ati 102,8 % ni tashkil etdi.

Shu bilan birga, yuk aylanmasi 55,9 mlrd. t-km ga yetib, 2021- yilning yanvar-sentabr oylariga nisbatan ushbu ko'rsatkich 2,1 % ga yuqori bo'ldi.


2-BO'LIM. YUK TASHISH VA YUK AYLANMASI
Transport turlari bo'yicha yuk tashish va yuk aylanmasi

	2022- yil yanvar-sentabr	o'tgan yilning yanvar-sentabr oylariga nisbatan, % da	
		2021- y.	2020- y.
Transportda tashilgan yuklar, mln. t	1 007,7	102,8	100,3
temir yo'l transporti	54,9	102,7	103,1
avtomobil transporti	906,1	103,1	99,3
havo transporti, ming t.	6,4	124,9	144,5
quvur transporti	46,7	98,2	116,7
Transport yuk aylanmasi, mln. t-km	55 943,2	102,1	113,3
temir yo'l transporti	18 859,8	101,9	104,4
avtomobil transporti	15 180,3	107,5	120,2
havo transporti	232,1	121,7	135,6
quvur transporti	21 671,0	98,7	117,3

Yuk tashish bo'yicha barcha kuzatilgan transport turlari orasida avtomobil transporti ustunlik qiladi (906,1 mln. tonna). Temir yo'l orqali 54,9 mln. tonna yuk tashildi. Quvur yo'li orqali 46,7 mln. tonna gaz tashildi. Yuk tashish bo'yicha eng past ko'rsatkich havo transportida qayd etildi – 6,4 ming tonna.


Yuk tashish umumiy hajmining salmoqli qismini avtomobil transporti – 89,9 %, boshqa transport turlarida esa tashish ulushi – 10,1 % tashkil etadi.

Transport turlari bo'yicha yuk tashish tarkibi, % da
(yanvar-sentabr)



2021- yilning yanvar-sentabr oylarida avtomobil transporti ulushi 89,7 % ni, temir yo'l, quvur yo'li va havo transportining ulushi esa atigi 10,3 % ni tashkil etdi. 2020- yilning mos davrida bu ko'rsatkich 90,5 % ga 9,5 %, 2019- yilda esa 89,2 % ga 10,8 % ni tashkil etgan.


Transportning barcha turlarida yuk tashish va yuk aylanmasining o'sish sur'atlarini taqqoslanishi, % da
(yanvar-sentabr)



2022- yilning yanvar-sentabr oylarida barcha transport turlari bo'yicha yuk aylanmasi hajmi 2021- yilning shu davriga nisbatan 1 160,0 mln. t-km ga o'sdi, bu asosan avtomobil transporti hissasiga to'g'ri kelib, yuk aylanmasi esa 1 053,5,4 mln.t-km.ga oshdi.

2022- yilning yanvar-sentabr oylari yakunlariga ko'ra, yuk aylanmasining umumiy hajmida quvur transporti 38,8 %, temir yo'l transporti 33,7 %, avtomobil transporti 27,1 %, havo transporti 0,4 % dan iborat iborat bo'ldi.

Transport turlari bo'yicha yuk aylanmasi tarkibi, % da
(yanvar-sentabr)



2021- yilning mazkur davriga nisbatan ko'rib chiqilayotgan davrda yuk aylanmasining umumiy hajmida ayrim transport turlari ulushi o'zgardi, xususan: avtomobil transporti o'z hajmi 1,3 % ga, havo 0,1 % ga oshib, shu bilan birga, quvur transporti ulushi 1,3 % ga, temir yo'l – 0,1 ga % kamaygan.

3- BO'LIM. YO'LOVCHI TASHISH VA YO'LOVCHI AYLANMASI

Transport turlari bo'yicha yo'lovchi tashish va yo'lovchi aylanmasi


	2022- yil yanvar-sentabr	o'tgan yilning yanvar-sentabr oylariga nisbatan, % da	
		2021- y.	2020- y.
Transportda tashilgan yo'lovchilar, mln. kishi	4 509,8	103,7	110,8
temir yo'l transporti	6,8	115,7	124,2
avtomobil transporti	4 403,1	103,1	109,7
havo transporti	3,0	143,5	304,9
shahar elektr transporti	96,9	136,8	285,4
<i>shundan:</i>			
metropolitan	94,4	137,7	289,9
tramvay	2,1	133,9	186,9
trolleybus	0,4	81,0	184,7

(davomi)

Transport yo'lovchi aylanmasi, mln. yo'lovchi-km	105 434,7	107,2	107,4
temir yo'l transporti	2 608,3	115,7	195,6
avtomobil transporti	94 220,6	102,6	104,4
havo transporti	7 901,7	213,5	157,2
shahar elektr transporti	704,1	135,6	284,4
<i>shundan:</i>			
metropoliten	688,3	137,2	289,9
tramvay	5,9	107,1	185,8
trolleybus	9,9	81,0	184,7

Barcha transport turlarida yo'lovchi tashish 2021- yilning aynan shu davriga nisbatan 3,7 % ga oshib, 4 509,8 mln. yo'lovchini tashkil qildi. Yo'lovchi aylanmasi 105,4 mlrd. yo'lovchi-km.ni tashkil etib, 7,2 % ga oshdi.

Transport turlari bo'yicha yo'lovchi tashish tarkibi, % da
(yanvar-sentabr)




Yo'lovchi tashish tarkibida avtomobil transporti an'anaviy ravishda yetakchi o'rinni egallaydi. So'nggi uch yil ichida uning ulushi 97 % ga yetdi.

Joriy yilning yanvar-sentabr oylarida transport turlari bo'yicha yo'lovchi tashish tarkibida avtomobil transportining ulushi 97,6 % ni tashkil etdi. Bu esa 2021- yilning mos davriga nisbatan 0,6 punktga, 2020- yilning yanvar-sentabr oylariga nisbatan 1,6 punktga kamdir.

Barcha transport turlarida yo'lovchi tashishda elektr transportining ulushi 2,2 % ni tashkil etdi.

Transportning barcha turlari bo‘yicha yo‘lovchi aylanmasining o‘shish sur‘atlari, % da
(yanvar-sentabr)



So‘nggi uch yil davomida asosiy transport turlari bo‘yicha yo‘lovchi aylanmasining o‘shish sur‘atiga koronavirus pandemiyasi bilan bog‘liq cheklovlar ta‘sir ko‘rsatdi. 2020- yilda yo‘lovchi tashishning qisqarishi, ayrim hollarda esa butunlay to‘xtashi barcha transport turlarining o‘shish sur‘atlarining pasayishida namoyon bo‘ldi. Bu elektr (41,3 %) va temir yo‘l (34,7 %) transportida ko‘proq sezildi.

2021- yilda cheklovlarning yumshatilishi yoki olib tashlanishi yo‘lovchilar oqimining keskin o‘shishiga olib kelib, bu elektr (2,8 baravar) va temir yo‘l (2,0 baravar) transportida ko‘proq o‘z aksini topdi.


2022- yil havo transportida yo‘lovchilar oqimining keskin o‘shishi bilan belgilanadi (2,1 baravar), bu ko‘p jihatdan havo qatnovidagi cheklovlarni to‘liq olib tashlash bilan bog‘liq.

Temir yo‘l transporti

2022- yilning yanvar-sentabr oylarida temir yo‘l transportida 54,9 mln. tonna yuk jo‘natilib, 2021- yilning mos davriga nisbatan o‘shish sur‘ati 102,7 % ni tashkil etdi.

Agar, 2021- yilning yanvar-sentabr oylari bilan taqqoslaganda, temir yo‘l transportida yuk aylanmasi 343,0 mln. t-km.ga oshib, 18 859,8 mln. t-km.ga yetdi. Shu bilan birga, yo‘lovchi aylanmasi 354,1 mln. yo‘lovchi-km.ga oshib, 2608,3 mln. yo‘lovchi-km.ni tashkil etdi.

**Temir yo'l transportining yuk va yo'lovchi aylanmasi
o'sish sur'atlarini taqqoslanishi, % da**
(yanvar-sentabr)



O'rtacha sutkalik hisobda temir yo'l transportida yuk tashish 201,0 ming tonnani tashkil etdi yoki 2021- yilning mos davriga nisbatan 2,7 % ga oshdi. O'rtacha bir tonna yuk jo'natish masofasi 343,8 km.ga yetdi yoki 2021- yilning shu davriga nisbatan 0,8 % ga kamaydi.

Magistral temir yo'l transportiga ortilgan asosiy turdagi yuklar ko'rsatkichi
(2022- yil yanvar-sentabr)

	<i>Hajmi, ming tonna</i>	<i>Jami hajmga nisbatan ulushi, % da</i>	<i>O'tgan yilga nisbatan o'sish sur'ati, % da</i>
Yuklar – jami	54 862,4	100,0	102,7
<i>shundan:</i>			
ko'mir	4 168,3	7,6	97,6
neft yuklari	4 284,2	7,8	108,5
turli rudalar	5 554,0	10,1	112,8
qora metallar	907,7	1,7	116,7

(davomi)

	<i>Hajmi, ming tonna</i>	<i>Jami hajmga nisbatan ulushi, % da</i>	<i>O‘tgan yilga nisbatan o‘shish sur‘ati, % da</i>
qora metall parchalari	594,0	1,1	76,5
kimyoviy va mineral o‘g‘itlar	3 526,8	6,4	104,7
qurilish yuklari	4 998,1	9,1	123,0
sement	2 404,0	4,4	66,7
yog‘och yuklari	18,0	0,0	99,7
paxta tolasi	15,3	0,0	26,1
don va yormalar	1 131,2	2,1	72,6
kartoshka, poliz mahsulotlari va ho‘l mevalar	230,6	0,4	163,3
boshqa yuklar	27 030,2	49,3	104,3


2022- yilning yanvar-sentabr oylarida umumiy foydalanishdagi temir yo‘l transportida jo‘natilgan yuk turlari bo‘yicha 2021- yilning shu davriga nisbatan yuqori o‘shish sur‘atlari qayd etildi. Ularning ayrim turlari bo‘yicha, xususan, kartoshka, sabzavot va mevalar (163,3 %), qurilish yuklari (123,0 %), qora metallar (116,7 %) va turli rudalar (112,8 %). Paxta tolasi (26,1 %), sement (66,7 %), don va yormalar (72,6 %), ko‘mir (97,6 %), shuningdek, yog‘och (99,7 %) kamroq miqdorda jo‘natildi.

Temir yo‘l orqali yuk tashishning umumiy hajmida eng katta ulushni turli rudalar (10,1 %), qurilish yuklari (9,1 %), neft yuklari (7,8 %), ko‘mir (7,6 %), kimyoviy va mineral o‘g‘itlar (6,4 %), sement (4,4 %), boshqa yuklar (49,3 %) egallaydi.

Avtomobil transporti

Yo'lovchilarni tashishda avtomobil transporti muhim rol o'ynaydi. 2022- yilning yanvar-sentabr oylarida yuk aylanmasi hajmi 1 053,5 mln. t-km.ga oshib, 15 180,3 mln. t-km yoki 2021- yilning mos davriga nisbatan 7,5 % ga oshgan.

Avtomobil transportining yuk va yo'lovchi aylanmasining o'sish sur'atlarini taqqoslanishi, % da
(yanvar-sentabr)




Avtomobil transportida 906,1 mln. tonna yuk tashilib, 2021- yilning mos davriga nisbatan 3,1 % ga ko'pdir.

Avtomobil transportida yuk va yo'lovchi tashish o'sish sur'atlarining taqqoslanishi, % da
(yanvar-sentabr)



Hududlar o'rtasida yo'lovchi tashish tarkibida eng katta o'rinni Toshkent shahri egallaydi. 2022- yilning yanvar-sentabr oylarida uning ulushi 20,0 % ni tashkil etdi. Eng past ko'rsatkich esa Sirdaryo viloyatida qayd etilib, uning ulush 1,4 % dan iborat bo'ldi.

**Hududlar bo'yicha avtomobil transportida yo'lovchi tashishning tarkibi,
ming yo'lovchi**
(2022- yil yanvar-sentabr)



Hududiy ma'lumotlar tahlili shuni ko'rsatmoqdaki, respublika bo'yicha avtomobil transportida yo'lovchi tashishning umumiy hajmida Toshkent shahri, Andijon, Toshkent va Farg'ona viloyatlarining ulushi salmoqli o'rinni egallaydi (umumiy hajmdagi ulushi 55,2 %).


Sirdaryo, Jizzax, Navoiy, Surxondaryo viloyatlari, shuningdek, Qoraqalpog'iston Respublikasida nisbatan past ko'rsatkichlar qayd etildi.

Havo transportida yuk tashish hajmi 6,4 ming tonnani tashkil etib, bu esa 2021- yilning yanvar-sentabr oylari darajasidan 24,9 % ga yuqori. Ko'rib chiqilayotgan davrda yuk aylanmasi 21,7 % ga o'sdi va 232,1 mln. t-km.ni tashkil etdi.

**Havo transporti faoliyatining asosiy
ko'rsatkichlarini taqqoslanishi**
(yanvar-sentabr)

Jo'natilgan yuk, **ming tonna**

Jo'natilgan yo'lovchi, **ming yo'lovchi**



Havo transportida 3 009,9 ming kishi jo'natilib, 2021- yilning mos davridagi ko'rsatkichga nisbatan 1,4 baravarga oshgan, yo'lovchi aylanmasi 2,1 % ga ko'payib, 7 901,7 mln. yo'lovchi-km.ni tashkil etdi.

Havo kemalarining kechikmasdan muntazam yetib kelishi 2021- yilning yanvar-sentabr oylaridagi 75,1 % o'rniga 71,6 % ni tashkil etdi. 2022- yilning yanvar-sentabr oylarida 3 388 aviaparvoz kechiktirilgan. Xalqaro tashuvlarda havo kemalarining muntazam yetib kelishi 12,4 f.p. ga oshib, 70,8 % ni tashkil etdi (2021- yil yanvar-sentabr oylarida 60,7 %).


Havo kemalarining jami kechikish vaqti 2 071 samolyot-soatni tashkil etib, 2021- yilning yanvar-sentabr oylariga nisbatan 16,6 % ga kamayib, kechiktirilgan parvozlarning o'rtacha davomiyligi 19,2 % ga pasaydi va 37 daqiqani tashkil etdi.

Elektr transportida 96 902,5 ming yo'lovchi tashilib, 2021- yilning yanvar-sentabr oylariga nisbatan 36,8 % o'sish qayd etildi. Ushbu transportning yo'lovchi aylanmasi 704,1 mln. yo'lovchi-km.ni tashkil etgan bo'lib, bu 2021- yilning mos davriga nisbatan 35,6 % ga ko'pdir.

Elektr transportida yo'lovchi tashish (97,4 %) va yo'lovchi aylanmasidagi (97,8 %) eng yuqori ulush metropoliten hissasiga to'g'ri keldi.

Metropolitenda yo'lovchi tashish hajmi 94 418,3 ming yo'lovchini tashkil etib, bu 2021- yilning mos davriga nisbatan 37,2 % ga ko'pdir. Yo'lovchi aylanmasi esa 688,3 mln. yo'lovchi-km.ni tashkil etdi.

Elektr transportida yo'lovchi tashish tarkibi, % da
(yanvar-sentabr)



2022- yilning yanvar-sentabr oylari yakunlari bo'yicha tramvayda 2 122,5 ming yo'lovchi tashildi, bu 2021- yilning mos davriga nisbatan 33,9 % ga ko'pdir.

Tramvayning yo'lovchi aylanmasi 5,9 mln. yo'lovchi-km.ni tashkil etdi. Elektr transportida yo'lovchi tashish tarkibida tramvayning ulushi 2,2 % ga teng bo'ldi.


Shu bilan birga, trolleybusda 361,7 ming yo'lovchi tashilib, bu 2021- yilning yanvar-sentabr oylariga nisbatan 19,0 % ga kamdir. Trolleybusning yo'lovchi aylanmasi 9,9 mln. yo'lovchi-km.ni tashkil etib, 2021- yilning yanvar-sentabr oylariga nisbatan 19,0 % ga kamaygan. Biroq, elektr transportida yo'lovchi tashish tarkibida trolleybusning ulushi bor yo'g'i 0,4 % ni tashkil etdi.

Magistral quvurlar orqali 46,7 mln. tonna gaz quyilgan, bu 2021- yilning mos davriga nisbatan 1,8 % ga ko'pdir. Magistral quvurlarning yuk aylanmasi 1,3 % ga ko'tarilib, 21,7 mlrd. t-km.ni tashkil etdi.

4- BO'LIM. TRANZIT TASHUVLAR ¹⁾

2022- yilning yanvar-sentabr oylarida O'zbekiston Respublikasi hududi orqali **tashilgan tranzit yuklar** (avtomobil va temir yo'l transporti) hajmi 5 452,2 ming tonnani tashkil etdi, shundan temir yo'l transportida 5 277,4 ming tonna, avtomobil transportida 174,8 ming tonna yuk tashildi.

O'zbekiston Respublikasi hududi orqali olib o'tilgan tranzit yuklar hajmi tarkibi, % da (2022- yil yanvar-sentabr)



■ Temir yo'l transporti ■ Avtomobil transporti

Joriy yilning III choragida O'zbekiston Respublikasi hududidan o'tgan yuk temir yo'l vagonlari soni 92 231 tani, avtomobil transportlari soni esa 11 296 donani tashkil etdi.


5- BO'LIM. YO'L-TRANSPORTI HODISALARI ²⁾

2022- yilning yanvar-sentabr oylarida yo'l-transporti hodisalari soni 6 449 birlikni tashkil etdi. 2021- yilning mos davriga nisbatan mazkur ko'rsatkich 100 birlikka kamaygan (-1,5 %).

¹⁾ Ma'lumotlar Davlat bojxona qo'mitasining elektron ma'lumotlar bazasi asosida tayyorlangan

²⁾ O'zbekiston Respublikasi IIV Yo'l harakati xavfsizligi Bosh boshqarmasi ma'lumotlari asosan.

Hududlar bo'yicha yo'l-transporti hodisalari sonini taqqoslanishi, birlikda
(yanvar-sentabr)



Hududiy ma'lumotlar tahlili shuni ko'rsatdiki, respublika bo'yicha qayd etilgan yo'l-transporti hodisalarining umumiy soni Farg'ona, Toshkent va Namangan viloyatlari, shuningdek, Toshkent shahri hissasiga to'g'ri keladi (respublika ko'rsatkichining 51,5 % i).

Sirdaryo, Jizzax, Xorazm va Navoiy viloyatlarida nisbatan past ko'rsatkichlar qayd etilgan.

2021- yilning shu davriga nisbatan ko'rib chiqilayotgan davrda hududlarda yo'l-transporti hodisalari sonining kamayishi qayd etildi, xususan: Qashqadaryo (-50 birlik), Xorazm (-50 birlik), Buxoro (-30 birlik), Navoiy (-18 birlik) va Surxondaryo (-17 birlik) viloyatlari shular jumlasidandir.

2021- yilning shu davri bilan solishtirganda, yo'l-transport hodisalarida jabrlanganlar soni bo'yicha kamayganligi qayd etilgan. Shunday qilib, 2022- yilning yanvar-sentabr oylarida qurbonlar (jarohatlanganlar) sonining 192 nafarga (-3,1 %ga) kamayishi qayd etilgan bo'lib, bu umumiy hisobda 6 078 nafarni tashkil etdi.

**Yo'l-transporti hodisalarida jarohat olganlar (jabrlanganlar)
sonini hududlar kesimida taqqoslanishi,
kishi**

	2021- y. yanvar-sentabr	2022- y. yanvar-sentabr	Farqi 2022-2021- y., % da
O'zbekiston Respublikasi	6 270	6078	- 3,1
Qoraqalpog'iston Respublikasi	285	276	- 3,2
<i>viloyatlar:</i>			
Andijon	500	477	- 4,6
Buxoro	224	203	- 9,4
Jizzax	269	270	+ 0,4
Qashqadaryo	302	264	- 12,6
Navoiy	186	184	- 1,1
Namangan	719	680	- 5,4
Samarqand	741	684	- 7,7
Surxondaryo	212	197	- 7,1
Sirdaryo	108	106	- 1,9
Toshkent	732	691	- 5,6
Farg'ona	1008	996	- 1,2
Xorazm	173	145	- 16,2
Toshkent sh.	811	905	+ 11,6


Hududlar bo'yicha ko'rsatkichning 2021- yilning shu davriga nisbatan sezilarli pasayishi Samarqand viloyatida (-57 kishi) qayd etildi.

Yo'l-transporti hodisalarida jarohat olganlar sonining o'sishi Toshkent shahar (94 kishi) va Jizzax (1 kishi) viloyatida kuzatildi.

2022- yil yanvar-sentabr oylarida bolalar ishtirokida yo'l-transporti hodisalari soni 1 114 birlikni tashkil etib, bu esa 2021- yilning shu davriga nisbatan 41 taga (-3,5 %) kam demakdir.


Yo'l-transporti hodisalarida jarohat olgan bolalarning umumiy soni 970 kishini tashkil etdi. 2021- yilning shu davriga nisbatan ushbu ko'rsatkich 11 kishiga (-1,1 %) kamaygan.

Yo'l-transporti hodisalarida jabrlangan (jarohatlangan)lar umumiy sonining tarkibi, % da (yanvar-sentabr)



2022- yil yanvar-sentabr oylarida yo'l-transport hodisalarida jarohatlanganlar umumiy sonining 16,0 % ini 15 yoshgacha bo'lgan bolalar tashkil etadi. Bu o'tgan yilning shu davriga nisbatan 1,3 punktga, 2020- yilning yanvar-sentabr oylariga nisbatan 0,7 punktga kamdir.

Yo'l-transporti hodisasida jarohatlangan bolalar sonining yoshi bo'yicha taqqoslanishi, % da (yanvar-sentabr)



2022- yilning yanvar-sentabr oylarida yo'l-transport hodisalarida jarohatlangan bolalarning umumiy sonidan 1-7 yoshli bolalar soni 349 nafarni, 8-15 yoshli bolalar soni 621 nafarni tashkil etdi. 2021- yilning mos davrida bu ko'rsatkich 335 nafar va 646 nafarni, 2020- yilning yanvar-sentabr oylarida 252 va 347 nafarni tashkil qilgan.

6- BO'LIM. ALOQA VA KOMMUNIKATSIYA SOHASI

2022- yilning 1- oktabr holatiga ko'ra, axborot va aloqa iqtisodiy faoliyat turida 11 600 ta korxonalar va tashkilotlar (dehqon va fermer ho'jaliklaridan tashqari) faoliyat ko'rsatmoqda. 2021- yilning mos davriga nisbatan ularning soni 640 taga oshib, 7,9 % ga o'sgan.

1- oktabr holatiga ko'ra axborot va aloqa sohasida faoliyat ko'rsatayotgan korxonalar va tashkilotlar soni, birlikda
(fermer va dehqon ho'jaliklaridan tashqari)





Diagramma ma'lumotlariga ko'ra, so'nggi uch yil davomida ushbu sohada faoliyat ko'rsatayotgan korxonalar va tashkilotlar sonining barqaror o'sishi kuzatilmoqda.

Ushbu yo'nalishda faoliyat korsatuvchilarning umumiy sonida kichik biznes subyektlariga tegishli korxonalarining ulushi 96,7 % ni (11 220 dona) tashkil etib, ularning soni 5,5 % ga oshdi.

2022- yilning yanvar-sentabr oylarida axborot va kommunikatsiya sohasida yangi tashkil etilgan korxonalar va tashkilotlar soni 1 893 tani tashkil etdi. 2021- yilning yanvar-sentabr oylariga nisbatan ularning soni 91 taga kamayib, darajasi 4,6 % ga pasaydi.


Yanvar-sentabr oylarida yangi tashkil etilgan korxonalar va tashkilotlar soni, birlikda
(fermer va dehqon xo'jaliklaridan tashqari)



2022- yilning yanvar-sentabr oylarida aloqa xizmatlari hajmi 11 643,5 mlrd. so‘m darajasida qayd etildi yoki 2021- yilning mos davri bilan taqqoslaganda 20,8 % ga o‘tdi (amaldagi narxlarda).

Mobil aloqa xizmatlari (Internetni qo‘shgan holda) umumiy aloqa xizmatlari hajmidagi ulushi 49,8 % ga teng bo‘lib, 5 798,0 mlrd. so‘mni, shu jumladan, aholiga ko‘rsatilgani 5 318,5 mlrd. so‘mni tashkil etdi.

Aloqa xizmatlari tarkibi, % da
(yanvar-sentabr)



2022- yil 1- oktabr holatiga (*dastlabki ma’lumotlar*) ko‘ra, mobil aloqa bilan ta’minlangan abonentlar soni 30 955,8 ming birlikni, shu jumladan, aholida 26 066,9 ming birlikni tashkil etdi. Aholining mobil aloqa bilan ta’minlanganligi har 100 kishi hisobiga 73 birlikni tashkil etdi.

2022- yil 1- oktabr holatiga ko‘ra, (*O‘zbekiston Respublikasi Axborot texnologiyalari va kommunikatsiyalarini rivojlantirish vazirligi ma’lumotlariga asosan*) Internet tarmog‘iga ulanish xizmatlarini ko‘rsatish uchun ruxsatnomaga ega xo‘jalik yurituvchi subyektlar soni 298 birlikni tashkil etdi.

2022- yilning II choragi bilan taqqoslaganda, tahlil qilinayotgan davr mobaynida xalqaro axborot uzatish kanallarining o‘tkazuvchanlik qobiliyati o‘zgarishsiz qoldi (3200 Gbit/s gacha).

Statistik ko'rsatkichlarga izohlar

Umumiy foydalanishdagi avtomobil transporti – aholini va iqtisodiyotni barcha tarmoqlarining yo'lovchilar, bagajlar va yuklar, shu jumladan, pochталarni avtomobillarda tashishga bo'lgan ehtiyojlarini tijorat asosida ta'minlovchi transport.

Avtotransport vositalari – yo'lovchilar, bagajlar, yuklar tashishga hamda maxsus ishlarni bajarishga mo'ljallangan avtomobillar, shatakchi-avtomobillar, tirkama va yarim tirkamalar.

Mavjud avtotransport vositalari – tashkilot balansida bo'lgan, texnik holatidan va avtomobilning joylashgan joyidan (ta'mirlashda, xizmat safarida, konservatsiyada, ijarada) qat'i nazar, barcha turdagi, markadagi va modeldagi avtomobillar soni.

Avtomobil – energiya manbasi orqali harakatga keltiriladigan, ikkitadan kam bo'lmagan o'qda joylashgan kamida to'rtta g'ildirakka ega bo'lgan, yo'llarda harakatlanish uchun mo'ljallangan va yo'lovchilar, bagajlar, yuklarni tashish hamda maxsus ishlarni bajarish uchun foydalaniladigan mexanik transport vositasi.

Yo'lovchi avtomobili – o'zining tuzilishi va jihozlanishi jihatidan yo'lovchilar va bagajlarni tashishga mo'ljallangan, zarur qulaylik va xavfsizlik bilan ta'minlangan avtomobil.

Yuk avtomobili – yuklarni tashishga mo'ljallangan, qattiq ramali mexanik yo'l transporti vositasi; yuk avtotransporti vositalari foydalanish xarakteri va konstruktiv xususiyatlaridan kelib chiqqan holda umumiy va ixtisoslashtirilgan vositalarga bo'linadi.

Avtobus, mikroavtobus – yo'lovchilarni tashishga mo'ljallangan va haydovchi o'rnini hisobga olmaganda sakkiztadan ortiq o'tirish o'rindig'iga ega bo'lgan, qattiq ramali mexanik yo'l transporti vositasi.

Yengil avtomobil – haydovchi o'rnini hisobga olmaganda, sig'imi sakkiz kishigacha bo'lgan yo'lovchi avtomobili. Yengil avtomobillar soniga pochta tashishga mo'ljallangan, sanitariya va boshqa maxsus yengil avtomobillar qo'shilmaydi.

Yo'nalishli taksi – yo'lovchilar talabiga ko'ra to'xtagan holda muntazam yo'nalishlarda yo'lovchilar tashish uchun mo'ljallangan avtotransport vositasi (avtobus yoki yengil avtomobil).

Yo'nalishsiz taksi – yo'lovchilarning buyurtmanomalariga ko'ra hisoblagich (taksometr) ko'rsatkichi bo'yicha haq to'lash hisobiga yo'lovchilarni va ularning bagajini tashish bo'yicha xizmatlar ko'rsatadigan avtotransport vositasi.

Pikap va yengil furgon – kuzovi yengil avtomobil shassisiga moslashtirilgan, yuk ko'tarish qobiliyati yuqori bo'lmagan yuk va yuk-yo'lovchi avtomobillari.

Tashilgan yuklar (yuk tashish hajmi) – yuk avtomobillarida, shu jumladan avtotirkamalarda, tashilgan yuklar miqdori har bir qatnov uchun yukning tara yoki konteynerlar og'irligini hisobga olgan holdagi haqiqiy og'irligi bo'yicha aniqlanadi (tonnada o'lchanadi). Tashilgan yuk hajmini avtomobilning texnik tavsifnomasida ko'rsatilgan yuk ko'tarish qobiliyati bo'yicha aniqlash, faqatgina tashilgan yukning haqiqiy og'irligi to'g'risidagi ma'lumotlar bo'lmagan hollardagina amalga oshirilishi mumkin. Umumiy foydalanishdagi transportlarning barcha turlari uchun (avtotransportdan tashqari) tashilgan yuklarning hajmi jo'natish vaqtida ko'rsatilgan.

Yuk aylanmasi – transportning yuk tashish bo'yicha ish hajmi. O'lchov birligi tonna-kilometr hisoblanadi. Transportning yuk aylanmasi tashilayotgan yukning har bir jo'natmasi og'irligini uni tashish masofasiga ko'paytmasining yig'indisi orqali aniqlanadi.

Tashilgan yo'lovchilar – ma'lum vaqt davomida avtomobil vositalarida turli qatnov turlari bo'yicha tashilgan yo'lovchilar soni (statistik kuzatuv birligi bo'lib yo'lovchi-qatnovi hisoblanadi).

Yo'lovchi aylanmasi – transportning yo'lovchi tashish bo'yicha ish hajmi. O'lchov birligi yo'lovchi-kilometr hisoblanadi. Har bir tashish bo'yicha yo'lovchilar sonini tashish masofasiga ko'paytmasini yig'indisi orqali aniqlanadi. Qatnov turlari va boshqa belgilar bo'yicha alohida hisoblanadi.

Tashish masofasi – obyektни jo'natish nuqtasidan belgilangan nuqttagacha tashish (transportda tashish) masofasi (kilometrda o'lchanadi).

Yuklarni tashishning o'rtacha masofasi – o'rtacha bir tonna yuk tashiladigan masofa. Butun avtotransport bo'yicha, alohida yuklar va qatnov turlari bo'yicha yuk aylanmasini (tonna-kilometrda) tashilgan yuklar hajmiga (tonnada) bo'lish orqali aniqlanadi.

Yo'lovchilarni tashishning o'rtacha masofasi – o'rtacha bir yo'lovchi tashiladigan masofa. U butun avtotransport va qatnov turlari bo'yicha yo'lovchi aylanmasini (yo'lovchi-kilometrda) tashilgan yo'lovchilar soniga bo'lish orqali aniqlanadi.

Umumiy bosib o'tilgan masofa (kilometr) – transport vositasining garajga (to'xtash joyiga) qaytishi va garajdan (to'xtash joyidan) chiqib ketishi vaqtidagi spidometr ko'rsatkichlari o'rtasidagi bir kunlik farqni ifodalaydi. Umumiy bosib o'tilgan masofa, hisobot davri mobaynida barcha foydalanilayotgan avtomobillarning har kunlik bosib o'tgan masofalarini yig'indisi orqali aniqlanadi.

Shahardagi tashuvlar – shahar va shaharchalar hududidan chiqmagan holda amalga oshiriladigan tashuvlar.

Shahar atrofidagi tashuvlar – shahar va shaharchalar hududi chegarasidan tashqariga ellik kilometr bo'lgan masofagacha amalga oshiriladigan tashuvlar.

Shaharlararo tashuvlar – shahar va shaharchalar hududi chegarasidan tashqariga ellik kilometrdan ko'proq bo'lgan masofaga amalga oshiriladigan tashuvlar, shuningdek, masofaning uzunligidan qat'iy nazar, O'zbekiston Respublikasining ikki va undan ortiq viloyatlari hududida amalga oshiriladigan tashuvlar.

Xalqaro tashuvlar – qatnov uzunligidan qat'iy nazar, O'zbekiston Respublikasining davlat chegarasidan tashqarida yoki davlat chegarasidan amalga oshiriladigan transport tashuvlari.

Yo'l-transport hodisasi – transport vositasining yo'lda harakatlanishi jarayonida ro'y bergan va uning ishtirokida fuqarolarning halok bo'lishiga yoki sog'lig'iga zarar yetishiga, transport vositalari, inshootlar, yuklarning shikastlanishi yoxud boshqa moddiy zarar yetishiga sabab bo'lgan hodisa.

Amaldagi narxlarda **aloqa va kommunikatsiya xizmatlarini ishlab chiqarish**, mazkur sohada xizmat ko'rsatuvchi korxonalarining daromadlari (sotishdan tushgan tushum miqdori) yig'indisi sifatida aniqlanadi.

Mobil aloqa bilan ta'minlangan abonentlar soni – mobil aloqa tizimlariga ulangan abonent radiostansiyalar soni.

Xalqaro axborot uzatish kanallarining o'tkazish qobiliyati – bir vaqtning o'zida uzatilgan yoki qabul qilingan maksimal axborot miqdori bo'yicha aniqlanadi.

VII. ISTE'MOL BOZORI


1- BO'LIM. CHAKANA SAVDO TOVAR AYLANMASI

Respublika bo'yicha 2022- yilning yanvar-sentabr oylarida chakana savdo tovar aylanmasi 214 086,7 mlrd. so'mni tashkil etib, 2021- yilning mos davriga nisbatan 10,8 % ga oshdi. Shu jumladan, yirik korxonalarining tovar aylanmasi 46 339,1 mlrd. so'mni (o'sish sur'ati 128,7 %), kichik biznes va xususiy tadbirkorlik subyektlarining tovar aylanmasi 167 747,6 mlrd. so'mni (o'sish sur'ati 120,1 %), shundan uyushmagan savdo tovar aylanmasi 17 803,5 mlrd. so'm (o'sish sur'ati 113,3 %) ni tashkil etdi.

O'sish sur'atlari, foizda




Tarkibiy qism, foizda



Chakana savdo tovar aylanmasi tarkibida yirik korxonalar ulushi 21,7%, kichik biznes korxonalar 70,0 % va uyushmagan savdo aylanmasi 8,3% ni tashkil qildi.

Uyushmagan savdo aylanmasi va tarkibi

Uyushmagan savdo tovar aylanmasida qishloq xo'jalik mahsulotlari hajmi 8 039,9 mlrd.so'm (118,9 %), chorva mollari va parranadalar savdosi 9 763,6 mlrd.so'm (109,1 %) ni tashkil qildi.




Chakana savdo tovar aylanmasi
(2022- yil yanvar-sentabr, umumiy ovqatlanishni qo‘shgan holda)

	<i>Jami</i>		<i>Aholi jon boshiga</i>	
	<i>mlrd. so‘m</i>	<i>2021- yilning mos davriga nisbatan % da</i>	<i>mlrd. so‘m</i>	<i>2021- yilning mos davriga nisbatan % da</i>
O‘zbekiston Respublikasi	214 086,7	110,8	6 022,8	108,6
Qoraqalpog‘iston Respublikasi	7 208,9	110,8	3 678,9	109,2
viloyatlar:				
Andijon	14 665,7	110,4	4 472,8	108,2
Buxoro	12 301,8	111,8	6 186,5	110,0
Jizzax	7 743,3	113,3	5 321,9	110,8
Qashqadaryo	13 805,0	113,5	4 019,0	111,1
Navoiy	8 245,4	111,9	7 913,1	109,7
Namangan	13 051,8	113,8	4 416,6	111,3
Samarqand	18 165,6	110,2	4 471,0	107,9
Surxondaryo	13 067,8	111,5	4 724,1	109,0
Sirdaryo	3 265,7	106,2	3 688,3	104,1
Toshkent	21 556,7	111,5	7 286,6	109,6
Farg‘ona	17 453,9	109,8	4 446,5	107,7
Xorazm	8 978,2	112,9	4 638,5	111,0
Toshkent sh.	54 576,7	109,1	18 830,6	105,8

Chakana savdo tovar aylanmasi (ovqatlanish tashkilotlarini qo‘shgan holda) aholi jon boshiga 8,6 % ga o‘sib, 6 022,8 ming so‘mni tashkil etdi (2021- yilning mos davrida 4 929,2 ming so‘m). O‘rtacha aholi jon boshiga tovar aylanmasining eng yuqori ko‘rsatkichlarini Toshkent shahri (18 830,6 ming so‘m), Navoiy viloyati (7 913,1 ming so‘m) va Toshkent viloyati (7 286,6 ming so‘m), eng past ko‘rsatkichni Qoraqalpog‘iston Respublikasi (3 678,9 ming so‘m), Sirdaryo viloyati (3 688,3 ming so‘m) va Qashqadaryo viloyati (4 019,0 ming so‘m) qayd etdi.

Chakana savdo tovar aylanmasi umumiy hajmida eng katta ulush Toshkent shahri hisobiga to'g'ri keldi va 25,5 % ni tashkil etdi, Toshkent viloyati 10,1 %, Samarqand viloyati 8,5 %, Farg'ona viloyati 8,2 %, Andijon viloyati 6,9 % ni tashkil etgan bo'lsa, Sirdaryo viloyati 1,5 % va Qoraqalpog'iston Respublikasi 3,4 % ulush bilan eng past ko'rsatkichlarni qayd etdi.

Hududlarning jami chakana tovar aylanmasidagi ulushi




Respublika chakana savdo tovar aylanmasida eng yuqori ulushni Toshkent shahri 25,5 % ulush bilan 54 576,7 mlrd. so'mni tashkil etdi.


Respublika chakana savdo tovar aylanmasida eng quyi ulushni Sirdaryo viloyati 1,5 % ulush bilan 3 265,7 mlrd. so'mni tashkil etdi.

2021- yilning mos davriga nisbatan chakana savdo aylanmasi o'sishining yuqori ko'rsatkichlari Namangan (113,8), Qashqadaryo (113,5 %) va Jizzax (113,3 %) viloyatlarida qayd etildi.

Chakana savdo tovar aylanmasi dinamikasi (yanvar-sentabr holatiga, % da)



2022- yilda chakana savdo hajmining oylar kesimida o'sish sur'ati, % da



2022- yilning yanvar-sentabr oylarida chakana savdo tovar aylanmasi 214 086,7 mlrd.so'mni tashkil qilib, 2021- yilning mos davriga nisbatan 110,8 % ga oshdi. 2022- yil davrlari taqqoslanganda eng yuqori o'sish sur'ati yanvar, eng past o'sish darajasi yanvar-iyun oylarida qayd etilgan.

2022- yilning yanvar-sentabr oylarida ulgurji savdo tovar aylanmasi 152 277,8 mlrd.so'mni tashkil qilib, 2021- yilning mos davriga nisbatan 118,4 % ga oshdi. 2022- yil davrlari taqqoslanganda eng yuqori o'sish sur'ati yanvar-iyun, eng past o'sish darajasi yanvar-may oylarida qayd etilgan.


Umumiy ovqatlanish korxonalarini savdo aylanmasi

2022- yilning yanvar-sentabr oylarida chakana savdo tovar aylanmasi tarkibida ovqatlanish tashkilotlarining savdo aylanmasi 3,5 % ni tashkil etib, 7 428,2 mlrd. so‘mga yetdi va 2021- yilning mos davriga nisbatan 19,3 % ga oshdi. Bunda jami savdo aylanmasining 74,4 % ulushi kichik biznes va xususiy tadbirkorlik subyektlari hissasiga to‘g‘ri kelmoqda.

Umumiy ovqatlanish korxonalarini savdo aylanmasi mulkchilik shakllari bo‘yicha 7 423,1 mlrd. so‘m nodavlat mulkka (99,93 %) hamda 5,1 mlrd. so‘m (0,07 %) davlat mulkiga to‘g‘ri keldi.

2021- yilning mos davri bilan solishtirilganda davlat mulki bo‘lgan umumiy ovqatlanish korxonalarining jami tovar aylanmasidagi ulushi 1,1 % dan 0,1 % ga kamaygan.

Hududlar kesimida umumiy ovqatlanish korxonalarini savdo aylanmasi o‘shish sur‘atlari, % da



Umumiy ovqatlanish korxonalarini savdo aylanmasida yuqori o‘shish sur‘ati Toshkent shahri (134 %), Namangan (117,1 %) va Toshkent (116,6 %) viloyatlarida kuzatildi

2- BO‘LIM. ULGURJI SAVDO AYLANMASI

Respublika bo‘yicha 2022- yilning yanvar-sentabr oylarida ulgurji savdo tovar aylanmasi 152 277,8 mlrd. so‘mni tashkil etib, 2021- yilning mos davriga nisbatan 18,4 % ga o‘shdi. Shu jumladan, yirik korxonalarining savdo tovar aylanmasi 44 881,9 mlrd. so‘mni (27,6 % ga ko‘paydi) tashkil etdi.

Ulgurji savdo tovar aylanmasida yuqori o‘shish sur‘atlariga ega yirik korxonalar Toshkent shahri (132,2 %) va Buxoro (233,2 %), Namangan (156,5 %) viloyatlarida kuzatildi.

So'nggi yillarda ulgurji savdoda davlat sektorining o'rni pasayib bormoqda. Hisobot davrida ushbu sektorning jami ulgurji tovar aylanmasidagi ulushi 0,1 % ni tashkil qildi. 2022- yilning yanvar-sentabr oylari yakunlari bo'yicha ulgurji savdo aylanmasi 152 277,8 mlrd. so'mni tashkil etib, shu jumladan, nodavlat tasarrufga ega subyektlar tomonidan ulgurji savdo aylanmasi 152 191,0 mlrd. so'mni va davlat tasarrufiga ega korxonalar tomonidan 86,8 mlrd. so'mni tashkil etdi.

Hududlar kesimida ulgurji savdo hajmi
(2022- yil yanvar-sentabr)

	<i>Jami (mlrd. so'm)</i>	<i>2021- yil- ning mos davriga nisbatan, % da</i>	<i>Yirik korxonalar (mlrd. so'm)</i>	<i>2021- yil- ning mos davriga nisbatan, % da</i>	<i>Mikrofirma va kichik korxonalar (mlrd. so'm)</i>	<i>2021- yil- ning mos davriga nisbatan, % da</i>
O'zbekiston						
Respublikasi	152 277,8	118,4	44 881,9	127,6	107 395,9	114,9
Qoraqalpog'iston						
Respublikasi	1 974,7	104,3	264,3	62,5	1 710,4	116,4
viloyatlar:						
Andijon	3 741,5	98,9	324,4	35,6	3 417,0	119,0
Buxoro	8 212,6	141,5	2 981,5	233,2	5 231,1	115,6
Jizzax	1 944,4	107,4	395,6	84,2	1 548,8	115,6
Qashqadaryo	3 243,9	108,2	700,3	122,7	2 543,6	104,8
Navoiy	2 006,1	115,6	491,0	146,4	1 515,0	108,2
Namangan	6 000,3	125,0	1 199,5	156,5	4 800,8	119,1
Samarqand	7 888,9	109,6	2 020,6	109,9	5 868,3	109,4
Surxondaryo	3 390,2	120,1	918,8	141,1	2 471,4	113,8
Sirdaryo	1 900,0	104,3	187,0	98,8	1 713,0	104,9
Toshkent	11 618,8	112,4	3 458,1	108,8	8 160,7	113,9
Farg'ona	8 305,0	109,6	358,9	71,1	7 946,1	112,3
Xorazm	3 571,7	111,8	634,6	102,7	2 937,1	113,9
Toshkent sh.	88 479,8	121,6	30 947,3	132,2	57 532,6	116,6

Statistik ko‘rsatkichlarga izohlar

Chakana savdo – savdo sohasida yakuniy iste‘mol uchun aholiga tovarlarni donalab yoki ko‘p bo‘lmagan miqdorlarda naqd pulga sotishni nazarda tutuvchi faoliyat, ya‘ni tovarlarni foydalanish sohasidan shaxsiy yoki umumiy iste‘mol sohasiga o‘tgan vaqtdagi harakatining yakuniy bosqichini ifodalaydi.

Chakana tovar aylanmasi – tovarlarni sotish tarmoqlaridan qat‘i nazar, aholiga iste‘mol tovarlarini naqd hisob-kitob asosida yoki plastik kartochnalari, kredit kartochnalari, banklarning hisob cheklari orqali (bu ham naqd hisob-kitob asosida sotish kabi hisobga olinadi) sotilgan qiymati.

Umumiy ovqatlanish – yuridik shaxslar tomonidan pazandachilik mahsulotlarini tayyorlashga, sotishga va iste‘molini tashkil qilishga ixtisoslashtirilgan faoliyatni amalga oshirish.

Umumovqatlanish aylanmasi – joyida aholiga iste‘mol uchun, shuningdek, turli kontingentdagi aholini ovqatlanishini tashkil qilish uchun tashkilot va yakka tadbirkorlarga o‘zi ishlab chiqargan kulinariya mahsulotlarini (taom, kulinariya mahsulotlari va yarimfabrikatlar), shuningdek, kulinariya ishlovisiz sotib olingan tovarlarni (unli, qandolatli va non mahsulotlari) sotishdan tushgan tushumni ifodalaydi.

Tovar zaxiralari – chakana savdo korxonalarini balansida turgan va kelgusida sotish uchun mo‘ljallangan tovarlar qoldig‘i.

Tovar aylanmasining tovar tuzilmasi – umumiy savdoda nisbiy ko‘rsatkich – jamiga nisbatan foiz hisobidagi solishtirma og‘irlik (ulush) yordamida aks etadigan, umumiy tovar aylanmasi hajmidagi alohida tovar va tovar guruhlari o‘rtasidagi nisbat, ya‘ni tovar aylanmasi tarkibi.

Ulgurji savdo – tijorat maqsadlarida yoki o‘zining ishlab chiqarish-xo‘jalik ehtiyojlariga foydalanish uchun, xarid qilingan tovarlarni naqd pulsiz hisob-kitoblar shakli bo‘yicha sotish.

Iste‘mol tovarlari – yakuniy iste‘molga (oilaviy yoki shaxsiy) qaratilgan, bevosita inson ehtiyojini qondiradigan tovarlar va xizmatlar.

Texnik-ishlab chiqarishga mo‘ljallangan mahsulotlar – ishlab chiqarish iste‘moli uchun mo‘ljallangan mahsulot: xomashyo, materiallar, yoqilg‘i, butlovchi instrumentlar, mashinalar, ehtiyot qismlar, yarimfabrikatlar va boshqalarni o‘z ichiga oladi.

Ulgurji savdo tovar aylanmasi – tuzilgan shartnomalar bo‘yicha tijorat maqsadlarida (kelajakda qayta ishlash yoki sotish) yoki o‘zining ishlab chiqarish ehtiyojlari uchun naqd pulsiz hisob-kitob shaklida tovarlar sotishdan tushumni ifodalaydi.

Tovar zaxiralari – tovar muomalasi doirasida bo‘lgan tovarlar yoki ulgurji korxonalar balansida turgan va kelgusida sotishga mo‘ljallangan tovarlar qoldig‘i.

Tovar aylanmasining tovar tuzilishi – tovar aylanmasi tarkibi, umumiy savdoda nisbiy ko‘rsatkich – jamiga nisbatan foiz hisobidagi solishtirma og‘irlik (ulush) yordamida aks etadigan, umumiy tovar aylanmasi hajmidagi alohida tovar va tovar guruhlari o‘rtasidagi nisbat.

VIII. TASHQI IQTISODIY FAOLIYAT

1- BO‘LIM. O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASINING TASHQI SAVDO AYLANMASI


2022- yilning yanvar-sentabr oylari yakuni bilan respublikaning tashqi savdo aylanmasi (matnda TSA) 36,0 mlrd. AQSH dollarini tashkil etib, 2021- yilga nisbatan 7,7 mlrd. AQSH dollariga yoki 27,2 % ga ko‘paydi.

Tashqi savdo aylanmasi va balansi (yanvar-sentabr, mln. AQSH dollari)

	2021- yil	2022- yil	O‘shish sur‘ati, % da	Jamiga nisbatan, % da
Tashqi savdo aylanmasi	28 323,2	36 024,6	127,2	x
Eksport	10 357,2	14 051,5	135,7	100,0
<i>tovarlar</i>	6 801,4	8 206,5	120,7	58,4
<i>xizmatlar</i>	1 871,8	2 826,8	151,0	20,1
<i>oltin</i>	1 684,0	3 018,2	179,2	21,5
Import	17 966,1	21 973,1	122,3	100,0
<i>tovarlar</i>	16 746,9	20 085,4	119,9	91,4
<i>xizmatlar</i>	1 219,2	1 887,8	154,8	8,6
Saldo	-7 608,9	-7 921,6	x	x
<i>tovarlar</i>	-8 261,5	-8 860,6	x	x
<i>oltinsiz</i>	-9 945,5	-11 878,8	x	x
<i>xizmatlar</i>	652,6	939,0	x	x
Eksport (oltinsiz hajm)	8 673,1	11 033,3	127,2	x

TSAda eksport hajmi 14 051,5 mln. AQSH dollariga (35,7 % ga ko‘paydi) va import hajmi 21 973,1 mln. AQSH dollariga (22,3 % ga ko‘paydi) yetdi. Hisobot davrida -7 921,6 mln. AQSH dollari qiymatida salbiy tashqi savdo balansi qayd etildi.











O‘zbekiston Respublikasining tashqi savdo aylanmasi (yanvar-sentabr oylari uchun, mlrd. AQSh doll.)



Yuqoridagi diagrammada ko‘rinib turibdiki, 2022- yil 3- chorak holatiga ko‘ra Respublikaning tashqi savdo aylanmasi 36,0 mlrd.AQSH dollarini tashkil qildi, 2018- yilga nisbatan 13,0 mlrd. AQSH doll. yoki 56,1 % o‘shish sur‘ati qayd etilgan. Mamlakat tarixidagi bunday natija eng yuqori ko‘rsatkich sifatida qayd etilgan. Shuni ta‘kidlash lozimki, tashqi savdo aylanmasining YAIMga nisbati ham sezilarli darajada o‘shib bormoqda, bu savdo jihatidan iqtisodiyotning o‘shidan dalolat bermoqda.

**O‘zbekiston Respublikasi bilan tashqi savdo aylanmasi eng yuqori
ulushga ega bo‘lgan davlatlar**

(2022- yil yanvar-sentabr, mln. AQSH dollari)

XXR	Rossiya Federatsiyas	Qozog‘iston	Turkiya	Koreya Respublikasi
TSA – 6 788,4	TSA – 6 544,0	TSA – 3 261,8	TSA – 2 456,4	TSA – 1 826,3
Eksport: 2 020,3 Import: 4 768,2	Eksport: 2 163,5 Import: 4 380,6	Eksport: 1 012,8 Import: 2 249,0	Eksport: 1 197,9 Import: 1 258,6	Eksport: 2 020,3 Import: 4 768,2
 18,8%	 18,2%	 9,1%	 6,8%	 5,1%
Qirg‘iz Respublikasi	Germaniya	Turkmaniston	Afg‘oniston	Hindiston
TSA – 867,0	TSA – 783,1	TSA – 569,0	TSA – 520,7	TSA – 502,1
Eksport: 683,4 Import: 183,6	Eksport: 69,1 Import: 713,9	Eksport: 154,1 Import: 414,9	Eksport: 514,4 Import: 6,3	Eksport: 27,1 Import: 475,0
 2,4%	 2,2%	 1,6%	 1,4%	 1,4%

O‘zbekiston Respublikasi jahonning 195 mamlakati bilan savdo aloqalarini amalga oshirib kelmoqda. TSAning nisbatan salmoqli hissasi XXRda (18,8 %), Rossiya Federatsiyasida (18,2 %), Qozog‘istonda (9,1 %), Turkiyada (6,8 %), Koreya Respublikasida (5,1 %) va Qirg‘iz Respublikasi (2,4 %) va Germaniyada (2,2 %) qayd etilgan.

Bundan tashqari, qo‘shni davlatlar bilan munosabatlarning mustahkamlanishi, ushbu mamlakatlar bilan ijtimoiy-iqtisodiy, savdo-sanoat va madaniy sohalarida munosabatlarni rivojlantirish bo‘yicha katta ishlar olib borilayotgani qayd etilmoqda.

O'zbekiston Respublikasining yirik hamkor davlatlar bilan tashqi savdo aylanmasi
dinamikasi (yanvar-sentabr mln. AQSH dollari)

<i>Davlatlar</i>	<i>2020- y.</i>	<i>2021- y.</i>	<i>2022- y.</i>
Xitoy Xalq Respublikasi	4 605,5	5 381,5	6 788,4
<i>Eksport</i>	<i>1 370,4</i>	<i>1 794,4</i>	<i>2 020,3</i>
<i>Import</i>	<i>3 235,0</i>	<i>3 587,1</i>	<i>4 768,2</i>
Rossiya Federatsiyasi	4 053,7	5 105,0	6 544,0
<i>Eksport</i>	<i>1 054,3</i>	<i>1 463,3</i>	<i>2 163,5</i>
<i>Import</i>	<i>2 999,5</i>	<i>3 641,7</i>	<i>4 380,6</i>
Qozog'iston	2 018,3	2 801,9	3 261,8
<i>Eksport</i>	<i>647,8</i>	<i>839,5</i>	<i>1 012,8</i>
<i>Import</i>	<i>1 370,5</i>	<i>1 962,4</i>	<i>2 249,0</i>
Turkiya	1 432,1	2 429,5	2 456,4
<i>Eksport</i>	<i>650,8</i>	<i>1 250,3</i>	<i>1 197,9</i>
<i>Import</i>	<i>781,4</i>	<i>1 179,1</i>	<i>1 258,6</i>
Koreya Respublikasi	1 599,4	1 372,7	1 826,3
<i>Eksport</i>	<i>34,1</i>	<i>37,4</i>	<i>38,5</i>
<i>Import</i>	<i>1 565,4</i>	<i>1 335,3</i>	<i>1 787,8</i>
Qirg'iz Respublikasi	660,4	684,6	867,0
<i>Eksport</i>	<i>560,8</i>	<i>564,7</i>	<i>683,4</i>
<i>Import</i>	<i>99,7</i>	<i>119,9</i>	<i>183,6</i>
Germaniya	572,3	546,2	783,1
<i>Eksport</i>	<i>51,3</i>	<i>44,6</i>	<i>69,1</i>
<i>Import</i>	<i>521,1</i>	<i>501,6</i>	<i>713,9</i>
Turkmaniston	382,8	598,8	569,0
<i>Eksport</i>	<i>97,8</i>	<i>136,4</i>	<i>154,1</i>
<i>Import</i>	<i>285,1</i>	<i>462,4</i>	<i>414,9</i>
Afg'oniston	544,7	489,9	520,7
<i>Eksport</i>	<i>543,1</i>	<i>487,7</i>	<i>514,4</i>
<i>Import</i>	<i>1,7</i>	<i>2,2</i>	<i>6,3</i>
Hindiston	260,2	358,2	502,1
<i>Eksport</i>	<i>9,0</i>	<i>21,5</i>	<i>27,1</i>
<i>Import</i>	<i>251,3</i>	<i>336,8</i>	<i>475,0</i>

Jadval davomi

<i>Davlatlar</i>	<i>2020- y.</i>	<i>2021- y.</i>	<i>2022- y.</i>
Tojikiston	355,1	412,4	469,8
<i>Ekspart</i>	284,8	337,8	352,6
<i>Import</i>	70,3	74,6	117,2
Braziliya	51,3	276,1	402,3
<i>Ekspart</i>	0,6	1,8	0,9
<i>Import</i>	50,6	274,3	401,4
Belarus	194,6	276,6	363,2
<i>Ekspart</i>	30,1	38,6	80,0
<i>Import</i>	164,5	238,0	283,2
Litva	324,8	347,0	357,4
<i>Ekspart</i>	21,1	46,7	55,9
<i>Import</i>	303,7	300,3	301,5
BAA	167,2	167,1	338,4
<i>Ekspart</i>	88,0	32,6	80,2
<i>Import</i>	79,2	134,5	258,1
AQSH	213,0	340,0	336,9
<i>Ekspart</i>	18,0	41,9	47,2
<i>Import</i>	195,0	298,1	289,7
Eron	177,8	307,0	334,9
<i>Ekspart</i>	108,0	130,5	113,8
<i>Import</i>	69,8	176,5	221,1
Italiya	263,4	313,0	295,0
<i>Ekspart</i>	11,1	29,1	43,5
<i>Import</i>	252,3	284,0	251,5
Ukraina	307,0	451,1	247,0
<i>Ekspart</i>	83,5	141,8	65,5
<i>Import</i>	223,5	309,2	181,5
Polsha	133,3	167,1	236,9
<i>Ekspart</i>	43,3	60,9	97,8
<i>Import</i>	90,0	106,2	139,1

Tashqi iqtisodiy faoliyat bo'yicha 20 ta yirik hamkor-davlatlar orasidan uchta davlatda faol tashqi savdo balansi kuzatilgan, xususan, Qirg'iz Respublikasi, Afg'oniston va Tojikiston shular jumlasidandir. Qolgan 17 ta davlatlar bilan passiv tashqi savdo balansi saqlanib qolmoqda.

**O'zbekiston Respublikasining hududlar kesimida
tashqi savdo aylanmasi
(2022- yil yanvar-sentabr)**

	Mln. AQSH dollari hajmi	O'sish sur'ati, % da
O'zbekiston Respublikasi	36 024,6	127,2
Qoraqalpog'iston Respublikasi	447,7	96,0
<i>hududlar:</i>		
Andijon	3 171,8	145,9
Buxoro	862,4	129,5
Jizzax	508,4	146,6
Qashqadaryo	413,9	101,4
Navoiy	858,2	95,3
Namangan	939,6	118,9
Samarqand	1 737,9	130,7
Surxondaryo	289,3	94,5
Sirdaryo	561,1	108,7
Toshkent	3 983,7	102,9
Farg'ona	1 565,8	116,0
Xorazm	591,6	159,0
Toshkent sh.	13 974,8	119,4

Eng yuqori hajm,
mln. AQSH dollari



1 Toshkent sh. – 13 974,8

2 Toshkent – 3 983,7

3 Andijon – 3 171,8

Eng quyi hajm,
mln. AQSH dollari




1 Surxondaryo – 289,3

2 Qashqadaryo – 413,9

3 Qoraqalpog'iston Respublikasi – 447,7

Respublika tashqi savdo aylanmasi tarkibida eng yuqori ulushni Toshkent shahri 38,8 % ulush bilan 13 974,8 mln. AQSH dollarini, eng quyi ulushni esa Surxondaryo viloyati 0,8 % ulush bilan 289,3 mln. AQSH dollarini tashkil etdi.


**O'zbekiston Respublikasining tashqi savdo aylanmasida MDH mamlakatlari
va boshqa xorijiy davlatlarning hajmlari dinamikasi**
(yanvar-sentabr, mln. AQSH dollari, ulushi, % da)



Respublika hukumati tomonidan MDH mamlakatlari bilan hamkorlikni mustahkamlash va tashqi savdoni har tomonlama qo'llab-quvvatlash bo'yicha ko'rilayotgan chora-tadbirlar natijasida MDH mamlakatlari tashqi savdo aylanmasining o'sish sur'ati 2017- yilga nisbatan 0,2 baravar oshdi va ularning tashqi savdo aylanmasidagi ulushi 2022- yil yakunlariga ko'ra 38,8 foizni tashkil etdi.

2022- yilning yanvar-sentabr oylarida MDH davlatlari tashqi savdo aylanmasining tashqi savdo aylanmasigi 2021- yilning mos davriga nisbatan ulushi 0,1 % ga ko'paygan.

O'zbekiston Respublikasining MDH mamlakatlari bilan tashqi savdo aylanmasi
(2022- yil yanvar-sentabr, mln. AQSH dollari)




O‘zbekiston Respublikasining MDH mamlakatlari bilan tashqi savdo aylanmasi 2022- yil yanvar-sentabr holatiga ko‘ra 13 961,3 mln. AQSH dollarini tashkil etdi. Shundan eksport 5 546,9 mln. AQSH dollariga yetgan bo‘lsa, import 8 414,4 mln. AQSH dollari qiymatida qayd etildi.

O‘zbekiston Respublikasining MDH mamlakatlari bilan tashqi savdo aylanmasining eng yuqori hajmlari Rossiya Federatsiyasi (46,6 %), Qozog‘iston (23,6 %) hamda Qirg‘iz Respublikasi (6,2 %) davlatlari bilan qayd etildi.

O‘zbekiston Respublikasining Yevroosiyo iqtisodiy ittifoqiga a‘zo davlatlar bilan tashqi savdo aylanmasi

(yanvar-sentabr, mln. AQSH dollari, ulushi, % da)




Jami tashqi savdo aylanmasidagi ulushi



Jami eksportdagi ulushi



Jami importdagi ulushi




O‘zbekiston Respublikasining Yevroosiyo iqtisodiy ittifoqiga a‘zo davlatlar bilan tashqi savdo aylanmasi 11 053,2 mln. AQSH dollarini tashkil etdi. Shundan eksport hajmi 3 953,6 mln. AQSH dollari, import hajmi esa 7 099,6 mln. AQSH dollariga yetdi.

2 -BO'LIM. O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI EKSPORTI

O'zbekiston Respublikasi eksporti hajmi dinamikasi


(yanvar-sentabr, mln. AQSH dollari)



Joriy yilning yanvar-sentabr oylarida mamlakatning eksportyorlari soni 6 281 tani tashkil etib, ular tomonidan 11 080,6 mln. AQSH dollari (oltindan tashqari) qiymatidagi (2021- yilning mos davriga nisbatan 123,5 % ga ko'paydi) tovar va xizmatlar eksport qilinishi ta'minlandi.

XSST Bo'yicha eksport tarkibi

(2022- yil yanvar-sentabr, ulushi, % da)



O'zbekiston Respublikasi XSST bo'yicha eksport tarkibi
(yanvar-sentabr, yillar kesimida)


XSST tarkibi	Mln. AQSH dollari		O'sish sur'ati, % da		Umumiy hajmga nis- batan. % da	
	2021- y.	2022- y.	2021- y.	2022- y.	2021- y.	2022- y.
Jami	10 357,2	14 051,5	83,1	135,7	100,0	100,0
<i>shu jumladan:</i>						
Oziq-ovqat mahsulotlari va tirik hayvonlar	921,0	1 079,8	100,8	117,2	8,9	7,7
Ichimliklar va tamaki	23,4	77,5	126,0	3,3 m.	0,2	0,6
Nooziq-ovqat xomashyo, yoqilg'idan tashqari	387,3	296,3	109,4	76,5	3,7	2,1
Mineral yoqilg'i, yog'lash moylari va shunga o'xshash materiallar	638,2	957,0	130,4	149,9	6,2	6,8
Hayvon va o'simliklar moylari (yog'lari), yog'lar va mumlar	1,2	20,1	4,4	17,3 m.	0,01	0,1
Kimyoviy vositalar va boshqa toifalarga kiritilmagan shunga o'xshash mahsulotlar	741,7	966,2	122,6	130,3	7,2	6,9
Sanoat tovarlari	3 127,8	3 404,0	153,0	108,8	30,2	24,2
Mashinalar va transport asbob-uskunalari	491,4	669,1	180,8	136,1	4,7	4,8
Turli xil tayyor buyumlar	573,4	771,6	126,5	134,6	5,5	5,5
Boshqa tovarlar	1 580,0	2 983,2	27,2	188,8	15,3	21,2
<i>shu jumladan: oltin</i>	<i>1 386,5</i>	<i>2 970,9</i>	<i>23,9</i>	<i>2,1 m.</i>	<i>13,4</i>	<i>21,1</i>
Xizmatlar	1 871,8	2 826,8	126,4	151,0	18,1	20,1

Eksport tarkibida tovarlar ulushi 79,9 % ni tashkil etib, ular sanoat tovarlari (24,2 %), oziq-ovqat mahsulotlari va tirik hayvonlar (7,7 %) va kimyoviy vositalar va shunga o'xshash mahsulotlar (6,9 %) hissasiga to'g'ri kelmoqda.

Shuningdek, eksport tarkibida oltin ulushi joriy yilning yanvar-sentabr oylarida 21,1 % ni tashkil etdi. Eksportning umumiy hajmida xizmatlar ulushi 2021- yilning mos davriga nisbatan 2,0 % ga ko‘payib, 20,1 % ni tashkil etdi.

2022- yilning yanvar-sentabr oylarida MDH mamlakatlariga 5 546,9 mln. AQSH dollari qiymatidagi tovar va xizmatlar eksport qilinib, jami eksportning 39,5 % ini tashkil etdi.

MDH va boshqa davlatlarga tovar va xizmatlar eksporti hajmlari dinamikasi
(yanvar-sentabr, mln. AQSH dollari, ulushi, % da)



2017-2021- yillar bilan taqqoslaganda, 2022- yil yanvar-sentabr oylarida O‘zbekiston Respublikasining tashqi savdo aylanmasida tovarlar va xizmatlar eksporti bo‘yicha asosiy hamkorlarimiz XXR, Rossiya Federatsiyasi, Turkiya, Qozog‘iston, Qirg‘iziston, Afg‘oniston va Tojikiston kabi davlatlar bo‘lgan. Ularning umumiy eksportdagi ulushi 56,6 % ni tashkil etdi.

Respublika eksportida asosiy hamkor davlatlarning ulushi
(2022- yil yanvar-sentabr, % da)



**O‘zbekiston Respublikasining asosiy hamkor davlatlarga amalga
oshirgan eksporti hajmi va o‘shish sur‘atlari**
(yanvar-sentabr, yillar kesimida)

<i>Davlatlar</i>	<i>Mln. AQSH dollari</i>		<i>O‘shish sur‘ati, % da</i>		<i>O‘rni</i>	
	<i>2021- y.</i>	<i>2022- y.</i>	<i>2021- y.</i>	<i>2022- y.</i>	<i>2021- y.</i>	<i>2022- y.</i>
Rossiya Federatsiyasi	1 463,3	2 163,5	138,8	147,8	2	1
Xitoy Xalq Respublikasi	1 794,4	2 020,3	130,9	112,6	1	2
Turkiya	1 250,3	1 197,9	192,1	95,8	3	3
Qozog‘iston	839,5	1 012,8	129,6	120,6	4	4
Qirg‘iz Respublikasi	564,7	683,4	100,7	121,0	5	5
Afg‘oniston	487,7	514,4	89,8	105,5	6	6
Tojikiston	337,8	352,6	118,6	104,4	7	7
Kanada	161,1	160,5	152,4	99,6	8	8
Turkmaniston	136,4	154,1	139,5	113,0	10	9
Eron	130,5	113,8	120,8	87,3	11	10
Polsha	60,9	97,8	140,7	160,7	14	11
Ozarbayjon	51,7	93,1	127,1	180,0	16	12
OAƏ	32,6	80,2	37,0	2,5 m.	25	13
Belarus	38,6	80,0	128,1	2,1 m.	22	14
Latviya	40,2	75,4	158,0	187,3	21	15
Pokiston	91,5	72,1	2,2 m.	78,7	12	16
Buyuk Britaniya	50,0	71,9	2,5 m.	143,9	17	17
Fransiya	7,8	69,7	8,9	9,0 m.	39	18
Germaniya	44,6	69,1	87,0	154,9	19	19
Ukraina	141,8	65,5	169,8	46,2	9	20

O'zbekiston Respublikasining hududlar kesimida eksporti
(2022- yil yanvar-sentabr)

	Mln. AQSH dollari	O'sish sur'ati, % da
O'zbekiston Respublikasi	14 051,5	135,7
Qoraqalpog'iston Respublikasi	274,9	92,4
<i>hududlar:</i>		
Andijon	863,4	137,2
Buxoro	217,3	96,2
Jizzax	148,2	102,7
Qashqadaryo	224,3	122,6
Navoiy	446,1	121,3
Namangan	436,3	122,3
Samarqand	484,0	134,1
Surxondaryo	166,1	115,6
Sirdaryo	226,4	128,9
Toshkent	1 514,2	104,0
Farg'ona	640,3	109,2
Xorazm	199,3	120,1
Toshkent sh.	3 344,6	120,3

Eng yuqori hajm,
mln. AQSH dollari

1 Toshkent sh. – 2 960,2

2 Toshkent – 1 371,2

3 Andijon – 757,0

Eng quyi hajm,
mln. AQSH dollari

1 Jizzax – 148,2

2 Surxondaryo – 166,1

3 Xorazm – 199,3









Respublika eksporti tarkibida eng yuqori ulushni Toshkent shahri **23,3** % ulush bilan **3 344,6** mln. AQSH dollarini, eng quyi ulushni esa Jizzax viloyati **1,1** % ulush bilan **148,2** mln. AQSH dollarini tashkil etdi.

Eksport hajmining eng yuqori o'sish sur'atlari 2021- yilning shu davriga nisbatan Qashqadaryo (144,2 %), Samarqand (142,3 %), Andijon (140,4 %) va Navoiy viloyatlarida (131,2 %) qayd etildi. Eng past o'sish sur'ati Buxoro viloyatiga (80,6 %) to'g'ri keldi.

Meva-sabzavot mahsulotlari eksporti
(2022- yil yanvar-sentabr)

Oziq-ovqat mahsulotlarining asosiy qismi bo'lgan 760,2 mln. AQSH dollari qiymatidagi 1 235,8 ming tonnadan ziyod meva-sabzavot eksport qilindi. Bunda 2021- yilning mos davriga nisbatan 21,7 % ga ko'paydi.

Meva-sabzavot mahsulotlari eksporti
(2022- yil yanvar-sentabr)

<p>Uzum (quritilgan uzumni qo'shgan holda)</p> <p>161,0 mln. AQSH dollari</p> <p>179,2 ming tonna</p>  <p>↑ 53,0%</p>	<p>Karam</p> <p>32,9 mln. AQSH dollari</p> <p>130,8 ming tonna</p>  <p>↑ 91,5%</p>	<p>Gilos</p> <p>33,3 mln. AQSH dollari</p> <p>25,4 ming tonna</p>  <p>↓ 60,8%</p>	<p>Pomidor</p> <p>45,1 mln. AQSH dollari</p> <p>59,9 ming tonna</p>  <p>↓ 13,5%</p>
<p>Shaftoli</p> <p>68,1 mln. AQSH dollari</p> <p>76,7 ming tonna</p>  <p>↑ 55,2%</p>	<p>Mosh</p> <p>46,3 mln. AQSH dollari</p> <p>60,7 ming tonna</p>  <p>↑ 51,0%</p>	<p>Qovun va tarvuz</p> <p>35,6 mln. AQSH dollari</p> <p>129,2 ming tonna</p>  <p>↑ 63,9%</p>	<p>Piyoz</p> <p>28,6 mln. AQSH dollari</p> <p>170,8 ming tonna</p>  <p>↑ 10,4%</p>

2022- yil yanvar-sentabr oylarida meva-sabzavot mahsulotlari jami eksportning 5,4 % ini tashkil etdi.

Meva-sabzavot mahsulotlarining asosiy eksport bozorlari Rossiya Federatsiyasi, Qozog'iston, XXR hamda Pokiston davlatlari hissasiga to'g'ri kelgan.

Meva-sabzavot mahsulotlarining eksport geografiyasi
(2022- yil yanvar-sentabr)

<i>Davlatlar</i>	<i>ming tonna</i>	<i>mln. AQSH dollari</i>	<i>ulushi, % da</i>
Rossiya Federatsiyasi	379,9	337,2	44,4
Qozog‘iston	517,4	159,4	21,0
XXR	61,0	51,9	6,8
Pokiston	20,7	48,7	6,4
Qirg‘iz Respublikasi	121,0	33,8	4,4
Afg‘oniston	26,5	19,4	2,6
Turkiya	11,0	17,7	2,3
Belarus	18,6	14,3	1,9
Eron	9,3	10,0	1,3
Ozarbayjon	5,5	7,5	1,0
BAA	4,2	5,9	0,8
Germaniya	2,7	5,5	0,7
Tojikiston	17,7	5,3	0,7
Gruziya	6,8	4,7	0,6
Ukraina	6,2	4,5	0,6
Boshqa davlatlar	379,9	337,2	4,5

2022- yil yanvar-sentabr oylarida meva va sabzavotlar eksportining qiymat jihatidan eng katta hajmi Rossiya Federatsiyasiga to‘g‘ri keldi (meva va sabzavotlar eksporti umumiy hajmining 44,4 % i), Qozog‘iston (21,0 % i), XXR (6,8 % i), Pokiston (6,4% i).

To‘qimachilik mahsulotlari eksporti
(yanvar-sentabr)

Joriy yil yanvar-sentabr oyi yakuni bo‘yicha 2 405,3 mln. AQSH dollarilik to‘qimachilik mahsulotlari eksporti amalga oshirilib, umumiy eksportning 17,1 % ini tashkil etdi va o‘tgan yilga nisbatan 13,0 % ga o‘tdi.

To‘qimachilik mahsulotlari eksporti dinamikasi
(yanvar-sentabr, mln. AQSH dollari)

<i>Davlatlar</i>	<i>2021- y.</i>	<i>2022- y.</i>
Jami:	2 129,5	2 405,3
Paxtadan yigirilgan ip	1 173,5	1 155,8
Tayyor trikotaj va tikuvchilik kiyimlari	479,1	639,4
Naqshli mato	180,2	237,4
Paxtadan gazlamalar	93,9	114,4
Boshqa to‘qimachilik mahsulotlari	84,7	113,4
Paxta mahsulotlari	47,3	58,4
Ipak va ipak mahsulotlari	29,0	39,5
Gilamlar	30,8	26,6

Yil boshidan 525 turdagi to‘qimachilik mahsulotlari dunyoning 69 ta davlatiga eksport qilindi. Eksport qilingan to‘qimachilik mahsulotlari tarkibida paxtadan yigirilgan ip (48,1 %), tayyor trikotaj va tikuvchilik kiyimlari (26,6 %) asosiy ulushni egallagan.


Davlatlar kesimida to‘qimachilik mahsulotlari eksporti dinamikasi
(yanvar-sentabr, mln. AQSH dollari)

<i>Davlatlar</i>	<i>2021- yil</i>	<i>2022- yil</i>	<i>O‘shish sur‘ati, % da</i>
Rossiya Federatsiyasi	661,6	926,3	140,0
Turkiya	270,2	433,6	160,5
Qirg‘iz Respublikasi	286,0	354,2	123,8
XXR	528,4	239,5	45,3
Eron	36,5	65,6	179,7
Polsha	47,3	60,1	127,2
Qozog‘iston	34,7	43,6	125,4
Tojikiston	13,9	37,8	2,7 m.
Italiya	24,2	33,8	140,0
Ukraina	37,0	28,5	77,1
Belarus	16,7	28,3	168,8
Germaniya	8,2	24,5	3,0 m.
Ozarbayjon	13,5	15,2	112,3
Misr	24,0	14,3	59,5
Boshqa davlatlar	127,3	100,1	78,7

To‘qimachilik mahsulotlarining eng katta ulushi Rossiya Federatsiyasi (926,3 mln. AQSH dollari – 38,5 %) va Turkiya (433,6 mln. AQSH dollari – 18,0 %) davlatlari hissasiga to‘g‘ri keldi.

Xizmatlar eksporti hajmi 2 826,8 mln. AQSH dollarini yoki jami eksport hajmining 20,1 % ini tashkil etib, 2021- yilning mos davriga nisbatan 51,0 % ga ko‘paydi. Xizmatlar eksporti tarkibining asosiy ulushi transport (46,9 %), safarlar (turizm) (39,3 %), telekommunikatsiya, kompyuter va axborot (5,4 %) va boshqa tadbirkorlik bilan bog‘liq xizmatlar (4,3 %) hissasiga to‘g‘ri kelgan.

Xizmatlar eksporti tarkibi
(2022- yil yanvar-sentabr, ulushi, % da)




Shu bilan birga, boshqa xizmatlar (4,1 %)ni tashkil etib, tarkibida eng yuqori ulushlar moliyaviy xizmatlar (1,7 %), sug‘urta va pensiya ta‘minoti xizmatlari (1,4 %) hamda texnik xizmat ko‘rsatish va ta‘mirlash xizmatlari (0,3 %) hissasiga to‘g‘ri keldi.

Xizmatlar eksportining umumiy hajmidan: transport xizmatlari 1 325,9 mln. AQSH dollarini tashkil etib, 2021- yilning shu davriga nisbatan 3,1 % ga o‘sgan bo‘lsa, safarlar (turizm) 1 110,6 mln. AQSH dollarini tashkil qilib, 2021- yilning shu davriga nisbatan 3,7 baravarga ko‘paydi, shuningdek, telekommunikatsiya, kompyuter va axborot xizmatlari 153,7 mln. AQSH dollariga yetib, 2021- yilning shu davriga nisbatan 17,4 % ga o‘sd.

3- BO' LIM. O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI IMPORTI

O'zbekiston Respublikasi eksporti hajmi dinamikasi

(yanvar-sentabr, mln. AQSH dollari)




2022- yilning yanvar-sentabr oylarida import hajmi 21 973,1 mln. AQSH dollarini va 2021- yilga nisbatan 22,3 % ni o'sish sur'atini tashkil etdi.

Import tarkibida eng katta ulush, mashinalar va transport asbob-uskunolari (32,1 %), sanoat tovarlari (19,2 %) hamda kimyoviy vositalar va shunga o'xshash mahsulotlar (13,8 %) hisobiga to'g'ri keldi.

XSST bo'yicha import tarkibi

(2022- yil yanvar-sentabr, ulushi, % da)



Tovarlar importi dinamikasi tahliliga ko'ra, 2022- yilning yanvar- sentabr oylarida import qilingan tovarlar hajmi, o'tgan yilning mos davriga nisbatan 3 338,5 mln. AQSH dollariga ko'paydi va 20 085,4 mln. AQSH dollarini tashkil etdi. Xizmatlar importi esa 1 887,8 mln. AQSH dollariga yetdi.


O'zbekiston Respublikasi XSST bo'yicha import tarkibi
(yanvar-sentabr, yillar kesimida)

XSST tarkibi	Mln. AQSH dollari		O'sish sur'ati, % da		Umumiy hajmga nis- batan. % da	
	2021- y.	2022- y.	2021- y.	2022- y.	2021- y.	2022- y.
Jami import	17 966,1	21 973,1	119,3	122,3	100,0	100,0
<i>shu jumladan:</i>						
Oziq-ovqat mahsulotlari va tirik hayvonlar	1 681,6	2 363,6	134,9	140,6	9,4	10,8
Ichimliklar va tamaki	59,8	101,8	183,8	170,1	0,3	0,5
Nooziq-ovqat xomashyo, yoqilg'idan tashqari	871,4	961,2	145,7	110,3	4,9	4,4
Mineral yoqilg'i, yog'lash moylari va shunga o'xshash materiallar	1 011,0	1 103,6	128,0	109,2	5,6	5,0
Hayvon va o'simliklar moylari (yog'lari), yog'lar va mumlar	302,2	228,2	148,5	75,5	1,7	1,0
Kimyoviy vositalar va boshqa toifalarga kiritilmagan shunga o'xshash mahsulotlar	2 547,3	3 026,3	123,4	118,8	14,2	13,8
Sanoat tovarlari	3 269,0	4 215,3	127,8	128,9	18,2	19,2
Mashinalar va transport asbob-uskunalari	5 989,5	7 050,4	103,5	117,7	33,3	32,1
Turli xil tayyor buyumlar	1 004,7	995,8	110,0	99,1	5,6	4,5
Boshqa tovarlar	10,3	39,3	31,4	3,8 m.	0,1	0,2
Xizmatlar	1 219,2	1 887,8	144,9	154,8	6,8	8,6

2022- yil yanvar-sentabr natijalariga ko‘ra MDH mamlakatlaridan import ulushi 38,3 % ni tashkil etib, 2021- yilning mos davriga nisbatan 1,5 % ga kamaydi.

MDH va boshqa davlatlarga tovar va xizmatlar importi hajmlari dinamikasi

(yanvar-sentabr, mlrd. AQSH dollari, ulushi, % da)



2022- yil yanvar-sentabr oylarida O‘zbekiston Respublikasi 171 ta davlatdan tovar va xizmatlar importini amalga oshirdi. Yetti yirik hamkor davlatlar (XXR, Rossiya Federatsiyasi, Qozog‘iston, Koreya Respublikasi, Turkiya, Germaniya va Hindiston) jami importning 71,1 % ulushini tashkil etdi.

Respublika importida asosiy hamkor davlatlarning ulushi

(2022- yil yanvar-sentabr, % da)



**O‘zbekiston Respublikasining asosiy hamkor davlatlarga amalga
oshirgan import hajmlari va o‘shish sur‘atlari**
(yanvar-sentabr)

<i>Davlatlar</i>	<i>Mln. AQSH dollari</i>		<i>O‘shish sur‘ati, % da</i>		<i>O‘rni</i>	
	<i>2021- y.</i>	<i>2022- y.</i>	<i>2021- y.</i>	<i>2022- y.</i>	<i>2021- y.</i>	<i>2022- y.</i>
XXR	3 587,1	4 768,2	110,9	132,9	2	1
Rossiya Federatsiyasi	3 641,7	4 380,6	121,4	120,3	1	2
Qozog‘iston	1 962,4	2 249,0	143,2	114,6	3	3
Koreya Respublikasi	1 335,3	1 787,8	85,3	133,9	4	4
Turkiya	1 179,1	1 258,6	150,9	106,7	5	5
Germaniya	501,6	713,9	96,3	142,3	6	6
Hindiston	336,8	475,0	134,0	141,0	8	7
Turkmaniston	462,4	414,9	162,2	89,7	7	8
Braziliya	274,3	401,4	5,4 m.	146,4	13	9
Litva	300,3	301,5	98,9	100,4	10	10
AQSH	298,1	289,7	152,8	97,2	11	11
Belarus	238,0	283,2	144,7	119,0	14	12
BAA	134,5	258,1	169,8	191,9	18	13
Italiya	284,0	251,5	112,6	88,6	12	14
Eron	176,5	221,1	2,5 m.	125,3	16	15
Qirg‘iz Respublikasi	119,9	183,6	120,3	153,2	22	16
Ukraina	309,2	181,5	138,4	58,7	9	17
Shveytsariya	126,1	169,9	182,8	134,7	20	18
Fransiya	212,1	162,5	2,2 m.	76,6	15	19
Yaponiya	116,3	150,3	92,2	129,3	23	20

O'zbekiston Respublikasining hududlar kesimida importi
(2022- yil yanvar-sentabr)

	Mln. AQSH dollari	O'sish sur'ati, % da
O'zbekiston Respublikasi	21 973,1	122,3
Qoraqalpog'iston Respublikasi	172,7	102,5
<i>hududlar:</i>		
Andijon	2 308,4	149,5
Buxoro	645,1	146,6
Jizzax	360,2	177,9
Qashqadaryo	189,6	84,1
Navoiy	412,1	77,3
Namangan	503,3	116,2
Samarqand	1 253,8	129,5
Surxondaryo	123,2	75,8
Sirdaryo	334,7	98,3
Toshkent	2 469,6	102,3
Farg'ona	925,5	121,2
Xorazm	392,3	190,2
Toshkent sh.	10 630,2	119,2

Eng yuqori hajm,
mln. AQSH dollari



1 Toshkent sh. – 10 630,2

2 Toshkent – 2 469,6

3 Andijon – 2 308,4

Eng quyi hajm,
mln. AQSH dollari



1 Surxondaryo – 123,2

2 Qoraqalpog'iston Respublikasi – 172,7


3 Qashqadaryo – 189,6

Respublika importi tarkibida eng yuqori ulushni Toshkent shahri 48,4 % ulush bilan 10 630,2 mln. AQSH dollarini, eng quyi ulushni esa Surxondaryo viloyati 0,6 % ulush bilan 123,2 mln. AQSH dollarini tashkil etdi.

Import hajmining eng yuqori o'sish suratlari 2021- yilning shu davriga nisbatan Xorazm (190,2 %), Jizzax (177,9 %), Andijon (149,5 %), Buxoro (146,6 %), Samarqand (129,5 %), Farg'ona (121,2 %) viloyatlarida va Toshkent shahrida (119,2 %) qayd etildi. Eng past o'sish sur'ati Surxondaryo (75,8 %) va Navoiy (77,3 %) viloyatlariga to'g'ri keldi.

2021- yilning yanvar-sentabr oylari yakuni bilan xizmatlar importi hajmi 1 887,8 mln. AQSH dollarini yoki jami import hajmining 8,6 % ini tashkil etdi va o'tgan yilga nisbatan 54,8 % baravarga ko'paydi. Xizmatlar importi tarkibining asosiy ulushi boshqa safarlar (turizm xizmatlari) (56,6 %), transport xizmatlari (15,1 %), telekommunikatsiya, kompyuter va axborot xizmatlari (9,0 %) va boshqa tadbirkorlik bilan bog'liq xizmatlar (6,9 %)ga tegishli bo'ldi.


Xizmatlar importi tarkibi
(2022- yil yanvar-sentabr, ulushi, % da)



Mashinalar va transport asbob-uskunolari importi

2022- yil yanvar-sentabr oylarida import tarkibida mashinalar va transport-asbob uskunolari hajmi 7 050,4 million AQSH dollarini tashkil etib, o'tgan yilning shu davriga nisbatan 17,7 % ga ko'paydi va importning umumiy hajmidagi ulushi 32,1 % ga yetdi.

Mashina va asbob-uskunalar import qilingan asosiy hamkor davlatlar
(2022- yil yanvar-sentabr)




2022- yil yanvar-sentabr oylarida mashina va transport asbob-uskunolari o‘tgan yilning shu davriga nisbatan 1 060,9 mln. AQSH dollariga oshdi. Ushbu tovarlarni O‘zbekiston Respublikasiga yetkazib berishning asosiy qismi XXR — 2 735,3 mln. AQSH dollari (38,8 %) va Koreya Respublikasi — 1 212,5 mln. AQSH dollari (17,2 %), Turkiya 553,2 mln. AQSH dollari (7,8 %) kabi davlatlarga to‘g‘ri keladi.

Sanoat tovarlari importi

2022- yil yanvar-sentabr oylarida import tarkibida sanoat tovarlari hajmi 4 215,3 million AQSH dollarini tashkil etib, o‘tgan yilning shu davriga nisbatan 28,9 % ga ko‘paydi va importning umumiy hajmidagi ulushi 19,2 % ga yetdi.

Sanoat mahsulotlari import qilingan asosiy hamkor davlatlar (2022- yil yanvar-sentabr)



Sanoat tovarlari importi asosan cho‘yan yoki legirlanmagan po‘lat (1 895,4 mln. AQSH dollari), metallardan tayyorlangan buyumlar (544,7 mln. AQSH dollari), to‘qimachilik yigirilgan ipi, matolar, tayyor buyumlar va shunga o‘xshash mahsulotlar (393,7 mln. AQSH dollari), qog‘oz va karton (329,7 mln. AQSH dollari) va boshqalardan tashkil topgan.

Statistik ko‘rsatkichlarga izohlar

Tovar – har qanday ko‘chma mulk, shu jumldan valyuta va valyuta qimmatliklari, elektr, issiqlik va boshqa energiya turlari, transport vositalari (yo‘lovchilar va tovarlar tashish uchun ishlatiladigan transport vositalari, shu jumldan konteynerlar va boshqa transport uskunalari bundan mustasno), intellektual mulk obyektlari.

Tovarlar eksporti – agar qonunchilikda boshqa tartib ko‘zda tutilmagan bo‘lsa, tovarlarni O‘zbekiston Respublikasi bojxona chegarasidan qaytarib olib kirish majburiyatisiz olib chiqish.

Reeksport – xorijiy tovarlar bojxona hududidan olib chiqiladigan bojxona rejimi.

Tovarlar importi – tovarlarni O‘zbekiston Respublikasi bojxona chegarasidan qaytarib olib chiqish majburiyatisiz olib kirish.

Reimport – bojxona hududidan eksport rejimida olib chiqilgan O‘zbekiston Respublikasi tovarlari O‘zbekiston Respublikasining Bojxona kodeksida ko‘rsatilgan muddatda (olib chiqilgan paytdan boshlab o‘n yil ichida) qaytarib olib kiriladigan rejim.

Tashqi savdo aylanmasi – mamlakatning muayyan davrdagi eksport va import qiymatlari summasi.

Tovarlar kelib chiqqan mamlakat – tovar to‘liq ishlab chiqarilgan yoki yetarli darajada qayta ishlov berilgan mamlakat (tovar yetarli darajada qayta ishlov berilgan mamlakat “Bojxona tarifi to‘g‘risida”gi O‘zbekiston Respublikasi qonunining 26- moddasiga asosan aniqlanadi).

Tovarlarning belgilangan manzili – yuklab jo‘natish paytida tovar yetkazib berilishi belgilangan mamlakat sifatida ma‘lum bo‘lgan mamlakat.

Tovarlarning statistik qiymati – shartnoma valyutasidan qat‘i nazar yagona bazisga keltirilgan shartnoma bo‘yicha tovarlar qiymati.

SIF (qiymat, sug‘urtalash, fraxt) – tovarlarni sotish sharti bo‘lib, unga ko‘ra tovar narxiga uning qiymati va tovarni sug‘urtalash hamda import qiluvchi mamlakat portigacha yetkazib berish xarajatlari kiritiladi.

SIP (fraxt/tashish va sug‘urtalash) – tovarlarni sotish sharti bo‘lib, unga ko‘ra tovar narxiga uning qiymati va tovarni sug‘urtalash hamda import qiluvchi mamlakatning chegarasidagi belgilangan joygacha yetkazib berish xarajatlari kiritiladi.

FOB (bortda erkin) – tovarni sotish sharti bo‘lib, unga ko‘ra tovar narxiga uning qiymati va tovarni kema bortigacha yetkazib berish va yuklash xarajatlari kiritiladi.

DAF (chegaragacha yetkazib berish) – tovarni sotish sharti bo‘lib, unga ko‘ra tovar narxiga uning qiymati va tovarni belgilangan joygacha yoki eksport qiluvchi mamlakat chegarasidagi joygacha yoxud qo‘shni mamlakat chegarasigacha yetkazib berish xarajatlari kiritiladi.


Xizmatlar (ishlar) eksporti — O‘zbekiston Respublikasining rezidentlari tomonidan norezidentlarga, iqtisodiy geografik joylashuvidan qat‘i nazar, ko‘rsatilgan xizmatlar (bajarilgan ishlar).

Xizmatlar (ishlar) importi — norezidentlar tomonidan O‘zbekiston Respublikasi rezidentlariga, iqtisodiy geografik joylashuvidan qat’i nazar, ko‘rsatilgan xizmatlar (bajarilgan ishlar).


***Ma’lumot uchun:** O‘zbekiston Respublikasida tovarlar tashqi savdosi statistika ko‘rsatkichlarini shakllantirishda, Tashqi iqtisodiy faoliyat tovar nomenklaturasi (keyingi o‘rinlarda TIF TN) bilan birgalikda, Birlashgan Millatlar Tashkilotining Xalqaro standartlashgan savdo tasniflagichi (keyingi o‘rinlarda – XSST) ishlatiladi. Bu o‘z navbatida tahliliy maqsadlarda eksport va import qilinadigan tovarlarni 10 ta katta qismga guruhlash uchun imkon beradi. Tovarlarni XSST bo‘yicha kodlashtirish, TIF TN va XSST o‘rtasida o‘tish kalitlari yordamida amalga oshiriladi.*

IX. KICHIK TADBIRKORLIK


**1- BO'LIM. KICHIK TADBIRKORLIK SUBEKTLARINING
ASOSIY IQTISODIY KO'RSATKICHLARI**
2022- yilning yanvar-sentabr oylarida kichik tadbirkorlikning ulushlari
(umumiy hajmiga nisbatan % da)



2018-2022- yillarning yanvar-sentabr oylarida kichik tadbirkorlik subyektlarining
YAIMdagi ulushi dinamikasi



2022- yilning yanvar-sentabrida hududlar bo'yicha kichik tadbirkorlikning
YAHMdagi ulushi, % da




Yanvar-sentabr oylarida kichik tadbirkorlikning
asosiy ko'rsatkichlari


	O'lchov birligi	2021- y.	2022- y.	(+;-)
Faoliyat yuritayotgan kichik korxonalar va mikrofirmalar	birlikda	472 273	509 720	37447
Yangi tashkil etilgan kichik korxonalar va mikrofirmalar	birlikda	76 471	69 312	-7 159
<i>Kichik tadbirkorlik ulushlari:</i>				
YAIM	%	55,5	54,3	-1,2
Sanoat	%	25,9	24,2	-1,7
Qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligi	%	97,4	96,7	-0,7
Investitsiya	%	49,7	52,3	2,6
Qurilish	%	73,9	73,8	-0,1
Savdo	%	81,4	78,4	-3,0
Xizmatlar	%	52,0	49,1	-2,9
Yuk tashish	%	45,3	45,7	0,4
Yuk aylanmasi	%	70,7	68,5	-2,2
Yo'lovchi tashish	%	93,0	92,7	-0,3
Yo'lovchi aylanmasi	%	95,3	96,0	0,7
Eksport	%	24,9	27,4	2,5
Import	%	48,4	48,8	0,4

Kichik biznes subyektlari mahsulot (ishlar va xizmatlar) eksporti dinamikasi


2022- yil yanvar-sentabr oylarida kichik biznes subyektlari mahsulot (ishlar va xizmatlar) eksporti hajmi 3852,8 million AQSH dollarini yoki umumiy eksport hajmining 27,4 % ini tashkil etdi.



2022- yilning yanvar-sentabrda kichik tadbirkorlik subyektlari tomonidan amalga oshirilgan mahsulot (ishlar va xizmatlar) eksportining jami eksportdagi ulushi, % da




2022- yil yanvar-sentabr oylarida hududlar bo'yicha kichik tadbirkorlik subyektlari tomonidan amalga oshirilgan mahsulot (ishlar va xizmatlar) eksportining jamiga nisbatan eng ko'p ulushi Sirdaryo viloyatida – 64,5 %, Surxondaryo viloyatida – 59,0 %, Buxoro viloyatida – 58,8 %, Xorazm viloyatida – 57,8 %, Farg'ona viloyatida – 49,4 %, Samarqand viloyatida – 47,2 %, Jizzax viloyatida – 45,4 % ni, Namangan viloyatida – 42,5 %, eng past ko'rsatkich Navoiy viloyatida – 7,3 % ni tashkil etdi.



2022- yil yanvar-sentabr oylarida kichik biznes subyektlari mahsulot (ishlar va xizmatlar) importining hajmi 94852,9 million AQSH dollarini yoki umumiy importning 48,8 % ini tashkil etdi.


**2022- yilning yanvar-sentabrida kichik tadbirkorlik
subyektlari tomonidan amalga oshirilgan mahsulotlar
(ishlar va xizmatlar) importining jami importdagi ulushi, % da**




2022- yil yanvar-sentabr oylarida hududlar bo‘yicha kichik tadbirkorlik subyektlari tomonidan amalga oshirilgan mahsulotlar (ishlar va xizmatlar) importining jamiga nisbatan eng yuqori ulushi Jizzax viloyatida – 86,4 %, Namangan viloyatida – 72,0 %, Farg‘ona viloyatida – 71,5 %, Surxondaryo viloyatida – 69,6 %, Sirdaryo viloyatida – 66,6 %, Buxoro viloyatida – 53,4 %. Eng past ko‘rsatkich Andijon viloyatida - 10,3 % ni tashkil etdi.

2022- yil yanvar-sentabr oylarida kichik tadbirkorlik subyektlari tomonidan 94852,9 milliard so‘mlik sanoat mahsulotlari ishlab chiqarildi.

2022- yil yanvar-sentabr oylarida sanoat ishlab chiqarishining umumiy hajmida kichik tadbirkorlikning ulushi 24,2 % ni tashkil etdi.



2022- yilning yanvar-sentabr oylarida jami sanoat mahsulotidagi kichik tadbirkorlikning hududlar bo‘yicha ulushi, % da




Hududlar kesimida kichik tadbirkorlik subyektlarining eng ko‘p sanoat mahsulotlari ishlab chiqarishi hajmi Toshkent shahri (24538,1 mlrd. so‘m), Toshkent (11 799,3 mlrd. so‘m), Farg‘ona (9 003,7 mlrd. so‘m), Samarqand (7 788,9 mlrd. so‘m) va Andijon (7 412,2 mlrd. so‘m) viloyatlari hissasiga to‘g‘ri keldi. Xorazm viloyatida (2 123,4 mlrd. so‘m) sanoat mahsulotlari ishlab chiqarish hajmi eng past bo‘lib qolmoqda.

2022- yilning yanvar-sentabrda hududlar bo‘yicha kichik tadbirkorlik (biznes)da sanoat mahsuloti ishlab chiqarish hajmi


Hududlar kesimida kichik tadbirkorlikning jami sanoat mahsulotidagi eng yuqori ulushini Jizzax viloyati (51,3 %), Namangan viloyati (44,6 %), Farg‘ona viloyati (41,2%), Surxondaryo viloyati (41,1%), Samarqand viloyati (38,2 %), Buxoro viloyati

(37,1 %) Sirdaryo viloyati (32,3 %), Toshkent sh. (31,9%) Qashqadaryo 26,3 % va Andijon (20,6 %) viloyatlari tashkil etdi. Navoiy viloyatida (6,7 %) kichik tadbirkorlikning ulushi eng past bo‘lib qolmoqda.




2022- yil yanvar-sentabr oylarida kichik tadbirkorlik subyektlarining chakana savdo tovar aylanmasi hajmi 167747,6 mlrd. so'mni yoki umumiy chakana savdo tovar aylanmasining 78,4 % ini tashkil etib, o'sish sur'ati 2021- yil yanvar-sentabr oylariga nisbatan 106,8 % ni tashkil qildi.

2018-2022- yillarning yanvar-sentabr oylarida hududlar bo'yicha kichik tadbirkorlik (biznes)da chakana savdo tovar aylanmasi ulushining dinamikasi




2022- yilning yanvar-sentabrida hududlar bo'yicha kichik tadbirkorlik (biznes)da chakana savdo tovar aylanmasi hajmi va o'sish sur'ati




Hududlar kesimida kichik tadbirkorlik subyektlarining eng ko'p chakana savdo tovar aylanmasi hajmi Toshkent shahri (32741,6 mlrd.so'm), Toshkent (15719,7 mlrd. so'm), Farg'ona (15456,8 mlrd.so'm), Samarqand (14385,2 mlrd. so'm), Andijon (12903,7 mlrd.so'm) va Surxondaryo (12022,2 mlrd.so'm) viloyatlari hissasiga to'g'ri keldi.

2022- yil yanvar-sentabr oylarida kichik tadbirkorlik subyektlari tomonidan amalga oshirilgan qurilish ishlari hajmi 69460,4 milliard so'mni yoki qurilish ishlari umumiy hajmining 73,8 % ini tashkil etdi. O'sish sur'ati 2021- yil yanvar-sentabr oylariga nisbatan 106,2 % ni tashkil qildi.

2018-2022- yillarning yanvar-sentabr oylarida hududlar bo'yicha kichik tadbirkorlik (biznes)da bajarilgan qurilish ishlari ulushi dinamikasi




2022- yilning yanvar-sentabrida hududlar bo'yicha kichik tadbirkorlik (biznes)da bajarilgan qurilish ishlari hajmi, mlrd. so'm




Hududlar kesimida kichik tadbirkorlik subyektlarining eng ko'p bajarilgan qurilish ishlari hajmi Toshkent shahri (15302,3 mlrd. so'm), Toshkent (6732,5 mlrd. so'm), Farg'ona (5323,6mlrd.so'm), Buxoro (5039,0mlrd. so'm), Samarqand (4987,6 mlrd. so'm), Andijon (4733,9mlrd.so'm) hamda Qashqadaryo (4458,5 mlrd.so'm) viloyatlarida qayd etildi.

2022- yil yanvar-sentabr oylarida kichik tadbirkorlik subyektlari tomonidan 124598,8 mlrd. so‘mlik xizmatlar ko‘rsatildi yoki ko‘rsatilgan xizmatlar umumiy hajmining 49,1 % ini tashkil qildi va o‘shir sur‘ati 2021- yil yanvar-sentabr oylariga nisbatan 109,0 % ni tashkil qildi.


2022- yilning yanvar-sentabrida hududlar bo‘yicha kichik tadbirkorlik (biznes)da xizmatlar sohasi hajmi, mlrd. so‘m



2018-2022- yillarning yanvar-sentabr oylarida hududlar bo‘yicha kichik tadbirkorlik (biznes)da xizmatlar sohasining ulushi dinamikasi





Hududlar kesimida kichik tadbirkorlik subyektlarining eng ko'p xizmatlar hajmi Toshkent shahri (36 640,8 mlrd. so'm), Toshkent (12891,4 mlrd. so'm), Samarqand (11077,3 mlrd. so'm), Farg'ona (10162,6 mlrd. so'm), Andijon (8438,6 mlrd. so'm), Qashqadaryo (7734,4 mlrd. so'm) va Namangan (7073,1 mlrd. so'm) viloyatlari hissasiga to'g'ri keldi.




2022- yil yanvar-sentabr oylarida avtomobil transportida yuk tashishning umumiy hajmida kichik tadbirkorlikning ulushi 45,7 % ni tashkil etdi. 2021- yil yanvar-sentabr oylariga nisbatan o'sish sur'ati 104,1 % ni tashkil qildi.

2022- yil yanvar-sentabr oylarida, avtomobil transportida yuk aylanmasining umumiy hajmida kichik tadbirkorlikning ulushi 68,5 % ni tashkil etgan bo'lib, 2021- yil yanvar-sentabr oylariga nisbatan o'sish sur'ati 104,0 % ni tashkil qildi.



2022- yil yanvar-sentabr oylarida, avtomobil transportida yo'lovchi tashish xizmatlarining umumiy hajmida kichik tadbirkorlikning ulushi 92,7 % ni tashkil etib, 2021- yil yanvar-sentabr oylariga nisbatan o'sish sur'ati 102,8 % ni tashkil qildi.

2022- yil yanvar-sentabr oylarida, avtomobil transporti yo'lovchi aylanma-sining umumiy hajmida kichik tadbirkorlikning ulushi 96,0 % ni tashkil etib, 2021- yil yanvar-sentabr oylariga nisbatan o'sish sur'ati 103,2 % ni tashkil qildi.




2- BO'LIM. KICHIK TADBIRKORLIK SUBYEKTLARINING SONI TAHLILI


2022- yilning yanvar-sentabrida 69,3 mingta yangi kichik korxonalar va mikrofirmalar (fermer va dehqon xo'jaliklarisiz) tashkil qilindi, bu o'tgan yilning shu davriga nisbatan 9,4 foizga kam demakdir.

Iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha eng ko'p kichik korxonalar va mikrofirmalar savdoda 26 265 ta (37,9 %), sanoatda 12 583 ta (18,2 %), qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligida 9 816 ta (14,2 %), yashash va ovqatlanishda 4 388 ta (6,3 %), qurilishda 3 630 ta (5,2 %), tashish va saqlashda 2 425 ta (3,5 %)ni tashkil etilgan.

2018-2022- yillarning 1- sentabr holatiga faoliyat ko'rsatayotgan kichik korxonalar va mikrofirmalarning soni dinamikasi, birlikda




2018-2022- yillarning yanvar-sentabr oylarida yangi tashkil etilgan kichik korxonalar va mikrofirmalar soni dinamikasi, birlikda



Hududlar bo‘yicha yangi tashkil topgan kichik korxonalar va mikrofirmalar, birlikda

	2021- y. yanvar-sentabr	2022- y. yanvar-sentabr	farqi (+;-)
O‘zbekiston Respublikasi	76 471	69 312	-7 159
Qoraqalpog‘iston Respublikasi	3 333	3 113	-220
<i>viloyatlar:</i>			
Andijon	4 837	4 418	-419
Buxoro	4 525	3 402	-1 123
Jizzax	3 422	3 611	189
Qashqadaryo	8 163	6 690	-1 473
Navoiy	4 109	3 244	-865
Namangan	4 882	4 108	-774
Samarqand	8 245	8 357	112
Surxondaryo	4 211	3 284	-927
Sirdaryo	1 802	1 641	-161
Toshkent	6 283	5 092	-1 191
Farg‘ona	6 827	6 572	-255
Xorazm	3 413	4 491	1 078
Toshkent sh.	12 419	11 289	-1 130

2022- yil yanvar-sentabr oylarida hududlar bo‘yicha yangi tashkil topgan jami kichik korxonalar va mikrofirmalarning ulushi, % da



2022- yilning yanvar-sentabr oylarida hududlar bo‘yicha yangi tashkil etilgan kichik korxonalar va mikrofirmalarning jamiga nisbatan eng ko‘p ulushi Toshkent shahri – 16,3 %, Samarqand viloyati – 12,1 %, Qashqadaryo viloyati - 9,7 %, Farg‘ona viloyati – 9,5 %, Toshkent viloyati – 7,3 %, Xorazm viloyati – 6,5 % va Andijon viloyati – 6,4 % hissalariga to‘g‘ri keldi.

Iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha yangi tashkil etilgan kichik
korxonalar va mikrofirmalar, birlikda


	2021- y. yanvar-sentabr	2022- y. yanvar-sentabr	farq (+;-)
Jami	76 471	69 312	-7 159
Qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligi	9 454	9 816	362
Sanoat	15 435	12 583	-2 852
Qurilish	5 096	3 630	-1 466
Savdo	28 712	26 265	-2 447
Tashish va saqlash	1 964	2 425	461
Yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlar	4 959	4 388	-571
Axborot va aloqa	1 966	1 883	-83
Sog'liqni saqlash va ijtimoiy xizmatlar ko'rsatish	1 360	1 184	-176
Boshqa faoliyat turlari	7 525	7 138	-387

Yangi tashkil etilgan korxonalar bo'yicha eng yuqori ko'rsatkichga ega bo'lgan
shahar va tumanlar, birlikda

	2021- y. yanvar-sentabr	2022- y. yanvar-sentabr	farq (+;-)
Samarqand sh.	2045	2049	4
Chilonzor tumani	1587	1385	-202
Yunusobod tumani	1497	1348	-149
Mirzo-Ulug'bek tumani	1455	1337	-118
Namangan sh.	1284	1278	-6
Yashnobod tumani	1074	1062	-12
Shayxontohur tumani	1209	1040	-169
Olmazor tumani	1226	1035	-191
Yakkasaroy tumani	962	965	3
Farg'ona sh.	674	657	-17


2022- yilning yanvar-sentabrda eng ko‘p yangi tashkil etilgan kichik korxonalar va mikrofirmalar Samarqand shahrida – 2049 taga yetdi.

Yangi tashkil etilgan korxonalar bo‘yicha eng yuqori o‘ringa ega bo‘lgan shahar va tumanlar, birlikda




Respublika bo‘yicha 2022- yil yanvar-sentabr oylarida faoliyat yuritayotgan kichik tadbirkorlik subyektlarining soni har 1000 aholiga nisbatan 17,7 birlikni tashkil etdi.

2018-2022- yillarning yanvar-sentabr oylarida O‘zbekiston Respublikasida faoliyat yuritayotgan kichik tadbirkorlik subyektlarining soni dinamikasi, (har 1000 aholiga, birlikda)



2022- yilning yanvar-sentabrda kichik tadbirkorlik subyektlarining soni har 1000 aholiga nisbatan hududlar bo‘yicha eng yuqori ko‘rsatkich Toshkent shahrida 35,6 birlik, Navoiy viloyatida 24,5 birlik, Sirdaryo viloyatida 22,7 birlik, Jizzax viloyatida 21,4 birlik va Toshkent viloyatida 19,4 birlikni tashkil etgan.

2022- yilning yanvar-sentabrida hududlar bo'yicha faoliyat yuritayotgan kichik tadbirkorlik subyektlarining soni (har 1000 aholiga, birlikda)



Faoliyat ko'rsatayotgan tadbirkorlik subyektlari soni
(har 1000 aholiga, birlikda)

Eng yuqori ko'rsatkich	• Toshkent shahri Yakkasaroy tumani 72,4 birlik.
O'rtacha ko'rsatkich	• Toshkent viloyati Yangiyo'l shahri 18,8 birlik.
Eng past ko'rsatkich	• Qashqadaryo viloyati Ko'kdala tumani 8,0 birlik.

2022- yilning yanvar-sentabrida kichik tadbirkorlik subyektlarining soni har 1000 aholiga tuman va shaharlar bo'yicha eng yuqori ko'rsatkich Yakkasaroy tumanida 72,4 birlik, Mirobod tumanida 56,1 birlik, Tomdi tumanida 54,8 birlik, Bektemir tumanida 49,5 birlik, Qorovulbozor tumanida 49,2 birlik, Chilonzor tumanida 48,9 birlik, Guliston shahrida 42,3 birlik, Mirzo-Ulug'bek tumani 36,7 birlikni tashkil etdi.


3- BO‘LIM. KICHIK KORXONA VA MIKROFIRMALARNING TANLANMA KUZATUVLARI

2022- yilning III chorak yakunlariga ko‘ra, kichik korxonalar va mikrofirmalar o‘rtasida tanlanma kuzatuvlar o‘tkazildi.


Ushbu so‘rovnoma 19052 ta kichik korxonalar va mikrofirmalar ishtirok etdi. Ularning 7369 (38,7%) tasi iqtisodiy vaziyatni qulay deb baholadi. 10302 (54,1%) ta subyektlar iqtisodiy vaziyatni qoniqarli deb baholadi. Qolgan 1381 (7,2%) ta subyektlar iqtisodiy vaziyatni qoniqarsiz deb baholagan.

Iqtisodiy faoliyat turlari bo‘yicha kuzatuvda ishtirok etgan kichik korxonalar va mikrofirmalarning taqsimlanishi (ulushi) savdoda – 7 278 ta. (38,2 %), xizmatlar sohasida – 5 754 ta. (30,2 %), sanoatda – 3 217 ta. (16,9 %), qurilishda – 1 656 ta. (8,7 %) va qishloq, o‘rmon va baliqchilik xo‘jaligida – 1 147 ta. (6,0 %) ni tashkil etdi.


2022- yil III chorak bo‘yicha tanlanma kuzatuvda ishtirok etgan kichik korxonalar va mikrofirmalarning iqtisodiy faoliyat turlari bo‘yicha taqsimlanishi, % da



2022- yil III chorak bo‘yicha kuzatuvda ishtirok etgan kichik korxonalar va mikrofirmalarning hududlar bo‘yicha taqsimlanishi



2022- yilning III choragida kuzatuvda ishtirok etgan kichik korxonalar va mikrofirmalarning joriy davrda iqtisodiy vaziyatini baholash, % da




Kichik korxonalar va mikrofirmalarning 2022- yilning III choragida o'tkazilgan kuzatuv natijalariga ko'ra, joriy davrda iqtisodiy vaziyatni qulay deb baholagan korxonalar iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha eng ko'p ulushi savdoda – 40,9 % ni, xizmatlar sohasida – 37,8 % ni, sanoatda – 37,3 % ni tashkil etdi.

Shuningdek, iqtisodiy vaziyatni qoniqarli deb baholagan korxonalar eng ko'p ulushi qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligida – 55,2 % ni, xizmatlar sohasida – 55,1 % ni, qurilishda – 54,9 % ni, sanoatda – 53,7 % ni tashkil etdi.

Iqtisodiy vaziyatni qoniqarsiz deb baholagan korxonalar eng ko'p ulushi qurilishda – 9,5 % ni, sanoatda – 9,0 % ni, qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligida – 7,5 % ni tashkil etdi.

2022- yilning III choragida kuzatuvda ishtirok etgan kichik korxonalar va mikrofirmalarning yaqin uch oydagi o'zgarishlar istiqboli bo'yicha iqtisodiy vaziyatini baholash, % da



2022- yilning III choragida kuzatuvda ishtirok etgan kichik korxonalar va mikrofirmalarning **yaqin 3 oydagi o'zgarishlar istiqboli** bo'yicha iqtisodiy vaziyatni qulay deb baholagan korxonalarining iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha eng ko'p ulushi savdoda – 46,7 % ni, qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligida – 46,3 % ni, xizmatlar sohasida – 44,4 % ni tashkil etdi.


Shuningdek, **yaqin 3 oydagi o'zgarishlar istiqboli** bo'yicha iqtisodiy vaziyatni qoniqarli deb baholagan korxonalarining eng ko'p ulushi qurilishda – 50,5 % ni, xizmatlar sohasida – 49,8 % ni, sanoatda – 49,5 % ni tashkil etdi.

Yaqin 3 oydagi o'zgarishlar istiqboli bo'yicha iqtisodiy vaziyatni qoniqarsiz deb baholagan korxonalarining eng ko'p ulushi sanoatda – 6,5 % ni, qurilishda – 6,2 % ni, xizmatlar sohasida – 5,8 % ni tashkil etdi.


2022- yilning III choragida biznesga ishonch muhitini baholash, % da

	<i>O'tgan yilning shu davriga nisbatan joriy davrdagi o'zgarishlar</i>		
	<i>ko'payish (yaxshilanish)</i>	<i>o'zgarishsiz</i>	<i>kamayish (yomonlashish)</i>
Korxonaning umumiy aylanmasi	45,8	43,6	10,6
Band bo'lganlar soni	25,1	68,0	6,9
Sotilgan mahsulot (tovarlar, ishlar va xizmatlar) uchun narx	39,3	55,2	5,5
Moliyaviy mablag'lar: o'z mablag'i, kredit va qarz mablag'lari	30,1	62,8	7,1
Raqobat muhiti	41,1	54,2	4,7
	<i>Yaqin 3 oyda o'zgarishlar istiqboli</i>		
	<i>ko'payish (yaxshilanish)</i>	<i>o'zgarishsiz</i>	<i>kamayish (yomonlashish)</i>
Korxonaning umumiy aylanmasi	49,3	45,8	4,9
Band bo'lganlar soni	28,7	67,5	3,8
Sotilgan mahsulot (tovarlar, ishlar va xizmatlar) uchun narx	38,3	57,6	4,1
Moliyaviy mablag'lar: o'z mablag'i, kredit va qarz mablag'lari	32,9	62,1	5,0
Raqobat muhiti	41,9	54,4	3,7

2022- yilning III choragida biznesga ishonch muhitini
baholash, o'tgan yilning shu davriga nisbatan
joriy davrdagi o'zgarishlar, % da



2022- yilning III choragida biznesga ishonch muhitini baholash,
yaqin uch oyda o'zgarishlar istiqboli, % da



Statistik ko'rsatkichlarga izohlar

Tadbirkorlik faoliyati (tadbirkorlik) – tadbirkorlik faoliyati subyektlari tomonidan qonun hujjatlariga muvofiq amalga oshiriladigan, o'zi tavakkal qilib va o'z mulkiy javobgarligi ostida daromad (foyda) olishga qaratilgan tashabbuskorlik faoliyatidir.

Tadbirkorlik faoliyati subyektlari (tadbirkorlik subyektlari) belgilangan tartibda davlat ro'yxatidan o'tgan hamda tadbirkorlik faoliyatini amalga oshirayotgan yuridik va jismoniy shaxslardir.

Yuridik shaxs – o'z mulkida, xo'jalik yuritishida yoki operativ boshqaruvida alohida mol-mulkka ega bo'lgan hamda o'z majburiyatlari yuzasidan ushbu mol-mulk bilan javob beradigan, o'z nomidan mulkiy yoki shaxsiy nomulkiy huquqlarga ega bo'la oladigan va ularni amalga oshira oladigan, majburiyatlarni bajara oladigan, sudda da'vogar va javobgar bo'la oladigan tashkilot yuridik shaxs hisoblanadi.

Yuridik shaxslar mustaqil balans yoki smetaga ega bo'lishlari kerak.

Yakka tartibdagi tadbirkorlik – jismoniy shaxs (yakka tartibdagi tadbirkor) tomonidan tadbirkorlik faoliyatini yuridik shaxs tashkil etmagan holda amalga oshirishdir.

Yakka tartibdagi tadbirkorlik yakka tartibdagi tadbirkor tomonidan mustaqil mulk huquqi asosida o'ziga tegishli bo'lgan mol-mulk negizida, shuningdek, mol-mulkka egalik qilish va (yoki) undan foydalanishga yo'l qo'yadigan o'zga ashyoviy huquq asosida amalga oshiriladi.

Tadbirkorlik subyektlari o'z faoliyatlarini muvofiqlashtirish, shuningdek, o'z huquqlari va manfaatlarini ifoda etish hamda himoya qilish maqsadida, notijorat tashkilotlar bo'lgan uyushmalarga (ittifoqlarga) va boshqa birlashmalarga birlashishi mumkin.

Korxonaning faoliyatini tahlil qilish – uning asosida korxonaning faoliyatini har tomonlama o'rganish. Natijada, ma'lumot to'plashning ma'lum usullaridan foydalanish orqali korxonaning faoliyatini baholash va zaif tomonlarini aniqlash uchun kerakli ma'lumotlarni olish.

X. NARXLAR

1- BO‘LIM. ISTE‘MOL NARXLARI

Inflyatsiya — bu tovarlar va xizmatlar narxlari umumiy darajasining barqaror o‘shidir. Shu bilan birga, bu jarayonda ayrim tovarlar sezilarli qimmatlashishi, ayrimlari arzonlashishi va ayrimlarining narxlari umuman o‘zgarishligi mumkin. Biroq, inflyatsiya – iqtisodchilar orasida bahs va munozaralar keltirib chiqaruvchi murakkab va turli xil namoyon bo‘ladigan ijtimoiy-iqtisodiy hodisadir.


Inflyatsiyaning oqibatlari ham iqtisodiy, ham ijtimoiy sohalarida namoyon bo‘lishi mumkin. Inflyatsiya sharoitida aholi real daromadlarining qisqarishi ro‘y beradi. Eng kuchli “zarba”ni belgilangan daromadga ega insonlar qabul qiladilar, chunki, aynan bir xil qiymatga sotib olinadigan tovarlar har oyda kamayib boradi.

Mamlakat iste‘mol sektorida inflyatsiyaning muhim, hal qiluvchi ko‘rsatkichi – **iste‘mol narxlari indeksi (INI)** bo‘lib, u o‘zgarish iste‘mol tuzilmasiga ega bo‘lgan holda tovarlar va xizmatlar belgilangan to‘plam qiymatining o‘zgarishlarini ifodalaydi.

INI turli shakllarda dunyoning ko‘plab davlatlarida, shu jumladan, qo‘shni davlatlarda ham hisoblanadi.

2022- yilning sentabr oyida Mustaqil davlatlar hamdo‘stligi mamlakatlaridagi yig‘ma INI*

(o‘shish sur‘ati % da)



— o‘tgan yilning dekabriga nisbatan

■ o‘tgan yilning sentabriga nisbatan

*) davlatlarning statistika xizmatlari rasmiy saytlaridagi ma‘lumotlar asosida

**YIG'MA
INI O'SISH
SUR'ATI**

2022- yil
boshidan

+8,1%


yillik
nisbatda

+12,2%


2022- yilning yanvar-sentabrda O'zbekiston Respublikasi bo'yicha iste'mol narxlari darajasi 8,1 % ga yuqoriladi, o'rtacha oylik o'sish sur'ati esa 0,9 % ni tashkil etdi. Ushbu davr davomida qisqa muddatli INI eng yuqori cho'qqisi mart oyida (101,5 %), eng past ko'rsatkichi iyul oyida (99,9 %) kuzatildi.

Yillik nisbatda (2021- yilning sentabriga nisbatan) iste'mol bozorida narxlarning o'sish sur'ati 12,2 % ga yetdi.


**sentabr oidagi
yig'ma INI, % da**




**yanvar-sentabrdagi o'rtacha
oylik o'sish sur'ati, % da**



o'tgan oyga nisbatan



o'tgan yilning mos oyiga nisbatan





O'zbekiston Respublikasi bo'yicha tovarlar va xizmatlar INI, % da



TOVARLAR

XIZMATLAR



o'tgan oyga nisbatan



o'tgan yilning dekabriga nisbatan



o'tgan yilning mos oyiga nisbatan




— 2020- yil — 2021- yil — 2022- yil

2022- yilning yanvar-sentabrda tovarlar narxlari 9,1 % ga, xizmatlar narxlari esa 4,8 % ga oshgan. Narxlarning oy davomida eng yuqori o'sish sur'ati tovarlarda mart (1,9 %) oyiga, xizmatlarda esa iyun va sentabr (0,8 % dan) oylariga to'g'ri keldi. Iyul tovarlar va xizmatlar uchun eng past narx indeksi qayd etilgan oy bo'ldi.

**O'zbekiston Respublikasi bo'yicha
tovar va xizmatlar asosiy guruhlari INI, % da**

o'tgan yilning dekabriga nisbatan




Oziq-ovqat mahsulotlari joriy yilning sentabrda o'tgan yilning oxiriga nisbatan narxlar oshishi bo'yicha (10,0 %) yetakchilikni saqlab qoldi va 2022- yilning yanvar-sentabrda indeksning o'rtacha oylik o'sish sur'ati 1,1 % ni tashkil etdi.

Nooziq-ovqat mahsulotlar ushbu davrda 7,9 % ga qimmatlashib, o'rtacha oylik o'sish sur'ati 0,9 % ni tashkil etdi.

Pullik xizmatlar narxlarining o'sish sur'ati 2022- yilning yanvar-sentabrda 4,8 % ga yetib, o'rtacha oylik o'sish sur'ati 0,5 % ni tashkil etdi.

2022- yil yanvar-sentabr oylaridagi INI dinamikasi, % da


o'tgan yilning dekabriga nisbatan



2021- yilning dekabriga nisbatan narxlar o'zgarishi sur'ati 2022- yilning yanvar-sentabrda nooziq-ovqat mahsulotlar va xizmatlar uchun o'sish tomon barqaror yo'nalgan bo'lsa, mavsumiy omil hisobiga oziq-ovqat mahsulotlari uchun o'sish sur'ati sekinlashganligini ko'rish mumkin.

O'zbekiston Respublikasi bo'yicha
tovar va xizmatlar asosiy guruhlari INI, % da

o'tgan yilning sentabriga nisbatan




2022- yilning sentabrida oziq-ovqat mahsulotlari narxlarining yillik nisbatda o'sish sur'ati 16,6 % ga yetib, ushbu guruh tovlarining mutlaq yetakchiligini ta'minladi.

Nooziq-ovqat mahsulotlar 2021- yilning sentabriga nisbatan 10,9 % ga, xizmatlar esa 6,4 % ga qimmatlashdi.


2022- yil yanvar-sentabr oylaridagi INI dinamikasi, % da

o'tgan yilning mos oyiga nisbatan



Joriy yilning dastlabki to'qqiz oyida oziq-ovqat va nooziq-ovqat mahsulotlar yillik INI sezilarsiz tebranishlar bilan umumiy o'sish tendensiyasini namoyish etdi va 2022- yilning sentabrida joriy yilning boshidagi mos ko'rsatkichdan mos ravishda 3,5 va 3,1 foiz bandga baland bo'ldi. Buning fonida xizmatlar sohasida narxlar holati nisbatan barqaror bo'ldi va davr so'ngida biroz pasayishni qayd etdi (sentabr oyida 106,4 %, yil boshida esa 106,9 %).


**O'zbekiston Respublikasi bo'yicha
2022- yilning yanvar-sentabrda tovar va xizmatlar asosiy guruhlari INI, % da
o'tgan oyga nisbatan**




2022- yilning uch choragi davomida har bir guruh bo'yicha qisqa muddatli narx o'zgarishlari dinamikasi notekis ko'rinishga ega bo'ldi. Ushbu holat oziq-ovqat mahsulotlari uchun yaqqolroq namoyon bo'lib, bu asosan mavsumiylik omilining ta'siri va meva-sabzavot mahsulotlari narxlarining tebranishlari bilan bog'liqdir.

Ushbu guruhlar tovarlari narxlarining oylik eng yuqori o'sish sur'ati mart oyida (2,5 %), pasayishi esa iyul (-1,0 %) oyida qayd etildi..

**O'zbekiston Respublikasi bo'yicha
meva-sabzavot mahsulotlari hisobisiz 2022- yilning yanvar-sentabridagi INI, % da
o'tgan oyga nisbatan**



**2021- yilning dekabriga
nisbatan**




Tovarlar va xizmatlar asosiy guruhlari narxlari o'zgarishlarining yig'ma INI o'sish sur'atiga ta'siri tuzilmasi, f.d.

o'tgan yilning dekabriga nisbatan


2022- yil SENTABR

+8,08 f.d.




2021- yil SENTABR

+5,92 f.d.



2020- yil SENTABR

+6,28 f.d.



Joriy yilning yanvar-sentabrda 2021 va 2020- yillarning mos davrlaridagi kabi oziq-ovqat inflyatsiyasining ta'siri ustun bo'ldi.

2022- yilning uchta choragi davomida 10,0 % ga qimmatlashib, oziq-ovqat mahsulotlari ushbu davr uchun yig'ma INIning 4,21 f.d. ga oshirdi.


Salmoq ulushi ko'rsatkichlarida oziq-ovqat inflyatsiyasining hissasiga kuzatiladigan tovarlar va xizmatlar umumiy ta'sirining 52,1 % i to'g'ri keldi.

Tovarlar va xizmatlar asosiy guruhlari narxi o'zgarishlarining yig'ma INI o'sish sur'atiga ta'siri tuzilmasi, f.d.

o'tgan yilning sentabriga nisbatan


2022- yil SENTABR

+12,23 f.d.




2021- yil SENTABR

+10,77 f.d.



2020- yil SENTABR

+11,70 f.d.




2022- yilning sentabrida yillik nisbatdagi yig'ma INI o'sish sur'atiga oziq-ovqat mahsulotlari narxlarining o'sishi eng yuqori ta'sir ko'rsatib, ular narxlarning o'rtacha 16,6 % ga oshishi hisobiga, yig'ma INI 6,99 f.d. yuqoriladi.

Shunday qilib, 2022- yilning sentabrida 2021- yilning sentabriga nisbatan yig'ma ko'rsatkich o'sish sur'atiga oziq-ovqat inflyatsiyasining ta'siri hissasiga umumiy ta'sir darajasining 57,2 % i to'g'ri keldi.


O‘zR MIIT – 2018* bo‘limlari bo‘yicha INI, % da

sentabr o‘tgan yilning dekabriga nisbatan


OZIQ-OVQAT MAHSULOTLARI VA SPIRTSIZ ICHIMLIKLAR




SPIRTLII ICHIMLIKLAR VA TAMAKI MAHSULOTLARI




KIYIM VA POYABZAL




TURAR JOY XIZMATLARI, SUV, ELEKTR, GAZ VA BOSHQA YONILG‘I TURLARI




UY-RO‘ZG‘OR ASBOBLARI, MAISHIY TEXNIKA VA TURAR JOYLARGA KUNDALIK XIZMAT KO‘RSATISH




SOG‘LIQNI SAQLASH




TRANSPORT




AXBOROT VA ALOQA




DAM OLISH, SPORT VA MADANIYAT




TA‘LIM SOHASIDAGI XIZMATLAR




RESTORANLAR VA MEHMONXONALAR XIZMATLARI



SUG‘URTALASH VA MOLIVAVIY XIZMATLAR



MAISHIY TOVARLAR VA XIZMATLAR, IJTIMOYIY HIMOYA VA TURLI TOVARLAR VA XIZMATLAR



2021- yilning dekabriga nisbatan narxlar oshishi bo‘yicha yetakchi uchlikdan quyidagi bo‘limlar o‘rin oldi:

- ✓ “Restoranlar va mehmonxonalar xizmatlari” (15,2 %),
- ✓ “Dam olish, sport va madaniyat” (11,2 %),
- ✓ “Maishiy tovarlar va xizmatlar, ijtimoiy himoya va turli tovarlar va xizmatlar” (11,0 %).

* O‘zbekiston Respublikasi Maqsadlar bo‘yicha individual iste‘mol tasniflagichi

O'zR MIIT – 2018 bo'limlari bo'yicha INI, % da
sentabr o'tgan yilning sentabriga nisbatan



Yillik nisbatda narxlar oshishi bo'yicha yetakchilikni restoranlar va mehmonxonalar xizmatlari bo'limi (21,0 %) saqlab qoldi.

Izoh: O'zR MIIT – 2018 tasniflagichi 2021- yildan INIning hisoblash amaliyotiga joriy etilgan. Statistik maqsadlarda 2020- yil uchun INIning O'zR MIIT – 2018 tuzilmasi bo'yicha qayta hisob-kitoblari amalga oshirildi. 2019- yil uchun O'zR MIIT – 2018 bo'limlari va guruhlar kesimidagi taqqoslama bazaning mavjud bo'lmaganligi sababli 2020- yilning sentabr oyidagi yillik nisbatdagi INI (2019- yilning sentabriga nisbatan) mazkur tasniflagich bo'limlari va guruhlar kesimida shakllantirilmagan.

**O'zbekiston Respublikasida
"Oziq-ovqat mahsulotlari va spirtsiz ichimliklar" bo'limi (I)
asosiy guruhlari bo'yicha INI, % da**

sentabr o'tgan yilning dekabriga nisbatan

**DONLI EKINLAR
VA YORMA MAHSULOTLARI**

2020- yil	2021- yil	2022- yil
111,3	102,4	126,5

GO'SHT MAHSULOTLARI

2020- yil	2021- yil	2022- yil
114,8	109,5	106,8

**BALIQ VA BOSHQA
DENGIZ MAHSULOTLARI**

2020- yil	2021- yil	2022- yil
108,6	107,6	109,2

**SUT, BOSHQA SUT
MAHSULOTLARI VA TUXUM**

2020- yil	2021- yil	2022- yil
109,1	102,4	108,1

YOG'LAR VA MOYLAR

2020- yil	2021- yil	2022- yil
109,8	123,6	112,1

MEVALAR VA YONG'OQLAR

2020- yil	2021- yil	2022- yil
102,5	102,4	91,2

**SABZAVOTLAR,
ILDIZMEVALILAR
VA DUKKAKLILAR**

2020- yil	2021- yil	2022- yil
90,0	103,9	95,3

**SHAKAR, QANDOLAT
MAHSULOATLARI
VA DESERTLAR**

2020- yil	2021- yil	2022- yil
106,1	108,6	123,9

**TAYYOR OZIQ-OVQAT
MAHSULOTLARI**

2020- yil	2021- yil	2022- yil
104,4	104,4	107,0

SPIRTSIZ ICHIMLIKLAR

2020- yil	2021- yil	2022- yil
104,1	106,7	109,5

2022- yilning dastlabki to'qqiz oyida narxlar oshishi bo'yicha yetakchi uchlikdan donli ekinlar va yorma mahsulotlari (26,5 %), shakar, qandolat mahsulotlari va desertlar (23,9 %), yog'-moy mahsulotlari (12,1 %) o'rin oldi.


Go'sht mahsulotlari narxlarida o'tgan yildagiga nisbatan pastroq (6,8 % ga 9,5 %) ko'rsatkich qayd etildi.

Ushbu davrda narxlar pasayishi meva-sabzavot mahsulotlari narxlarida qayd etilib, bu mavsumiylik omili bilan bog'liqdir. Shunday qilib, mevalar va yong'oqlar o'tgan yilning oxiriga nisbatan 8,8 % ga, sabzavotlar, ildizmevalilar va dukkakililar 4,7 % ga arzonlashdi.

E'tiborlisi, joriy yilning yanvar-sentabridan farqli ravishda, o'tgan yilning mos davrida meva-sabzavot mahsulotlari narxlarning oshishi qayd etilgan.

**O‘zbekiston Respublikasida
“Oziq-ovqat mahsulotlari va spirtsiz ichimliklar” bo‘limi (I)
asosiy guruhlari bo‘yicha INI, % da**

sentabr o‘tgan yilning sentabriga nisbatan













2022- yil sentabrida “Oziq-ovqat mahsulotlari va spirtsiz ichimliklar” (I) bo‘limi guruhlari orasida donli ekinlar va yorma mahsulotlari (31,7 %) hamda shakar, qandolat mahsulotlari va desertlar (31,0 %) yillik nisbatda narxlar oshishi bo‘yicha yetakchi o‘rinlarni saqlab qoldi.

Mevalar va yong‘oqlar (2,0 %) guruhi bo‘yicha o‘tgan yilning sentabriga nisbatan narxlarning eng past o‘shish sur‘ati qayd etildi.

2021- yilning sentabridagi mos ko‘rsatkich bilan taqqoslaganda, 2022- yil sentabrda quyidagi guruhlar bo‘yicha yillik nisbatda narxlarning o‘shish sur‘ati past bo‘ldi:

- go‘sh t mahsulotlari (8,9 % ga 13,3 %);
- yog‘lar va moylar (14,7 % ga 42,9 %);
- mevalar va yong‘oqlar (2,0 % ga 16,6 %);
- sabzavotlar, ildizmevalilar va dukkakililar (12,5 % ga 25,9 %).

O'zbekiston Respublikasida
“Oziq-ovqat mahsulotlari va spirtsiz ichimliklar” bo‘limi (I)
alohida mahsulotlari bo‘yicha INI, % da


		2020- yil sentabr	2021- yil sentabr	2022- yil sentabr
GURUCH VA GURUCH OQSHOG‘I				
o‘tgan yilning dekabriga nisbatan		111,9	98,8	119,2
o‘tgan yilning sentabriga nisbatan		100,6	100,4	117,7
BUG‘DOY UNI				
o‘tgan yilning dekabriga nisbatan		112,5	101,9	140,7
o‘tgan yilning sentabriga nisbatan		138,9	104,1	148,4
SUYAKLI MOL GO‘SHTI				
o‘tgan yilning dekabriga nisbatan		117,4	110,3	106,4
o‘tgan yilning sentabriga nisbatan		122,3	113,8	106,5
QO‘Y GO‘SHTI				
o‘tgan yilning dekabriga nisbatan		120,9	108,2	106,6
o‘tgan yilning sentabriga nisbatan		126,8	112,3	107,5
SUT				
o‘tgan yilning dekabriga nisbatan		110,2	106,7	111,7
o‘tgan yilning sentabriga nisbatan		120,0	114,0	120,7
TUXUM				
o‘tgan yilning dekabriga nisbatan		114,2	86,8	99,6
o‘tgan yilning sentabriga nisbatan		147,5	104,6	116,4
PAXTA YOG‘I				
o‘tgan yilning dekabriga nisbatan		109,4	128,5	111,1
o‘tgan yilning sentabriga nisbatan		110,9	155,4	111,9
KUNGABOQAR YOG‘I				
o‘tgan yilning dekabriga nisbatan		111,3	130,9	113,2
o‘tgan yilning sentabriga nisbatan		113,3	154,5	115,2
SARIYOG‘				
o‘tgan yilning dekabriga nisbatan		109,3	105,9	111,7
o‘tgan yilning sentabriga nisbatan		114,9	110,9	118,4
SHAKAR				
o‘tgan yilning dekabriga nisbatan		105,4	116,0	153,8
o‘tgan yilning sentabriga nisbatan		112,7	133,2	166,2

Kuzatiladigan asosiy turdagi oziq-ovqat mahsulotlari orasida (meva-sabzavot mahsulotlaridan tashqari) 2021- yilning oxiriga nisbatan shakar va 1- navli bug'doy unidan non (1,5 barobar) narxlari sezilarli ustunlik bilan yetakchilik qildi.


Yillik nisbatda shakar (1,6 barobar), 1- navli bug'doy uni hamda undan tayyorlangan non (1,5 barobar) boshqalarga nisbatan yuqori darajada qimmatlashdi.



O'zbekiston Respublikasi bo'yicha alohida turdagi meva-sabzavot mahsulotlarining INI, % da

o'tgan yilning dekabriga nisbatan



o'tgan yilning sentabriga nisbatan



 narxlari oshgan mahsulotlar
 narxlari pasaygan mahsulotlar

 max – piyoz

 min - baqlajon

 max – piyoz

 min - sabzi

2022- yilning sentabrda 2021- yilning dekabriga nisbatan piyoz narxlari boshqalarga qaraganda yuqori darajada (1,7 barobar) oshdi.


Eng sezilarli pasayish baqlajon narxlarida qayd etilib, joriy yilning uch choragi davomida baqlajon 54,3 % ga arzonlashdi.

Piyoz yillik nisbatda narxlar oshishi bo'yicha ham yetakchi bo'ldi. Shunday qilib, 2022- yilning sentabrda 2021- yilning sentabriga nisbatan ularning narxlari 2,2 barobarga oshdi.


Sabzi 2021- yilning sentabriga nisbatan asosiy turdagi meva-sabzavotlar orasida narxlar pasayishi bo'yicha yetakchi bo'ldi (29,6 %).

2022- yilning sentabr oyida O‘zbekiston Respublikasi bo‘yicha umumiy INI o‘shish sur‘atiga oziq-ovqat mahsulotlari va spirtsiz ichimliklar asosiy guruhlarini narxlari o‘zgarishining ta’siri, f.d. da

o‘tgan yilning dekabriga nisbatan



o‘tgan yilning sentabriga nisbatan



Donli ekinlar va yorma mahsulotlari I bo‘lim guruhlarini orasida 2021- yilning dekabriga, shunigdek, sentabriga nisbatan ham yig‘ma ko‘rsatkich o‘shish sur‘atiga ta’siri bo‘yicha yetakchilik qildi.

O'zbekiston Respublikasida
“Sirtli ichimliklar, tamaki mahsulotlari” bo‘limi (II) bo‘yicha INI, % da


SPIRTLII ICHIMLIKLAR




	2020- yil sentabr	2021- yil sentabr	2022- yil sentabr
o‘tgan yilning dekabriga nisbatan	104,9	107,0	108,0
o‘tgan yilning sentabriga nisbatan		110,1	111,4

shu jumladan:

o‘tgan yilning dekabriga nisbatan



o‘tgan yilning sentabriga nisbatan




TAMAKI MAHSULOTLARI




	2020- yil sentabr	2021- yil sentabr	2022- yil sentabr
o‘tgan yilning dekabriga nisbatan	108,5	110,5	106,3
o‘tgan yilning sentabriga nisbatan		113,6	107,8

shu jumladan:

o‘tgan yilning dekabriga nisbatan





o‘tgan yilning sentabriga nisbatan




O'zbekiston Respublikasida
"Kiyim va poyabzal" bo'limi (III) bo'yicha INI, % da


KIYIM




KIYIMLAR TAYYORLASH UCHUN MATERIALLAR



BOSHQA KIYIM PREDMETLARI VA FURNITURA




USTKI KIYIMLAR




KIYIMLARNI TOZALASH, TIKISH, TA'MIRLASH VA IJARAGA BERISH




POYABZAL



KIYIMLAR TAYYORLASH UCHUN MATERIALLAR




BOSHQA KIYIM PREDMETLARI VA FURNITURA



■ 2020-yil ■ 2021-yil ■ 2022-yil


O‘zbekiston Respublikasida “Turar joy xizmatlari, suv, elektr, gaz va boshqa yonilg‘i turlari” bo‘limi (IV) bo‘yicha INI, % da

**TURAR JOY UCHUN AMALDAGI
IJARA HAQI***



■ o‘tgan vilning dekabriga nisbatan

**TURAR JOYLARGA XIZMAT KO‘RSATISH,
TA‘MIRLASH VA QO‘RIQLASH**



■ o‘tgan vilning sentabriga nisbatan

*) kuzatuv 2021- yildan olib borildi

2022- yilning sentabri:

2021- yil dekabriga 2021- yil sentabriga

Turar joylarga xizmat ko‘rsatish va ta‘mirlash uchun materiallar	108,7	110,1
shu jumladan:		
sement	104,6	100,3
plastmassadan yasalgan quvurlar, sgonlar, muftalar	110,1	112,6
bo‘yoqlar	109,2	111,0
reykalar, plintuslar, shtapiklar	114,2	118,6
oyna	107,7	110,0
Turar joylarga xizmat ko‘rsatish, ta‘mirlash va qo‘riqlash bo‘yicha xizmatlar	110,3	114,1
shu jumladan:		
slesarlar va santexniklar xizmatlari	109,2	114,2
elektriklarning xizmatlari	110,2	115,0
bo‘yash xizmatlari	110,7	113,7

Turar joy uchun ijara haqining oshishi hamda turar joylarga xizmat ko‘rsatish, ta‘mirlash va qo‘riqlash uchun xarajatlarning oshishi fonida 2022- yilning yanvar-sentabri davomida kommunal xizmatlar sohasidagi narxlar holati barqarorlikni saqlab qoldi.



**O'zbekiston Respublikasida
“Uy-ro‘zg‘or asboblari, maishiy texnika va turar joylarga
kundalik xizmat ko‘rsatish” bo‘limi (V) bo‘yicha INI, % da**



sentabr o‘tgan yilning dekabriga nisbatan			sentabr o‘tgan yilning sentabriga nisbatan	
2020- yil	2021- yil	2022- yil	2021- yil	2022- yil
MEBEL, UY-RO‘ZG‘OR ASBOBLARI VA TUKLI GILAMLAR				
103,3	104,4	108,4	106,7	110,7
UY XO‘JALIKLARIDA ISHLATILADIGAN TO‘QIMACHILIK MAHSULOTLARI				
105,2	103,2	110,2	106,4	113,0
MAISHIY ASBOBLAR				
104,2	107,6	106,8	109,8	108,3
BOG‘DORCHILIKDA ISHLATILADIGAN ASBOB-LAR VA MOSLAMALAR				
105,5	104,5	108,7	105,9	110,5
UY XO‘JALIGINI YURITISH BILAN BOG‘LIQ HOLDA ISHLATILUVCHI TOVARLAR VA XIZMATLAR				
111,7	106,5	112,3	109,0	114,6

Umuman
olganda, to‘qqiz
oyda boshqalarga
qaraganda uy
xo‘jaligini yuri-
tish bilan bog‘liq
holda ishlatiluv-
chi tovarlar
va xizmatlar
(12,3 %) boshqal-
arga qaraganda
sezilarli darajada
qimmatlashdi.

Ushbu guruh
yillik nisbatda
narxlar oshishi
bo‘yicha ham
yetakchilik qil-
moqda (14,6 %).





O‘zbekiston Respublikasida
“Sog‘liqni saqlash” bo‘limi (VI) bo‘yicha INI, % da



sentabr o‘tgan yilning dekabriga nisbatan

sentabr o‘tgan yilning sentabriga nisbatan



DORI VOSITALARI VA TIBBIYOT MAHSULOTLARI





AMBULATORIYADA DAVOLASH BO‘YICHA XIZMATLAR



STATSIONARDA DAVOLASH BO‘YICHA XIZMATLAR




SOG‘LIQNI SAQLASH SOHASIDAGI BOSHQA XIZMATLAR




2022- yilning yanvar-sentabrida narxlar oshishi bo‘yicha birinchi o‘rin dori vositalari va tibbiy buyumlar hamda sog‘liqni saqlash sohasidagi boshqa xizmatlarga (11,0 % dan) tegishli bo‘ldi.

2021- yilning sentabriga nisbatan dori vositalari va tibbiy buyumlar hamda ambulatoriyada davolash xizmatlari (13,6 %) boshqalarga qaraganda yuqori darajada qimmatlashdi.




O'zbekiston Respublikasida
“Transport” bo‘limi (VII) bo‘yicha INI, % da


TRANSPORT VOSITALARINI SOTIB
OLISH




SHAXSIY TRANSPORT
VOSITALARIDAN FOYDALANISH



YO‘LOVCHI TASHISH TRANSPORTI
XIZMATLARI



TOVARLARNI TASHISH BO‘YICHA
XIZMATLAR





Tovarlarni yetkazib berish xizmatlari o‘tgan yilning dekabriga hamda sentabriga nisbatan narxlar oshishi bo‘yicha yetakchilik qildi.

Yo‘lovchilarni tashish transporti xizmatlari to‘qqiz oy davomida eng past (4,2 %). Shu bilan birga, yo‘lovchilarni tashish transporti xizmatlari 6,8 % ga oshgan bo‘lsa, temir yo‘l va havo transporti xizmatlari aksincha, arzonlashdi. Ushbu holat asosan milliy valyutaning mustahkamlanishi bilan bog‘liq.


Yoqilg‘i-moylash materiallariga keladigan bo‘lsak, benzin o‘tgan yilning oxiridan 6,7 % ga, propan 10,0 % ga qimmatlashgan bo‘lsa, metan, aksincha 1,3 % ga arzonlashdi.

Yillik nisbatda gaz yoqilg‘isi 0,7-1,1 % atrofida arzonlashdi. Gaz yoqilg‘isidan farqli ravishda, benzin o‘tgan yilning sentabriga nisbatan o‘rtacha 31,6 % ga qimmatlashdi.




O‘zbekiston Respublikasida
“Axborot va aloqa” bo‘limi (VIII) bo‘yicha INI, % da

AXBOROT VA KOMMUNIKATSIYA USKUNALARI



AXBOROT VA ALOQA SOHASIDAGI XIZMATLAR



Axborot va kommunikatsiya uskunalari orasida joriy yilning to‘qqiz oyi davomida periferik uskunalari va ularning sarflash komponentlari (6,3 %) boshqalarga qaraganda sezilarli darajada qimmatlashdi. Bundan tashqari, narxlarning sezilarli oshishi mobil aloqa uskunalari (5,7 %) hamda ovoz va tasvirlarni qabul qilish, yozish va aks ettirish uchun uskunalari (5,4 %) narxlarida qayd etildi.


Yillik nisbatda narxlar oshishi bo‘yicha yetakchilik periferik uskunalarga tegishli bo‘lib, o‘tgan yilning sentabriga nisbatan ularning narxi 8,1 % ga oshgan.

Axborotlashtirish sohasidagi xizmatlar orasida mobil va statsionar aloqa hamda Internet xizmatlari narxlarining barqarorligi fonida, axborot va kommunikatsiya uskunalari ta‘mirlash xizmatlari (9,3 %) hamda kompleks telekommunikatsiya xizmatlari (2,6 %) narxlarida oshish qayd etildi.


Yillik nisbatda axborot va kommunikatsiya uskunalari ta‘mirlash xizmatlari narxlarining o‘shish sur‘ati 13,0 % ga, kompleks telekommunikatsiya xizmatlarida esa 3,3 % ga yetdi.

O'zbekiston Respublikasida
“Dam olish, sport va madaniyat” bo‘limi (IX) bo‘yicha INI, % da


**DAM OLISHNI TASHKIL ETISH
BO‘YICHA XIZMATLAR**




**MADANIY TADBIRLARNI TASHKIL
ETISH BO‘YICHA XIZMATLAR**




**KOMPLEKS DAM OLISHNI TASHKIL
ETISH**




**BOG‘DORCHILIK MAHSULOTLARI
VA UY HAYVONLARI**



**GAZETALAR, KITOBLAR
VA KANSELYARIYA TOVARLARI**



DAM OLISH UCHUN BOSHQA TOVARLAR



— sentabr o‘tgan yilning dekabriga nisbatan


— sentabr o‘tgan yilning sentabriga nisbatan

2022- yilning yanvar-sentabrida ushbu bo‘limga kiruvchi tovarlar va xizmatlar orasida kanselyariya mollari va rassomchilik uchun materiallar (1,3 barobar) hamda gazetalar va davriy nashrlar (1,2 barobar) narxlar oshishi bo‘yicha yetakchilik qildi.

Ushbu ikki guruh yillik nisbatda narxlar oshishi bo‘yicha ham yetakchi o‘rinlarni egalladi. Ularning narxlar mos ravishda 36,0 % va 24,0 % ga qimmatlashdi.

O'zbekiston Respublikasida
"Ta'lim sohasidagi xizmatlar" bo'limi (X) bo'yicha INI, % da


MAKTABGACHA VA BOSHLANG'ICH TA'LIM



2022- yilning to'qqiz oyi davomida maktabgacha ta'lim xizmatlari 0,9 % ga qimmatlashib, so'nggi uch yillikning ushbu davri uchun eng past ko'rsatkich bo'ldi. Narxlarning oshishi faqatgina xususiy maktabgacha ta'lim tashkilotlarining xizmatlarida (respublika bo'yicha o'rtacha 3,9 % ga) qayd etildi.

Yillik nisbatda maktabgacha ta'lim 1,0 % ga, shu jumladan, xususiy tashkilotlarda 4,9 % ga qimmatlashdi.


OLIY TA'LIM



Oliy ta'lim sohasida 2022- yilning o'tgan to'qqiz oyi davomidagi narxlar oshishi ham so'nggi uch yillikning ushbu davri uchun eng past (0,2 %) ko'rsatkich bo'ldi. Nodavlat OTMda shartnoma to'lovlari 0,6 % ga oshdi.

Shu bilan birga, yillik nisbatda o'qish uchun to'lovning o'rtacha kattaligi o'rtacha 0,4 % ga, ayrim nodavlat OTMda narxlarning tushirilishi hisobiga (o'rtacha 1,9 %) pasaydi.

BOSQICHLARGA BO'LINMAGAN TA'LIM



Ta'lim kurslarida o'qish ta'lim sohasidagi xizmatlar orasida joriy yilning yanvar-sentabri va yillik nisbatda ham narxlar oshishi bo'yicha yetakchilik qildi

2021- yilning dekabriga nisbatan ushbu xizmatlar narxi 7,7 % ga, yillik nisbatda esa 10,3 % ga qimmatlashdi. Repetitorlar xizmatlari ushbu davrlarda mos ravishda 4,1 % va 6,6 % ga qimmatlashdi.


2020- yil sentabr 2021- yil sentabr 2022- yil sentabr

O'zbekiston Respublikasida
“Restoranlar va mehmonxonalar xizmatlari” bo‘limi (XI) bo‘yicha INI, % da


OZIQ-OVQAT MAHSULOTLARINI YETKAZIB BERISH BO‘YICHA XIZMATLAR



sentabr o‘tgan yilning dekabriga nisbatan



sentabr o‘tgan yilning sentabriga nisbatan



2020- yil

2021- yil

2022- yil

2021- yil

2022- yil

Kafedagi tayyor taomlar

109,9

108,2

116,0

113,8

122,9

Oshxonalaridagi tayyor taomlar

110,1

108,3

114,0

115,3

119,6

Boshqa oshxonalar, kafeteriyalar va tez pishar taomlar tayyorlanadigan oshxonalar

108,6

109,8

116,6


117,2

123,6


MEHMONXONALAR XIZMATLARI



sentabr o‘tgan yilning dekabriga nisbatan



sentabr o‘tgan yilning sentabriga nisbatan



2020- yil

2021- yil

2022- yil

2021- yil

2022- yil

Otellar, motellar va shunga o‘xshash mehmonxonalar xizmatlari

108,1

109,8

108,8

110,5

109,1

Dam olish markazlari va shunga o‘xshash xizmatlar

115,9

118,2

115,3


121,0

115,3

Ushbu bo‘limda 2022- yilning to‘qqiz oyi davomida va yillik nisbatda ham narxlar oshishi bo‘yicha birinchilik tez pishar taomlar tayyorlanadigan oshxonalar xizmatlariga (o‘shish sur‘ati mos ravishda 16,6 % va 23,6 %) tegishli bo‘ldi.


O‘zbekiston Respublikasida
“Sug‘urtalash va moliyaviy xizmatlar” bo‘limi (XII) bo‘yicha INI, % da

SUG‘URTALASH



Sug‘urta xizmatlari bozorida narxlar holati so‘nggi uch yil davomida barqaror qolmoqda. Ushbu sohada kuzatiladigan asosiy xizmat turlari narxlarida joriy yilning sentabrda o‘tgan yilning dekabri va sentabriga nisbatan o‘zgarishlar qayd etilmadi.

MOLIYAVIY XIZMATLAR



Sug‘urta xizmatlaridan farqli ravishda, moliyaviy sohadagi xizmatlar narxlarida joriy yilning to‘qqiz oyi davomida 8,1 % ga oshib, so‘nggi uch yillikning ushbu davri uchun eng yuqori ko‘rsatkich bo‘ldi.


Shu bilan birga, bank muassasalari xizmatlari 6,6 % ga, pul o‘tkazmalari uchun to‘lovlar 0,7 % ga qimmatlashgan bo‘lsa, narxlarning eng yuqori o‘shish sur‘ati elektron to‘lov tizimlari orqali pul vositalarini yuborish (17,7 %) xizmatlarida qayd etildi.

Oxirgi qayd etilgan xizmat turi yillik nisbatda ham (17,7 %) yetakchi hisoblanadi.

**O'zbekiston Respublikasida
“Maishiy tovarlar va xizmatlar, ijtimoiy himoya va turli tovarlar va xizmatlar”
bo‘limi (XIII) bo‘yicha INI, % da**

MAISHIY TOVARLAR VA XIZMATLAR

sentabr




Asosiy turdagi maishiy tovarlar va xizmatlar orasida joriy yilning yanvar-sentabrida narxlar oshishi bo'yicha mutlaq yetakchilik sarteroshxonalar xizmatlariga (18,2 %) tegishli bo'ldi.

Ushbu xizmat turi yillik nisbatda ham narxlar oshishi bo'yicha (26,8 %) yetakchi o'rinni egallaydi.

SHAXSIY FOYDALANISH UCHUN BOSHQA PREDMETLAR

sentabr




O'tgan yilning dekabriga nisbatan shaxsiy foydalanish uchun boshqa buyumlar orasida ayollar sumkalari (8,6 %) yuqori darajada qimmatlashdi.

Nikoh uzuklari o'tgan yilning sentabriga nisbatan narxlar oshishi bo'yicha (10,7 %) yetakchi bo'ldi.

BOSHQA XIZMATLAR



























sentabr



Boshqa xizmatlar orasida 2022- yilning yanvar-sentabrida va 2021- yilning sentabriga nisbatan ham narxlar oshishi bo'yicha sezilarli ustunlik bilan nusxa ko'chirish (kserokopiya) xizmatlari yetakchilik qildi. Ushbu xizmat narxlarining o'sish sur'ati mos ravishda 27,6 % va 34,2 % ni tashkil etdi.

■ 2020- yil ■ 2021- yil ■ 2022- yil

2022- yil sentabr oyida O‘zbekiston Respublikasi bo‘yicha
yig‘ma INI o‘shish sur‘atiga O‘z R MIIT – 2018 bo‘limlar kesimida
tovarlar va xizmatlar narxlari oshishining ta‘siri


o‘tgan yilning dekabriga nisbatan				o‘tgan yilning sentabriga nisbatan			
Jami ta‘siri		+8,08 f.d.		Jami ta‘siri		+12,23 f.d.	
T/r	ta‘siri, f.d.	ulushi		ta‘siri, f.d.	ulushi		
I.	3,91		48,4 %	6,56		53,6 %	
II.	0,07		0,9 %	0,10		0,8 %	
III.	0,71		8,8 %	1,05		8,6 %	
IV.	0,35		4,3 %	0,43		3,5 %	
V.	0,68		8,4 %	0,84		6,9 %	
VI.	0,66		8,2 %	0,82		6,7 %	
VII.	0,52		6,4 %	0,95		7,8 %	
VIII.	0,07		0,9 %	0,09		0,7 %	
IX.	0,30		3,7 %	0,35		2,9 %	
X.	0,05		0,6 %	0,06		0,5 %	
XI.	0,27		3,3 %	0,37		3,0 %	
XII.	0,02		0,3 %	0,02		0,2 %	
XIII.	0,47		5,8 %	0,59		4,8 %	
I.	Oziq-ovqat mahsulotlari va spirtsiz ichimliklar			VIII.	Axborot va aloqa		
II.	Spirtli ichimliklar va tamaki mahsulotlari			IX.	Dam olish, sport va madaniyat		
III.	Kiyim va poyabzal			X.	Ta‘lim		
IV.	Turar joy xizmatlari, suv, elektr, gaz va boshqa yonilg‘i turlari			XI.	Restoranlar va mehmonxonalar xizmatlari		
V.	Uy-ro‘zg‘or asboblari, maishiy texnika va turar joylarga kundalik xizmat ko‘rsatish			XII.	Sug‘urtalash va moliyaviy xizmatlar		
VI.	Sog‘liqni saqlash			XIII.	Maishiy tovarlar va xizmatlar, turli tovarlar va xizmatlar		
VII.	Transport						

2- BO'LIM. SANOAT MAHSULOTLARI ISHLAB CHIQRUVCHILAR NARXLARI INDEKSI

Sanoat mahsulotlari ishlab chiqaruvchilar narxlari indeksi (ICHNI), iste'mol narxlari indeksi bilan bir qatorda, iqtisodchilar va tahlilchilar tomonidan iqtisodiyotdagi va birinchi navbatda tovarlar va xizmatlar ishlab chiqarish sohasidagi inflyatsion jarayonlarni baholash uchun foydalaniladi.


Sanoat ishlab chiqarishida narxlarning o'sishi odatga ko'ra, kelgusida iste'mol narxlarining o'sishi to'g'risida xabar berishga xizmat qiladi.

O'zbekiston Respublikasi bo'yicha yig'ma ICHNI




2022- yilning yanvar-sentabri davomida sanoat ishlab chiqarishida narxlarning o'rtacha darajasi 12,5 % ga oshdi. Bu, joriy yilning I yarim yilligidagi ko'rsatkichga nisbatan 1,2 foiz bandga baland va joriy yilning I choragidagi ko'rsatkichga nisbatan 7,2 foiz bandga baland bo'ldi.

Yillik nisbatda, sanoat ishlab chiqaruvchilar narxlari indeksining o'sish sur'ati joriy yil III choragi yakunlarida 17,7 % ga yetib, II chorakdagi ko'rsatkichga nisbatan 1,3 foiz bandga past, va I chorakdagi ko'rsatkichdan 0,9 foiz bandga baland bo'ldi.




Sentabr oyidagi
yig'ma ICHNI, % da


Yanvar-sentabrda
o'rtacha oylik o'sish sur'ati, % da



o'tgan oyga nisbatan




o'tgan yilning mos oyiga nisbatan



MA'LUMOT UCHUN: hisob-kitoblarga ko'ra, 2022- yilning yanvar-sentabrda sanoat mahsulotlari ishlab chiqaruvchilari narxlari indeksining o'rtacha oylik o'sish sur'ati 1,3 % ni tashkil etdi. Bu, joriy yilning I choragi va I yarim yilligidagiga nisbatan mos ravishda, 0,4 va 0,5 foiz bandga pastdir.

2022- yilning uch choragi davomida narx indeksining oy davomidagi eng yuqori o'sish sur'ati iyun oyida (103,6 %), pasayishi esa sentabr (99,7 %) oyida qayd etildi.


2022- yilning sentabrida seksiyalar bo'yicha ICHNI



- B** Tog'-kon sanoati va ochiq konlarni ishlash
- C** Ishlab chiqarish sanoati
- D** Elektr, gaz, bug' bilan ta'minlash va havoni konditsiyalash
- E** Suv bilan ta'minlash, kanalizatsiya tizimi, chiqindilarni yig'ish va utilitatsiya qilish

Seksiyalar bo'yicha ishlab chiqaruvchilar narxlari o'zgarishlarining 2022- yil sentabridagi yig'ma ICHNI o'sish sur'atiga ta'siri tuzilmasi

o'tgan yilning dekabriga nisbatan




Joriy yilning yanvar-sentabridagi yig'ma ICHNI tuzilmasida ishlab chiqaruvchi sanoati hissasiga to'rtta seksiya umumiy ta'sirining 81 % i to'g'ri keldi.


Ushbu sohada ishlab chiqaruvchilar narxlarining oshishi 2022- yilning sentabridagi 2021- yilning dekabriga nisbatan yig'ma ICHNI umumiy 12,8 % ga o'sishiga 10,39 f.d. ta'sir qildi.

2022- yilning sentabridagi yillik nisbatdagi yig'ma ICHNiga keladigan bo'lsak, uning 2021- yilning sentabriga nisbatan 18,1 % ga oshishiga ishlab chiqarish sanoatida narxlarning ko'tarilishi 15,4 f.d. ta'sir qilgan bo'lsa, qolgan seksiyalar 2,7 f.d. ta'sir qildi.

B- seksiyasi. Tog'-kon sanoati va ochiq konlarni ishlashda ICHNI



o'tgan oyga nisbatan



2022- yilning uchta choragi davomida **tog'-kon sanoati va ochiq konlarni ishlash faoliyatida** ishlab chiqaruvchilar narxlari 21,4 % ga oshdi. Ushbu davrda, narxlarning bir oylik sezilarli darajada oshishi fevral (5,5 %) va mart oylarida (3,6 %) qayd etilgan bo'lsa, eng yuqori o'sish sur'ati avgust (6,5 %) oyiga to'g'ri keldi.

Hisob-kitoblarga ko'ra, 2022- yilning yanvar-sentabrida narx indeksining o'rtacha oylik o'sish sur'ati 2,2 % ga yetdi.

Yillik nisbatda joriy yilning sentabrida narx indeksining o'sish sur'ati 29,3 % darajasida shakllanib, so'nggi uch yillikning sentabridagi eng yuqori ko'rsatkich bo'ldi.

“Tog’-kon sanoati va ochiq konlarni ishlash” B seksiyasiga
kiruvchi faoliyat turlari bo'yicha ICHNI, % da

KO'MIR VA LIGNIT QAZIB OLISH

B seksiyasi bo'yicha ICHNI o'sish sur'atiga ta'siri*
+0,50 f.d.

sentabr o'tgan yilning dekabriga nisbatan		sentabr o'tgan yilning sentabriga nisbatan	
2020- yil	125,0	2020- yil	130,4
2021- yil	100,0	2021- yil	100,0
2022- yil	118,0	2022- yil	118,0

o'tgan oyga nisbatan




XOM NEFT VA TABIIY GAZ QAZIB OLISH

+19,56 f.d.

sentabr o'tgan yilning dekabriga nisbatan		sentabr o'tgan yilning sentabriga nisbatan	
2020- yil	97,3	2020- yil	99,9
2021- yil	88,1	2021- yil	88,4
2022- yil	122,1	2022- yil	123,5

o'tgan oyga nisbatan




METALL RUDALAR QAZIB OLISH

+0,02 f.d.

sentabr o'tgan yilning dekabriga nisbatan		sentabr o'tgan yilning sentabriga nisbatan	
2020- yil	102,7	2020- yil	-**
2021- yil	142,5	2021- yil	129,9
2022- yil	154,0	2022- yil	174,8

o'tgan oyga nisbatan




BOSHQA FAOLIYAT

+2,27 f.d.

sentabr o'tgan yilning dekabriga nisbatan		sentabr o'tgan yilning sentabriga nisbatan	
2020- yil	103,8	2020- yil	110,2
2021- yil	256,4	2021- yil	281,9
2022- yil	140,0	2022- yil	192,6

o'tgan oyga nisbatan




*) 2022- yil yanvar-sentabridagi yig'ma ICHNI o'sish sur'atiga ta'siri to'g'risida ma'lumot
**) kuzatuv 2020- yildan olib boriladi

— 2020- yil — 2021- yil — 2022- yil

2022- yildan foydali qazilmalar qazib olish sohasidagi xizmatlar narxlariga kuzatila boshlagan. Yanvar-sentabrda ular 33 % ga arzonlashib, seksiya bo'yicha ICHNIga 0,95 f.d. pastlash imkonini berdi.

**“Tog‘-kon sanoati va ochiq konlarni ishlash” B seksiyasi bo‘yicha
2022- yilning yanvar-sentabrida narxlari yuqori darajada o‘shishi qayd etilgan
mahsulot turlarining TOP-10 taligi, % da**



*) kuzatuv 2022- yildan boshlangan

Joriy yilning yanvar-sentabrida “Tog‘-kon sanoati va ochiq konlarni ishlash” B seksiyasida ishlab chiqaruvchilar narxlarining eng yuqori o‘shish sur‘ati respublikada qazib olinayotgan xom va tozalanmagan oltingugurt narxlarida qayd etildi. Yil boshidan uning narxi 5,5 barobardan ortig‘roqqa oshdi. Oltingugurt ishlab chiqaruvchilarning izohlariga ko‘ra, ushbu holat birja savdolarida shakllangan konyunktura bilan bog‘liqdir.


O‘rtachadan sezilarli darajada yuqori o‘shish qazib olinadigan yodgorliklar, pardoqlash yoki qurilish ishlari uchun granit, qumtosh va boshqa toshlar hamda bitum va tabiiy asfalt (1,7 barobar) narxlarida qayd etildi.

Ma‘lumot uchun: xom va tozalanmagan oltingugurt 2021- yilning yanvar-sentabrida ham narxlar oshishi bo‘yicha yetakchilik qilgan. Biroq, o‘tgan yilning mazkur davrida narxlarning o‘shish sur‘ati sezilarli darajada yuqori bo‘lgan (2020- yilning dekabriga nisbatan 21,5 barobar).

2020- yilning yanvar-sentabrida aksincha, oltingugurt narxlarining sezilarli darajada pasayganligi (5,4 barobar atrofida) kuzatilgan.

C- seksiyasi. Ishlab chiqarish sanoatida ICHNI, % da


sentabr o'tgan yilning
dekabriga nisbatan



● 2020- yil
● 2021- yil
● 2022- yil

sentabr o'tgan yilning
sentabriga nisbatan

o'tgan oyga nisbatan



Ishlab chiqarish sanoatida ishlab chiqaruvchilar mahsulotlarining narxlari indeksi o'sish sur'ati 2022- yilning to'qqiz oyi davomida 12,3 % ga yetib, so'nggi uch yillikning ushbu davri uchun eng yuqori ko'rsatkich bo'ldi.

Ushbu faoliyat turi bo'yicha narx indeksining o'rtacha oylik o'sish sur'ati 2022- yilning yanvar-sentabrida 1,3 %

ni tashkil etdi (o'tgan yilning yanvar-sentabrida 1,0 %, 2020- yilning mos davrida 0,9 ni tashkil etgan).



Yillik nisbatda ishlab chiqarish sanoatida ishlab chiqaruvchilar narxlari indeksi 18,4 % ga yetib, o'tgan yil va undan oldingi yilning sentabridagi mos ko'rsatkichlardan mos ravishda 9,1 va 6,4 foiz banlarga baland bo'ldi.

2022- yilning sentabrida ishlab chiqarish sanoatida ICHNI o'sish sur'atiga ta'siri va narxlar oshishi bo'yicha yetakchilar

o'tgan yilning dekabriga nisbatan

narxlar oshishi bo'yicha, % da

ta'siri bo'yicha, f.d.





jami ta'siri +10,54 f.d.

umumiy ta'sirdagi ulushi 85,6 %

o'tgan yilning sentabriga nisbatan

narxlar oshishi bo'yicha, % da

ta'siri bo'yicha, f.d.




jami ta'siri +15,32 f.d.

umumiy ta'sirdagi ulushi 83,5 %

“Ishlab chiqarish sanoati” C seksiyasiga
kiruvchi faoliyat turlari kesimida ICHNI, %


OZIQ-OVQAT MAHSULOTLARI ISHLAB CHIQRISH



2022- yilning yanvar-sentabrida ishlab chiqariladigan asosiy turdagi oziq-ovqat mahsulotlari orasida narxlar oshishi bo‘yicha quyultirilmagan va shakar qo‘shilmagan sut va qaymoq (2,1 barobar), hamda tegirmon-yorma sanoati mahsulotlari ishlab chiqarish (o‘rtacha 1,7 barobar) yetakchilik qildi.

Yillik nisbatda narxlar oshishi bo‘yicha tegirmon-yorma sanoati mahsulotlari (1,7 barobar) yetakchilik qildi.


ICHIMLIKLAR ISHLAB CHIQRISH



Ichimliklar ishlab chiqarishda 2022- yil boshidan narxlarning eng yuqori oshish darajasi vino, aroq va pivo (o‘rtacha 1,2 barobar) narxlarida qayd etildi.

O‘tgan yilning sentabriga nisbatan ularning narxlari mos ravishda 33,1 %, 30,7 % va 18,4 % ga oshgan.


TAMAKI MAHSULOTLARI ISHLAB CHIQRISH



Joriy yilning to‘qqiz oyi davomida tamaki mahsulotlari ishlab chiqarish narxlari dinamikasi notekis ko‘rinishga ega bo‘ldi: ular narxlarining eng sezilarli oshish darajasi mart (5,2 %) va iyul (5,6 %) oylarida, pasayishi esa iyun (-5,0 %) oyida kuzatildi. Bunday tebranishlar mahsulot ishlab chiqarishdagi xarajatlar hamda aksiz osti tovarlarga aksiz solig‘ining o‘zgarishlari bilan izohlanadi.

Davomi


TO'QIMACHILIK MAHSULOTLARI ISHLAB CHIQRARISH



Ushbu faoliyat turida ip gazlama ishlab chiqarish narxlari joriy yilning yanvar-sentabrda 1,4 barobarga, boshqa to'qimachilik mahsulotlari ishlab chiqarish 15,3 % ga oshdi. Tovarlar orasida ishlab chiqariladigan narsa joylashtiriladigan qoplar hamda trikotaj matolar ishlab chiqarish jarayonining bir qismini amalga oshirish bo'yicha subpudratchilar xizmatlari (1,7 barobar) boshqalarga nisbatan yuqoriroq qimmatlashdi.

Yillik nisbatda narxlar oshishi bo'yicha trikotaj polotnolar (1,6 barobar) yetakchi bo'ldi.


KIYIMLAR ISHLAB CHIQRARISH



2022- yilning to'qqiz oyi davomida kiyim ishlab chiqaruvchilar tabiiy mo'ynadan kiyimlar narxlarini yuqori (1,7 barobar) darajada oshirdilar. Narxlarning eng sezilarli pasayishi ayollar uchun trikotaj kostyumlar, komplektlar, jaketlar, ko'ylaklar va shu kabi kiyimlar (-9,7 %) narxlarida qayd etildi.

2021- yilning sentabriga nisbatan narxlar oshishi bo'yicha erkaklar uchun trikotaj ko'ylakar (1,5 barobar) yetakchilik qildi.

KOKS VA NEFTNI QAYTA ISHLASH MAHSULOTLARI ISHLAB CHIQRARISH




Joriy yilning yanvar-sentabrda ishlab chiqaruvchilar narxlarining oshishi bo'yicha yetakchi uchlikdan aviatsiya benzini (24,6 %), pech yoqilg'isi (24,2 %), yog'lash uchun moylar (19,6 %) o'rin olgan bo'lsa, narxlarning pasayishi bo'yicha benzin (-15,6 %), boshqa yengil neft distillyatlari (-8,0 %) va kerosin turidagi reaktiv yoqilg'i (-6,2 %) o'rin oldi.

Yillik nisbatda narxlar oshishi bo'yicha birinchi o'rin mazutga (1,3 barobar), pasayishi bo'yicha suyultirilgan propan va butanga (-32,3 %) tegishli bo'ldi.

Davomi


KIMYO MAHSULOTLARI ISHLAB CHIQARISH



2022- yilning yanvar-sentabrda ushbu faoliyat turida narxlar o'zgarishlari notekis ko'rinishga ega bo'ldi. Qazib olinadigan oltingugurt narxlarining oshishi uni qayta ishlash narxlarida ham namoyon bo'ldi. Sublimatsiya qilingan va cho'ktirilgan oltingugurt ishlab chiqarish 4,3 ga qimmatlashib, uni to'qqiz oy davomida narxlar oshishi bo'yicha yetakchi o'ringa olib chiqdi. Narxlar pasayishi bo'yicha birinchi o'rin vodorod xloridga (-11,7 %) tegishli bo'ldi.

Yillik nisbatda narxlarning eng yuqori o'sish sur'ati sublimatsiya qilingan va cho'ktirilgan oltingugurt narxlarida qayd etildi (26,0 barobar).


BOSHQA NOMETALL MINERAL MAHSULOTLAR ISHLAB CHIQARISH



2022- yilning yanvar-sentabrda ushbu faoliyat turida narxlar oshishi bo'yicha gipsdan (1,7 barobar) va asbestosementdan yasalgan buyumlar (1,6 barobar) yuqori ustunlik bilan yetakchilik qildi. Narxlarning eng yuqori pasayishi sement, beton yoki sun'iy toshdan yig'ma konstruksiyalar elementlari va binolar va inshootlar uchun boshqa buyumlar (-13,7 %) narxlarida kuzatildi.

2021- yilning sentabriga nisbatan listlangan shishalar (1,4 barobar) narxlari boshqalarga qaraganda yuqori darajada qimmatlashdi.

METALLURGIYA SANOATI




Cho'yan, po'lat va temir qotishmalarni ishlab chiqarish 2022- yilning yanvar-sentabrda 14,9 % ga qimmatlashdi, asosiy qimmatbaho va rangli metallarni ishlab chiqarish esa 9,2 % arzonlashib, shakllangan narxlar indeksiga hal qiluvchi ta'sir ko'rsatdi.

O'tgan yilning sentabriga nisbatan respublikada ishlab chiqarilayotgan cho'yan, po'lat va temir qotishmalari narxlari 34,7 % ga qimmatlashdi, asosiy qimmatbaho va rangli metallarni ishlab chiqarish esa 6,0 % ga arzonlashdi.


Davomi

MASHINA VA USKUNALARDAN TASHQARI TAYYOR METALL BUYUMLAR ISHLAB CHIQRISH



2021- yilning oxiriga nisbatan va yillik nisbatda ham narxlar oshishi bo'yicha sezilarli ustunlik bilan temir yoki po'lat simdan matolar, panjaralar, to'rlar va to'siqlar (2021- yilning dekabr va sentabriga nisbatan 1,7 barobar) yetakchilik qilgan bo'lsa, narxlarning sezilarli darajada pasayishi qora metallardan yasalgan qurilmalar (2021- yilning dekabriga nisbatan -20,0 % va 2021- yilning sentabriga nisbatan -7,0 %) narxlarida qayd etildi.


AVTOTRANSPORT VOSITALARI, TREYLERLAR VA YARIM TIRKAMALAR ISHLAB CHIQRISH



Motorli transport vositalarini ishlab chiqarishda joriy yilning yanvar-sentabri davomida narxlar 15,8 % ga, ular uchun butlovchi qismlar va aksessuarlar 13,8 % ga, kuzovlar, tirkama va yarim tirkamalar 2,5 % ga oshgan.

2021- yilning sentabriga nisbatan motorli transport vositalari ishlab chiqarish 15,8 % ga, ular uchun butlovchi qismlar va aksessuarlar 17,7 % ga, kuzovlar, tirkamalar va yarimtirkamalar 2,5 % ga qimmatlashdi.


MEBEL ISHLAB CHIQRISH




Joriy yilning to'qqiz oyi davomida mebel ishlab chiqarishda narxlarning oylik o'sish sur'ati asosan yanvar (3,2 %) va aprel (1,2 %) oylarida yuz berdi.

Umuman olganda, 2022- yilning yanvar-sentabri va yillik nisbatda ham ushbu faoliyat turi bo'yicha stullar va o'tirish uchun boshqa mebellarni qoplash bo'yicha xizmatlari (1,3 barobar) boshqalarga qaraganda yuqori darajada qimmatlashdi.

D- seksiyasi. Elektr, gaz, bug' bilan ta'minlash va havoni konditsiyalashda ICHNI, % da




o'tgan oyga nisbatan



Elektr, gaz, bug' bilan ta'minlash va havoni konditsiyalashda narxlar darajasi joriy yilning to'qqiz oyi davomida 5,1 % ga oshdi va o'rtacha oylik o'sish sur'ati 0,6 % ga yetdi. Shu bilan birga, 2022- yilning o'tgan davri mobaynida qisqa muddatli narx ideksi o'zining eng yuqori ko'rsatkichini may oyida (4,5 %) qayd etdi. 2021- yilning sentabriga nisbatan ushbu faoliyat turida narxlar o'rtacha 2,6 % ga pasaydi.

“Elektr, gaz, bug‘ bilan ta‘minlash va havoni konditsiyalash” D seksiyasiga kiruvchi faoliyat turlari kesimida ICHNI, % da


ELEKTR ENERGIYASINI ISHLAB CHIQRISH, UZATISH VA TAQSIMLASH



2022- yilning yanvar-sentabrida ishlab chiqariladigan elektr energiyasi narxlari barqaror bo‘ldi.

Buning fonida elektr energiyasini uzatish (2,5 barobar) va sotish (19,8 %) bo‘yicha xizmatlar sezilarli darajada qimmatlashdi.


GAZSIMON YOQILG‘INI ISHLAB CHIQRISH VA TAQSIMLASH



Ko‘mirni yer ostida gazga aylantirish natijasida hosil bo‘lgan gaz joriy yilning to‘qqiz oyi davomida 1,4 barobarga qimmatlashdi.


Gazsimon yonilg‘ini quvurlar orqali taqsimlash bo‘yicha xizmatlar narxlarida ushbu davr mobaynida o‘zgarishlar kuzatilmagan bo‘lsa, o‘tgan yilning sentabriga nisbatan ular 55,4 % ga arzonlashdi.

BUG‘ UZATISH VA HAVONI KONDITSIYALASH TIZIMLARI




Issiqlik energiyasi ishlab chiqarish joriy yil boshidan 3,3 % ga qimmatlashdi. Shu bilan birga, ishlab chiqaruvchilar narxlarining oshishi asosan avgust oyida qayd etildi (3,1 %).


- sentabr o‘tgan yilning dekabriga nisbatan
- sentabr o‘tgan yilning sentabriga nisbatan



E- seksiya. Suv bilan ta'minlash; kanalizatsiya tizimi, chiqindilarni yig'ish va utilizatsiya qilishda ishlab chiqaruvchilar narxlari indeksi, % da



o'tgan oyga nisbatan



Suv bilan ta'minlash, kanalizatsiya, chiqindilarni yig'ish va utilizatsiya qilishda narxlar 2022- yilning to'qqiz oyi davomida nisbatan barqaror bo'lgan.


Ushbu faoliyat turida ishlab chiqaruvchilar narxlarining oshishi faqat aprel (0,3 %) va sentabr (0,4 %) oylarida qayd etildi.

O'tgan yilning dekabriga nisbatan suv bilan ta'minlash, kanalizatsiya, chiqindilarni yig'ish va utilizatsiya qilishda ishlab chiqaruvchilar narxlari 0,8 % ga oshib, bu so'nggi uch yillikning yanvar-sentabri uchun eng past ko'rsatkich bo'ldi.

Yillik nisbatda narx indeksining o'sis sur'ati 5,6 % ga oshib, o'tgan yilning sentabridagi ko'rsatkichga nisbatan 58,4 foiz bandga past va 2020- yil sentabridagi ko'rsatkichga nisbatan 2,6 foiz bandga past bo'lgan.

“Suv bilan ta’minlash; kanalizatsiya tizimi, chiqindilarni yig‘ish va utilitatsiya qilish” E seksiyasiga kiruvchi faoliyat turlari kesimida ICHNI, % da


SUVNI YIG‘ISH, QAYTA ISHLASH VA TAQSIMLASH



Suvni yig‘ish, qayta ishlash va suv quvurlari bo‘yicha taqsimlashda ishlab chiqaruvchilar narxlari o‘tgan yilning dekabri va sentabriga nisbatan ham o‘zgarishsiz qoldi.

MA’LUMOT UCHUN: o‘tgan yilning yanvar-sentabrida ushbu faoliyat turida ishlab chiqaruvchilar narxlari 55,0 % ga oshib, eng yuqori ko‘rsatkich yanvar oyida (1,4 barobar) qayd etilgan.


KANALIZATSIYA TIZIMI



Oqava suvlarni yo‘qotish, transportirovka qilish va ishlov berish bo‘yicha xizmatlar sohasidagi faoliyatda 2022- yilning uch choragi davomida o‘zgarishlar qayd etilmadi.

MA’LUMOT UCHUN: o‘tgan yilning yanvar-sentabrida ushbu xizmatlarni ishlab chiqaruvchilar tomonidan narxlar 64,5 % ga, shu jumladan yanvar oyida 30,3 % ga, fevral oyida 14,2 % ga, may oyida 0,4 % ga oshirilgan.

CHIQUINDILARNI YIG‘ISH, QAYTA ISHLASH, YO‘QOTISH, UTILIZATSIYA QILISH



Chiqindilarni yig‘ish, qayta ishlash va yo‘qotish bo‘yicha xizmatlar sohasidagi faoliyatda joriy yilning to‘qqiz oyi davomida o‘zgarishlar qayd etilmadi. Shu bilan birga, materiallarni tiklash 2021- yilning dekabr va sentabriga nisbatan mos ravishda 5,5 % va 18,4 % ga oshgan.

MA’LUMOT UCHUN: narxlarining oshishi faqatgina tarkibida alyuminiy bo‘lgan ikkilamchi xomashyoda qayd etilgan bo‘lsa, ikkilamchi xomashyo olish uchun nometall chiqindilar narxlari o‘zgarishsiz qoldi.

Statistik ko'rsatkichlarga izohlar

Iste'mol narxlari indeksi (INI) – inflyatsiya darajasini ifodalaydigan muhim ko'rsatkichlardan biri bo'lib, bu o'rtacha iste'molchi tomonidan sotib olingan tovarlar va xizmatlar majmui qiymatining umumiy o'zgarishini hisoblaydi, ya'ni, ma'lum davr mobaynida, tovar va xizmatlar iste'moli miqdori o'zgarmas bo'lgan holda, aholining iste'mol xarajatlari umumiy miqdorining o'zgarishini ifodalaydi.

INIda, mamlakatning barcha hududlari bo'yicha turli tovar va xizmatlar narxlarining harakati o'rtacha darajaga keltiriladi.

INIning hisoblash quyidagilar asosida amalga oshiriladi:

– iste'mol bozorida tovar va xizmatlarning sotish joyida ro'yxatga olish usuli bo'yicha olingan narxlarning o'zgarishi to'g'risidagi ma'lumotlar;

– aholining haqiqiy iste'mol xarajatlari tarkibi to'g'risidagi ma'lumotlar.

Kuzatuvlar mamlakatning barcha hududlaridagi uyushgan savdo majmualari va xizmat ko'rsatish shahobchalarida, shuningdek, kiyim-kechak, aralash va oziq-ovqat bozorlarida amalga oshiriladi. INIning shakllantirish uchun narxlar va tariflarni ro'yxatga olish har oyning 10-sanasidan 20-sanasigacha amalga oshiriladi.

Iste'mol narxlari indeksini hisoblashda asos bo'lib xizmat qiluvchi iste'mol tovarlari (xizmatlari) ro'yxati, aholi tomonidan eng ko'p iste'mol qilinadigan tovar va xizmatlarning respublikaning barcha hududlari uchun yagona bo'lgan guruhini ifodalaydi. Uning tarkibi 510 turdagi tovar va xizmatlardan iborat bo'lib, shulardan oziq-ovqat mahsulotlari 170 ta, nooziq-ovqat mahsulotlar 250 ta va xizmatlar 90 tani tashkil etadi.

2021- yildan boshlab INI O'zbekiston Respublikasining maqsadlar bo'yicha individual iste'mol tasniflagichi – 2018 (O'zR MIIT – 2018) asosida shakllantirilmoqda. Mazkur tasniflagich Milliy hisoblar tizimining tarkibiy qismi hisoblangan BMTning Maqsadlar bo'yicha individual iste'mol tasniflagichi – 2018 (Classification of Individual Consumption According to Purpose (COICOP – 2018) xalqaro standarti asosida ishlab chiqilgan. Ushbu tasniflagich indeksni uy xo'jaliklarining yakuniy iste'moli uchun qilgan iste'mol xarajatlari tarkibi asosida 13 ta yirik bo'limlarga umumlashtirishni nazarda tutadi.

Yig'ma INIning hisoblash, bazis davrining salmog'idan foydalangan holda, modifikatsiyalangan Laspeyres formulasi orqali amalga oshiriladi. INIning hisoblash jarayonida salmoq sifatida, oilalarning tovar va xizmatlar sotib olish xarajatlari to'g'risida uy xo'jaliklarining kuzatuv natijasida olinadigan aholining iste'mol xarajatlaridan foydalaniladi.

Narx – tovar birligi miqdori uchun ma'lum bir valyuta (milliy yoki xalqaro) pul birligida ifodalangan tovar qiymatining ifodasi.

Qiyosiy narx (muomaladagi narx) – aynan bir savdo obyekti va pullik xizmat sohasida ro'yxatga olingan bir xil yoki sifati bo'yicha aynan o'xshash tovar (xizmat, mahsulot turi) narxi.

Ro'yxatga olish narxi – sifati, sotish shartlari va davr oralig'i aniq belgilangan muayyan bir tovar, mahsulot yoki xizmat turiga to'langan pul birligi miqdori.

Narxlarni ro'yxatga olish – iste'mol sektorining namunasi sifatidagi tovar (xizmatlar)ning shakllantirilgan to'plamiga kirgan tovar (xizmat)lar narxlari to'g'risida ma'lumot to'plash uslubi.

Narxlar darajasi – muayyan vaqt, ma'lum bir hududda, xuddi shunday iste'mol xususiyatlari bilan tovar va tovarlarning umumiy tarkibida narxlarning holatini tavsiflovchi ko'rsatkich. Narxlar darajasini baholash narxlarni statistik o'rganish bosqichlaridan biri bo'lib hisoblanadi.

O'rtacha narx – ma'lum vaqt yoki makondagi bir turga mansub tovarlar guruhidagi narxlarning o'zgarishini umumlashtirish xarakteridagi narx. Statistika tajribalarga asosan, dastlabki ma'lumotlar hamda ularni shakllantirish tartibiga ko'ra o'rtacha narxlarni hisoblashning turli usullari mavjud.

Mavsumiylik – yilda vaqt almashinishi, boshqali mahsulotlar, sabzavot va mevalarning yetilishi davri hamda ularni qayta ishlanishi, ma'lum ishlarining bajarilishi, shuningdek, urf-odatlar, bayramlar hamda shu kabi boshqa omillar bilan bog'liq takrorlanuvchi o'zgarishlar va boshqalar.

Narx indeksi salmog'i – narx indeksining shakllanishida qatnashuvchi o'lcham bo'lib, ular yordamida:

- kuzatilayotgan hodisalarning umumiy yig'indisidagi har bir aniq tarkibiy qismning mazmuni ifodalanadi;

- avvaldan o'zaro solishtirib bo'lmaydigan birlamchi tarkibiy qismlar taqqoslanadigan shaklga keltiriladi;

- qo'llanilayotgan tasniflagichning barcha bosqichlari bo'yicha o'zaro solishtirilishi mumkin bo'lgan tarkibiy qismlar ketma-ketligi umumlashtiriladi va o'rganilayotgan hodisa bo'yicha narx o'zgarishining umumiy mohiyati aniqlanadi.

Individual narx indeksi – o'rganilayotgan bir elementning jami narxlari o'zgarishini aks ettiradi (aniq turdagi tovar, xizmat) va individual hodisani tavsiflashda foydalaniladi.

Jamlangan (yig'ma) narx indeksi – alohida kichik guruhlar, guruhlar yoki o'rganilayotgan jarayonlar bo'yicha umumiy hisobda narxlar o'zgarishi darajasini tavsiflovchi va individual narx indekslari asosida shakllanuvchi nisbiy ko'rsatkich.

Sanoat mahsulotlari ishlab chiqaruvchilar narxlari indeksi (ICHNI) – sanoat mahsulotlari ishlab chiqarishdagi inflyatsion jarayonlarni aks ettiruvchi asosiy indikatorlardan biri bo'lib, ma'lum vaqt oralig'ida o'zgarish ishlab chiqarish tuzilmasi bo'yicha ichki (mahalliy) sanoat mahsulotlari ishlab chiqaruvchilar narxlarining o'zgarishini tavsiflaydi.

ICHNI har yili tanlanma kuzatuv doirasi asosida yangilanadigan vakil-tovarlar va korxonalarining ikkita ma'lumotlar majmuasi asosida tashkil topadi:

– respublika sanoat korxonalaridan ishlab chiqarilayotgan, davlat statistika hisobotining tasdiqlangan shakliga asosan namunadagi doiraga kiritilgan korxonalar tomonidan taqdim etiladigan tovarlar narxlari to'g'risidagi ma'lumot;

– sanoat ishlab chiqaruvchi korxonalarining ishlab chiqarish xarajatlari to'g'risida ma'lumot.

Kuzatuvda "O'zstandart" agentligining 2011- yil 28- yanvardagi 05-268-sonli qarori bilan tasdiqlangan Iqtisodiy faoliyat turlari umumdavlat tasniflagichiga muvofiq, (IFUT-2) asosiy iqtisodiy faoliyat turlari B – "Tog'-kon sanoati va ochiq konlarni ishlash", C – "Ishlab chiqaradigan sanoat", D – "Elektr, gaz, bug' bilan ta'minlash va havoni konditsiyalash", E – "Suv bilan ta'minlash; kanalizatsiya tizimi, chiqindilarni yig'ish va utilizatsiya qilish" seksiyalariga taalluqli bo'lgan korxonalar qamrab olinadi.


Ishlab chiqaruvchi narxi – ishlab chiqarilgan sanoat mahsuloti birligining korxonada "darvozalari"dan chiqqan vaqtidagi, mahsulotni ishlab chiqaruvchidan xaridorga yo'naltirilishi bilan bog'liq qo'shilgan qiymat solig'i, aksizlar, boshqa qo'shimcha soliqlar, savdo, sotish ustamasi, transport va boshqa xarajatlar hisobga olinmagan narxi.

XI. KORXONA VA TASHKILOTLARNING MOLIYAVIY NATIJALARI ¹⁾


1- BO'LIM. KORXONA VA TASHKILOTLARNING MOLIYAVIY NATIJALARI

Foyda. 2022- yilning yanvar - avgust oylarida iqtisodiyot tarmoqlarida korxonalar va tashkilotlar tomonidan 57322,0 mlrd. so'm miqdorida yakuniy moliyaviy natija olindi.

2021- yilning shu davriga nisbatan solishtirilganda foyda 23,5 % ga ko'paygan.




Iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha yakuniy moliyaviy natijalar, mlrd.so'm



¹⁾Budjet va boshqa notijorat tashkilotlar, mahsulot ishlab chiqaruvchi qishloq xo'jalik korxonalari, fermer va dehqon xo'jaliklari, sug'urta tashkilotlari, banklar, kichik korxonalar va mikrofirmalarsiz.

Yakuniy moliyaviy natijalarning yillar bo'yicha dinamikasi
(yanvar- avgust, mlrd. so'm)



Iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha yakuniy moliyaviy natijalar

	2021- yil yanvar- avgust	2022- yil yanvar- avgust	2021- yilning yanvar- avgustiga nisbatan, % da
	Foyda, zarar (-), mlrd. so'm		
Jami	46412,3	57322,0	123,5
Tog'-kon sanoati va ochiq konlarni ishlash	453,2	3269,5	7,2 m.
Ishlab chiqaradigan sanoat	41184,9	46215,0	112,2
Elektr, gaz, bug' bilan ta'minlash va havoni konditsiyalash	449,2	-2265,8	-
Qurilish	331,5	405,2	122,2
Savdo	1926,9	2397,3	124,4
Tashish va saqlash	-616,0	2228,8	-
Yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlar	6,0	97,4	16,3 m.
Axborot va aloqa	1076,6	2118,2	196,7
Moliyaviy va sug'urta faoliyati	304,4	356,5	117,1
Ko'chmas mulk bilan operatsiyalar	137,6	4,9	3,6
Professional, ilmiy va texnik faoliyat	842,8	1721,7	2,0 m.
Boshqarish bo'yicha faoliyat va yordamchi xizmatlar ko'rsatish	15,7	124,1	7,9 m.
Sog'liqni saqlash va ijtimoiy xizmatlar ko'rsatish	135,5	73,9	54,5
Boshqalar	164,0	575,3	3,5 m.


2022- yilning yanvar-avgust oylarida 2021- yilning shu davriga nisbatan solishtirganda, foydaning asosiy o‘shishi “NKMK” DK (1 309,0 mlrd.so‘m), “O‘z kimyosanoat” AJ (1 046,5 mlrd. so‘m), “Issiqlik elektr stansiyalari” AJ (997,9 mlrd. so‘m), “O‘zavtosanoat” AJ (956,4 mlrd. so‘m), “O‘zbekiston metallurgiya kombinati” AJ (169,6 mlrd. so‘m), “Hududiy elektr tarmoqlari” AJ (167,3 mlrd. so‘m), “Uzbekistan Airways” AJ (133,6 mlrd. so‘m)ga to‘g‘ri keldi.

Foydaning o‘shishi, (mlrd. so‘m)



2022- yilning yanvar-avgust oylarida 2021- yilning shu davriga nisbatan solishtirganda, foydaning asosiy pasayishi “O‘zeltexsanoat” uyushmasi – 540,8 mlrd.so‘mga, “Olmaliq KMK” AJ – 132,6 mlrd. so‘mga, “Hududgazta‘minot” AJ – 87,6 mlrd. so‘mga, “Toshshahartransxizmat” AJ – 67,3 mlrd. so‘mga, “O‘zmahsusmontajqurilish” AJ – 65,0 mlrd. So‘mga, “O‘zbekiston temir yo‘llari” AJ korxonalarida – 64,5 mlrd. So‘mga kuzatilgan.


Foydaning pasayishi, mlrd. So‘m



Hududlar kesimida yakuniy moliyaviy natijalar

	2021- yil yanvar-avgust	2022- yil yanvar-avgust	2021- yilning yanvar- avgustiga nisbatan,% da
	Foyda, zarar (-), mlrd. So'm		
O'zbekiston Respublikasi ¹⁾	46412,3	57322,0	123,5
Qoraqalpog'iston Respublikasi	3678,0	3889,7	105,8
<i>viloyatlar:</i>			
Andijon	1368,9	2231,3	163,0
Buxoro	560,0	656,9	117,3
Jizzax	384,4	320,8	83,5
Qashqadaryo	1681,4	1903,4	113,2
Navoiy	19946,4	23205,5	116,3
Namangan	407,8	729,7	178,9
Samarqand	398,0	471,3	118,4
Surxondaryo	35,4	52,3	147,9
Sirdaryo	71,6	166,9	2,3 m.
Toshkent	10981,0	11911,2	108,5
Farg'ona	903,5	1070,9	118,5
Xorazm	226,9	472,6	2,1 m.
Toshkent shahri	5771,9	10088,4	174,8


Hududlar kesimida foydaning asosiy qismi Navoiy viloyati 23 205,5 mlrd. So'm (jami foydaning 40,5 % i), Toshkent viloyati 11 911,2 mlrd. So'm (20,8 %), Toshkent shahri 10 088,4 mlrd. So'm (17,6 %), Qoraqalpog'iston Respublikasi 3 889,7 mlrd. So'm (6,8 %), Andijon viloyatida 2 231,3 mlrd. So'm (3,9 %), Qashqadaryo viloyati 1 903,4 mlrd. So'm (3,3 %) va Farg'ona viloyati 1 070,9 mlrd. So'm (3,0 %)ga to'g'ri keldi.



¹⁾ Hududlarga taqsimlanmagan ma'lumotlarni qo'shgan holda.

2022- yilning yanvar-avgustida zarar ko'rgan ayrim vazirlik
va xo'jalik boshqaruvi organlarining
moliyaviy natijalari (jamiga nisbatan % da)

Zararning asosiy qismi "O'zbekiston milliy elektr tarmoqlari" AJ – 3335,8 mlrd.so'm, "O'ztransgaz" AJ – 2100,3 mlrd. So'm, Uy-joy kommunal xizmat ko'rsatish vazirligi – 355,2 mlrd. So'm, "O'zbekneftgaz" AJ – 342,8 mlrd. So'm, shuningdek, "Uzbekistan Airports" AJ – 111,9 mlrd. So'm, "O'zavtosanoat" AJ – 99,4 mlrd. So'm, To'qimachilik va tikuv-trikotaj sanoati korxonalari uyushmasi – 70,6 mlrd. So'mga to'g'ri keladi.




Iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha zarar ko'rgan korxonalar
va tashkilotlarning moliyaviy natijalari

	2021- yil yanvar-avgust		2022- yil yanvar-avgust	
	Korxonalar soni	Zarar summasi mlrd. So'm	Korxonalar soni	Zarar summasi mlrd. So'm
Jami	474	5 857,6	547	9963,6
Tog'-kon sanoati va ochiq konlarni ishlash	11	802,6	12	301,5
Ishlab chiqaradigan sanoat	93	550,4	107	1176,3
Elektr, gaz, bug' bilan ta'minlash va havoni konditsiyalash	33	1 340,5	24	4300,9
Suv bilan ta'minlash; kanalizatsiya tizimi, chiqindilarni yig'ish va utilitatsiya qilish	10	35,6	11	92,9
Qurilish	24	211,6	38	143,2
Savdo	105	483,5	131	753,6
Tashish va saqlash	46	1 610,3	37	2353,5
Yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlar	14	52,5	14	48,0
Axborot va aloqa	21	451,3	24	211,8
Professional, ilmiy va texnik faoliyat	26	62,4	29	106,4
Boshqarish bo'yicha faoliyat va yordamchi xizmatlar ko'rsatish	20	14,1	23	47,1
San'at, ko'ngil ochish va dam olish	18	128,9	19	71,9
Ko'chmas mulk bilan operatsiyalar	12	44,9	24	234,7
Boshqalar	41	68,8	54	121,8

Iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha zararning asosiy qismi elektr, gaz, bug' bilan ta'minlash va havoni konditsiyalash – 43,2 %i, tashish va saqlash – 23,6 %i, ishlab chiqaradigan sanoat – 11,8 %ga to'g'ri keladi.

2022- yilning yanvar-avgustida iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha zarar ko'rgan korxonalar va tashkilotlarning moliyaviy natijalari (jamiga nisbatan % da)



Zararlarning asosiy qismi quyidagi tarmoqlarga to'g'ri keldi: elektr, gaz, bug' bilan ta'minlash va havoni konditsiyalash 4 300,9 mlrd. so'm (43,2 % i), tashish va saqlash – 2 353,5 mlrd. so'm (jami zararining 23,6 % i).

Hududlar kesimida zarar ko'rgan korxonalar va tashkilotlarning moliyaviy natijalari

	2021- yil yanvar-avgust		2022- yil yanvar-avgust	
	Korxonalar soni	Zarar summasi mlrd. so'm	Korxonalar soni	Zarar summasi mlrd. so'm
O'zbekiston Respublikasi ¹⁾	474	5 857,6	547	9963,6
Qoraqalpog'iston Respublikasi	7	17,8	8	92,7
<i>viloyatlar:</i>				
Andijon	16	109,2	13	94,2
Buxoro	13	41,9	17	76,7
Jizzax	10	8,0	10	17,3
Qashqadaryo	14	131,0	19	69,0
Navoiy	14	36,3	9	47,3
Namangan	9	39,3	11	11,0
Samarqand	24	67,7	25	64,8
Surxondaryo	11	27,0	18	78,2
Sirdaryo	7	62,4	13	26,6
Toshkent	54	573,1	69	560,5
Farg'ona	21	36,4	21	52,6
Xorazm	6	7,7	8	5,9
Toshkent shahri	267	4 687,5	306	8766,7

Hududlar bo'yicha zararining asosiy qismi Toshkent shahri – 88,0 %i va Toshkent viloyati – 5,6 %ga to'g'ri keladi.

¹⁾ Hududlarga taqsimlanmagan ma'lumotlarni qo'shgan holda.


2- BO'LIM. KORXONA VA TASHKILOTLARNING DEBITORLIK QARZDORLIGI HOLATI¹⁾

2022- yilning 1- sentabr holatiga ko'ra, debitor qarzdorlikning umumiy hajmi 202 110,0 mlrd. so'mni tashkil qildi, shundan muddati o'tgani – 3 380,0 mlrd. so'm (jami qarzdorlikning 1,7 % i).

Muddati o'tgan debitor qarzdorlik 2021- yilning 1- sentabriga nisbatan solishtirilganda 13,7 % ga ko'paygan, jami debitor qarzdorlikdagi ulushi 0,2 punktga kamaygan.




1- sentabr holatiga korxonalar va tashkilotlarning debitor qarzdorligi dinamikasi, mlrd.so'm



¹⁾Budjet va boshqa notijorat tashkilotlar, mahsulot ishlab chiqaruvchi qishloq xo'jalik korxonalar, fermer va dehqon xo'jaliklari, sug'urta tashkilotlari, banklar, kichik korxonalar va mikrofirmalarsiz.

1- sentabr holatiga korxonalar va tashkilotlarning muddati o'tgan debitor qarzdorligi dinamikasi, mlrd.so'm




Hududlar kesimida korxonalar va tashkilotlarning debitor qarzdorligi, mlrd.so'm

	2021- yil 1- sentabr holatiga		2022- yil 1- sentabr holatiga	
	Debitor qarzdorlik	shundan muddati o'tgani	Debitor qarzdorlik	shundan muddati o'tgani
O'zbekiston Respublikasi ¹⁾	154 522,4	2 972,7	202110,0	3380,0
Qoraqalpog'iston Respublikasi	2 054,0	15,1	2140,9	25,7
<i>viloyatlar:</i>				
Andijon	11 417,1	99,7	13040,9	75,0
Buxoro	2 457,4	25,7	2841,2	25,9
Jizzax	1 510,4	19,2	1711,4	17,6
Qashqadaryo	8 806,7	129,1	11932,0	35,2
Navoiy	7 172,0	148,9	7995,0	136,6
Namangan	2 283,9	94,1	4333,2	476,8
Samarqand	6 210,7	67,2	8032,4	95,0
Surxondaryo	2 146,4	196,3	2454,4	60,8
Sirdaryo	2 384,7	32,1	2793,2	14,8
Toshkent	11 962,9	590,1	21920,6	406,4
Farg'ona	4 015,6	327,3	6004,9	828,0
Xorazm	1 658,2	68,4	2584,9	6,6
Toshkent shahri	84 749,9	1 158,8	107841,6	1174,4

¹⁾ Hududlarga taqsimlanmagan ma'lumotlarni qo'shgan holda.

Hududlar kesimida debitor qarzdorlikning asosiy qismi Toshkent shahri – 107 841,6 mlrd. so‘m, Toshkent viloyati – 21920,6 mlrd. so‘m, Andijon viloyati – 13040,9 mlrd. so‘m, Qashqadaryo viloyati – 11 932,4 mlrd. so‘m va Samarqand viloyatida – 8032,4 mlrd. so‘mga to‘g‘ri keldi.


**2022- yil 1- sentabr holatiga ko‘ra hududlar kesimida
korxonalar va tashkilotlarning debitor qarzdorligi (mlrd.so‘m)**



Hududlar kesimida muddati o‘tgan debitor qarzdorlikning asosiy qismi Toshkent shahrida – 1 174,4 mlrd. so‘m, Farg‘ona viloyati – 828,0 mlrd. so‘m, Namangan viloyatida – 476,8 mlrd.so‘m, Toshkent viloyati – 406,4 mlrd. so‘m, Navoiy viloyatida – 136,6 mlrd.so‘m, Samarqand viloyatida – 95,0 mlrd. so‘m va Andijon – 75,0 mlrd. so‘mni tashkil etgan.

Eng yuqori debitor qarzdorlik “O‘ztransgaz” AJda – 21 489,8 mlrd. so‘m (respublika bo‘yicha jami qarzdorlikdan 10,6 % i), “O‘zavtosanoat” AJ – 15 644,6 mlrd.so‘m (7,7 %), “Issiqlik elektr stansiyalari” AJ – 11 886,5 mlrd. so‘m (5,9 %), “O‘zbekneftgaz” AJ – 11 833,7 mlrd. so‘m (5,9 %), “OKMK” AJ – 9 562,1 mlrd. so‘m (4,7 %), To‘qimachilik va tikuv-trikotaj sanoati korxonalari uyushmasi – 9 049,3 mlrd. so‘m (4,5 %), “Hududiy elektr tarmoqlari” AJ – 7 964,6 mlrd. so‘m (3,9 %) ekanligi kuzatilmoqda.

2022- yil 1- sentabr holatiga ko‘ra, alohida xo‘jalik boshqaruvi organlarining debitor qarzdorligi (jamiga nisbatan % da)



Iqtisodiy faoliyat turlari bo‘yicha muddati o‘tgan debitor qarzdorlikning eng ko‘pi ishlab chiqaradigan sanoatda – 41,7 %, elektr, gaz, bug‘ bilan ta‘minlash va havoni konditsiyalashda – 24,9 %, suv bilan ta‘minlash, kanalizatsiya tizimi, chiqindilarni yig‘ish va utilizatsiya qilishda – 10,6 %, savdoda – 7,7 % ni tashkil etdi.

2022- yil 1- sentabr holatiga ko'ra, iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha muddati o'tgan debitor qarzdorlikning tarkibi


	Jami	shundan:			muddati o'tgan qarzdorlikning ulushi, % da
		xaridor va buyurtmachilar	yetkazib beruvchilarga va pudratchilarga berilgan avanslar	ichki idoraviy qarz	
Jami	3380,0	2234,4	923,8	59,2	1,7
Tog'-kon sanoati va ochiq konlarni ishlash	182,2	132,7	41,5	7,7	0,8
Ishlab chiqaradigan sanoat	1410,8	567,2	729,6	10,8	2,0
Elektr, gaz, bug' bilan ta'minlash va havoni konditsiyalash	841,8	833,6	2,7	0,1	2,9
Suv bilan ta'minlash; kanalizatsiya tizimi, chiqindilarni yig'ish va utilitatsiya qilish	358,9	350,6	-	8,3	26,3
Qurilish	53,9	46,2	4,6	2,8	0,5
Savdo	259,0	88,3	127,4	28,4	1,5
Tashish va saqlash	35,5	11,7	0,3	0,0	0,1
Ko'chmas mulk bilan operatsiyalar	26,5	24,7	0,6	0,4	3,0
Professional, ilmiy va texnik faoliyat	141,5	131,4	9,2	-	1,9
Boshqalar	69,9	48,0	8,0	0,7	0,8

3- BO'LIM. KORXONA VA TASHKILOTLARNING KREDITORLIK QARZDORLIGI HOLATI ¹⁾

2022- yil 1-sentabr holatiga ko'ra, kreditor qarzdorlikning umumiy hajmi 229 599,9 mlrd. so'm, shundan muddati o'tgani – 6 604,5 mlrd. so'm (jami kreditor qarzdorlikning 2,9%i)ni tashkil etdi.


Muddati o'tgan kreditor qarzdorlik 2021- yilning 1- sentabrga nisbatan solishtirilganda 2,4 martaga ortgan, jami kreditor qarzdorlikdagi ulushi 1,3 punktga ortgan.

2022- yil 1- sentabr holatiga, korxonalar va tashkilotlarning kreditor qarzdorligi




¹⁾ Budjet va boshqa notijorat tashkilotlar, mahsulot ishlab chiqaruvchi qishloq xo'jalik korxonalari, fermer va dehqon xo'jaliklari, sug'urta tashkilotlari, banklar, kichik korxonalar va mikrofirmalarsiz.

1- sentabr holatiga korxonalar va tashkilotlarning
kreditor qarzdorligi dinamikasi, mlrd.so'm



1- sentabr holatiga korxonalar va tashkilotlarning muddati o'tgan
kreditor qarzdorligi dinamikasi, mlrd.so'm



Hududlar kesimida korxonalar va tashkilotlarning kreditor
qarzdorligi, mlrd. so'm


	2021- yil 1- sentabr holatiga		2022- yil 1- sentabr holatiga	
	Kreditor qarzdorlik	shundan muddati o'tgani	Kreditor qarzdorlik	shundan muddati o'tgani
O'zbekiston Respublikasi ¹⁾	175 615,0	2 762,9	229 599,9	6 604,5
Qoraqalpog'iston Respublikasi	3 458,6	10,8	3 365,4	8,1
<i>viloyatlar:</i>				
Andijon	16 144,3	59,9	24 607,1	203,9
Buxoro	3 318,8	13,3	4 280,3	10,3
Jizzax	1 376,0	8,7	1 387,2	10,3
Qashqadaryo	6 407,6	86,2	6 663,9	5,8
Navoiy	5 058,4	66,2	5 212,7	58,3
Namangan	2 601,6	100,2	3 450,5	0,8
Samarqand	7 580,2	72,1	9 062,4	49,1
Surxondaryo	2 693,5	15,2	2 868,1	31,7
Sirdaryo	2 464,6	30,4	1 711,8	4,1
Toshkent	13 798,4	484,9	13 753,0	558,7
Farg'ona	3 969,3	129,7	4 756,5	83,5
Xorazm	1 489,5	27,4	2 369,9	0,3
Toshkent shahri	103 090,0	1 658,0	142 415,1	5 579,6

Hududlar kesimida kreditor qarzdorlikning asosiy qismi Toshkent shahri – 142 415,1 mlrd. so'm, Andijon viloyati – 24 607,1 mlrd. so'm, Toshkent viloyati – 13 753,0 mlrd. so'm, Samarqand viloyati – 9 062,4 mlrd. so'm, Qashqadaryo viloyatiga – 6 663,9 mlrd. so'm va Navoiy viloyati – 5 212,7 mlrd. so'mga to'g'ri keldi.

Hududlar kesimida muddati o'tgan kreditor qarzdorlikning asosiy qismi Toshkent shahri – 5 579,6 mlrd. so'm, Toshkent viloyatida – 558,7 mlrd. so'm, Andijon viloyatida – 203,9 mlrd. so'm, Farg'ona viloyatida – 83,5 mlrd. so'm va Navoiy viloyatida – 58,3 mlrd. so'mni tashkil etdi.


¹⁾ Hududlarga taqsimlanmagan ma'lumotlarni qo'shgan holda.

2022- yil 1- sentabr holatiga ko‘ra hududlar kesimida korxonalar va tashkilotlarning
kreditor qarzdorligi, mlrd. so‘m




Eng yuqori kreditor qarzdorlik “O‘ztransgaz” AJda – 33 038,2 mlrd. so‘m (respublika bo‘yicha jami kreditor qarzdorlikning 14,4 % i), “O‘zavtosanoat” AJ – 26 782,9 mlrd. so‘m (11,7 %), “O‘zbekiston milliy elektr tarmoqlari” AJ – 10 513,6 mlrd. so‘m (4,6 %) va “Hududiy elektr tarmoqlari” AJ – 9 262,9 mlrd. so‘m (4,0 %) ni tashkil etdi.

2022- yil 1- sentabr holatiga ko'ra alohida xo'jalik boshqaruvi organlarining
kreditor qarzdorligi (jamiga nisbatan % da)



2022- yil 1- sentabr holatiga ko'ra, alohida xo'jalik boshqaruvi organlarining debitor
va kreditor qarzdorligi, mlrd. so'm



Statistik ko'rsatkichlarga izohlar

Daromad (foyda) solig'i to'lagunga qadar foyda (zarar) – korxonada va tashkilotlarning barcha xo'jalik operatsiyalarini buxgalteriya hisobida aks ettiradigan yakuniy moliyaviy natija. Mahsulot (tovar, ish va xizmat)larni sotishning yalpi foydasi (zarari), asosiy faoliyatning boshqa daromadlari, moliyaviy faoliyatning daromadlari va favqulodda foyda yig'indisidan davr xarajatlari, moliyaviy faoliyat bo'yicha xarajatlar va favqulodda xarajatlar chegirib tashlanadigan foydaning umumiy foydasini (zararini) ifodalaydi.

Debitorlik qarzlari – xaridorlar va buyurtmachilar, sho'ba va qaram xo'jalik jamiyatlarining qarzlari, xodimlarga, mol yetkazib beruvchilar va pudratchilarga berilgan bo'naklar, budjet va davlat maqsadli jamg'armalariga soliqlar, yig'imlar va sug'urta bo'yicha bo'nak to'lovlari, muassislarning ustav fondidagi ulushlari bo'yicha qarzi, xodimlarning boshqa operatsiyalar bo'yicha qarzlari va boshqa debitorlik qarzlari o'z ichiga oladi.

Kreditorlik qarzlari – yetkazib beruvchilar va pudratchilar, sho'ba va qaram xo'jalik jamiyatlarining qarzi, soliq va boshqa majburiy to'lovlar bo'yicha muddati kechiktirilgan majburiyatlar, olingan avanslar, budjetga to'lovlar bo'yicha qarz, sug'urta bo'yicha qarz, davlat maqsadli jamg'armalariga to'lovlar bo'yicha qarz, ta'sischi qarzlari, mehnatga haq to'lash bo'yicha qarzlari va boshqa kreditorlik qarzlari o'z ichiga oladi.

Mahsulot (tovar, ish va xizmatlar) – tayyor mahsulot, tovar, bajarilgan ish va ko'rsatilgan xizmatlarni sotishdan olingan daromadlar, shuningdek, sotilgan tovarlarning qaytishi, sotish va baholardan chegirmalar qo'shimcha qiymat solig'i hamda aksiz solig'ini qo'shgan holda.

Muddati o'tgan qarzlari – qonun hujjatlarida belgilangan muddatlarda so'ndirilmagan qarzning umumiy summasi.

XII. KORXONA VA OBYEKTЛАRNI XUSUSIYLASHTIRISH


O'zbekiston Respublikasi davlat aktivlarini boshqarish agentligining ma'lumotiga ko'ra, 2022- yilning yanvar-sentabr oylarida 336 ta (dastur doirasidagi va dasturdan tashqari obyektlarni qo'shgan holda) korxonalar va obyektlar (keyingi o'rinlarda – obyektlar) xususiylashtirildi.

Xususiylashtirishning asosiy ko'rsatkichlari (2022- yil yanvar-sentabr holatiga ko'ra)

	Xususiylashtirilgan korxonalar va obyektlar soni		Davlat aktivlarini sotishdan olingan tushumlar	
	birlik	Jamiga nisbatan foizda	mlrd. so'm	Jamiga nisbatan foizda
O'zbekiston Respublikasi	336	100,0	3833,7	100,0
Qoraqalpog'iston Respublikasi	22	6,5	37,9	1,0
<i>viloyatlar:</i>				
Andijon	36	10,7	28,2	0,7
Buxoro	8	2,4	33,4	0,9
Jizzax	17	5,1	14,4	0,4
Qashqadaryo	16	4,8	31,3	0,8
Navoiy	16	4,8	32,5	0,8
Namangan	32	9,5	15,0	0,4
Samarqand	35	10,4	54,8	1,4
Surxondaryo	23	6,8	24,3	0,6
Sirdaryo	11	3,3	6,5	0,2
Toshkent	16	4,8	73,5	1,9
Farg'ona	48	14,3	50,7	1,3
Xorazm	41	12,2	54,8	1,4
Toshkent sh.	15	4,5	685,8	17,9
Agentlik markaziy apparati	-	-	2690,6	70,2


Hisobot davrida eng ko'p xususiylashtirilgan obyektlar soni Farg'ona viloyatida – 48 ta (14,3 %), Xorazm viloyatida – 41 ta (12,2 %), Andijon viloyatida – 36 ta (10,7 %) va Samarqand viloyatida – 35 ta (10,4 %) ni tashkil etdi.

2018-2022- yillarning yanvar-sentyabr oylarida xususiylashtirilgan ob'yektlar soni, birlikda



Korxonalar va obyektlarni xususiylashtirish

Yanvar-sentyabr oylarida ob‘yektlarni xususiylashtirishdan tushgan tushumlar dinamikasi, mlrd so‘m




Davlat aktivlarini boshqarish, transformatsiya va xususiylashtirish jamg‘armasiga mablag‘lar tushumi




Xususiylashtirilgan davlat mulki obyektlari tarkibida eng ko‘p ulush Davlat aktivlarini boshqarish agentligiga – 246 ta obyekt (respublika bo‘yicha jami xususiylashtirilgan obyektlarning 73,2 % i), mahalliy hokimiyatlarga – 69 ta obyekt (20,5 %), Suv xo‘jaligi vazirligiga – 11 ta obyekt (3,3 %) to‘g‘ri keldi.

2022- yilning yanvar-sentabrida vazirlik va idoralar kesimida xususiylashtirilgan davlat obyektlarining tarkibi



2022- yilning yanvar-sentabrida davlat mulkini sotishdan tushgan tushumlar 3833,7 mlrd. so‘mni tashkil qildi.



▢ Davlat mulkini sotishdan tushgan tushumlarning asosiy qismi Agentlik MAgaga (barcha tushumlarning 70,2 % i), Toshkent shahri (17,9 %), Toshkent (1,9 %), Xorazm (1,4 %), Samarqand (1,4 %), Farg‘ona (1,3 %) viloyatlari va Qoraqalpog‘iston Respublikasi (1,0 %) hissasiga to‘g‘ri keldi.

▢ Davlat noturar joy fondidan samarali foydalanish maqsadida, 2022- yilning yanvar-sentabrida obyektlarni ijaraga berish bo‘yicha 23 419 ta ijara shartnomalari tuzildi.

▢ Natijada 6,4 mingdan ortiq yangi ish o‘rinlari yaratildi.

▢ Davlat mulkini ijaraga berishdan tushgan tushumlar jami 215,3 mlrd.so‘mni tashkil etdi.

▢ Hududlar kesimida davlat mulkini ijaraga berishdan tushgan tushumlarning asosiy qismi Toshkent shahriga (barcha tushumlarning 43,9 % i), Toshkent (8,9 %), Farg‘ona (5,8 %), Xorazm (5,4 %) va Andijon (5,1 %) viloyatlariga to‘g‘ri keldi

Korxonalar va obyektlarni xususiylashtirish

Statistik ko‘rsatkichlarga izohlar

Davlat tasarrufidan chiqarish – davlat korxonalarini va tashkilotlarini xo‘jalik shirkatlari va jamiyatlariga, ommaviy mulk bo‘lmaydigan boshqa korxonalar va tashkilotlarga aylantirishdir.

Xususiylashtirish – jismoniy shaxslarning va davlatga taalluqli bo‘lmagan yuridik shaxslarning ommaviy mulk obyektlarini yoki davlat aksiyador jamiyatlarining aksiyalarini davlatdan sotib olishidir.

Davlat ko‘chmas mulk obyektlari bo‘yicha savdolar (kim oshdi savdolari) – sotuvchi yoki ko‘chmas mulk tashkiloti, shuningdek, kim oshdi savdolari va kim oshdi savdolarini tashkil etish va o‘tkazish bo‘yicha xizmatlarni ko‘rsatuvchi ixtisoslashgan tashkilot, shu jumladan, elektron shaklda, O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi tomonidan belgilangan tartibda davlat ko‘chmas mulk obyektlarini sotishni tashkillashtirish.

XIII. KORXONA VA TASHKILOTLAR FAOLIYATINING UMUMIY TAVSIFI

Statistik ma'lumotlar jamiyatda sodir bo'layotgan ijtimoiy-iqtisodiy hodisa va jarayonlarni tavsiflash va boshqarishning eng muhim vositasidir. Hozirda yuqori sifatli statistik ma'lumotlardan foydalanmasdan Davlat siyosatida to'g'ri boshqaruv qarorlarini qabul qilish imkonsiz.

Hududlarni umumiy ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishi hamda ularda amalga oshirilayotgan ayrim faoliyat turlari bo'yicha holatlar to'g'risidagi ma'lumotlar bilan aholini keng va to'liq xabardor qilish bugungi kunda statistika organlari oldida turgan eng dolzarb vazifalardan biridir. Bu vazifaning dolzarbligi, birinchi navbatda, internetdan foydalanuvchilarning soni ko'p bo'lgan bozor sharoitida mintaqaviy rivojlanish natijalari, samaradorlik ko'rsatkichlari va ularga erishishga to'sqinlik qilgan sabablar bilan qiziquvchilar soni ortib borayotganligi bilan bog'liq.


Barcha sohalar faoliyatini "raqamlashtirish" davri – AKT, virtual muloqot, jamiyatning global internet bilan birlashishi rivojlanish davri sifatida belgilandi. Albatta, ma'lum sharoitlarda AKTga singdirilgan tizimlashtirish salohiyati, elektron axborotni izlashning qulayligi hamda ularni tahlil qilish va e'lon qilish usullarining xilma-xilligi statistik jarayon sifatini oshirishga xizmat qilmoqda.

Korxonalar va tashkilotlar to'g'risida umumiy ma'lumotlar

fermer va dehqon xo'jaliklaridan tashqari, 1- oktabr holatiga ko'ra, birlikda.

Faoliyat ko'rsatayotgan

Ro'yxatdan o'tgan



Korxonalar va tashkilotlar faoliyatining umumiy tavsifi

1- BO'LIM. O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI BO'YICHA KORXONA VA TASHKIOTLARNING SONI


Yangi tashkil etilgan korxonalar va tashkilotlar

2022-yil yanvar-sentabr holatiga ko'ra, birlikda


Yillar kesimida soni



Yangi tashkil etilganlarning faoliyat ko'rsatayotganlarga nisbati (foizda)



Iqtisodiy faoliyat turlari kesimida



2022- yil yanvar-sentabr oyida yangi tashkil etilgan korxonalar va tashkilotlar soni 2021- yilning mos davri bilan solishtirilganda **7 267 taga** kamligini ko'rish mumkin.

Yangi tashkil etilgan korxonalar va tashkilotlar sonining tashkiliy-huquqiy shakli bo'yicha **2021- yilning** mos davri bilan solishtirilganda, mas'uliyati cheklangan jamiyatlar **3 938 taga**, oilaviy korxonalar **2 016 taga**, xususiy korxonalar **1 170 taga** kam yangi tashkil etilganligini ko'rishimiz mumkin.

Hududlar kesimida


11 817	Toshkent sh.	90,8%	4 298	Namangan v.	85,3%
8 556	Samarqand v.	101,3%	3 749	Jizzax v.	106,3%
6 926	Qashqadaryo v.	82,7%	3 525	Buxoro v.	75,9%
6 803	Farg'ona v.	96,9%	3 461	Surxondaryo v.	80,0%
5 329	Toshkent v.	82,3%	3 357	Navoiy v.	79,6%
4 618	Andijon v.	86,6%	3 242	Qoraqalpog'iston R.	93,4%
4 607	Xorazm v.	130,7%	1 734	Sirdaryo v.	92,2%

Korxonalar va tashkilotlar faoliyatining umumiy tavsifi


Faoliyat ko'rsatayotgan korxonalar va tashkilotlar

2022-yil 1-oktabr holatiga ko'ra, birlikda

Yillar kesimida soni



Yillar kesimida o'sish sur'ati



Iqtisodiy faoliyat turlari kesimida



Qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligi



Sanoat



Qurilish



Savdo



Tashish va saqlash



Yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlar



Axborot va aloqa



Sog'liqni saqlash va ijtimoiy xizmatlar ko'rsatish



Boshqa turlar

2022-yil 1-oktabr holatiga faoliyat ko'rsatayotgan korxonalar va tashkilotlar soni 2021-yilga (538 466 ta) nisbatan 39 528 taga oshganligini quyidagi sohalarida korxonalar sonining sezilarli o'sishi bilan ifodalash mumkin: savdo – 157 538 tadan 177 568 taga (o'sish 20 030 ta), sanoat – 93 887 tadan 96 774 taga (o'sish 2 887 ta), qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligida – 47 676 tadan 52 291 taga (o'sish 4 615 ta).

Shuningdek, ushbu davrda respublika darajasiga (107,3 foiz) nisbatan yuqori o'sish sur'atlari Xorazm (113,6 foiz), Samarqand (112,7 foiz) va Qashqadaryo (110,2 foiz) viloyatlarida qayd etildi.

Hududlar kesimida

114 837	Toshkent sh.	106,8%	32 979	Buxoro v.	105,6%
54 078	Toshkent v.	105,5%	30 663	Surxondaryo v.	107,9%
52 480	Samarqand v.	112,7%	28 192	Xorazm v.	113,6%
51 310	Farg'ona v.	108,5%	25 869	Qoraqalpog'iston R.	106,4%
44 126	Andijon v.	105,5%	25 280	Jizzax v.	107,1%
40 677	Qashqadaryo v.	110,2%	24 610	Navoiy v.	106,4%
35 993	Namangan v.	103,2%	16 900	Sirdaryo v.	101,4%


Korxonalar va tashkilotlar faoliyatining umumiy tavsifi

Yangi tashkil etilgan tadbirkorlik subyektlari to'g'risida ma'lumotlar 2022-yil yanvar-sentabr holatiga ko'ra, birlikda


Yillar kesimida soni



Yangi tashkil etilganlarning faoliyat ko'rsatayotganlarga nisbati (foizda)



Iqtisodiy faoliyat turlari kesimida



Tahlillar shuni ko'rsatdiki, O'zbekistonda jami tadbirkorlik subyektlarining **50** foizga yaqini so'nggi uch yilda yangi tashkil etilgan.

2022-yil yanvar-sentabr oyida yangi tashkil etilgan tadbirkorlik subyektlarining umumiy soni **2021-yilning** mos davriga nisbatan **9,2 foizga (7 082 ta)** kamaygan bo'lib, shundan:

- mikrofirmalar **9,4 foizga (7 024 taga)** kamaygan);
- kichik korxonalar **9,3 foizga (135 taga)** kamaygan);
- yirik korxonalarda esa **77 taga** biroz o'sgan, bu esa **33,8 foizni** tashkil etdi.


Hududlar kesimida

11 410	Toshkent sh.	91,3%	4 135	Namangan v.	84,4%
8 374	Samarqand v.	101,3%	3 621	Jizzax v.	105,5%
6 731	Qashqadaryo v.	82,2%	3 413	Buxoro v.	75,3%
6 594	Farg'ona v.	96,4%	3 293	Surxondaryo v.	78,1%
5 099	Toshkent v.	81,1%	3 252	Navoiy v.	79,0%
4 506	Xorazm v.	131,7%	3 124	Qoraqalpog'iston R.	93,5%
4 421	Andijon v.	91,2%	1 644	Sirdaryo v.	90,9%


Korxonalar va tashkilotlar faoliyatining umumiy tavsifi

Faoliyat ko'rsatayotgan tadbirkorlik subyektlari to'g'risida ma'lumotlar 2022-yil 1-oktabr holatiga ko'ra, birlikda


Yillar kesimida soni



Yillar kesimida o'sish sur'ati



Iqtisodiy faoliyat turlari kesimida



O'zbekistonda faoliyat ko'rsatayotgan tadbirkorlik subyektlari soni 2016- yilga nisbatan **243,5 foizga** o'sdi **210,8 mingtadan 2022- yilda 513,3 mingtaga** yetdi.

Faoliyat ko'rsatayotgan tadbirkorlik subyektlarining iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha taqsimlanishi (umumiy sonidagi ulushi) quyidagicha bo'ldi: savdo – **34,6 foiz**, sanoat – **18,8 foiz**, qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligi – **10,1 foiz**, qurilish – **9,0 foiz**, yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlar – **6,9 foiz**, tashish va saqlash – **3,9 foiz**, axborot va aloqa – **2,2 foiz**, sog'liqni saqlash va ijtimoiy xizmatlar ko'rsatish – **1,9 foiz**, boshqa turlari – **12,6 foiz**.


Hududlar kesimida

104 768	Toshkent sh.	107,0%	29 547	Buxoro v.	106,0%
48 159	Toshkent v.	105,9%	26 749	Surxondaryo v.	108,4%
46 557	Samarqand v.	114,1%	25 054	Xorazm v.	115,3%
45 123	Farg'ona v.	109,4%	22 398	Navoiy v.	107,0%
38 693	Andijon v.	106,1%	22 144	Qoraqalpog'iston R.	107,2%
35 766	Qashqadaryo v.	111,4%	21 991	Jizzax v.	108,1%
31 619	Namangan v.	103,6%	14 765	Sirdaryo v.	101,0%


Korxonalar va tashkilotlar faoliyatining umumiy tavsifi

Yangi tashkil etilgan kichik biznes subyektlari to'g'risida ma'lumotlar

2022- yil yanvar-sentabr holatiga ko'ra, birlikda



Iqtisodiy faoliyat turlari kesimida



Mamlakat iqtisodiyotining "sog'lomligi"ni baholashning muhim omili – kichik biznes subyektlarining samarali faoliyat ko'rsatishi bo'lib, bu uning moslashuvchanligi va doimiy o'zgaruvchan iqtisodiy vaziyatlarga moslasha olish ko'rsatkichidir.

Shunday qilib, **2022- yil yanvar-sentabr** oyida yangi tashkil etilgan kichik biznes subyektlari soni **2021- yilning** mos davriga nisbatan **7 159 taga** kamaygan. Ushbu ko'rsatkich iqtisodiy faoliyat turlari kesimida tahlil qilinganda sanoatda – **2 852 taga**, savdoda – **2 447 taga**, qurilishda – **1 466 taga**, yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlarda – **571 taga** kamayganligini, tashish va saqlash, xizmat ko'rsatish sohasida esa **461 taga** ko'payganligini ko'rishimiz mumkin.


Hududlar kesimida

11 289	Toshkent sh.	90,9%	4 108	Namangan v.	84,1%
8 357	Samarqand v.	101,4%	3 611	Jizzax v.	105,5%
6 690	Qashqadaryo v.	82,0%	3 402	Buxoro v.	75,2%
6 572	Farg'ona v.	96,3%	3 284	Surxondaryo v.	78,0%
5 092	Toshkent v.	81,0%	3 244	Navoiy v.	78,9%
4 491	Xorazm v.	131,6%	3 113	Qoraqalpog'iston R.	93,4%
4 418	Andijon v.	91,3%	1 641	Sirdaryo v.	91,1%


Korxonalar va tashkilotlar faoliyatining umumiy tavsifi

Faoliyat ko'rsatayotgan kichik biznes subyektlari to'g'risida ma'lumotlar 2022-yil 1-oktabr holatiga ko'ra, birlikda


Yillar kesimida soni



Yillar kesimida o'sish sur'ati



Iqtisodiy faoliyat turlari kesimida



Hududiy kesimda eng ko'p kichik biznes subyektlari Toshkent shahrida (20,2 %), Toshkent (9,4 %), Samarqand (9,1 %), Farg'ona (8,8 %) va Andijon (7,6 %) viloyatlarida faoliyat ko'rsatmoqda. Ushbu hududlarda jami kichik biznes subyektlari sonining **50 foizdan** ortig'i faoliyat ko'rsatmoqda.

Ma'lumki ayni paytda kichik biznes subyektlari milliy iqtisodiyotning deyarli barcha tarmoqlarida ilg'or faoliyat yuritmoqda.

Hududlar kesimida

103 194	Toshkent sh.	106,8%	29 399	Buxoro v.	106,0%
47 818	Toshkent v.	105,9%	26 648	Surxondaryo v.	108,4%
46 353	Samarqand v.	114,2%	24 922	Xorazm v.	115,3%
44 882	Farg'ona v.	109,3%	22 296	Navoiy v.	106,9%
38 547	Andijon v.	106,1%	22 059	Qoraqalpog'iston R.	107,2%
35 543	Qashqadaryo v.	111,4%	21 918	Jizzax v.	108,1%
31 442	Namangan v.	103,5%	14 699	Sirdaryo v.	101,0%

Korxonalar va tashkilotlar faoliyatining umumiy tavsifi


2-BO'LIM. KORXONA VA TASHKILOTLARNING IQTISODIY FAOLIYAT TURLARI BO'YICHA MA'LUMOTLAR

Qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligida faoliyat
ko'rsatayotgan korxonalar va tashkilotlar to'g'risida ma'lumotlar

2022-yil 1-oktabr holatiga ko'ra, birlikda


Hududlar kesimida

Qashqadaryo v.	7 607
Toshkent v.	6 031
Jizzax v.	4 493
Samarqand v.	4 185
Surxondaryo v.	4 035
Qoraqalpog'iston R.	3 696
Andijon v.	3 670
Buxoro v.	3 459
Xorazm v.	3 237
Namangan v.	3 039
Navoiy v.	2 970
Sirdaryo v.	2 457
Farg'ona v.	2 378
Toshkent sh.	1 034



O'zbekiston Respublikasida mamlakatning oziq-ovqat xavfsizligini ta'minlashga qaratilgan qishloq xo'jaligini rivojlantirishning chuqur o'ylangan strategiyasi izchil amalga oshirilmoqda.

Davlatimiz iqtisodiy va ijtimoiy siyosatining muhim tarkibiy qismi sifatida meva-sabzavot yetishtirishga bunday yondashuv aholi ehtiyojlarini to'liq ta'minlash, ularning salomatligini saqlash, shuningdek, bandlik shart-sharoitlarini yaratishda asosiy yo'nalishlardan biriga aylandi.




Korxonalar va tashkilotlar faoliyatining umumiy tavsifi

**Sanoat yo'nalishida faoliyat ko'rsatayotgan
korxonalar va tashkilotlar to'g'risida ma'lumotlar**
2022-yil 1-oktabr holatiga ko'ra, birlikda


Hududlar kesimida

Toshkent sh.	16 539
Farg'ona v.	10 723
Andijon v.	9 798
Toshkent v.	9 722
Samarqand v.	8 622
Namangan v.	7 697
Qashqadaryo v.	5 445
Buxoro v.	4 994
Surxondaryo v.	4 779
Xorazm v.	4 751
Jizzax v.	3 995
Navoiy v.	3 942
Qoraqalpog'iston R.	3 480
Sirdaryo v.	2 287



Qayd etish kerakki, sanoat tarmog'i iqtisodiy tarmoqlar ichida eng yuqori salohiyatga ega bo'lgan tarmoqlardan hisoblanadi. Shunday qilib, so'nggi **uch yil** ichida milliy iqtisodiyotda faoliyat ko'rsatayotgan sanoat korxonalarining sonining o'sish sur'ati **141,0 foizni** tashkil etdi.

Sanoat korxonalarining soni jami korxonalar va tashkilotlarning **16,6 foiz** ulushini tashkil etdi. Shundan – **94,9 foizini** ishlab chiqarish sanoati (o'tgan yilga nisbatan o'sish **103,0 %**), **3,1 foizini** tog'-kon sanoati va ochiq konlarni ishlash (o'sish **104,4 %**), **1,5 foizini** suv bilan ta'minlash, kanalizatsiya tizimi, chiqindilarni yig'ish va utilitatsiya qilish (o'sish **105,0 %**) va **0,5 foizini** elektr, gaz, bug' bilan ta'minlash va havoni konditsiyalash (o'sish **100,4 %**) tashkil etgan.




**Korxonalar va tashkilotlar
faoliyatining umumiy tavsifi**

Qurilish faoliyati bilan shug'ullanayotgan korxonalar va tashkilotlar to'g'risida ma'lumotlar 2022-yil 1-oktabr holatiga ko'ra, birlikda

Hududlar kesimida


Toshkent sh.	9 453
Toshkent v.	4 023
Farg'ona v.	3 859
Samarqand v.	3 488
Qashqadaryo v.	3 449
Andijon v.	3 341
Buxoro v.	2 975
Surxondaryo v.	2 971
Qoraqalpog'iston R.	2 497
Namangan v.	2 420
Jizzax v.	2 153
Xorazm v.	2 127
Navoiy v.	1 772
Sirdaryo v.	1 634



O'zbekistonda qurilish sanoati iqtisodiyotning ustuvor tarmog'i sifatida belgilangan. Zamonaviy qurilish industriyasi – O'zbekiston Respublikasi iqtisodiyotining eng ko'zga ko'ringan milliy tarmoqlaridan biri bo'lib, yillik barqaror o'sish sur'atlarini namoyon etib kelmoqda.

Qurilish sanoatining yo'nalishlari bo'yicha o'tkazilgan tahlil shuni ko'rsatdiki:

- binolar va inshootlar qurish yo'nalishi **56,7 foiz** ulushni tashkil etib, o'sish sur'ati o'tgan yilning mos davriga nisbatan **101,8 foizga** oshgan;
- fuqarolik obyektlarini qurish yo'nalishi **11,6 foiz** ulushni tashkil etib, o'sish sur'ati o'tgan yilning mos davriga nisbatan **120,8 foizga** oshgan;
- ixtisoslashtirilgan qurilish ishlari yo'nalishi **31,7 foiz** ulushni va **97,7 foiz** o'sish sur'atini tashkil etdi.




Korxonalar va tashkilotlar faoliyatining umumiy tavsifi

Savdo sohasida faoliyat ko'rsatayotgan korxonalar va tashkilotlar to'g'risida ma'lumotlar

2022-yil 1-oktabr holatiga ko'ra, birlikda

Hududlar kesimida

Toshkent sh.	35 010
Samarqand v.	18 267
Farg'ona v.	16 826
Toshkent v.	16 120
Andijon v.	13 078
Qashqadaryo v.	11 962
Namangan v.	11 373
Buxoro v.	9 497
Surxondaryo v.	9 197
Xorazm v.	8 714
Navoiy v.	8 524
Qoraqalpog'iston R.	7 132
Jizzax v.	6 592
Sirdaryo v.	5 276



Tahlillar shuni ko'rsatdiki, respublikada faoliyat ko'rsatayotgan har uchinchi korxonalar savdo sohasida faoliyat yuritadi, ularning **99,6 foizi** yoki **176,9 mingtasi** kichik biznes subyektlariga to'g'ri keladi.

Savdo sohasining yo'nalishlar bo'yicha taqsimoti quyidagicha:


- avtomobil va mototsikllar savdosidan tashqari chakana savdo yo'nalishi **62,9 foiz** ulushni tashkil etgan bo'lib, **2021-yilning** mos davri bilan solishtirilganda **110,6 foizga** o'sgan;
- avtomobil va mototsikllar savdosidan tashqari ulgurji savdo yo'nalishida **28,5 foiz** ulushni tashkil etib, **115,7 foizga** oshgan;
- avtomobil va mototsikllarning ulgurji va chakana savdosi va ularni ta'mirlash yo'nalishida **8,6 foiz** ulushni tashkil etib, **119,1 foizga** o'sgan.



Korxonalar va tashkilotlar faoliyatining umumiy tavsifi

Yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlar sohasida faoliyat ko'rsatayotgan korxonalar va tashkilotlar to'g'risida ma'lumotlar
2022-yil 1-oktabr holatiga ko'ra, birlikda

Toshkent sh.	7 343
Samarqand v.	4 425
Toshkent v.	3 993
Farg'ona v.	2 881
Buxoro v.	2 502
Andijon v.	2 009
Qashqadaryo v.	1 965
Surxondaryo v.	1 826
Xorazm v.	1 713
Namangan v.	1 648
Jizzax v.	1 556
Navoiy v.	1 499
Qoraqalpog'iston R.	1 435
Sirdaryo v.	941



2022-yil 1-oktabr holatiga ko'ra, yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlar sohasida faoliyat ko'rsatayotgan korxonalar va tashkilotlar soni **2019-yilning** mos davri bilan solishtirilganda **145,7 foizga** oshgan bo'lib, respublikadagi jami faoliyat ko'rsatayotgan korxonalar va tashkilotlarning **6,2 foiz** ulushini tashkil etdi.

Yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlar sohasi tahlili shuni ko'rsatdiki:

- mehmonxonalar, turistik oromgohlar, dam olish va ko'ngilochar parklar va shaharchalar yashash bo'yicha xizmatlar yo'nalishining asosiy faoliyati hisoblanib, **2022-yil 1-oktabr** holatiga ko'ra, yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlar sohasida faoliyat ko'rsatayotgan korxonalar va tashkilotlarning **10,0 foiz** ulushini tashkil etdi;

- restoran, oziq-ovqat mahsulotlarini yetkazish va buyurtma bo'yicha ovqat va ichimliklarni yetkazish faoliyatlari oziq-ovqat va ichimliklar yetkazish bo'yicha xizmatlar yo'nalishining asosi hisoblanib, yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlar sohasining **90,0 foiz** ulushini tashkil etdi.

3 591

Yashash bo'yicha xizmatlar

32 145

Oziq-ovqat va ichimliklar yetkazish bo'yicha xizmatlar

Korxonalar va tashkilotlar faoliyatining umumiy tavsifi

Axborot va aloqa sohasida faoliyat ko'rsatayotgan korxonalar va tashkilotlar to'g'risida ma'lumotlar
2022-yil 1- oktabr holatiga ko'ra, birlikda

Toshkent sh.	5 062		
Farg'ona v.	1 152	11 600	2022
Samarqand v.	834		
Toshkent v.	715	10 960	2021
Andijon v.	614		
Namangan v.	510		
Qashqadaryo v.	483	8 995	2020
Qoraqalpog'iston R.	394		
Xorazm v.	391	7 760	2019
Surxondaryo v.	351		
Buxoro v.	338		
Navoiy v.	286	6 833	2018
Jizzax v.	264		
Sirdaryo v.	206		

2022-yil 1- oktabr holatiga ko'ra nashirlik faoliyati, kino-videofilmlar, televizion dasturlar, fonogrammalar va musiqali yozuvlarni ishlab chiqish yo'nalishlarida faoliyat ko'rsatayotgan korxonalar va tashkilotlar soni axborot va aloqa sohasining **20,7 foizini** tashkil etib, **2021-yilning** mos davriga nisbatan **102,8 foizga** oshgan.

Dasturlar yaratish bo'yicha faoliyat va teleko'rsatuv va radioeshittirishlar hamda aloqa yo'nalishlaridagi korxonalar soni axborot va aloqa sohasining **28,4 foizini** tashkil etib, **2021-yilning** mos davriga nisbatan **94,7 foizga** o'sgan.


Kompyuter dasturlashtirish, maslahat berish va boshqa yordamchi xizmatlar hamda axborot xizmati ko'rsatish sohasidagi faoliyat yo'nalishlarida korxonalar soni axborot va aloqa sohasidagi korxonalar va tashkilotlarning **50,9 foizini** tashkil etib, **2021-yilning** mos davriga nisbatan **114,8 foizga** o'sgan.



Korxonalar va tashkilotlar faoliyatining umumiy tavsifi

Sog'liqni saqlash va ijtimoiy xizmatlar sohasida faoliyat ko'rsatayotgan korxonalar va tashkilotlar to'g'risida ma'lumotlar 2022-yil 1-oktabr holatiga ko'ra, birlikda

Toshkent sh.	2 172
Farg'ona v.	1 231
Andijon v.	1 118
Samarqand v.	1 042
Toshkent v.	918
Qashqadaryo v.	832
Buxoro v.	819
Namangan v.	751
Xorazm v.	599
Surxondaryo v.	483
Qoraqalpog'iston R.	469
Navoiy v.	356
Jizzax v.	352
Sirdaryo v.	217



Sog'liqni saqlash va ijtimoiy xizmatlar sohasida faoliyat ko'rsatayotgan jami korxonalar va tashkilotlarning salmoqli qismi – **9 819** ta yoki **86,4 foiz** ulushi tadbirkorlik subyektlari hissasiga to'g'ri kelgan.

Yo'nalishlar bo'yicha tahlil shuni ko'rsatdiki:

94,4 foiz korxonalar sog'liqni saqlash yo'nalishiga to'g'ri kelib, o'sish sur'ati **109,5 foizga** yetdi;

Yashash uchun joy bilan ta'minlangan holda parvarishlash yo'nalishidagi korxonalar soni **3,0 foizni** tashkil etib, **133,6 foizga** o'sgan.

Yashash uchun joy bilan ta'minlanmagan holda ijtimoiy xizmatlar ko'rsatish yo'nalishidagi korxonalar soni ushbu sohaning **2,6 foizini** tashkil etib, o'sish sur'ati **116,1 foizga** yetdi.



Sog'liqni saqlash sohasidagi faoliyat



Yashash uchun joy bilan ta'minlangan holda parvarishlash




Yashash uchun joy bilan ta'minlanmagan holda ijtimoiy xizmatlar ko'rsatish

Korxonalar va tashkilotlar faoliyatining umumiy tavsifi

**Tashish va saqlash xizmatlari sohasida faoliyat ko'rsatayotgan
korxonalar va tashkilotlar to'g'risida ma'lumotlar**
2022-yil 1-oktabr holatiga ko'ra, birlikda

Toshkent sh.	4 541
Buxoro v.	2 117
Toshkent v.	1 847
Farg'ona v.	1 798
Andijon v.	1 462
Samarqand v.	1 223
Namangan v.	1 182
Qashqadaryo v.	1 056
Xorazm v.	995
Qoraqalpog'iston R.	979
Surxondaryo v.	855
Navoiy v.	780
Jizzax v.	619
Sirdaryo v.	556



2022- yil 1- oktabr holatiga ko'ra, tashish va saqlash xizmatlari sohasida faoliyat ko'rsatayotgan korxonalar jami respublikadagi faoliyat ko'rsatayotgan korxonaning **3,5 foiz** ulushini tashkil etdi.

2021- yilning mos davri bilan solishtirganda tashish va saqlash xizmatlarining yo'nalishlari bo'yicha tahlillar shuni ko'rsatdiki:

quruqlikdagi va quvur transporti yo'nalishida faoliyat ko'rsatayotgan korxonalar va tashkilotlarning o'sish sur'ati **107,5 foizni** tashkil etdi;

ombor xo'jaligi va yordamchi transport yo'nalishining o'sish sur'ati **104,9 foizga** oshgan;

pochta va kuryerlik yo'nalishi **105,9 foizga** o'sgan;

havo transporti yo'nalishida faoliyat yuritayotgan korxonalar va tashkilotlar soni **1,2 baravarga** oshgan;

suv transporti yo'nalishidagi korxonalar va tashkilotlar soni **2 taga** kamaygan.



**Korxonalar va tashkilotlar
faoliyatining umumiy tavsifi**

3- BO'LIM. TADBIRKORLIK SUBYEKTLARINING TASHKILIY- HUQUQIY SHAKLI BO'YICHA MA'LUMOTLAR

Tadbirkorlik subyektlarining tashkiliy-huquqiy
shakli bo'yicha umumiy ma'lumot
2022-yil 1-oktabr holatiga ko'ra, birlikda

Tadbirkorlik subyektlari
soni

Tadbirkorlik subyektlarining
jamiga nisbatan ulushi



Tashkiliy-huquqiy shakl deganda, subyekt tomonidan mulkning birlashtirilishi (shakllantirilishi) va undan foydalanish usuli hamda uning bundan kelib chiquvchi huquqiy holati va faoliyat maqsadi tushuniladi. Shuningdek, quyidagilar bilan bog'liq masalalarni hal qilishda foydalaniladi:


- xo'jalik yurituvchi subyektlar to'g'risidagi ma'lumotlarni o'z ichiga olgan registr, reyestr va kadastrlarning axborot resurslarini shakllantirish;
- tashkiliy-huquqiy shakllar doirasida statistika ma'lumotlarini ishlab chiqish;
- idoralararo axborot almashinishini ta'minlash;
- ijtimoiy-iqtisodiy jarayonlarni va hodisalarni tahlil qilish va prognozlashtirish.

Korxonalar va tashkilotlar faoliyatining umumiy tavsifi


Yangi tashkil etilgan mas'uliyati cheklangan jamiyatlar to'g'risida ma'lumot 2022-yil yanvar-sentabr holatiga ko'ra, birlikda

Yillar kesimida soni

Yangi tashkil etilganlarning faoliyat ko'rsatayotganlarga nisbati (foizda)



Iqtisodiy faoliyat turlari kesimida



Bir yoki bir necha shaxs tomonidan ta'sis etilgan, ustav fondi (ustav kapitali) ta'sis hujjatlari bilan belgilangan miqdorda ulushlarga bo'lingan xo'jalik jamiyati mas'uliyati cheklangan jamiyat deb hisoblanadi. Mas'uliyati cheklangan jamiyatning ishtirokchilari uning majburiyatlari bo'yicha javobgar bo'lmaydilar va jamiyat faoliyati bilan bog'liq zararlar uchun o'zlari qo'shgan hissalarini qiymati doirasida javobgar bo'ladilar. Mas'uliyati cheklangan jamiyatning o'z hissasini to'la qo'shmagani ishtirokchilari, jamiyat majburiyatlari bo'yicha har bir ishtirokchi hissasining to'lanmagan qismi qiymati doirasida solidar javobgar bo'ladilar.

Hududlar kesimida


Toshkent sh.	10 434	Buxoro v.	2 797
Samarqand v.	4 672	Xorazm v.	2 613
Farg'ona v.	4 333	Jizzax v.	2 529
Toshkent v.	4 134	Qoraqalpog'iston R.	2 371
Andijon v.	3 884	Surxondaryo v.	2 128
Namangan v.	3 608	Navoiy v.	1 909
Qashqadaryo v.	3 333	Sirdaryo v.	1 469

Korxonalar va tashkilotlar faoliyatining umumiy tavsifi


Faoliyat ko'rsatayotgan mas'uliyati cheklangan jamiyatlar to'g'risida ma'lumot 2022-yil 1-oktabr holatiga ko'ra, birlikda

Yillar kesimida soni

Yillar kesimida o'sish sur'ati



Iqtisodiy faoliyat turlari kesimida



2022-yil 1-oktabr holatiga ko'ra faoliyat ko'rsatayotgan **513,3 mingta** tijorat korxonasi va tashkilotlarining **355,2 mingtasi** mas'uliyati cheklangan jamiyatlar ulushiga to'g'ri keladi. Bundan kelib chiqib, shuni xulosa qilishimiz mumkinki, mazkur kompaniyalar mamlakatimizda tadbirkorlik faoliyatining eng keng tarqalgan shakli hisoblanadi.

Respublikada faoliyat ko'rsatayotgan har uchinchi mas'uliyati cheklangan jamiyat savdo sohasida faoliyat yuritadi.

Sohalar kesimida o'sish sur'atlarining tahlili shuni ko'rsatdiki, eng yuqori ko'rsatkich savdoda – **116,4 foiz**, qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligida – **115,6 foiz**, sog'liqni saqlash va ijtimoiy xizmatlarda – **115,2 foiz**, shuningdek, axborot va aloqada – **112,6 foizni** tashkil etdi.


Hududlar kesimida

Toshkent sh.	87 854	Qashqadaryo v.	19 233
Toshkent v.	36 412	Qoraqalpog'iston R.	16 347
Andijon v.	30 699	Jizzax v.	15 111
Samarqand v.	27 344	Xorazm v.	13 473
Farg'ona v.	26 229	Surxondaryo v.	13 266
Namangan v.	23 426	Navoiy v.	12 189
Buxoro v.	22 012	Sirdaryo v.	11 557


Korxonasi va tashkilotlar faoliyatining umumiy tavsifi

Yangi tashkil etilgan xususiy korxonalar to'g'risida ma'lumotlar

2022-yil yanvar-sentabr holatiga ko'ra, birlikda



Iqtisodiy faoliyat turlari kesimida



Mulkdor yagona jismoniy shaxs tomonidan tuzilgan va boshqariladigan tijoratchi tashkilot xususiy korxonalar deb e'tirof etiladi. Xususiy korxonalar tadbirkorlik subyektlarining tashkiliy-huquqiy shaklidir. Xususiy korxonalar o'z mulkida alohida mol-mulkka ega bo'ladi, o'z nomidan mulkiy va shaxsiy nomulkiy huquqlarga ega bo'lishi hamda ularni amalga oshirishi, majburiyatlarni bajarishi, sudda da'vogar va javobgar bo'lishi mumkin.


2022-yil yanvar-sentabr oyida yangi tashkil etilgan xususiy korxonalar soni 2021-yilning mos davriga nisbatan 1 170 taga kamaygan. Iqtisodiy faoliyat turlari kesimida tahlil qilinganda savdoda – 540 taga, sanoatda – 378 taga, qurilishda – 161 taga kamaygan, qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligida esa 111 taga o'sganligini ko'rishimiz mumkin.

Hududlar kesimida


Samarqand v.	1 799	Surxondaryo v.	393
Qashqadaryo v.	1 699	Toshkent v.	270
Farg'ona v.	1 121	Buxoro v.	241
Navoiy v.	859	Andijon v.	237
Toshkent sh.	581	Namangan v.	211
Xorazm v.	550	Qoraqalpog'iston R.	205
Jizzax v.	439	Sirdaryo v.	60

Korxonalar va tashkilotlar faoliyatining umumiy tavsifi

Faoliyat ko'rsatayotgan xususiy korxonalar to'g'risida ma'lumotlar 2022-yil 1-oktabr holatiga ko'ra, birlikda



Iqtisodiy faoliyat turlari kesimida



O'tgan yilning shu davriga nisbatan **2022-yil 1-oktabr** holatiga ko'ra, faoliyat ko'rsatayotgan xususiy korxonalar soni **4,2 foizga** kamaydi.


Xususiy tadbirkorlik subyektlari o'sish sur'atlarining o'tgan yilga nisbatan pasayishiga axborot va aloqa (**85,6 foiz**), qurilish (**88,4 foiz**), qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligi (**91,0 foiz**), tashish va saqlash sohalari (**91,9 foiz**), shuningdek, viloyatlar kesimida esa – Sirdaryo (**82,5 foiz**), Namangan (**84,3 foiz**), Andijon (**84,3 foiz**) va Jizzax (**91,3 foiz**) viloyatlari ta'sir ko'rsatmoqda.

Hududlar kesimida


Toshkent sh.	12 077	Xorazm v.	5 820
Farg'ona v.	11 685	Navoiy v.	5 814
Qashqadaryo v.	10 560	Andijon v.	4 425
Samarqand v.	8 339	Jizzax v.	4 341
Surxondaryo v.	7 302	Buxoro v.	3 806
Namangan v.	6 285	Qoraqalpog'iston R.	3 085
Toshkent v.	6 224	Sirdaryo v.	2 447

Korxonalar va tashkilotlar faoliyatining umumiy tavsifi

Yangi tashkil etilgan oilaviy korxonalar to'g'risida ma'lumotlar 2022-yil yanvar-sentabr holatiga ko'ra, birlikda



Iqtisodiy faoliyat turlari kesimida



Oilaviy korxonaning ishtirokchilari tomonidan tovarlar ishlab chiqarish (ishlar bajarish, xizmatlar ko'rsatish) va realizatsiya qilishni amalga oshirish uchun ixtiyoriy asosda, oilaviy korxonaning ishtirokchilarining ulushli yoki birgalikdagi mulkida bo'lgan umumiy mol-mulk, shuningdek, oilaviy korxonaning ishtirokchilaridan har birining mol-mulki negizida tashkil etiladigan kichik tadbirkorlik subyektidir.


Oilaviy korxonaning faoliyati uning ishtirokchilarining shaxsiy mehnatiga asoslanadi va tadbirkorlik subyektlarining tashkiliy-huquqiy shakllaridan biridir.

Hududlar kesimida


Samarqand v.	1 864	Navoiy v.	427
Qashqadaryo v.	1 591	Toshkent sh.	374
Xorazm v.	1 289	Buxoro v.	350
Farg'ona v.	1 055	Qoraqalpog'iston R.	269
Surxondaryo v.	718	Namangan v.	256
Toshkent v.	652	Andijon v.	212
Jizzax v.	606	Sirdaryo v.	48

Korxonaning va tashkilotlarning faoliyatining umumiy tavsifi

Faoliyat ko'rsatayotgan oilaviy korxonalar to'g'risida ma'lumotlar 2022-yil 1-oktabr holatiga ko'ra, birlikda



Iqtisodiy faoliyat turlari kesimida




Yuridik shaxs sifatida davlat ro'yxatidan o'tib, faoliyat ko'rsatayotgan oilaviy korxonalar soni **2022-yil 1-oktabr** holatiga ko'ra **5 989 taga** (2021-yilga nisbatan) ko'paygan, bu esa quyidagi sohalardagi korxonalar: savdoda – **16 123 tadan 19 291 taga** (o'sish **3 168 taga**), sanoatda – **16 107 tadan 17 347 taga** (o'sish **1 240 taga**), yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlar – **8 453 tadan 9 292 taga** (o'sish **839 ta**) sonining sezilarli oshishi bilan izohlanadi.

Hududlar kesimida


Samarqand v.	10 209	Toshkent sh.	3 751
Farg'ona v.	6 471	Buxoro v.	3 407
Surxondaryo v.	5 709	Andijon v.	2 997
Xorazm v.	5 425	Jizzax v.	2 098
Qashqadaryo v.	5 200	Qoraqalpog'iston R.	2 082
Toshkent v.	4 958	Namangan v.	1 313
Navoiy v.	4 167	Sirdaryo v.	363

Korxonalar va tashkilotlar faoliyatining umumiy tavsifi

**4- BO' LIM. XORIJIY KAPITAL ISHTIROKIDAGI KORXONA
VA TASHKIOTLAR TO'G'RISIDA MA'LUMOTLAR**
**Yangi tashkil etilgan xorijiy kapital ishtirokidagi korxonalar
va tashkilotlar to'g'risida ma'lumot**
2022- yil yanvar-sentabr holatiga ko'ra, birlikda



Iqtisodiy faoliyat turlari kesimida



Xorijiy investorlar uchun beriladigan imtiyozlar va moliyaviy-iqtisodiy rag'batlantirish tizimi, investitsiyaviy jozibadorlikning muhim omili hisoblanib, mamlakatimizda xalqaro iqtisodiy hamkorlikni rivojlantirish bo'yicha olib borilayotgan ishlar natijasida xorijiy investitsiyalar ishtirokidagi korxonalar soni sezilarli darajada oshib borayotganligini ko'rishimiz mumkin.


2022- yil yanvar-sentabr oyida yangi tashkil etilgan korxonalar va tashkilotlar soni 2017- yilning mos davri bilan solishtirilganda **3,2 barobarga** oshgan.

Hududlar kesimida


Toshkent sh.	1 311	Namangan v.	28
Toshkent v.	167	Sirdaryo v.	21
Surxondaryo v.	68	Navoiy v.	20
Samarqand v.	54	Qashqadaryo v.	15
Andijon v.	53	Xorazm v.	14
Farg'ona v.	51	Jizzax v.	13
Buxoro v.	35	Qoraqalpog'iston R.	10

**Korxonalar va tashkilotlar
faoliyatining umumiy tavsifi**

Faoliyat ko'rsatayotgan xorijiy kapital ishtirokidagi korxonalar va tashkilotlar to'g'risida ma'lumot 2022-yil 1-oktabr holatiga ko'ra, birlikda



Iqtisodiy faoliyat turlari kesimida



Keyingi besh yilda xorijiy kapital ishtirokida faoliyat ko'rsatayotgan korxonalar soni **2,8 barobarga** oshdi.

Yetakchi o'rinni **2 764** ta korxonada to'liq yoki qisman ulushi mavjud bo'lgan **Rossiya Federatsiyasi** egallagan. Bu respublikada xorijiy kapital ishtirokida faoliyat ko'rsatayotgan korxonalar umumiy sonining **18,7 foiz** ulushini tashkil etadi. Shuningdek, O'zbekiston iqtisodiyotiga o'z kapitalini kiritayotgan **Xitoy** (ulushi **14,0 foiz**), **Turkiya** (ulushi **14,2 foiz**), **Qozog'iston** (ulushi **8,0 foiz**) va **Janubiy Koreya** (ulushi **6,1 foiz**) davlatlari ham yetakchilar hisoblanishadi.

Hududlar kesimida

Toshkent sh.	8 924	Namangan v.	304
Toshkent v.	1 583	Navoiy v.	254
Samarqand v.	679	Qashqadaryo v.	245
Surxondaryo v.	611	Jizzax v.	221
Farg'ona v.	573	Sirdaryo v.	212
Andijon v.	417	Xorazm v.	186
Buxoro v.	378	Qoraqalpog'iston R.	181

Korxonalar va tashkilotlar faoliyatining umumiy tavsifi

**Davlatlar kesimida yangi tashkil etilgan xorijiy kapital
ishtirokidagi korxonalar to'g'risida ma'lumot**
2022-yil yanvar-sentabr holatiga ko'ra, birlikda

	Rossiya	553
	Turkiya	246
	Xitoy	182
	Qozog'iston	138
	Janubiy Koreya	62
	Tojikiston	50
	Qirg'iz R.	40
	Germaniya	27
	AQSH	27
	Ozarbayjon	23
	Turkmaniston	17
	boshqalar	495

O'zbekistonda iqtisodiy o'sishni jadallashtirish, xalqaro aloqalarni kengaytirish va to'g'ridan-to'g'ri xorijiy investitsiyalar uchun qulay huquqiy muhit yaratish bo'yicha keng qamrovli iqtisodiy va ijtimoiy islohotlar olib borilmoqda. Mamlakatning strategik geografik joylashuvi, boy va xilma-xil tabiiy resurslari va **35,8 million** kishilik ulkan ichki bozori sarmoyalar va o'sish uchun ulkan imkoniyatlarni namoyon etadi. O'zbekiston hukumati o'z fuqarolarining farovonligini oshirish, biznesni rivojlantirish va zamonaviy texnologiyalarni joriy etishni rag'batlantirish maqsadida, chet el investitsiyalarini ko'paytirishga ustuvor ahamiyat bermoqda.

**Korxonalar va tashkilotlar
faoliyatining umumiy tavsifi**

**Davlatlar kesimida faoliyat ko'rsatayotgan xorijiy kapital
ishtirokidagi korxonalar to'g'risida ma'lumot**
2022-yil 1- oktabr holatiga ko'ra, birlikda

	Rossiya	2 764
	Turkiya	2 094
	Xitoy	2 062
	Qozog'iston	1 184
	Janubiy Koreya	908
	AQSH	335
	Qirg'iz R.	294
	Tojikiston	279
	Ozarbayjon	248
	Germaniya	212
	Turkmaniston	168
	boshqalar	4 220

O'zbekistonning yangi tashqi siyosatini asosiy xususiyatlari bu ochiqlik, pragmatizm, bashoratga intilish, uzoq muddatli barqaror rivojlanishning ustuvor yo'nalishlariga e'tibor berish, qo'shni davlatlar bilan yaxshi qo'shnichilik munosabatlarini mustahkamlash, xalqaro hamkorlikni beg'araz asosda kengaytirishdir.

Buning samarasida – bugungi kunda O'zbekiston iqtisodiyotning turli tarmoqlarida tadbirkorlik faoliyatini yuritish va investitsiyalarni jalb qilish uchun zarur bo'lgan ichki sharoitlarni yaratish jarayonini rag'batlantirishga qaratilgan izchil islohotlar amalga oshirilayotgani kuzatilmoqda.

Shuningdek, xorijiy kapital ishtirokidagi faoliyat ko'rsatayotgan korxonalaridan **6 267 tasi** qo'shma korxonalar, **8 501 tasi** esa xorijiy korxonalar hisobiga to'g'ri keldi.


Korxonalar va tashkilotlar faoliyatining umumiy tavsifi

**Hududlar kesimida faoliyat ko'rsatayotgan xorijiy va qo'shma
korxonalar soni to'g'risida ma'lumot**
2022-yil 1- oktabr holatiga ko'ra, birlikda

xorijiy korxonalar		qo'shma korxonalar
5 729	Toshkent sh.	3 195
888	Toshkent v.	695
236	Samarqand v.	443
225	Farg'ona v.	348
462	Surxondaryo v.	149
156	Andijon v.	261
165	Buxoro v.	213
120	Namangan v.	184
100	Navoiy v.	154
84	Qashqadaryo v.	161
88	Jizzax v.	133
79	Xorazm v.	107
92	Sirdaryo v.	120
77	Qoraqalpog'iston R.	104

**Korxonalar va tashkilotlar
faoliyatining umumiy tavsifi**

Iqtisodiy faoliyat turlari kesimida faoliyat ko'rsatayotgan qo'shma va xorijiy kapital ishtirokidagi korxonalar soni to'g'risida ma'lumot 2022-yil 1-oktabr holatiga ko'ra, birlikda



So'nggi yillarda O'zbekiston iqtisodiyotni jadal o'zgartirishni boshdan kechirdi va xalqaro hamjamiyatda ochiqlik, innovatsiya va biznes va sarmoyaviy to'siqlarni bartaraf etishda qat'iylik timsollaridan biri sifatida tobora ko'proq e'tirof etilmoqda.

Demak, xorijiy investitsiyalar ishtirokidagi korxonalar sonining ko'payishi, avvalambor, mamlakatdagi siyosiy barqarorlik va investitsiya faoliyatining huquqiy asoslari takomillashtirilgani bilan bog'liq.

Korxonalar va tashkilotlar faoliyatining umumiy tavsifi

Statistik ko'rsatkichlarga izohlar

Korxonalar va tashkilotlarning yagona davlat registri – axborot-ma'lumotnoma tuzilishi, vaqti-vaqti bilan yangilab boriladigan ma'lumotlardan iborat bo'lgan, avtomatlashtirilgan tizim hisoblanadi hamda yagona klassifikatsiyalar tizimi asosida korxonalar va tashkilotlarning davlat hisobini va ularni identifikatsiyalashtirishni ta'minlaydi.

Ro'yxatga olingan – ro'yxatdan o'tkazish organlari tomonidan belgilangan tartibda davlat ro'yxatidan o'tkazilgan hamda yuridik shaxslarning davlat reestrda mavjud bo'lgan yuridik shaxslar (faoliyati tugatilgan yuridik shaxslardan tashqari).

Faoliyat ko'rsatayotgan – ro'yxatdan o'tkazish organlari tomonidan belgilangan tartibda davlat ro'yxatidan o'tkazilgan hamda moliya-xo'jalik faoliyatini amalga oshirmayotganligi yoki tugatish jarayonida ekanligi to'g'risidagi ma'lumot kelib tushmagan yuridik shaxslar.

Yangi tashkil etilgan – ro'yxatdan o'tkazish organlari tomonidan belgilangan tartibda yuridik shaxslarning davlat reestriga yangidan kiritilgan yuridik shaxslar.

Yuridik shaxslarning faollik darajasi – ma'lum bir davrda faoliyat ko'rsatmayotgan yuridik shaxslarning jami ro'yxatdan o'tgan yuridik shaxslarga nisbatining foizdagi ifodasi.

Kichik korxonalar va mikrofirmalar – O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2016- yil 24- avgustdagi "Iqtisodiy faoliyat turlarini tasniflashning xalqaro tizimiga o'tish chora-tadbirlari to'g'risida" 275- son qarorining 1- ilovasiga muvofiq, kichik tadbirkorlik subyektlariga tegishli bo'lgan korxonalar va tashkilotlar.

Xorijiy kapital ishtirokidagi korxonalar – norezidentlar ishtirokidagi korxonalar, xorijiy yuridik shaxslar (xorijiy firmalarning filiallari va bo'limlari), korxonaning ustav fondida chet el fuqarolari va fuqaroligi bo'lmagan shaxslar ishtirok etgan korxonalar.

Ma'lumotlar O'zbekiston Respublikasi Adliya vazirligining Davlat xizmatlari markazi ma'lumotlar bazasi asosida 2022- yil 1- oktabr holatiga ko'ra (fermer va dehqon xo'jaliklarisiz) shakllantirildi.


XIV. AHOLINING UMUMIY DAROMADLARI

1- BO'LIM. AHOLI UMUMIY DAROMADLARI TARKIBI

Aholi farovonligini ifodalashda jami aholining, oilalarning, alohida shaxslarning umumiy daromadlari muhim ahamiyatga ega.

Dastlabki ma'lumotlar bo'yicha, 2022- yilning yanvar-sentabr holatiga ko'ra, aholining umumiy daromadlari **454,9** trln. so'mni tashkil etdi.

Aholi daromadlari bo'yicha real o'sish sur'atlarini hisoblashda narx omillari ta'sirini chiqarib tashlash maqsadida, inflyatsiya ko'rsatkichlarining asosiy turlaridan biri – iste'mol narxlari indeksidan (INI) foydalaniladi. Iste'mol narxlarining o'zgarishi sababli o'tgan yilning mos davriga nisbatan aholi umumiy daromadlarining real o'sish sur'ati **110,7 %** ni tashkil etdi.



Aholi umumiy daromadlarini hisoblash – Milliy hisoblar tizimining xalqaro statistika standartlariga, Xalqaro mehnat tashkilotining tavsiyalariga, O'zbekiston Respublikasi qonun hujjatlariga asoslangan Davlat statistika qo'mitasi tomonidan ishlab chiqilgan hamda tasdiqlangan metodik qo'llanma asosida amalga oshiriladi.

12,8
mln. so'm

Aholi jon boshiga umumiy daromadlari

120,5%

Aholi jon boshiga umumiy daromadlarining nominal o'sish sur'ati


108,4%

Aholi jon boshiga umumiy daromadlarining real o'sish sur'ati

Dastlabki ma'lumotlar bo'yicha, 2022-yilning yanvar-sentabr holatiga ko'ra, aholi jon boshiga umumiy daromadlari 12,8 mln. so'mni, aholi jon boshiga umumiy daromadlarining nominal o'sish sur'ati 120,5 % ni tashkil etdi.


Iste'mol narx-larining o'zgarishi sababli o'tgan yilning mos davriga nisbatan aholi jon boshiga umumiy daromadlarining real o'sish sur'ati **108,4 %** ni tashkil etdi.

Aholi umumiy daromadlarning nominal o'sish sur'atlari
yanvar-sentabr holatiga ko'ra




- Aholi umumiy daromadlarining nominal o'sish sur'atlari
- Aholi jon boshiga umumiy daromadlarning nominal o'sish sur'atlari

Aholi umumiy daromadlarning real o'sish sur'atlari
yanvar-sentabr holatiga ko'ra



- Aholi umumiy daromadlarining real o'sish sur'atlari
- Aholi jon boshiga umumiy daromadlarning real o'sish sur'atlari

Aholi umumiy daromadlari tarkibi



O‘zbekiston Respublikasida aholi umumiy daromadlari tarkibi
va o‘tgan yilning mos davriga nisbatan o‘shir sur‘ati
2022- yilning yanvar-sentabr holatiga ko‘ra


Ko‘rsatkichlar	Jamiga nisbatan, % da		O‘shir sur‘ati
	2021- y.	2022- y.	
Umumiy daromadlar – jami (I+II)	100,0 %	100,0 %	123,1 %
I. Birlamchi daromadlar	73,7 %	69,8 %	116,5 %
I.1. Ishlab chiqarishdan olingan daromadlar	71,5 %	67,4 %	115,9 %
I.1.1. Mehnat faoliyatidan olingan daromadlar	64,8 %	61,2 %	116,2 %
I.1.1.1. Yollanma ishchilarning daromadlari	26,5 %	27,2 %	126,2 %
I.1.1.2. Mustaqil ravishda band bo‘lishdan olingan daromadlar	38,3 %	34,0 %	109,2 %
I.1.2. Shaxsiy iste‘mol uchun o‘zida ishlab chiqarilgan xizmatlardan olingan daromadlar	6,7 %	6,2 %	112,7 %
I.2. Mol-mulkdan olingan daromadlar	2,2 %	2,4 %	136,0 %
II. Transfertlardan olingan daromadlar	26,3 %	30,2 %	141,6 %

2022- yilning yanvar-sentabr oylarida aholi umumiy daromadlarining 69,8 % ini birlamchi daromadlar tashkil qilgan bo‘lsa, 30,2 % i transfertlardan olingan daromadlar hissasiga to‘g‘ri keldi.

2022- yilning yanvar-sentabr oylarida aholi umumiy daromadlarining katta qismi yollanma ishchilarning daromadlari va mustaqil ravishda band bo‘lishdan olingan daromadlarni o‘z ichiga olgan mehnat faoliyatidan olingan daromadlardan (jami aholi umumiy daromadlarining 61,2 % i) shakllandi, hamda nominal o‘shir sur‘ati 2021- yilning mos davriga nisbatan 116,2 % ni tashkil etdi.


Aholi umumiy daromadlari tarkibida shaxsiy iste‘mol uchun o‘zida ishlab chiqarilgan xizmatlardan olingan daromadlarning ulushi 6,2 %, mol-mulkdan olingan daromadlarning ulushi 2,4 %, transfertlardan olingan daromadlar ulushi 30,2 % ni tashkil qildi.

Aholi umumiy daromadlari tarkibi



Hududlar bo'yicha aholi umumiy daromadlari tarkibi

(2022- yilning yanvar-sentabr holatiga ko'ra, jami aholi umumiy daromadlariga nisbatan)



■ mehnat faoliyatidan olingan daromadlar

■ shaxsiy iste'mol uchun o'zida ishlab chiqarilgan xizmatlardan olingan daromadlar va mol-mulkdan olingan daromadlar


■ transfertlardan olingan daromadlar

Hududlarning aholi umumiy daromadlari tarkibida mehnat faoliyatidan olingan daromadlarining (yollanib ishlovchilarning ish haqi va mustaqil ravishda band bo‘lishdan olingan daromadlar) eng yuqori ulushi Navoiy viloyatida (79,2 %) kuzatildi. Aksincha Samarqand, Xorazm viloyati, Qoraqalpog‘iston Respublikasi, Surxondaryo, Namangan, Qashqadaryo, Farg‘ona, Andijon viloyatlari va Toshkent shahrida o‘rtacha respublika darajasidan past ko‘rsatkichni tashkil etdi.

Respublika bo‘yicha aholi umumiy daromadlari tarkibida shaxsiy iste‘mol uchun o‘zida ishlab chiqarilgan xizmatlardan olingan daromadlar va mol-mulkdan olingan daromadlarning ulushi sezilarli darajada bo‘lmasada, Toshkent shahrida bunday daromadlarning ulushi 20,6 % ni tashkil etdi.


Shuningdek, transfertlardan olingan daromadlarning ulushi Samarqand va Xorazm viloyatlarida aholi umumiy daromadlariga nisbatan 40 % dan yuqori ko‘rsatkichni tashkil etgan bo‘lsa, Navoiy viloyatida mazkur daromad turining ulushi eng past ya‘ni, 13,9 % ni tashkil etdi.

Mehnat faoliyatidan olingan daromadlar
(2022- yilning yanvar-sentabr holatiga ko‘ra)




Aholining umumiy daromadlari tarkibida mehnat faoliyatidan olingan daromadlar (yollanma ishchilarning va mustaqil ravishda band bo‘lishdan olingan daromadlar) sezilarli ulushni tashkil etadi.


Mehnat faoliyatidan olingan daromadlarning umumiy daromadlar tarkibidagi ulushi
(yanvar-sentabr holatiga ko‘ra)



Mehnat faoliyatidan olingan daromadlarning nominal o‘shish sur‘ati
(yanvar-sentabr holatiga ko‘ra)




**Aholining umumiy daromadlari
tarkibida mustaqil ravishda band
bo'lishdan olingan daromadlar ulushi**
(yanvar-sentabr holatiga ko'ra)




2022- yilning yanvar-sentabr oylarida aholining umumiy daromadlari tarkibida mustaqil ravishda band bo'lishdan olingan daromadlari 34,0 % ni tashkil qildi, 2018-yilda esa bu kursatkich 42,1 % tashkil etgan.

**Mustaqil ravishda band bo'lishdan
olingan daromadlarning o'sish sur'ati**
(yanvar-sentabr holatiga ko'ra)



Joriy davrda mustaqil ravishda band bo'lishdan olingan daromadlarning o'sish sur'ati 109,2 % ni tashkil etib, aholi umumiy daromadlari nominal hajmining 3,5 % ga o'sishini ta'minladi. 2021- yil va 2018- yillarda yuqori o'sish sur'ati – 121,8 % tashkil etgan.

**Hududlar bo'yicha aholi umumiy daromadlari tarkibida mustaqil ravishda
band bo'lishdan olingan daromadlarning ulushi**
2022- yilning yanvar-sentabr holatiga ko'ra




Hududlarda mustaqil ravishda band bo‘lishdan olingan daromadlarning eng yuqori ulushini Jizzax (50,7 %), Buxoro (43,0 %) va Toshkent (41,8 %) viloyatlari tashkil etdi. Aksincha Toshkent shahri va Qoraqalpog‘iston Respublikasi o‘rtacha respublika darajasidan past ko‘rsatkichni tashkil etdi.

Ma’lumot uchun: Mustaqil ravishda band bo‘lishdan olingan daromadlarning 1 % ga o‘shishi umumiy daromadlar hajmining 0,34 % ga o‘shiga olib keldi.

Hududlar bo‘yicha mustaqil ravishda band bo‘lishdan olingan daromadlarning o‘shish sur‘ati


2022- yilning yanvar-sentabr holatiga ko‘ra




Jizzax viloyatida aholi umumiy daromadlari tarkibida mustaqil ravishda band bo‘lishdan olingan daromadlarning ulushi 50,7 % ni tashkil etib, o‘tgan yilning mos davriga nisbatan nominal o‘shish sur‘ati 104,4 % ni tashkil etdi. Birgina ushbu turdagi daromadlar Jizzax viloyatida aholi umumiy daromadlarini 2,4 % ga o‘shishini ta’minlab berdi.

Xuddi shunday Buxoro viloyatida 43,0 % ulushni va 109,2 % o‘shish sur‘ati, aholi umumiy daromadlarining 4,4 % ga o‘shishini ta’minlab berdi.

**Hududlar bo'yicha mustaqil ravishda band bo'lishdan olingan daromadlarning
1 % ga o'sishini aholi umumiy daromadlari hajmining o'sishiga ta'siri**
2022- yilning yanvar-sentabr holatiga ko'ra



**Jami mustaqil ravishda band bo'lishdan olingan daromatlarda
hududlarning ulushi**
2022- yilning yanvar-sentabr holatiga ko'ra




Mustaqil ravishda band bo‘lishdan olingan daromadlarning asosiy ulushi Toshkent – 10,6 %, Samarqand – 10,5 %, Andijon – 9,4 % va Qashqadaryo – 9,3 % viloyatlari hissasiga to‘g‘ri keldi.

Aksincha Sirdaryo viloyati – 2,3 %, Qoraqalpog‘iston Respublikasida – 3,3 %, Navoiy 4,9 %, va Jizzax – 5,1 % viloyatlarida kamroq ulushni tashkil etdi.




Ma’lumot uchun: O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022- yil 20- maydagi “Ish haqi miqdorini oshirish to‘g‘risida”gi PF-138-son Farmoniga muvofiq, aholi turmush darajasini oshirishga qaratilgan chora-tadbirlar ko‘lamini kengaytirish hamda fuqarolarning daromadlarini izchil oshirib borish maqsadida 2022- yilning 1- iyunidan boshlab, budget tashkilotlari xodimlarining ish haqi miqdori 12 foizga oshirildi.

Yollanma ishchilar daromadlarining o‘shish sur‘ati




Joriy davrda yollanma ishchilar daromadlarining o‘shish sur‘ati 126,2 % ni tashkil etib, aholi umumiy daromadlari nominal hajmining 6,8 % ga o‘shishini ta’minladi. Bu ko‘rsatkich 2021- yilda - 118,8 % ni, 2020- yilda - 114,9 % ni, 2019- yilda – 136,3 % ni, 2018- yilda – 120,6 % ni, tashkil etgan.

Aholining umumiy daromadlari tarkibida yollanma ishchilarning daromadlari ulushi




2022- yilning yanvar-sentabr oylarida aholining umumiy daromadlari tarkibida yollanma ishchilarning daromadlari 27,2 % ni tashkil qildi. Ko‘proq ulushni 2020- yilda – 27,4 % ni tashkil etgan.

**Hududlar bo'yicha umumiy daromadlar tarkibida
yollanma ishchilar daromadlarining ulushi,
2022- yilning yanvar-sentabr holatiga ko'ra**




Hududlarda yollanma ishchilar daromadlarining eng yuqori ulushini Toshkent shahri (50,0 %), Navoiy (43,0 %), Toshkent (31,5 %) viloyatlari va Qoraqalpog'iston Respublikasi (28,6 %) tashkil etdi. Aksincha Samarqand (16,7 %), Xorazm (17,6 %), Surxondaryo (17,6 %), viloyatlarida kamroq ulushni tashkil etdi.

**Yollanma ishchilar daromadlarining aholi umumiy daromadlariga ta'siri
2022- yil yanvar-sentabr holatiga ko'ra**



Hududlar bo‘yicha yollanma ishchilar daromadlarining o‘shish sur‘ati,
2022- yil yanvar-sentabr holatiga



Hududlar bo‘yicha tahlil qiladigan bo‘lsak, Toshkent shahri, Navoiy, Sirdaryo viloyati yollanma ishchilar daromadlarining aholi umumiy daromadlariga nisbatan ulushi va ularning o‘shish sur‘atining yuqoriligiga qarab, sezilarli ta‘sir ko‘rsatganligini ko‘rishimiz mumkin.

Yollanma ishchilar daromadlarining eng yuqori o‘shish sur‘ati Toshkent shahri (135,6 %) va Xorazm (129,6 %) viloyatida qayd etildi. Masalan, Toshkent shahri aholi umumiy daromadlari tarkibida yollanma ishchilar daromadlarining ulushi 50,0 % ni, o‘tgan yilning mos davriga nisbatan nominal o‘shish sur‘ati 135,6 % ni tashkil etdi.

Birgina ushbu turdagi daromadlarning o‘zi Toshkent shahri aholisi umumiy daromadlarining 16,7 % ga o‘shishini ta‘minlab berdi.


Navoiy viloyatida aholi umumiy daromadlari tarkibida yollanma ishchilar daromadlarining ulushi 43,0 % ni tashkil etib, o‘tgan yilning mos davriga nisbatan nominal o‘shish sur‘ati 127,2 % ni tashkil etdi. Birgina ushbu turdagi daromadlarning o‘zi Navoiy viloyati aholisi umumiy daromadlarining 10,3 % ga o‘shishini ta‘minlab berdi.

Xuddi shunday Sirdaryo viloyatida esa 27,0 % ulush va 128,7 % o‘shish sur‘ati

aholi umumiy daromadlarining 7,1 % ga o‘shishini ta‘minlab berdi.

Shuningdek, aholi daromadlari manbalaridan yana biri mol-mulkdan olingan daromadlar bo‘lib, 2022- yilning yanvar-sentabr holatiga ko‘ra, ushbu daromad manbaining ulushi 2,4 % ni tashkil etganligini ko‘rishimiz mumkin.


Mol-mulkdan olingan daromadlar
2022- yil yanvar-sentabr holatiga




Dastlabki ma'lumotlar bo'yicha, 2022- yilning yanvar-sentabr holatiga ko'ra, mol-mulkdan olingan daromadlar **11,0 trln.** so'mni tashkil etdi. Joriy davrda mol-mulkdan olingan daromadlar aholi umumiy daromadlari hajmining 0,8 % ga o'sishini ta'minladi.

Mol-mulkdan olingan daromadlar tarkibida hududlarning ulushi,
2022- yil yanvar-sentabr holatiga

2022- yilning yanvar-sentabr oylarida mol-mulkdan olingan daromadlar hajmining uchdan ikki qismi ulushi Toshkent shahri hissasiga to'g'ri kelib, (64,6 %) tashkil etdi. Toshkent (7,5 %), Farg'ona (4,8 %), va Navoiy (4,3 %) viloyatlari keyingi yuqori ulushga ega bo'lgan hududlar hisoblanadi.




**Mol-mulkdan olingan daromadlarning
o‘tgan yilning mos davriga nisbatan o‘shish sur‘ati**



Mol-mulkdan olingan daromadlarining yuqori o‘shish sur‘ati Toshkent shahri (141,9 %), Navoiy viloyati (141,0 %), hamda Qoraqalpog‘iston Respublikasida (135,4 %), Namangan (132,0 %), Jizzax (131,5 %), Farg‘ona (129,1 %) va Andijon (126,6 %) viloyatlarida qayd etildi.

Transfertlardan olingan daromadlar
2022- yil yanvar-sentabr holatiga

Transfertlardan olingan daromadlar tarkibi




Aholining umumiy daromadlari tarkibida transfertlardan olingan daromadlar ham muhim ahamiyatga ega bo‘lib, ushbu daromadlar ijtimoiy transfertlar va boshqa joriy transfertlarni o‘z ichiga oladi.

2022- yilning yanvar-sentabr oylari ma‘lumotlariga ko‘ra, transfertlardan olingan daromadlarning o‘tgan yilning mos davriga nisbatan nominal o‘shish sur‘ati 141,6 % ni tashkil etdi. Shu bilan birga, joriy davrda aholining umumiy daromadlari hajmida transfertlardan olingan daromadlarning ulushi 30,2 % ni tashkil etdi.


Kuzatilayotgan davrda ijtimoiy transfertlarning o'sish sur'ati 135,6 % ni tashkil etdi va bunga ijtimoiy transfertlar tarkibida 71,8 % ulushga ega bo'lgan pensiyalar asosiy ta'sir ko'rsatdi.

2021- yilning mos davri bilan taqqoslaganda pensiyalarning o'sish sur'atlari 123,8 % ni tashkil etdi. O'tgan davr mobaynida pensiya, nafaqa va stipendiyalarning o'zgarishi aholi umumiy daromadlarining 3,5 % ga o'sishi imkonini berdi.

Ijtimoiy transfertlar tarkibi,
2022- yilning yanvar-sentabr holatiga




Ijtimoiy transfertlarning o'sish sur'atlari




Ijtimoiy transfertlarning o'tgan yilning mos davriga nisbatan hududlar bo'yicha tahlili shuni ko'rsatmoqdaki, 2022- yilning yanvar-sentabr holatiga ko'ra, barcha hududlarda ushbu daromad turi o'sish tendensiyasiga ega bo'lgan, Qashqadaryo (144,1%), Namangan (144,0%), Jizzax (143,1%), Surxondaryo (140,8%), Andijon (139,7%), Sirdaryo (137,9%), Samarqand (137,0%) viloyatlarida va Qoraqalpog'iston Respublikasida (136,2%) hamda Xorazm (136,2%), Farg'ona (135,9%) viloyatlarida respublika darajasidan yuqori o'sish sur'atlari qayd etildi.

Ijtimoiy transfertlarning o'sish sur'atlari
2022- yil yanvar-sentabr holatiga ko'ra, 2021- yilning mos davriga nisbatan



Pensiyalar va nafaqalarning o‘shish sur‘atlari,

(2022- yilning yanvar-sentabr holatiga ko‘ra, 2021- yilning mos davriga nisbatan)



Respublika bo‘yicha jami pensiyalardan olingan daromadlarning uchdan bir qismi (34,0 %) Toshkent shahri (13,1 %), Farg‘ona (10,5 %) va Toshkent (10,4 %) viloyatlari hissasiga to‘g‘ri keldi. Toshkent shahrida ushbu daromad manbaining o‘shish sur‘ati 120,9 % ni tashkil etgan bo‘lsa, Toshkent viloyatida 119,5 % va Farg‘ona viloyatida 124,5 % ni tashkil etdi.


Ijtimoiy transfertlarning tarkibida ijtimoiy nafaqalarning ulushi 26,5 % bo‘lib, o‘tgan yilning mos davriga nisbatan 181,4 % ga o‘sd. Nafaqalarning eng yuqori o‘shish sur‘ati Toshkent shahri (212,4 %), Namangan (197,6 %), Qashqadaryo (195,4 %) viloyatlarida kuzatildi. Shuningdek, Farg‘ona (184,6%), Andijon (183,6%), Sirdaryo (183,4 %) va Samarqand (182,7%)

viloyatida ham o‘shish sur‘ati respublika ko‘rsatkichidan yuqori bo‘ldi.

Dastlabki ma‘lumotlarga ko‘ra, 2022- yilning yanvar-sentabr oylarida stipendiyalarning ijtimoiy transfertlar tarkibidagi ulushi 1,7 % ni tashkil etdi.

Joriy yilning yanvar-sentabr oylarida aholini ijtimoiy qo‘llab-quvvatlash maqsadida jami 13,1 trln. so‘m miqdorida nafaqa va moddiy yordamlar ajratilgan. Shundan 37,0 % i Budjetdan tashqari Pensiya jamg‘armasi hisobidan moliyalashtiriladigan davlat ijtimoiy sug‘urtasi bo‘yicha nafaqalar va 63,0 % i esa respublika va mahalliy budjet mablag‘lari hisobidan moliyalashtirilgan.

**Hududlar bo'yicha ijtimoiy nafaqalarning shakllanish manbalari,
2022- yil yanvar-sentabr holatiga ko'ra**



Hududlar kesimida esa bu ko'rsatkich turlicha. Namangan viloyatida 30,1 % nafaqalar Budjetdan tashqari Pensiya jamg'armasi hisobidan, 69,9 % nafaqalar respublika va mahalliy budjet mablag'lari hisobidan shakllantirilgan bo'lsa, Toshkent shahrida jami ijtimoiy nafaqalarning 73,2 % i Budjetdan tashqari Pensiya jamg'armasi hisobidan, 26,8 % i respublika va mahalliy budjet mablag'lari hisobidan shakllantirilgan.

Boshqa joriy transfertlar

2022- yilning yanvar-sentabr holatiga ko'ra

Boshqa joriy transfertlar hajmi chet eldan yuborilgan pul o'tkazmalari tarkibidan jismoniy shaxslarning ishlab chiqarish (biznes) faoliyatidan olinadigan daromadlari bilan bog'liq o'tkazmalarini (Markaziy bank va uy xo'jaliklari tanlanma kuzatuv ma'lumotlari asosida) chiqarib tashlangan holda keltirilgan.

2022- yilning yanvar-sentabr oylari bo'yicha boshqa joriy transfertlar tarkibiga kiruvchi respublika tashqarisidan kelib tushgan pul o'tkazmalari hajmining nominal o'sish sur'ati 145,2 % ni tashkil etib, aholi umumiy daromadlari tarkibidagi ulushi o'tgan yilning shu davriga nisbatan 3,0 % punktga ko'paydi.

Ushbu daromadlarning o'zgarishi aholi umumiy daromadlari nominal qiymatining 7,4 % ga o'sishini ta'minlab berdi. Joriy davrda aholi umumiy daromadlari tarkibida respublika tashqarisidan kelib tushgan pul o'tkazmalarining eng yuqori ulushi Xorazm (31,4 %) va Samarqand (29,7 %) viloyatlarida kuzatildi.


Shuningdek, Surxondaryo (25,8 %), Andijon (25,2 %), Buxoro (23,2 %), Qashqadaryo (22,7 %), Namangan (22,2 %), Farg'ona (21,4 %) viloyatlari va Qoraqalpog'iston Respublikasida (21,1 %) respublika darajasidan yuqori ulushni tashkil etdi.

Hududlar bo‘yicha umumiy daromadlar tarkibida respublika tashqarisidan kelib tushgan pul o‘tkazmalari hajmining ulushi, 2022- yil yanvar-sentabr holatiga ko‘ra



2- BO‘LIM. HUDUDLAR KESIMIDA AHOLI DAROMADLARI TO‘G‘RISIDA MA‘LUMOT


O‘zbekiston Respublikasi hududlari bo‘yicha aholi jon boshiga o‘rtacha umumiy daromadlar hajmi, 2022- yilning yanvar-sentabr holatiga ko‘ra, ming so‘m



Dastlabki ma'lumotlarga ko'ra, 2022- yilning yanvar-sentabr oylarida O'zbekiston Respublikasida aholi jon boshiga o'rtacha umumiy daromadlar 12,8 mln. so'mni tashkil etdi. Aholi jon boshiga o'rtacha umumiy daromadlar bo'yicha Toshkent shahri (26,9 mln. so'm), Navoiy (20,1 mln. so'm), Buxoro (15,5 mln. so'm), Xorazm (14,2 mln. so'm) va Toshkent (13,3 mln. so'm) viloyatlarida o'rtacha respublika darajasidan yuqori ko'rsatkichlar qayd etildi.

Aholi jon boshiga umumiy daromadlarning eng yuqori real o'sish sur'ati Toshkent shahar (13,8 %) va Xorazm (12,8 %) viloyatiga to'g'ri keldi. Shuningdek, Surxondaryo (12,0 %), Qashqadaryo (9,8 %), Namangan (9,7 %) va Farg'ona (8,5 %) viloyatlarida aholi jon boshiga umumiy daromad ko'rsatkichlarining real o'sishi respublika darajasidan yuqorini tashkil etdi.

O'zbekiston Respublikasi hududlari bo'yicha aholi jon boshiga o'rtacha umumiy daromadlarining real o'sish sur'atlari, 2022- yilning yanvar-sentabr holatiga ko'ra



2022- yilning yanvar-sentabr oylarida aholining real umumiy daromadlari 409,2 trln. so'mni tashkil etdi va o'tgan yilning mos davriga nisbatan 110,7 % ga o'sdi, aholi jon boshiga esa 11512,4 ming so'mni tashkil etdi.

Aholi jon boshiga real umumiy daromadlarining eng yuqori ko'rsatkichi Toshkent shahrida (24143,4 ming so'm) kuzatildi. Shuningdek, Navoiy (18072,1 ming so'm), Buxoro (13935,6 ming so'm), Xorazm (12753,9 ming so'm) va Toshkent (11959,2 ming so'm) viloyatlarida respublika darajasidan yuqori ko'rsatkich qayd etildi.


Eng quyi ko'rsatkichlar esa Qoraqalpog'iston Respublikasida (8390,5 ming so'm), Farg'ona (8709,5 ming so'm) va Namangan (9088,1 ming so'm) viloyatlarida kuzatildi.

**O‘zbekiston Respublikasi hududlari kesimida aholining real umumiy daromadlari,
2022- yilning yanvar-sentabr holatiga ko‘ra**

	<i>Jami, mlrd. so‘m</i>	<i>O‘tgan yilning mos davriga nisbatan</i>	<i>Aholi jon boshiga o‘rtacha, ming so‘m</i>	<i>O‘tgan yilning mos davriga nisbatan</i>
O‘zbekiston Respublikasi	409 222,8	110,7	11 512,4	108,4
Qoraqalpog‘iston Respublikasi	16 441,1	107,7	8 390,5	106,1
<i>viloyatlar:</i>				
Andijon	32 692,5	110,5	9 970,6	108,2
Buxoro	27 710,9	109,1	13 935,6	107,4
Jizzax	13 848,3	103,6	9 517,7	101,3
Qashqadaryo	32 963,0	112,2	9 596,5	109,8
Navoiy	18 831,1	106,0	18 072,1	103,9
Namangan	26 857,0	112,2	9 088,1	109,7
Samarqand	40 352,6	108,6	9 931,7	106,4
Surxondaryo	26 421,1	114,6	9 551,4	112,0
Sirdaryo	8 676,0	107,2	9 799,0	105,1
Toshkent	35 380,1	102,3	11 959,2	100,6
Farg‘ona	34 187,5	110,6	8 709,5	108,5
Xorazm	24 686,5	114,7	12 753,9	112,8
Toshkent sh.	69 974,7	117,4	24 143,4	113,8

Hududlar bo'yicha aholi ixtiyoridagi umumiy daromadlarning real o'sish sur'atlari

(2022- yilning yanvar-sentabr holatiga ko'ra, 2021- yilning mos davriga nisbatan)



2022- yilning yanvar-sentabr holatiga ko'ra, aholi ixtiyoridagi umumiy daromadlar 418,1 trln. so'mni tashkil etdi (real o'sish sur'ati 110,2 %), aholi jon boshiga esa 11762,3 ming so'mni (real o'sish sur'ati 108,0 %) tashkil etdi.

Hududlar bo'yicha tahlil qiladigan bo'lsak, aholi jon boshiga ixtiyoridagi umumiy daromadlar Toshkent shahri (21107,7 ming so'm) hamda Navoiy (18880,1 ming so'm), Buxoro (14768,0 ming so'm), Xorazm (13634,3 ming so'm), va Toshkent (12364,3 ming so'm) viloyatlarida o'rtacha respublika darajasidan yuqori ko'rsatkichni tashkil etdi.

Eng past ko'rsatkichlar Qoraqalpog'iston Respublikasida (8797,4 ming so'm), Farg'ona (9063,5 ming so'm) va Namangan (9468,3 ming so'm) viloyatlarida kuzatildi.

Aholi ixtiyoridagi umumiy daromadlarning eng yuqori real o'sish sur'ati Toshkent shahrida va Surxondaryo viloyati (115,3 %) qayd etildi.


Shuningdek, Xorazm (114,7 %), Qashqadaryo (112,5 %), Namangan (112,2 %) va Andijon (110,9 %) viloyatlarida aholi ixtiyoridagi umumiy daromadlarining real o'sish sur'ati o'rtacha respublika darajasidan yuqori ko'rsatkichni tashkil etdi.

2022- yilning yanvar-sentabr holatiga ko'ra, aholi real ixtiyoridagi umumiy daromadlar 376,1 trln. so'mni tashkil etdi, aholi jon boshiga esa 10581,4 ming so'mni tashkil etdi.

Aholi jon boshiga real ixtiyoridagi umumiy daromadlar Qoraqalpog'iston Respublikasida (7896,4 ming so'm), Farg'ona (8120,7 ming so'm), Namangan (8530,0 ming so'm) va Jizzax (9070,8 ming so'm) viloyatlarida hududlar bo'yicha eng past ko'rsatkich kuzatilgan bo'lsa, Toshkent shahri (18940,9 ming so'm), Navoiy (16934,4 ming so'm), Buxoro (13267,4 ming so'm), Xorazm (12251,1 ming so'm) va Toshkent (11131,0 ming so'm) viloyatlarida o'rtacha respublika darajasidan yuqori ko'rsatkichni tashkil etdi.

Hududlar bo‘yicha aholi jon boshiga real ixtiyoridagi umumiy daromadlarning o‘shish sur‘atlari

(2022- yilning yanvar-sentabr holatiga ko‘ra, 2021- yilning mos davriga nisbatan)



Aholi jon boshiga real ixtiyoridagi umumiy daromadlarning eng yuqori o‘shish sur‘ati Xorazm (112,8 %) viloyatida qayd etildi. Shuningdek, Surxondaryo (112,7 %) viloyati, Toshkent shahri (111,8 %), Qashqadaryo (110,1 %), Namangan (109,7 %) va Andijon (108,7 %) viloyatlarida o‘rtacha respublika darajasidan yuqori ko‘rsatkichni tashkil etdi.

Aksincha Toshkent (100,5 %), Jizzax (101,2 %) va Navoiy (102,2 %) viloyatlarida aholi jon boshiga real ixtiyoridagi umumiy daromadlarning o‘shish sur‘atlari past ko‘rsatkich qayd etildi.


3- BO‘LIM. UMUMIY DAROMADLAR TARKIBIDAN, KICHIK TADBIRKORLIK DAN OLINGAN DAROMADLAR

2022- yilning yanvar-sentabr oylari dastlabki ma’lumotlariga ko‘ra, aholi umumiy daromadlari hajmida kichik tadbirkorlikdan olingan daromadlarning ulushi 55,9 % ni tashkil etdi.



Ma’lumot uchun: O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2021- yil 21- apreldagi “Tadbirkorlikni qo‘llab-quvvatlash tizimini takomillashtirish, ishbilarmonlik muhitini yanada yaxshilash bo‘yicha qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida” PQ-5087-sonli qaroriga muvofiq, tadbirkorlik faoliyati bilan shug‘ullanuvchilarga keng imkoniyatlar yaratib berilmoqda.

**Aholi umumiy daromadlari hajmida
kichik tadbirkorlikdan olingan daromadlarning ulushi,
2022- yilning yanvar-sentabr holatiga ko'ra**



Aholi umumiy daromadlari tarkibida kichik tadbirkorlikdan olingan daromadlar Jizzax (65,9 %), Buxoro (62,4 %), Namangan (59,8 %), Xorazm (59,6 %) va Toshkent (59,0 %) viloyatlarida sezilarli ulushni egalladi. Toshkent shahri (45,6 %), Navoiy (48,4 %) viloyatida hamda Qoraqalpog'iston Respublikasida (48,9 %) 50 % dan kam ulushni tashkil etdi.

Statistik ko‘rsatkichlarga izohlar

Aholi umumiy daromadlarini hisoblashda Davlat statistika hisoboti ma’lumotlaridan, shuningdek, muntazam ravishda statistika organlari tomonidan o‘tkazib boriladigan yakka tartibdagi tadbirkorlar va dehqon xo‘jaliklarining iqtisodiy faoliyati bo‘yicha hamda uy xo‘jaliklari daromadlari va xarajatlarini o‘rganish bo‘yicha tanlanma kuzatuv ma’lumotlaridan, bundan tashqari Moliya vazirligi, Budgetdan tashqari Pensiya jamg‘armasi, Markaziy Bank, Xalq Banki, Davlat soliq qo‘mitasi tomonidan aholiga hisoblangan daromadlar, ijtimoiy to‘lovlar va soliq to‘lovlari to‘g‘risidagi umumlashgan ma’lumotlardan foydalaniladi.

Aholining umumiy daromadlari doimiy yoki takrorlanuvchi xususiyatga ega bo‘lgan, yillik yoki undan kam vaqt oralig‘idagi davrda, uy xo‘jaligi yoki uning alohida a‘zolariga tushadigan pul va natura shaklidagi tushumlardan tashkil topadi.

Aholining birlamchi daromadlari ishlab chiqarishdan olingan daromadlar va mol-mulkdan olingan daromadlardan tashkil topadi.

Ishlab chiqarishdan olingan daromadlarga mehnat faoliyatidan olingan daromad va shaxsiy iste‘mol uchun ishlab chiqarilgan shaxsiy xizmatlardan olingan daromadlar kiradi.

Mehnat faoliyatidan olingan daromad yollanma ishchilarning va mustaqil ravishda band bo‘lgan aholining daromadidan tarkib topadi.

Yollanma ishchilarning daromadi bu mehnatga haq to‘lashning yashirin (ya’ni, birlamchi va buxgalteriya hisobida aks ettirilmasdan ish beruvchi tomonidan amalga oshirilgan to‘lovlar) qismini qo‘shgan holda pul va natura (tovarlar yoki xizmatlar ko‘rinishida) shaklida mehnatga haq to‘lash ko‘rinishidagi daromadlar.

Mustaqil ravishda band bo‘lishdan olingan daromad – mustaqil ravishda tashkillashtirilgan va uy xo‘jaligi a‘zolari jalb qilingan mehnat jarayoni natijasida olingan daromadlar.

Shaxsiy iste‘mol uchun o‘zida ishlab chiqarilgan xizmatlardan olingan daromadlarga bozor uchun mo‘ljallanmagan va uy-joy egalari tomonidan foydalanilayotgan turar-joy xizmatlarining shartli ravishda hisoblangan qiymati kiradi.

Mol-mulkdan olingan daromadlar (mulkiy daromadlar) deganda mulkiy egalik qilish huquqi bo‘lgan moliyaviy va nomoliyaviy aktivlarni boshqa shaxslarga foydalanish uchun berishdan uy xo‘jaliklariga tushgan tushumlar tushuniladi.

Foizlar – bank hisob-raqamlaridan, kredit uyushmalari yoki boshqa moliyaviy muassasalarga qo‘yilgan omonatlardan, depozit sertifikatlari, davlat obligatsiyalari, zayomlar va qimmatli qog‘ozlar bo‘yicha hamda boshqa shaxslarga berilgan qarzdorlik majburiyatlari va kreditlar bo‘yicha olingan to‘lovlari.

Dividendlar – sarmoyador (jismoniy shaxs)ning korxonada ishlashi yoki ishlamasligidan qat'iy nazar, korxonaga sarmoya kiritishi natijasida olingan tushumlar.

Mualliflik haqi – yaratilgan adabiy asarlar, ixtirolar va mualliflik huquqi berilgan (ya'ni, nafaqat muallifga (yaratuvchiga) to'lanishi mumkin bo'lgan, balki boshqa mulkdorlarga, masalan, merosxo'rga ham to'lanadigan) boshqa patentlangan materiallar uchun egasi tomonidan olingan mualliflik mukofotlari.

Renta – jismoniy shaxs tomonidan boshqa yuridik yoki jismoniy shaxsga ishlab chiqarilmagan aktivlarni (masalan, yer maydoni) foydalanishga berishidan olingan ijara to'lovlari.

Transfertlar – uy xo'jaliklariga boshqa uy xo'jaliklaridan, davlat tomonidan, yuridik shaxslardan, chet eldan kelib tushadigan hamda kelgusida qaytarilishi shart bo'lmagan tovarlar, xizmatlar va aktivlardir.

Pensiyalar – qonunchilikda nazarda tutilgan, ya'ni ma'lum bir yoshga yetganligi, nogironlik, boquvchisini yo'qotganligi, shuningdek, qonunchilikka asosan ta'sis etilgan tizimlarga kirmaydigan (masalan, ish beruvchi tomonidan ta'sis etilgan) ijtimoiy ta'minot bo'yicha muntazam amalga oshiriladigan pul to'lovlari.

Nafaqalar – qonunchilikda nazarda tutilgan holatlarda, ya'ni mehnat qobiliyatini qisman yoki to'liq yo'qotganlik, og'ir moddiy ahvol, bolali oilalarni qo'llab quvvatlash maqsadida, qarindoshlarning o'limi sababli, ishsizlik bo'yicha nafaqalar va shunga o'xshash holatlarda muntazam yoki bir marta amalga oshiriladigan pul to'lovlari.

Stipendiya – oliy ta'lim muassasalarining talabalariga to'lanadigan har oylik pul ta'minoti, shuningdek, jismoniy shaxslarga, shu jumladan, xorijiy davlatlardan ajratiladigan o'quv grantlari.

Boshqa joriy transfertlarga uy xo'jaligiga boshqa yuridik va jismoniy shaxslar tomonidan (muntazam moliyaviy yordamlar, masalan, alimentlar, bolalar yoki ota-onalar tomonidan beriladigan moddiy yordamlar, notijorat homiylik tashkilotlaridan, kasaba uyushmalaridan va shunga o'xshashlardan muntazam ravishda to'lanadigan) amalga oshiriladigan to'lovlar kiradi. Shuningdek, boshqa joriy transfertlar toifasiga chet eldan, shu jumladan, jismoniy shaxslar tomonidan mehnat faoliyatini amalga oshirishdan olingan pul o'tkazmalari kiradi.


Aholi ixtiyoridagi daromad – umumiy daromaddan to'g'ri soliqlarni (ularning qaytarilishini hisobga olgan holda), majburiy yig'imlar va jarimalar hamda bir uy xo'jaligiga boshqa uy xo'jaligi tomonidan berilgan moddiy yordam pullarini chegirish orqali hisoblanadi.

XV. YURIDIK SHAXS MAQOMIGA EGA BO'LGAN KORXONA VA TASHKILOTLARDA ISHLOVCHI XODIMLARNING O'RTACHA OYLIK NOMINAL HISOBLANGAN ISH HAQI

(2022 yil yanvar-sentabr, qishloq xo'jaligi va kichik tadbirkorlik
subyektlaridan tashqari, dastlabki ma'lumotlar)


1-BO'LIM. O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI BO'YICHA O'RTACHA OYLIK NOMINAL HISOBLANGAN ISH HAQI

O'rtacha oylik ish haqining yillar kesimidagi dinamikasi
(yanvar-sentabr, o'sish darajasi o'tgan yilning mos davriga nisbatan, ming so'm)



O'rtacha oylik ish haqi hududlar kesimida


qishloq xo'jaligi korxonalari hamda kichik tadbirkorliksiz, yanvar-sentabr,
ming so'mda




O'rtacha oylik nominal
hisoblangan ish haqi

2022 - yil yanvar-sentabr oylarida Respublikadagi o'rtacha oylik nominal hisoblangan ish haqi **3 721,8 ming so'mni** tashkil etib, (2021 - yil mos davrida **2 978,9 ming so'm** bo'lgan) 2021 - yilning mos davriga nisbatan o'sish sur'ati **124,9 %** ni tashkil qildi.

Respublikadagi o'rtacha oylik ish haqiga nisbatan hududlardagi o'rtacha oylik ish haqi, % da



Iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha xodimlar sonining jamiga nisbatan ulushi
(Korxonalar va tashkilotlarda (qishloq xo'jaligi va kichik tadbirkorlik subyektlarisiz) mehnat daftarchalari mavjud bo'lgan, o'rtacha oylik ish haqini hisoblashda hisobga olinganlar, yanvar-sentabr holatida)



O'rtacha oylik nominal hisoblangan ish haqi



Mehnatga haq to‘lashning eng kam miqdori dinamikasi, so‘mda




Ma‘lumot uchun: Mehnatga haq to‘lashning eng kam miqdoriga 2022 – yil 1 - iyundan o‘zgartirish kiritildi hamda 920,0 ming so‘mga yetkazildi.

2022 - yil yanvar-sentabr oylari uchun o‘rtacha oylik ish haqi ko‘rsatkichini shakllantirishda qishloq xo‘jaligi va kichik tadbirkorlik subyektlari hisobga olinmagan chunki fermer xo‘jaliklari hamda kichik tadbirkorlik subyektlari yilda bir marta hisobot taqdim etishi belgilangan.

Yuridik shaxs maqomiga ega bo'lgan korxonalar va tashkilotlarda ishlovchi xodimlarning o'rtacha oylik nominal hisoblangan ish haqlari (keyingi o'rinlarda – o'rtacha oylik ish haqi) har bir iqtisodiy faoliyat turlarida turlicha farqlanadi.


O'rtacha oylik nominal hisoblangan ish haqi tarkibiga qo'shimcha to'lovlar, mukofot pullari, rag'batlantiruvchi to'lovlar, kompensatsiya va ishlamagan vaqti uchun to'lovlar, shuningdek, jismoniy shaxslardan olinadigan daromad solig'i va kasaba uyushmasiga ajratmalar kiradi.

O'rtacha oylik ish haqining tarmoqlar bo'yicha o'zgarish dinamikasi,
yanvar-sentabr, ming so'm




**O'rtacha oylik nominal
hisoblangan ish haqi**

2021-2022 - yillarda o'rtacha oylik ish haqining oylar kesimidagi dinamikasi,
ming so'm



2-BO'LIM. IQTISODIY FAOLIYAT TURLARIDA O'RTACHA OYLIK
NOMINAL HISOBLANGAN ISH HAQI

Iqtisodiy faoliyat turlari kesimida o'rtacha oylik ish haqi, yanvar-sentabr, ming so'm




2022 - yil yanvar-sentabr oylarida iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha o'rtacha oylik ish haqining eng baland ko'rsatkichi – **bank, sug'urta, lizing, kredit va vositachilik faoliyati sohasiga** to'g'ri kelib, 9 734,1 ming so'mni tashkil etdi.

Shuningdek, **axborot va aloqa sohasi** 6 976,8 ming so'mni, **tashish va saqlash sohasi** 4 854,8 ming so'mni va **sanoat sohasi** 4 706,0 ming so'mni tashkil etib, o'rtacha oylik ish haqiga nisbatan yuqori ko'rsatkichni tashkil qildi. **Ta'lim** (2 596,8 ming so'm) hamda **sog'liqni saqlash va ijtimoiy xizmatlar ko'rsatish** (2 510,3 ming so'm) sohalari esa boshqa sohalarga nisbatan eng quyi pog'onalarda ekanligini ko'rishimiz mumkin.

**O'rtacha oylik nominal
hisoblangan ish haqi**

Sanoat sohasida o'rtacha oylik ish haqi



Sanoatning asosiy tarmoqlari bo'yicha o'rtacha oylik ish haqi, yanvar-sentabr, ming so'm



2 386,9

Suv bilan ta'minlash,
kanalizatsiya tizimi,
chiqindilarni yig'ish
va utilizatsiya qilish



4 569,5

Ishlab chiqarish
sanoati



5 528,0

Elektr, gaz, bug'
bilan ta'minlash va
havoni konditsiyalash




6 698,4


Tog'-kon sanoati va
ochiq konlarni ishlash

Sanoatning asosiy tarmoqlari bo'yicha o'rtacha oylik ish haqining eng yuqori ko'rsatkichi **tog'-kon sanoati va ochiq konlarni ishlash tarmog'i** (6 698,4 ming so'm), **elektr, gaz, bug' bilan ta'minlash va havoni konditsiyalash** (5 528,0 ming so'm) hamda **ishlab chiqarish sanoati** (4 569,5 ming so'm)da kuzatildi.

Sanoat sohasida tarmoqlar bo'yicha ish haqi o'zgarishi dinamikasi,
yanvar-sentabr, ming so'm



Hududlar kesimida, yanvar-sentabr,
ming so'm




O'rtacha oylik ish haqining
yillar kesimidagi
dinamikasi, yanvar-sentabr,
ming so'm




Sanoat iqtisodiy faoliyat turi bo'yicha o'rtacha oylik ish haqining eng yuqori ko'rsatkichi **Navoiy viloyati** (7 182,5 ming so'm), **Toshkent shahri** (5 300,2 ming so'm), **Toshkent viloyati** (4 895,8 ming so'm), **Qoraqalpog'iston Respublikasi** (4 572,7 ming so'm) hamda **Qashqadaryo viloyatida** (4 493,6 ming so'm) kuzatildi.

O'rtacha oylik nominal
hisoblangan ish haqi


Qurilish sohasida o'rtacha oylik ish haqi



Hududlar kesimida, yanvar-sentabr, ming so'm




O'rtacha oylik ish haqining yillar kesimidagi dinamikasi, yanvar-sentabr, ming so'm



Qurilish faoliyat turi bo'yicha o'rtacha oylik ish haqining eng yuqori ko'rsatkichi **Toshkent viloyati** (6 716,2 ming so'm), **Toshkent shahri** (5 214,5 ming so'm) hamda **Navoiy viloyati** (4 730,5 ming so'm) da qayd etildi.

Savdo sohasida o'rtacha oylik ish haqi



Savdo sohasining asosiy tarmoqlari bo'yicha o'rtacha oylik ish haqi, yanvar-sentabr, ming so'm



3 440,9

Avtomobil va
mototsikllarning
savdosidan tashqari
chakana savdo



3 905,6

Avtomobil va
mototsikllarning
savdosidan tashqari
ulgurji savdo



4 375,9

Avtomobil va
mototsikllarning
ulgurji savdosi va
chakana savdosi va
ularni ta'mirlash




4 418,7

Oziq-ovqat mahsulotlari,
jumladan, ichimliklar va
tamaki mahsulotlari
ulgurji savdosi


Savdo sohasining asosiy tarmoqlari bo'yicha o'rtacha oylik ish haqining eng yuqori ko'rsatkichi **oziq-ovqat mahsulotlari, jumladan, ichimliklar va tamaki mahsulotlari ulgurji savdosi** (4 418,7 ming so'm)da, eng past ko'rsatkich esa **avtomobil va mototsikllarning savdosidan tashqari chakana savdo** (3 440,9 ming so'm)da kuzatildi.

O'rtacha oylik nominal
hisoblangan ish haqi


Savdo sohasida tarmoqlar bo'yicha ish haqi o'zgarishi dinamikasi,
yanvar-sentabr, ming so'm



Hududlar kesimida,
yanvar-sentabr, ming so'm




O'rtacha oylik ish haqining
yillar kesimidagi dinamikasi,
yanvar-sentabr, ming so'm



Savdo faoliyat turi bo'yicha o'rtacha oylik ish haqining eng yuqori ko'rsatkichi **Toshkent shahri** (4 316,7 ming so'm), **Buxoro viloyati** (3 532,4 ming so'm), **Jizzax viloyatlarida** (3 274,3 ming so'm) kuzatildi. Yuqori o'sish sur'ati **Buxoro viloyati** (61,9%), **Qashqadaryo viloyatida** (21,1%) va **Qoraqalpog'iston Respublikasida** (17,5%) qayd etildi.

Tashish va saqlash sohasida o'rtacha oylik ish haqi



Tashish va saqlash iqtisodiy faoliyat turining asosiy tarmoqlari bo'yicha o'rtacha oylik ish haqi, yanvar-sentabr



8 084,8 ming so'm

Ombor xo'jaligi va yordamchi transport faoliyati



4 446,6 ming so'm

Quruqlikdagi va quvur transporti



2 185,2 ming so'm


Pochta va kuryerlik faoliyati




Tashish va saqlash iqtisodiy faoliyat turining asosiy tarmoqlari bo'yicha o'rtacha oylik ish haqining eng yuqori ko'rsatkichi **ombor xo'jaligi va yordamchi transport faoliyati** (8 084,8 ming so'm)da, eng past ko'rsatkich esa **pochta va kuryerlik faoliyati** (2 185,2 ming so'm)da kuzatildi.

O'rtacha oylik nominal hisoblangan ish haqi

**Tashish va saqlash sohasida tarmoqlar bo'yicha
ish haqi o'zgarishi dinamikasi, yanvar-sentabr, ming so'm**




**Hududlar kesimida,
yanvar-sentabr, ming so'm**




● o'tgan yilning mos davriga nisbatan qo'shimcha o'sish

**O'rtacha oylik ish haqining
yillar kesimidagi dinamikasi,
yanvar-sentabr, ming so'm**




Tashish va saqlash iqtisodiy faoliyat turi bo'yicha o'rtacha oylik ish haqining eng yuqori ko'rsatkichi **Xorazm viloyati** (6 520,9 ming so'm), **Toshkent shahri** (5 774,8 ming so'm), **Buxoro viloyatida** (4 957,7 ming so'm) kuzatildi. Yuqori o'sish sur'ati **Sirdaryo viloyatida** (2 martaga), **Jizzax viloyatida** (191,4%), **Xorazm viloyatida** (155,6%) va **Toshkent viloyatida** (153,1%) qayd etildi.

Axborot va aloqa sohasida o'rtacha oylik ish haqi




Axborot va aloqa sohasining asosiy tarmoqlari bo'yicha o'rtacha oylik ish haqi, yanvar-sentabr




Axborot va aloqa sohasining asosiy tarmoqlari bo'yicha o'rtacha oylik ish haqining eng yuqori ko'rsatkichi **kompyuter dasturlashtirish, maslahat berish va boshqa yordamchi xizmatlar** (10 485,8 ming so'm)da, eng past ko'rsatkich esa **noshirlik faoliyati** (6 568,0 ming so'm)da kuzatildi.

O'rtacha oylik nominal
hisoblangan ish haqi


Axborot va aloqa sohasida tarmoqlar bo'yicha ish haqi o'zgarishi dinamikasi,
yanvar-sentabr, ming so'm



Hududlar kesimida, yanvar-sentabr, ming so'm




O'rtacha oylik ish haqining yillar kesimidagi dinamikasi,
yanvar-sentabr, ming so'm



Tashish va saqlash iqtisodiy faoliyat turi bo'yicha o'rtacha oylik ish haqining eng yuqori ko'rsatkichi **Toshkent shahri** (8357,8 ming so'm), **Samarqand viloyati** (4732,7 ming so'm) hamda **Jizzax viloyatida** (4521,4 ming so'm) kuzatildi. Yuqori o'sish sur'ati **Toshkent** (63,5%), **Surxondaryo** (52,8%), **Farg'ona** (43,9%), **Buxoro viloyatlarida** (43,4%) qayd etildi.

Bank, sug'urta, lizing, kredit va vositachilik
sohasida o'rtacha oylik ish haqi



Bank, sug'urta, lizing, kredit va vositachilik faoliyatining
asosiy tarmoqlari bo'yicha o'rtacha oylik ish haqi, yanvar-sentabr



9 770,8 ming
so'm

Sug'urtalash va nafaqa ta'minotidan
tashqari moliyaviy xizmatlar



9 677,5 ming
so'm

Majburiy ijtimoiy sug'urtalashdan tashqari, qayta
sug'urtalash va nafaqa jamg'armalari faoliyati




8 277,4 ming
so'm

Moliyaviy xizmatlar ko'rsatish va sug'urtalash
bo'yicha yordamchi faoliyat


Bank, sug'urta, lizing, kredit va vositachilik faoliyati iqtisodiy faoliyat turi bo'yicha o'rtacha oylik ish haqining eng yuqori ko'rsatkichi **sug'urtalash va nafaqa ta'minotidan tashqari moliyaviy xizmatlar** (9 770,8 ming so'm)da eng past ko'rsatkichi esa **moliyaviy xizmatlar ko'rsatish va sug'urtalash bo'yicha yordamchi faoliyat** (8 277,4 ming so'm)da kuzatildi.

O'rtacha oylik nominal
hisoblangan ish haqi

Bank, sug'urta, lizing, kredit va vositachilik sohasida tarmoqlar bo'yicha
ish haqi o'zgarishi dinamikasi, yanvar-sentabr, ming so'm



Hududlar kesimida,
yanvar-sentabr, ming so'm




● o'tgan yilning mos davriga nisbatan qo'shimcha o'sish

O'rtacha oylik ish haqining
yillar kesimidagi
Jinoyatchilik bu – aniq hududda muayyan vaqt davomida sodir etilgan jinoyatlardan iborat bo‘lgan hamda miqdor ko‘rsatkichlari bilan ta’riflanadigan ijtimoiy-huquqiy hodisadir.

Ro‘yxatga olingan jinoyat bu – huquqni muhofaza qiluvchi organlar tomonidan aniqlangan va rasman hisobga olingan, jinoyat qonunchiligida nazarda tutilgan ijtimoiy xavfga ega xatti-harakatdir.

Jinoyatlarni tasniflash – jinoyatlar o‘z xususiyati va ijtimoiy xavflilik darajasiga ko‘ra: ijtimoiy xavfi katta bo‘lmagan; uncha og‘ir bo‘lmagan; og‘ir; o‘ta og‘ir jinoyatlarga bo‘linadi. O‘zb.Resp. JK 15-modda.

Katta ijtimoiy xavf tug‘dirmaydigan jinoyatlarga qonunda uch yildan ortiq bo‘lmagan muddatga ozodlikdan mahrum qilish tarzidagi jazo nazarda tutilgan qasddan sodir etilgan jinoyatlar, shuningdek, ehtiyotsizlik oqibatida besh yildan ortiq sodir etilgan jinoyatlar kiradi.

O‘ta og‘ir bo‘lmagan jinoyatlarga qonunda uch yildan ortiq, lekin besh yildan ortiq bo‘lmagan muddatga ozodlikdan mahrum qilish tarzidagi jazo nazarda tutilgan qasddan sodir etilgan jinoyatlar, shuningdek, ehtiyotsizlik oqibatida sodir etilgan jinoyatlar kiradi. besh yildan ortiq muddatga ozodlikdan mahrum qilish shakli.

Og‘ir jinoyatlarga qonun hujjatlarida besh yildan ortiq, lekin o‘n yildan ortiq bo‘lmagan muddatga ozodlikdan mahrum qilish tarzidagi jazo nazarda tutilgan qasddan sodir etilgan jinoyatlar kiradi.

Qonunda o‘n yildan ortiq muddatga ozodlikdan mahrum qilish yoki umrbod ozodlikdan mahrum qilish tarzidagi jazo nazarda tutilgan qasddan sodir etilgan jinoyatlar ayniqsa og‘irdir.

Firibgarlik – aldash yoki ishonchni suiste’mol qilish yo‘li bilan o‘zganing mulkini yoki o‘zganing mulkiga bo‘lgan huquqni qo‘lga kiritish. O‘zb.Resp. JK 168-modda.

Tovlamachilik – ya’ni jabrlanuvchi yoki uning yaqin kishilariga zo‘rluk ishlatish, mulkka shikast yetkazish yoki uni nobud qilish yoxud jabrlanuvchi uchun sir saqlanishi lozim bo‘lgan ma’lumotlarni oshkor qilish bilan qo‘rqitib, o‘zganing mulkni yoki mulkiy huquqni topshirishni, mulkiy manfaatlar berishni yoxud mulkiy yo‘sindagi harakatlar sodir etishni talab qilish yoxud jabrlanuvchini o‘z mulki yoki mulkka bo‘lgan huquqini berishga majbur qiladigan sharoitga solib qo‘yish. O‘zb.Resp. JK 165-modda.

O‘g‘irlik – ya’ni o‘zganing mol-mulkini yashirin ravishda talon-toroj qilish. O‘zb.Resp. JK 169-modda.

Talonchilik – birovning mulkini o‘g‘irlash maqsadida qilingan hujum hayot va sog‘liq uchun xavfli zo‘ravonlik qo‘llash yoki shunday zo‘ravonlik qilish tahdidi bilan. O‘zb.Resp. JK 164-modda.

Bezorilik – bezorilik, ya‘ni jamiyatda yurish-turish qoidalarini qasddan mensimaslik, urish-do‘pposlash, badanga yengil shikast yetkazish yoki o‘zganing mulkiga shikast yetkazish yoxud nobud qilish ancha zarar yetkazish bilan bog‘liq holda sodir etish. O‘zb.Resp. JK 277-modda.

Bosqinchilik – o‘zganing mulkini ochiqdan-ochiq o‘g‘irlash. O‘zb.Resp. JK 166-modda.

Nomusga tegish – zo‘rlik ishlatib, qo‘rqitib yoki jabrlanuvchining oqibligidan foydalanib, jinsiy aloqa qilish. O‘zb.Resp. JK 118-modda.

Qasddan badanga og‘ir shikast yetkazish bu – sodir etilayotgan paytda hayot uchun xavfli bo‘lgan qasddan badanga og‘ir shikast yetkazish natijasida ko‘rish, so‘zlash, eshitish qobiliyatini yo‘qotish yoxud biron a‘zoning ishdan chiqishi yoki uning faoliyati tamoman yo‘qolishiga, ruhiy holatining buzilishiga yoki sog‘lig‘ining boshqacha tarzda buzilishiga, umumiy mehnat qobiliyatining o‘ttiz uch foizidan kam bo‘lmagan qismining doimiy yo‘qolishiga yoki homilaning tushishi yoxud badanning tuzalmaydigan darajada xunuklashishiga sabab bo‘lishidir. O‘zb.Resp. JK 104-modda.

Pora olish, – ya‘ni davlat organi, davlat ishtirokidagi tashkilot yoki fuqarolarning o‘zini o‘zi boshqarish organi mansabdor shaxs tomonidan shaxsan yoki vositachi orqali moddiy boyliklarni amalga oshirganligi yoki bajarmaganligi uchun moddiy manfaatlar olishi yoki ularni bila turib qonunga xilof ravishda olishi, mansabdor shaxs o‘z xizmat mavqeidan foydalangan holda qilishi kerak bo‘lgan yoki qilishi mumkin bo‘lgan muayyan pora beruvchining manfaatlarini ko‘zlab harakatni amalga oshirish. O‘zb.Resp. JK 210-modda.

Voyaga yetmagan shaxs – o‘n sakkiz yoshga to‘lmagan shaxs.

Jinoyat sodir etgan shaxslar – huquqni muhofaza qilish organlari tomonidan rasman ro‘yxatga olingan, ularga nisbatan jinoyat ishi qo‘zg‘atilgan shaxslar.


XVIII. TURISTIK OQIM

(2022- yil yanvar-sentabr)

Turizm industriyasi minglab odamlarning tirikchiligini ta'minlaydi, millionlab insonlarga esa o'z xalqi va boshqa mamlakatlar xalqlarining madaniy o'ziga xosligini, shuningdek, tabiat boyligini qadrlash imkoniyatini beradi.

Bugungi kunda turizm jahon iqtisodiyotining yetakchi tarmoqlaridan biriga aylandi. Bu borada O'zbekistonda turizm industriyasini modernizatsiya qilish, sohani barqaror rivojlantirish uchun normativ-huquqiy bazani rivojlantirish va takomillashtirish, xorijlik mehmonlarga xalqaro standartlar asosida xizmat ko'rsatishni tashkil etishga alohida e'tibor qaratilmoqda.

Mustaqillik yillarida xalqning tarixiy-madaniy merosini asrab-avaylash va yuksaltirish, milliy an'ana va urf-odatlarini, respublikaning diqqatga sazovor joylarini tiklash va obodonlashtirish bilan bir qatorda bu sohada sezilarli yutuqlarga erishildi.




Shunday qilib, O'zbekistonda turizm sohasini jadal rivojlanishi, jumladan, tarixiy-madaniy merosga ehtiyotkorlik bilan munosabatda bo'lishi, xalqaro standartlarga to'liq javob beradigan infratuzilma yaratilishi, xalqaro aloqalarni mustahkamlanishi yurtimizni dunyodagi eng ko'p tashrif bo'ladigan davlatlardan biriga aylantirdi.

1- BO' LIM. O'ZBEKISTON RESPUBLIKASIGA TURISTIK MAQSADLARDA KELGAN CHET EL FUQAROLARI


O'zbekiston Respublikasiga turistik maqsadlarda kelgan chet el fuqarolari

2022- yil yanvar-sentabr oylarida O'zbekiston Respublikasiga kelgan xorijiy fuqarolar soni jami 3 587,2 ming nafarni tashkil etdi. MDH davlatlaridan 3 403,1 ming chet el fuqarolari tashrif buyurib, bu jami kelganlarning 94,9 % ini tashkil etdi, boshqa davlatlardan – 184,1 ming kishi (yoki 5,1 %) tashrif buyurgan.

Turistik maqsadlarda O'zbekistonga kelgan chet el fuqarolari sonining tahlili 2020- yilning 9 oyligida (1 354,3 ming kishi) 2019- yilning shu davriga (4 938,6 ming kishi) nisbatan 3 584,3 ming kishiga (-72,6 %) keskin kamayganini ko'rsatmoqda.




Xorijdan tashrif buyurgan chet el fuqarolari ¹⁾ yanvar-sentabr oylari uchun, ming kishi



¹⁾ Respublikaga kelganlarning umumiy sonida bir kishi bir necha marta hisoblanishi mumkin va bu alohida holat sifatida hisobga olinadi.

2021- yilning yanvar-sentabr oylarida ham (1 135,6 ming kishi) O'zbekistonga kirib kelgan turistik oqimning qisqarishi kuzatildi, 2020- yilning shu davriga nisbatan 218,7 ming kishiga (-16,1 %) kamaygan. Ammo 2022- yilning birinchi yarmida 2021- yilning shu davriga nisbatan turistik oqimning o'sishini kuzatish mumkin.


Shunday qilib, 2022- yilning yanvar-iyun oylarida O'zbekistonga kelgan xorijiy fuqarolar soni 3 587,2 ming kishini tashkil etdi. 2021- yilning shu davriga nisbatan bu ko'rsatkich 2 451,6 ming kishiga, ya'ni 3,2 martaga oshgan.



2021- yil yanvar-sentabr oylarida MDH davlatlaridan kelganlar soni 2020- yilning shu davriga nisbatan 21,7 % ga kamaydi. Boshqa davlatlardan kelgan turistlar soni esa, aksincha, 2,1 martaga oshgan.


2022- yilning 9 oyligida MDH davlatlaridan respublikamizga tashrif buyurgan fuqarolar soni 3,4 martaga, boshqa mamlakatlardan kelganlar soni 51 % ga oshdi.

**Turistik maqsadlarda kelgan chet el fuqarolarining
safar maqsadlari bo'yicha taqsimlanishi**
(2022- yil yanvar-sentabr, ming kishi)



2022- yilning yanvar-sentabr oylarida O'zbekistonga kelgan chet el fuqarolari safar maqsadini o'qish uchun deb belgilaganlar soni 3,9 ming kishiga (jami kelganlarning 0,1 % i) teng, tijorat maqsadida kelganlar – 12,7 ming kishi (0,4 %), xizmat safari uchun – 54,1 ming kishi (1,5 %), davolanish uchun – 55,4 ming kishi (1,5 %), bo'sh vaqt va dam olish uchun – 266,4 ming kishi (7,4 %). Eng ko'p sayohatlarning maqsadlariga esa qarindoshlarni yo'qlash deb belgilanganlari – 3 194,7 ming kishi (89,1 %).

Tegishli davrning o'tgan 2021- yiliga nisbatan xizmat safarlari 32,3 % ga, tijorat maqsadidagi safarlar 17,6 % ga oshgan. Bo'sh vaqtini o'tkazish va dam olish uchun amalga oshirilgan safarlar 2,5 baravarga, davolanish safarlari – 3,1 barobarga va qarindoshlarni yo'qlash uchun 3,3 barobarga oshgan. Ammo o'qish maqsadidagi safarlar, aksincha, 20,4 % ga kamaygan.




Quyida keltirilgan grafiklardan xulosa qilish mumkinki, 2022- yilning 9 oyligida xorijiy davlatlardan (MDH davlatlaridan tashqari) chet el fuqarolari O'zbekiston Respublikasiga asosan bo'sh vaqtini o'tkazish va dam olish uchun – 99,4 ming kishi (xorijiy davlatlardan (MDH davlatlaridan tashqari) tashrif buyurganlarning umumiy sonidan 54,0 % i), qarindoshlarini yo'qlash uchun – 53,3 ming kishi (29,0 %) hamda xizmat safari maqsadida – 24,2 ming kishi (13,1 %) tashrif buyurgan. Tijorat maqsadida – 4,5 ming kishi (2,4 %), o'qish uchun – 2,6 ming kishi (1,4 %) va davolash uchun – 0,1 ming kishi (0,1 %) kelgan.

O'z o'rnida, MDH davlatlaridan esa qarindoshlaridan xabar olish maqsadida – 141,4 ming kishi (MDH davlatlaridan tashrif buyurganlarning umumiy sonidan 92,3 % i), bo'sh vaqt va dam olish uchun – 167,0 ming kishi (4,9 %) hamda davolanish maqsadida – 55,3 ming kishi (1,6 %) respublikamizga kirib kelishgan. Xizmat safari maqsadida – 29,9 ming kishi (0,9 %), tijorat uchun – 8,2 ming kishi (0,2 %) va o'qish sababli – 1,3 ming kishi (0,1 %) kelgan.

O'zbekiston Respublikasiga xorij davlatlaridan kelgan chet el fuqarolari

(2022- yil yanvar-sentabr, ming kishi)




Xorijiy fuqarolarning respublikamizga eng ko'p oqimi quyidagi davlatlardan qayd etildi: Qozog'istondan – 1 076,1 ming kishi (jami kirib kelgan chet el fuqarolaridan 30,0 % ini tashkil etdi), Qirg'iz Respublikasidan – 952,2 ming kishi (26,54 %), Tojikistondan – 950,3 ming kishi (26,49 %), Rossiyadan – 395,0 ming kishi (11,01 %), Turkiyadan – 53,2 ming kishi (1,48 %), Germaniyadan – 13,4 ming kishi (0,37 %), Janubiy Koreyadan – 13,2 ming kishi (0,37 %), Belarus Respublikasidan – 10,4 ming kishi (0,29 %), AQSHdan – 9,8 ming kishi (0,27 %), Hindistondan – 9,2 ming kishi (0,26 %), Isroildan – 8,4 ming kishi (0,24 %), Fransiyadan – 8,1 ming kishi (0,23 %), Ukrainadan – 7,8 ming kishi (0,22 %) va Buyuk Britaniyadan – 7,6 ming kishi (0,21 %). Qolgan 72,5 ming kishi (2,02 %) O'zbekistonga boshqa xorijiy davlatlardan kelganlar.

O'zbekiston Respublikasiga xorij davlatlaridan kelgan chet el fuqarolari sonining safar maqsadlari bo'yicha taqsimlanishi

2022- yilda 9 oy davomida chet el fuqarolari xizmat safarlari bilan O'zbekistonga asosan Rossiya (10,3 ming kishi), Turkiya (7,3 ming kishi) va Qozog'istondan (7,1 ming kishi) kelganlar. O'qish uchun asosan Hindiston (0,8 ming kishi), Qirg'iz Respublikasi (0,4 ming kishi) va Qozog'istondan (0,4 ming kishi) tashrif buyurishgan. Bo'sh vaqtini o'tkazish va dam olish uchun yurtimizga kelgan chet elliklarning asosiy qismi Rossiya (100,1 ming kishi), Qozog'iston (29,9 ming kishi) va Turkiyaliklardan (16,9 ming kishi) iborat.

Xorij davlatlaridan kelgan chet el fuqarolari sonining safar maqsadlari bo'yicha taqsimlanishi

2022- yil yanvar-sentabr, ming kishi




Maqsadi qarindoshlarini yo'qlash bo'lgan safarlar sonidan chet el fuqarolari asosan Qozog'iston (1 017,3 ming kishi), Qirg'iz Respublikasi (933,1 ming kishi) va Tojikiston (892,6 ming kishi) kabi qo'shni davlatlardan O'zbekistonga tashrif buyurishgan. Davolanish uchun ham chet el fuqarolari asosan Tojikistondan (27,6 ming kishi), Qozog'istondan (21,2 ming kishi) va Qirg'iz Respublikasidan (5,5 ming kishi) kelishgan. Tijorat maqsadida amalga oshirilgan safarlarning asosiy qismi Tojikiston (7,1 ming kishi), Afg'oniston (1,2 ming kishi) va Qirg'iz Respublikasi (0,6 ming kishi) fuqarolaridir.


Turistik maqsadlarda kelgan chet el fuqarolarining jinsi bo'yicha taqsimlanishi

(2022- yil yanvar-sentabr, ming kishi)

2022- yilning yanvar-sentabr oylarida O'zbekiston Respublikasiga kelgan chet el fuqarolarining 48,7 % ini (1 748,3 ming kishi) erkaklar, 51,3 % ini (1 838,9 ming kishi) ayollar tashkil etdi.


O'zbekistonga kelgan erkaklar va ayollar sonining tahlili 2018- yilning 9 oyligida xorijlik fuqarolarning umumiy sonida erkaklar ulushi 46,5 % ni, ayollarning ulushi esa 53,5 % ni tashkil etganini ko'rsatmoqda.





2019- yilning shu davrida ham xorijdan kelgan fuqarolarning umumiy sonida ayollar ulushi ortganini kuzatish mumkin edi (erkaklar – 47,5 %, ayollar – 52,5 %). 2020- yilning 9 oyligida kelgan erkaklar sonining o'sishi kuzatilmoqda, bunda ularning ulushi 50,8 % ni, ayollar 49,2 % ni tashkil etgan. Shuningdek, 2021- yilda ham erkaklar ulushi 51,7 % ni, ayollar ulushi 48,3 % ni tashkil etdi. Ammo, 2022- yil boshidan xorijdan kelgan fuqarolarning umumiy sonida yana ayollar ulushi erkaklar ulushidan ortishni boshladi (erkaklar – 48,7 %, ayollar – 51,3 %).


O'zbekiston Respublikasiga kelgan chet el fuqarolari sonining safar maqsadlari bo'yicha gender taqsimoti



2022- yilning 9 oyida O'zbekiston Respublikasiga kelgan erkaklar sonidan 1 516,6 ming nafari qarindoshlarini yo'qlash maqsadida, 156,7 ming kishi – bo'sh vaqtini o'tkazish va dam olish uchun, 43,7 ming kishi – xizmat safariga, 24,0 ming kishi – davolanishga, 4,8 ming kishi – tijorat uchun va 2,5 ming kishi – o'qishga tashrif buyurgan.

Ayollarga kelsak, ularning 1 678,1 ming nafari qarindoshlarini yo'qlashga, 109,7 ming nafari bo'sh vaqtini o'tkazish va dam olish uchun, 31,4 ming nafari davolanish uchun, 10,4 ming nafari xizmat safari uchun, 7,9 ming nafari tijorat maqsadida va 1,4 ming nafari o'qish uchun kelishgan.


**Xorij davlatlaridan kelgan ERKAKLARning
safari maqsadlari bo'yicha taqsimlanishi**
(2022- yil yanvar-sentabr, ming kishi)



O'zbekistonga 2022- yilning 9 oyligida chet el erkaklari asosan Tojikistondan – 513,1 ming kishi (ularning umumiy sonidan 29,4 % ini tashkil etgan), Qozog'istondan – 481,7 ming kishi (27,6 %), Qirg'iz Respublikasidan – 387,2 ming kishi (22,1 %), Rossiyadan – 220,7 ming kishi (12,6 %), Turkiyadan – 44,4 ming kishi (2,5 %), Janubiy Koreyadan – 8,9 ming kishi (0,5 %), Germaniyadan – 8,1 ming kishi (0,5 %) va boshqa davlatlardan – 84,2 ming kishi (4,8 %) kelgan.


2022- yilning yanvar-sentabr oylarida chet el erkaklari xizmat safari maqsadida asosan Rossiya (xizmat safari maqsadida kelgan erkaklar umumiy sonidan 19,9 % ini tashkil etgan), Tojikiston (14,0 %) va Qozog'istondan (13,5 %) kelganlar. O'qish uchun – Hindiston (o'qish maqsadida kelgan erkaklarning umumiy sonidan 20,0 % ini tashkil etgan), Tojikiston (12,0 %) va Qirg'iz Respublikasidan (12,0 %) tashrif buyurishgan.

Dam olish va bo'sh vaqtlarini o'tkazish uchun erkaklar asosan Rossiya (dam olishga kelgan erkaklar sonidan 35,6 % ini tashkil etgan), Qozog'iston (9,1 %) va Turkiyadan (9,1 %) kelishgan. Qarindoshlarini yo'qlash uchun esa erkaklar asosan Tojikiston (ushbu maqsadda kelgan erkaklar sonidan 31,7 % ini tashkil etgan), Qozog'iston (29,9 %) va Qirg'iz Respublikasi (24,9 %) kabi qo'shni mamlakatlardan kelishgan.




Davolanish uchun ham ushbu davlatlardan, ya'ni Tojikiston – 54,6 % (davolanish maqsadida kelgan erkaklarning umumiy sonidan), Qozog'iston – 34,6 % va Qirg'iz Respublikasidan – 8,3 % kelishgan. Tijorat maqsadida asosan Tojikiston (yurtimizga tijorat maqsadida kelgan erkaklarning umumiy sonidan 50,0 % ini tashkil etgan), Afg'oniston (14,6 %) va Turkiyadan (4,2 %) kelgan erkaklar bo'lgan.

**Xorij davlatlaridan kelgan AYOLLARning
safar maqsadlari bo'yicha taqsimlanishi**
(2022- yil yanvar-sentabr, ming kishi)



O'z o'rnida, ayollarning asosiy qismi Qozog'istondan – 594,4 ming kishi (ularning umumiy sonidan 32,3 % ini tashkil etgan), Qirg'iz Respublikasidan – 565,0 ming kishi (30,7 %), Tojikistondan – 437,2 ming kishi (23,8 %), Rossiyadan – 174,3 ming kishi (9,5 %), Turkiyadan – 8,8 ming kishi (0,5 %), Germaniyadan – 5,3 ming kishi (0,3 %), Janubiy Koreyadan – 4,3 ming kishi (0,2 %), boshqa mamlakatlardan – 49,6 ming kishi (2,7 %) kelgan.



Chet eldan kelgan ayollarni tahlil qilganda 2022- yil yanvar-sentabr oylarida xizmat safari maqsadida ular asosan Turkiya (O'zbekistonga xizmat safari maqsadida kelgan jami ayollar sonidan 19,2 % ini tashkil etgan), Rossiya (15,4 %) va Qozog'istondan (11,5 %) tashrif buyurishgan. O'qish uchun ular Hindiston (o'qish maqsadida kelgan jami ayollar sonidan 21,4 % ni tashkil etgan), Qozog'iston (14,3 %) va Qirg'iz Respublikasidan (7,1 %) kelishgan. Bo'sh vaqtlarini o'tkazish va dam olish uchun ayollar Rossiya, bu dam olish maqsadida kelgan ayollarning 40,4 % ini tashkil etgan, Qozog'iston – 14,2 % hamda Tojikistondan – 5,1 % tashrif buyurganlar.


Davolanish va qarindoshlarini yo'qlash maqsadida ular, erkaklar kabi asosan Qirg'iz Respublikasi, Qozog'iston va Tojikistondan kelishgan. Xususan, qarindoshlarini yo'qlash maqsadida kelgan ayollarning jami sonidan 33,6 % i (564,4 ming kishi) Qozog'iston, 33,1 % i (555,1 ming kishi) Qirg'iz Respublikasi va 24,5 % ini (411,5 ming kishi) Tojikistondan tashrif buyurganlar tashkil etgan. Davolanishga esa asosan ular Tojikiston (davolanish uchun kelgan jami ayollar sonidan 46,2 % ini tashkil etgan – 14,5 ming kishi), Qozog'iston (41,1 % – 12,9 ming kishi) va Qirg'iz Respublikasidan (11,1 % – 3,5 ming kishi) kelishgan.

Tijorat maqsadlarida ayollarning asosiy oqimi Tojikiston (tijorat uchun kelgan ayollarning umumiy sonidan 59,5 % ini tashkil etgan – 4,7 ming kishi), Afg'oniston (6,3 % – 0,5 ming kishi) va Qirg'iz Respublikasidan (5,1 % – 0,4 ming kishi) kelgan.

O'zbekiston Respublikasiga kelgan chet el fuqarolarining yoshi bo'yicha gender taqsimoti


(2022- yil yanvar-sentabr, ming kishi)

2022- yilning yanvar-sentabr oylarida O'zbekiston Respublikasiga kelgan chet el fuqarolarining yoshi bo'yicha taqsimlanish tahliliga ko'ra, ularning asosiy qismi 31-55 yoshdagilar – 48,9 % ni (1 755,2 ming kishi, shundan erkaklar – 48,5 % ni, ayollar – 51,5 % ni) tashkil etgan. 56 va undan katta yoshdagilar esa – 20,3 % ni (727,8 ming kishi, shundan erkaklar – 38,4 % ni, ayollar – 61,6 % ni), 19-30 yoshdagilar – 16,0 % ni (573,2 ming kishi, shundan erkaklar – 60,0 % ni, ayollar – 40,0 % ni), 0-18 yoshdagilar – 14,8 % ni (531,0 ming kishi, shundan erkaklar – 51,4 % ni, ayollar – 48,6 % ni) tashkil etganlar



O'zbekiston Respublikasiga kelgan chet el fuqarolarining yoshi, jinsi va safar maqsadlari bo'yicha taqsimlanishi

(2022- yil yanvar-sentabr, ming kishi)



2022- yilning yanvar-sentabr oylarida xizmat safari bilan asosan 31-55 yoshdagi (ushbu maqsad bilan jami kelganlar sonidan 69,0 % ni tashkil etgan) va 19-30 yoshdagi (15,3 %) chet el fuqarolari kelishgan.


O'qish maqsadida asosan 19-30 yoshdagi yoshlar kelgan bo'lib, ushbu maqsad bilan jami kelganlarning 56,4 % ini, shuningdek, 31-55 yoshdagilar – 25,6 % ni tashkil etganlar.

Bo'sh vaqtlarini o'tkazish va dam olish maqsadida asosan 31-55 yoshdagilar (ushbu maqsadda kelganlarning umumiy sonidan 53,3 % ini tashkil etgan) hamda 56 va undan katta yoshdagilar (20,2 %) kelgan.

Qarindoshlarni yo'qlash uchun kelganlarni asosan 31-55 yoshdagi (ushbu maqsaddagi jami sayohatlar sonidan 48,3 % ini tashkil etgan) hamda 56 va undan katta yoshdagilar (20,5 %) tashkil etgan.


Sog'lomlashtirish maqsadida yurtimizga asosan 31-55 yoshdagilar (ushbu maqsadda umumiy kelgan chet el fuqarolar sonidan 47,7 % ini tashkil etgan) hamda 56 yosh va undan kattalar (20,9 %) tashrif buyurgan.

Tijorat maqsadida esa O'zbekistonga kelgan chet elliklarning asosiy qismini 31-55 yoshdagilar (ushbu maqsaddagi umumiy safarlar sonidan 55,1 % ini tashkil etgan) va 0-18 yoshdagilar (17,3 %) tashkil etgan..



2022- yilning 9 oyi davomida xizmat safari, bo'sh vaqtlarini o'tkazish va dam olish, qarindoshlarni yo'qlash, davolanish hamda tijorat maqsadlarida asosan 31-55 yoshdagi erkaklar (ular xizmat safari bilan kelgan umumiy erkaklar sonidan 69,6 % ini, bo'sh vaqtlarini o'tkazish va dam olish maqsadida kelgan umumiy erkaklar sonidan 56,8 % ini, qarindoshlarni yo'qlashga kelgan umumiy erkaklar sonidan 47,3 % ini, davolanish maqsadida kelgan umumiy erkaklar sonidan 46,2 % ini va tijorat uchun kelgan umumiy erkaklar sonidan 47,9 % ini tashkil etganlar) kelgan.

O'qish maqsadida asosan 19-30 yoshdagi erkaklar kelgan bo'lib, ular yurtimizga ta'lim uchun kelgan erkaklarning 56,0 % ini tashkil etishgan.



2022- yilning yanvar-sentabr oylarida xizmat safari, bo'sh vaqtini o'tkazish va dam olish, qarindoshlarni yo'qlash, davolanish va tijorat maqsadlarida kelgan ayollar, erkaklar kabi, asosan 31-55 yoshda bo'lganlar (ular xizmat safari bilan kelgan umumiy ayollar sonidan 66,3 % ini, bo'sh vaqtini o'tkazish va dam olish maqsadida kelgan umumiy ayollar sonidan 48,3 % ini, qarindoshlarni yo'qlashga kelgan umumiy ayollar sonidan 49,1 % ini, davolanish maqsadida kelgan umumiy ayollar sonidan 48,7 % ini va tijorat uchun kelgan umumiy ayollar sonidan 59,5 % ini) tashkil etganlar.


O'qish maqsadida asosan 19-30 yoshdagi ayollar kelgan bo'lib, ular yurtimizga ta'lim uchun kelgan ayollarning 57,1 % ini tashkil etgan.

2-BO'LIM. TURISTIK MAQSADLARDA KETGAN O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI FUQAROLARI


Turistik maqsadlarda ketgan O'zbekiston Respublikasi fuqarolari

2022- yil yanvar-sentabr oylarida chet elga ketgan O'zbekiston Respublikasi fuqarolarining soni jami 3 875,9 ming nafarni tashkil etdi. MDH davlatlariga ketganlar soni 3 395,5 ming kishidan iborat bo'lib, bu jami ketganlarning 87,6 % ini tashkil etgan, boshqa davlatlarga esa 480,4 ming kishi (12,4 %) ketgan.

Chet elga ketgan respublikamiz fuqarolari sonining tahlili ularning 2019- yilning 9 oyligida (6 195,3 ming kishi) 2018- yilning shu davriga nisbatan (6 593,7 ming kishi) 398,4 ming kishiga (-6,0 %) kamayganini ko'rsatadi.




Xorijga chiqib ketgan O'zbekiston Respublikasi fuqarolari ²⁾ yanvar-sentabr oylari uchun, ming kishi



²⁾ Respublikadan ketganlarning umumiy sonida bir kishi bir necha marta hisoblanishi mumkin va bu alohida holat sifatida hisobga olinadi.


2020- yilda (1 639,5 ming kishi) turistik oqimi darajasi keskin pasayib, 2019- yilning shu davriga nisbatan 4 555,8 ming kishiga (-73,5 %) kamaygan. 2021- yilning yanvar-sentabr oylarida (1 446,2 ming kishi) chet elga ketgan turistlar soni pasayishda davom etib, 2020- yilning shu davriga nisbatan 193,3 ming kishiga (-11,8 %) kamayganligi qayd etildi.

O'z o'rnida, 2022- yil boshida jo'nab ketgan sayyohlar soni 2021- yilning shu davriga nisbatan oshganini kuzatish mumkin. Shunday qilib, 2022- yilning yanvar-sentyabr oylarida O'zbekistondan chiqib ketgan respublika fuqarolari soni 3 875,9 ming kishini tashkil etgan. 2021- yilning shu davriga nisbatan bu ko'rsatkich 2 429,7 ming kishiga, ya'ni 2,7 baravarga oshgan.




2021- yilning 9 oy davomida MDH davlatlariga ketgan respublika fuqarolari soni 2020- yilning shu davriga nisbatan 19,4 % ga kamaygan. Boshqa davlatlarga ketgan turistlar soni esa, aksincha, 89,9 % ga oshgan. 2022- yilning yanvar-sentabr oylarida MDH davlatlariga ketgan respublikamiz fuqarolari soni 2,8 barobarga, boshqa davlatlarga – 2,2 barobarga oshgan.

Safar maqsadlari bo'yicha chet elga ketgan
O'zbekiston Respublikasi fuqarolari
(2022- yil yanvar-sentabr, ming kishi)



2022- yilning 9 oyi davomida xizmat safarlari maqsadida chet elga ketgan O'zbekiston fuqarolari soni 11,2 ming nafar (respublikadan chiqib ketganlar umumiy sonidan 0,3 % i), o'qish maqsadida – 124,1 ming nafar (3,2 %), bo'sh vaqtni o'tkazish va dam olish uchun – 502,9 ming nafar (13,0 %), qarindoshlarni yo'qlash uchun – 3 200,8 ming nafar (82,6 %) hamda davolanishga – 36,9 ming nafarni (0,9%) tashkil etgan.




O'zbekiston fuqarolarining eng ko'p qismi MDH davlatlariga qarindoshlarini yo'qlash (3 131,0 ming kishi – MDH davlatlariga chiqib ketgan sayohatlarning umumiy sonidan 92,2 % i), shuningdek, bo'sh vaqtni o'tkazish va dam olish maqsadida (120,1 ming kishi – 3,6 %) ketgan. MDH davlatlariga ketgan sayohlarning eng kam qismi xizmat safarlari maqsadida chiqib ketganlarga to'g'ri keladi (7,8 ming kishi – 0,2 %).

Boshqa davlatlarga (MDH davlatlaridan tashqari) ketgan respublikamiz fuqarolariga kelsak, eng ko'p sayohatlar bo'sh vaqtni o'tkazish va dam olish (382,8 ming kishi – boshqa davlatlarga chiqib ketganlarning umumiy sonidan 79,7 % i) hamda qarindoshlarini yo'qlash (69,8 ming kishi – 14,5 %) maqsadida amalga oshirilgan. Eng kam sayohatlarning maqsadi esa, MDH davlatlariga ketganlar kabi, xizmat safarlariga to'g'ri kelgan (3,4 ming kishi – 0,7 %).

Xorij davlatlariga ketgan O'zbekiston Respublikasi fuqarolari


(2022- yil yanvar-sentabr, ming kishi)

2022- yil 9 oy davomida O'zbekiston Respublikasi fuqarolarining asosiy oqimi Qirg'iz Respublikasiga – 48,4 % (1877,1 ming kishi), Qozog'istonga – 20,0 % (774,2 ming kishi), Tojikistonga – 13,8 % (535,1 ming kishi), Turkiyaga – 6,2 % (239,0 ming kishi), Rossiyaga – 5,05 % (195,8 ming kishi), Birlashgan Arab Amirliklari (BAA)ga – 2,2 % (84,9 ming kishi), Saudiya Arabistoniga – 1,3 % (51,3 ming kishi), Misrga – 0,76 % (29,6 ming kishi), Janubiy Koreyaga – 0,44 % (17,0 ming kishi), AQSHga – 0,32 % (12,4 ming kishi), Hindistonga – 0,2 % (7,8 ming kishi), Quvaytga – 0,19 % (7,5 ming kishi), Gruzuyaga – 0,19 % (7,3 ming kishi), Ozarbayjonga – 0,18 % (7,0 ming kishi) va boshqa davlatlarga – 0,77 % (29,9 ming kishi) qayd etilgan.



2022- yilning yanvar-sentabr oylarida xizmat safari maqsadida O'zbekiston fuqarolarining asosiy qismi Qirg'iz Respublikasi – 2,5 ming kishi (xizmat safari maqsadida ketgan fuqarolarning 22,3 % i), Rossiya – 1,8 ming kishi (16,1 %) va Turkmanistonga – 1,5 ming kishi (13,4 %) ketgan. O'qish uchun asosan ular Qirg'iz Respublikasi – 47,2 ming kishi (38,0 %), Tojikiston – 41,8 ming kishi (33,7 %) va Rossiyaga – 11,8 ming kishi (9,5 %) chiqqan. Bo'sh vaqtini o'tkazish va dam olish uchun fuqarolar asosan Turkiya – 182,8 ming kishi (36,3 %), BAA – 76,9 ming kishi (15,3 %) hamda Rossiyaga – 73,9 ming kishi (14,7 %) ketgan. Qarindoshlarni yo'qlash ucun O'zbekiston fuqarolari asosan Qirg'iz Respublikasi – 1 799,6 ming kishi (56,2 %), Qozog'iston – 739,9 ming kishi (23,1 %) va Tojikistonga – 488,1 ming kishi (15,2%) chiqqishgan.



**Chet elga ketgan O'zbekiston fuqarolari sonining
safar maqsadlari bo'yicha taqsimlanishi**
2022- yil yanvar-sentabr, ming kishi



**Chet elga ketgan O'zbekiston Respublikasi fuqarolarining
jinsi bo'yicha taqsimlanishi**
(2022- yil yanvar-sentabr, ming kishi)


2022- yilning yanvar-sentabr oylarida turistik maqsadlarda chet elga ketgan O'zbekiston Respublikasi fuqarolarining 52,6 % ini (1748,3 ming kishi) erkaklar, 47,4 % ini (1838,9 ming kishi) ayollar tashkil etgan.

O'zbekistondan ketgan erkaklar va ayollar sonining tahlilidan shuni ko'rish mumkinki, 2018- yilning yanvar-sentabr oylarida chiqib ketganlar umumiy sonidan 49,99 % i erkaklarni, 50,01 % i esa ayollarni tashkil etgan.



2019- yilning shu davrida xorijga chiqib ketgan erkaklar soni kamayib, 48,9 % ni tashkil etgan, ayollar esa – 51,1 % ni. Ammo, 2020- yilning 9 oyligida erkaklar ulushi asta sekin o'sishni boshlagan. Shunda, 2020- yilning shu davrida erkaklar 54,6 % ni, ayollar esa 45,4 % ni tashkil etgan. 2021- yilda erkaklar – 56,2 % ni, ayollar – 43,8 % ni tashkil etishgan.

Chet elga ketgan O'zbekiston Respublikasi fuqarolari sonining safari maqsadlari bo'yicha gender taqsimoti




2022- yilning 9 oyigida O'zbekiston Respublikasidan ketgan erkaklarning umumiy sonidan 1 684,5 ming nafari (82,6 % i) qarindoshlarini yo'qlash maqsadida, 260,0 ming nafari (12,7 % i) – bo'sh vaqtini o'tkazish va dam olish uchun, 67,8 ming nafari (3,3 % i) – o'qishga, 17,4 ming nafari (0,9 % i) – davolanishga, 9,8 ming nafari (0,5 % i) – xizmat safari maqsadida chiqqanlar.

Ayollarga kelsak, ularning 1 516,3 ming nafari (ayollar umumiy sonidan 82,6 % i) qarindoshlarini yo'qlashga, 242,9 ming nafari (13,2 % i) bo'sh vaqtini o'tkazish va dam olish uchun, 56,3 ming nafari (3,1 % i) o'qish maqsadida, 19,5 ming nafari (1,1 % i) davolanish uchun va 1,4 ming nafari (0,1 % i) xizmat safari uchun ketganlar.


Xorij davlatlariga ketgan **ERKAKLAR** sonining safari maqsadlari bo'yicha taqsimlanishi (2022- yil yanvar-sentabr, ming kishi)

O'zbekistondan 2022- yilning yanvar-sentabr oylarida chet elga erkaklar asosan Qirg'iz Respublikasiga – 1 009,8 ming kishi (ularning umumiy sonidan 49,5 % ini tashkil etgan), Qozog'istonga – 397,3 ming kishi (19,5 %), Tojikistonga – 275,9 ming kishi (13,5 %), Rossiyaga – 111,3 ming kishi (5,5 %), Turkiyaga – 111,1 ming kishi (5,4 %), BAA – 45,0 ming kishi (2,2 %), Saudiya Arabistoniga – 23,6 ming kishi (1,2 %), boshqa davlatlarga – 65,5 ming kishi (3,2 %) ketgan.

2021- yilning shu davriga nisbatan tahlil qilinayotgan davrda respublikadan chiqib ketgan erkaklar soni 2,5 barobarga, xususan, BAAGA bo'lgan safarlar 62,0 % ga, Rossiyaga – 84,1 % ga, Qirg'iz Respublikasiga – 2,1 barobarga, Turkiyaga – 2,1 barobarga, Qozog'istonga – 4,4 barobarga, Tojikistonga – 4,7 barobarga, Saudiya Arabistoniga – 737,5 barobarga, boshqa davlatlarga – 98 % ga oshgan.




2022- yilning yanvar-sentabr oylarida chet elga erkaklar xizmat safari maqsadida asosan Qirg'iz Respublikasi (ushbu maqsadda chiqqan erkaklarning umumiy sonidan 23,5 % ini tashkil etgan – 2,3 ming kishi), Turkmaniston (15,7 % – 1,53 ming kishi) va Rossiyaga (15,4 % – 1,5 ming kishi) chiqqan. O'qish uchun – Qirg'iz Respublikasi (ushbu maqsadda chiqqan erkaklarning umumiy sonidan 36,4 % ini tashkil etgan – 24,7 ming kishi), Tojikiston (30,4 % – 20,6 ming kishi) hamda Rossiyaga (11,1 % – 7,5 ming kishi) ketgan. Dam olish va bo'sh vaqtlarini o'tkazish maqsadida Turkiyaga ketgan erkaklar, ushbu maqsadda chiqqan erkaklarning umumiy sonidan 32,8 % ini (85,3 ming kishi), Rossiyaga – 17,5 % ini (45,5 ming kishi) va BAAGA – 15,7 % ini (40,7 ming kishi) tashkil etgan.




Qarindoshlarini yo'qlash uchun esa erkaklar asosan Qirg'iz Respublikasi (ushbu maqsadda chiqqan erkaklarning umumiy sonidan 57,5 % ini tashkil etgan – 969,2 ming erkak), Qozog'iston (22,4 % – 376,9 ming erkak) va Tojikiston (15,0 % – 252,0 ming erkak) kabi qo'shni mamlakatlarga ketishgan. Davolanish uchun ular asosan Qirg'iz Respublikasi (ushbu maqsadda chiqqan erkaklarning umumiy sonidan 32,8 % i – 5,7 ming kishi), Turkiya (17,4 % – 3,0 ming kishi) va Rossiyaga (17,1 % – 2,97 ming kishi) ketgan.

**Xorij davlatlariga ketgan AYOLLAR sonining
safar maqsadlari bo'yicha taqsimlanishi**
(2022- yil yanvar-sentabr, ming kishi)

Chet elga chiqib ketgan ayollarning umumiy sonidan Qirg'iz Respublikasiga – 867,3 ming kishi (47,2 %), Qozog'istonga – 376,9 ming kishi (20,5 %), Tojikistonga – 259,2 ming kishi (14,1 %), Turkiyaga – 127,9 ming kishi (7,0 %), Rossiyaga – 84,5 ming kishi (4,6 %), BAAGA – 39,9 ming kishi (2,2 %), Saudiya Arabistoniga – 27,7 ming kishi (1,5 %), boshqa davlatlarga – 53,0 ming kishi (2,9 %) ketgan.



2021- yilning shu davriga nisbatan tahlil qilinayotgan davrda respublikadan chiqib ketgan ayollar soni 2,9 barobarga, xususan, BAAGA bo'lgan safarlar 75,8 % ga, Turkiyaga – 94,6 % ga, Rossiyaga – 2,1 barobarga, Qirg'iz Respublikasiga – 2,7 barobarga, Qozog'istonga – 3,5 barobarga, Tojikistonga – 5,1 barobarga, Saudiya Arabistoniga – 1 457,9 barobarga, boshqa davlatlarga – 2,2 barobarga oshgan.



2022- yilning yanvar-sentabr oylarida xizmat safari maqsadida ayollar asosan Turkiya (ushbu maqsadda chiqqan ayollarning umumiy sonidan 20,2 % i – 0,3 ming nafar), Rossiya (17,6 % i – 0,25 ming nafar) va Qirg'iz Respublikasiga (14,8 % i – 0,2 ming nafar) sayohat qilganlar. O'qishga ketgan ayollarning asosiy qismi Qirg'iz Respublikasi (ushbu maqsadda chiqqan ayollarning umumiy sonidan 40,0 % i – 22,5 ming kishi), Tojikiston (37,7 % i – 21,2 ming kishi) va Qozog'istonga (8,0 % i – 4,5 ming kishi) chiqqan.


Dam olish va bo'sh vaqtlarini o'tkazish maqsadida Turkiyaga ketgan ayollar, ushbu maqsadda chiqqan ayollarning umumiy sonidan 40,1 % ini (97,5 ming kishi), BAAga – 14,9 % ini (36,2 ming kishi) va Rossiyaga – 11,7 % ini (28,4 ming ayol) tashkil etganlar.

Qarindoshlarini yo'qlash uchun ayollar asosan qo'shni davlatlarga, xususan, Qirg'iz Respublikasiga (ushbu maqsadda chiqqan ayollarning umumiy sonidan 54,8 % i – 830,4 ming kishi), Qozog'istonga (23,9 % – 363,0 ming kishi) va Tojikistonga (15,6 % – 236,1 ming kishi) sayohat qilganlar. Davolanish uchun ular asosan Qirg'iz Respublikasi (ushbu maqsadda chiqqan ayollarning umumiy sonidan 32,8 % i – 6,4 ming kishi), Turkiya (20,5 % – 4,0 ming kishi) va Rossiyaga (19,0 % – 3,7 ming kishi) ketganlar.

Chet elga ketgan O'zbekiston Respublikasi fuqarolari sonining yoshi bo'yicha gender taqsimoti (2022- yil yanvar-sentabr, ming kishi)


2022- yilning yanvar-sentabr oylarida xorijga chiqqan O'zbekiston fuqarolarining yoshi bo'yicha taqsimlanishi tahliliga ko'ra, ularning asosiy qismi 31-55 yoshdagilar – 46,1 %, bu 1 787,7 ming kishidan iborat bo'lib, shundan erkaklar – 50,7 % (906,6 ming kishi), ayollar – 49,3 % (881,1 ming kishi)ni tashkil etgan.

Respublikamizdan chiqib ketgan 19-30 yoshdagi fuqarolar 24,2 % ni – 937,0 ming kishi, shundan erkaklar – 67,8 % ni (635,0 ming kishi), ayollar esa – 32,2 % ni (302,0 ming kishi) tashkil etganlar.




56 va undan katta yoshdagi fuqarolar 17,2 % ni (668,6 ming kishi), shulardan erkaklar – 35,4 % ini (236,6 ming kishi), ayollar 64,6 % ini (432,0 ming kishi) tashkil etdilar. Yurtimizdan chiqib ketgan 0-18 yoshli bolalar – 12,5 % ni (482,6 ming kishi), shundan o'g'il bolalar – 54,1 % (261,3 ming kishi), qizlar – 45,9 % (221,3 ming kishi)ni tashkil etdilar.

Chet elga ketgan O'zbekiston Respublikasi fuqarolarining yoshi, jinsi va safar maqsadlari bo'yicha taqsimlanishi (2022- yil yanvar-sentabr, ming kishi)




2022- yilning yanvar-sentyabr oylarida xizmat safari maqsadida asosan 31-55 yoshdagi (ushbu maqsadda chiqqanlarning umumiy sonidan 67,9 % ini tashkil etgan) va 19-30 yoshdagi (19,6 %) O'zbekiston fuqarolari chet elga ketgan. Ta'lim olish uchun asosan 19-30 yoshdagi yoshlar (o'qish maqsadida ketganlarning umumiy sonidan 75,7 % ini tashkil etgan), shuningdek, 0-18 yoshdagi bolalar (13,5 %) ketgan. Bo'sh vaqtini o'tkazish va dam olish maqsadida asosan 31-55 yoshdagi (ushbu maqsadda chiqqanlarning umumiy sonidan 46,2 % i) hamda 56 va undan katta yoshdagi (19,4 %) fuqarolarimiz xorijga chiqqan. Qarindoshlarni yo'qlash uchun asosan 31-55 yoshdagilar (ushbu maqsadda chiqqanlarning umumiy sonidan 47,5 % i) va 19-30 yoshdagi yoshlar (23,1 %) jo'nab ketgan. Salomatligini mustahkamlash maqsadida asosan 31-55 yosh (ushbu maqsadda chiqqanlarning umumiy sonidan 43,1 % i), 56 va undan katta yoshdagi (21,4 %) fuqarolarimiz xorijga chiqqan.



2022- yilning 9 oy davomida asosan 31-55 yoshdagi erkaklar chet elga chiqqan bo'lib, barcha ketgan erkaklar sonidan 44,5 % ini tashkil etgan. 19-30 yoshdagi erkaklar – 31,1 % ni, 56 yosh va undan kattalar – 11,6 % ni, 0-18 yoshli o'g'il bolalar – 12,8 % ni tashkil etgan.

2022- yil yanvar-sentabr oylarida xizmat safari, bo'sh vaqtini o'tkazish va dam olish, qarindoshlarni yo'qlash va davolanish maqsadlarida, asosan, 31-55 yoshdagi erkaklar (xizmat safariga chiqqan erkaklarning umumiy sonidan 69,4 % i, bo'sh vaqtini o'tkazish va dam olish uchun chiqqan erkaklarning umumiy sonidan 48,4 % i, qarindoshlarini yo'qlashga chiqqan erkaklarning umumiy sonidan 45,3 % i, davolanish uchun chiqqan erkaklarning umumiy sonidan 42,0 % i) xorijga ketganlar.

Shu bilan birga, bilim olish maqsadida respublikadan chiqib ketgan erkaklarning salmoqli qismi 19-30 yoshdagilar bo'lgan, bu esa o'qish uchun ketgan erkaklar umumiy sonidan 80,1 % ini tashkil etgan.



2022- yilning 9 oyligida, erkaklar kabi, asosan 31-55 yoshdagi ayollar chet elga chiqqan bo'lib, barcha ketgan ayollar sonidan 48,0 % ini tashkil etgan. 56 yosh va undan katta yoshdagi ayollar – 23,5 % ni, 19-30 yoshdagilar – 16,4 % ni, 0-18 yoshli qizlar – 12,1 % ni tashkil etgan.

2022- yilning ushbu davrida xizmat safari, bo'sh vaqtini o'tkazish va dam olish, qarindoshlarni yo'qlash hamda davolanish maqsadlarida, asosan, 31-55 yoshdagi ayollar (xizmat safariga chiqqan ayollarning umumiy sonidan 57,1 % i, bo'sh vaqtini o'tkazish va dam olish uchun chiqqan ayollarning umumiy sonidan 43,8 % i, qarindoshlarini yo'qlashga chiqqan ayollarning umumiy sonidan 49,9 % i, davolanish uchun chiqqan ayollarning umumiy sonidan 44,1 % i) xorijga ketishgan. Shu bilan birga, bilim olish maqsadida respublikadan chiqib ketgan ayollarning salmoqli qismi 19-30 yoshdagilar bo'lgan, bu esa o'qish uchun ketgan ayollar umumiy sonidan 70,5 % ini tashkil etgan.

Shuningdek, 2022- yilning 9 oyi davomida o'qish maqsadida chiqqan 31-55 yoshdagi fuqarolar orasida ayollar soni (9,3 ming kishi) erkaklar soniga (3,8 ming kishi) nisbatan 2,4 barobarga ko'proq bo'lgan ushbu maqsadda ketgan 56 yosh va undan kattalar orasida ham ayollar soni erkaklar sonidan 2 baravarga ortgan (ayollar – 0,2 ming kishi, erkaklar – 0,1 ming kishi). Respublikadan bo'sh vaqtini o'tkazish va dam olish maqsadida chiqib ketgan 56 va undan katta yoshdagilar orasidan ayollar soni (63,3 ming kishi) shu yoshdagi erkaklar sonidan (34,3 ming kishi) 1,8 barobarga oshgan. Xorijdagi qarindoshlarni yo'qlashga ketgan shaxslarda ham shunday holat kuzatilgan. 56 va undan katta yoshdagi ayollar soni (363,2 ming kishi) shu yoshdagi erkaklar sonidan (198,6 ming kishi) oshib ketgan. Dam olish maqsadida ketgan shaxslarga kelsak, 31-55 yoshdagi ayollar (8,6 ming kishi) shu yoshdagi erkaklar sonidan (7,3 ming kishi) hamda 56 va undan katta yoshdagi ayollar (5,1 ming kishi) erkaklar sonidan (2,8 ming kishi) oshib ketgan.

Statistik ko'rsatkichlarga izohlar

Turizm – jismoniy shaxsning vaqtincha bo'lish mamlakatidagi (joyidagi) manbalardan daromad olish bilan bog'liq bo'lgan faoliyat bilan shug'ullanmagan holda doimiy yashash joyidan jo'nab ketishi (sayohat qilishi).

Turist – vaqtincha bo'lish mamlakatidagi (joyidagi) manbalardan daromad olish bilan bog'liq bo'lgan faoliyat bilan shug'ullanmagan holda, vaqtincha bo'lish mamlakatiga (joyiga) yigirma to'rt soatdan ketma-ket o'n ikki oygacha bo'lgan davrga boruvchi yoki vaqtincha bo'lish mamlakatida (joyida) kamida bir kecha tunab qoluvchi jismoniy shaxs.

Kiruvchi turizm – ko'rilayotgan mamlakat doimiy yashovchisi bo'lmagan tashrif buyuruvchining kiruvchi sayyohlik safari vaqtidagi ushbu mamlakat doirasidagi faoliyatini o'z ichiga oladi.

Chiquvchi turizm – ko'rilayotgan mamlakat doimiy yashovchisi bo'lgan tashrif buyuruvchining ushbu mamlakat doirasidan tashqariga chiquvchi yoki ichki sayyohlik safariga doir faoliyatini o'z ichiga oladi.

Do'stlarni va qarindoshlarni ko'rgani borish – bu toifa o'z ichiga, qarindoshlar yoki do'stlarnikiga tashrif buyurish; to'ylarga, dafn marosimlari yoki boshqa har qanday oilaviy tadbirlarga tashrif buyurish; bemor yoki qariyalarni qisqa muddat davomida parvarishlash va boshqalar kabi faoliyat turlarini qamrab oladi.

Ta'lim va kasbiy tayyorgarlik – bu toifaga, ish beruvchi yoki boshqa tashkilotlar, shaxslar tomonidan to'lanadigan qisqa muddatli kurslarga qatnash, to'lov asosida o'qish, tillarni o'rganish, kasbiy yoki boshqa maxsus kurslar, ilmiy ta'tillarni qo'shgan holda muayyan o'quv dasturlarini o'tish yoki kurslarda muayyan malakaga ega bo'lish va hokazolar kiradi.

Davolanish va sog'lomlashtirish muolajalari – bu toifa kasallanishdan keyingi qo'shimcha davolanish maqsadida shifoxonalar, klinikalar, sanatoriyalar, umumiy spektrdagi tibbiy va ijtimoiy muassasalar xizmatidan foydalanish, dengiz va boshqa kurortlarga, shuningdek, tibbiy xizmatdan foydalanish uchun tibbiy uskuna va xizmatlarga asoslangan kosmetik jarrohlikni qo'shgan holda, tibbiy maslahatga asoslangan boshqa ixtisoslashgan muassasalarga qatnashni o'z ichiga oladi. Bu toifa faqat qisqa muddatli davolanishdan iborat, chunki, davolash muassasasida bir yil va undan ortiq vaqt davomida yotib uzoq muddat davolanish sayyohlik sohasiga kirmaydi.

Ishga doir va kasbiy maqsadlar – ushbu toifaga, mustaqil ravishda band bo'lgan shaxslar va yollanma ishlovchilar faoliyati, agarda ular bilan tashrif buyurilayotgan mamlakat yoki joydagi ishlab chiqaruvchi-rezident o'rtasida aniq yoki nazarda tutilgan yollanma mehnat munosabatlari belgilari mavjud bo'lmasa, sarmoyadorlar, ishbilarmonlar va hokazolar faoliyati kiradi.

Ma'lumot uchun: O'zbekiston Respublikasi Davlat xavfsizlik xizmati Chegara qo'shinlarining O'zbekiston Respublikasiga tashrif buyurgan chet el fuqarolari to'g'risidagi ma'lumotlari asosida shakllantiriladi. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi huzuridagi Davlat Personallashtirish markazining chet elga ketgan O'zbekiston Respublikasi fuqarolari to'g'risidagi ma'lumotlari asosida shakllantiriladi.